10. Хайруллин Н.Ш., Гумарова Г.А. Применение органического марганца и органического цинка в гусеводстве // Вестник Башкирского государственного аграрного университета, 2013. - № 3. –С. 81-83.
11. Dilmurodov N.B., Doniyorov Sh.Z. Broiler jo'jalar son suyagi tarkibidagi kul va umumiy organik moddalar miqdorining postnatal ontogenezda o'zgarishi // Veterinariya meditsinasi. ISSN 2091-554-3. 2021. № 5. В-27-29.

## GOLSHTIN ZOTLI SIGIRLAR REPRODUKTIV FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISHDA "VILOFOSS" OZUQAVIY QO'SHIMCHA SAMARADORLIGINI O'RGANISH

**Annotatsiya:** Maqolada Golshtin zotli sigirlar reproduktiv faoliyatini rag'batlantirishda "VILOFOSS" ozuqaviy qo'shimcha samaradorligini o'rganish bayon qilingan.

**Резюме:** В статье описано исследование эффективности пищевой добавки «ВИЛОФОСС» в стимуляции воспроизводительной активности коров голштинской породы.

**Abstract:** The article describes a study of the effectiveness of the food additive "VILOFOSS" in stimulating the reproductive activity of Holstein cows.

**Kalit so'zlar:** Golshtin zotli, reproduktiv, dispanser, bo'g'ozligi, genofond, rag'batlantirish, VILOFOSS, ratsion, makka silosi, bug'doy somoni, paxta sheluxasi, paxta shroti, omuxta yem, osh tuzi, beda pichani, yo'ldosh, bachadon subinvolyusiyasi, tuxumdonlar gipofunksiyasi, sariq tanasi, endometrit.

**Ключевые слова:** голштинская порода, воспроизводство, профилакторие, стерилизация, генофонд, стимул, ВИЛОФОСС, рацион, кукурузный силос, пшеничная солома, хлопковая шелуха, хлопковая мука, мягкий корм, поваренная соль, люцерновое сено, плацента, субинволюция матки, гипофункция яичников, желтое тело, эндометрит.

**Key words:** Holstein breed, reproduction, preventorium, sterilization, gene pool, stimulus, VILOFOSS, diet, corn silage, wheat straw, cotton husk, cotton flour, soft feed, table salt, alfalfa hay, placenta, subinvolution of the uterus, ovarian hypofunction, corpus luteum, endometritis.

**Mavzuning dolzarbligi.** Oxirgi yillarda qoramolchilik fan yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida rivojlantirish maqsadida naslchilik ishiga, ozuqa bazasini mustahkamlashga va mahsulot ishlab chiqarish hamda uni qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratildi. Dunyo genofondiga xos xo'jalikga foydali belgilari bilan boshqa zotlardan keskin farq qiladigan Golshtin, Simmental, Shvits kabi zotlar mamlakatimizning turli hududlariga xorijdan keltirilmoqda. Joylarda qoramolchilikka ixtisoslashgan zamonaviy fermer xo'jaliklari bunyod etilyapti. Bularga qaramasdan xo'jaliklardagi mahsuldor sigirlar orasida reproduktiv a'zolar kasalliklari va funksiyalarining buzulishi oqibatida bepushtliklarning kuzatilishi mahsuldorlik va sigirlardan bola olishning kamayishi, yuqori mahsuldor hayvonlardan xo'jalikda foydalanish muddatlarining qisqarishi hisobiga katta iqtisodiy zararga sabab bo'lmoqda.

**Tadqiqot materiallari va uslublari.** Ilmiy-tadqiqot ishlari Buxoro viloyati Qorako'l tuman "Barxayot Muhammad Rajab" chorvachilik fermer xo'jaligida 120 bosh qoramollarda akusher-ginekologik dispanser tekshirish ishlari olib borilib tekshirishlar davomida sigirlarni oylar bo'yicha bo'g'ozligi va yaqinda qoch-

gan, tuqqalari hamda bepushtlari ajratilib alohida guruh qilib davolash ishlarini olib borildi. 50 bosh sigir har xil ginekologik kasalliklar bilan kasallanganligi 19 bosh endometrit bilan kasallangan, 13 bosh sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishi, 5 bosh sigirlarda tuxumdonlar gipofunksiyasi, 13 bosh sigirlarda bachadon subinvolyusiyasi bilan zararlanganligi aniqlandi va davoland. Bizlar aynan shu chorvachilik fermer xo'jaligida "Golshtin zotli sigirlarda reproduktiv faoliyatini rag'batlantirish usullarini takomillashtirish" mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda tajriba uchun tuqqaniga 15-20 kun bo'lgan 40 bosh Golshtin zotli sigirlar tanlab olindi ularni akusher ginekologik dispanser tekshirishlardan o'tkazib ozuqa ratsioniga "VILOFOSS" ozuqa qo'shimchasini qo'shib oziqlantirib sinovdan o'tkazdik. Tajribada 20 bosh va nazoratda 20 bosh yangi tuqqaniga 15-20 kun bo'lgan sigirlar tajribada bo'lgan 20 bosh sigirlar ozuqasiga har bir boshga 100 gr dan "VILOFOSS" oziqa qo'shimchasi qo'shib sinovdan o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalari.** Nazoratda bo'lgan 20 bosh sigirlar xo'jalik ratsioni asosida boqildi ozuqa qo'shimchasi qo'shilmadi. Tajribada va nazoratda bo'lgan sigirlarni tana harorati, yurak urishi, pulslar soni, katta

qorin harakati, nafas olishi, teri va junning holati, oyoq va tirnoqlar holati, tekshirishlardan o'tkazilib yozib bo'ldi.

Nazorat guruhida bo'lgan sigirlarga xo'jalik ratsionidagi ozuqalar bilan oziqlantirildi xo'jalik ratsionidagi ozuqalar makka silosi, bug'doy somoni, paxta sheluxasi, paxta shroti, omuxta yem, osh tuzi, beda pichani va hokoza. Nazoratda bo'lgan 20 bosh sigirlardan 13 bosh sigirlarda ginekologik kasalliklarni namoyon bo'lganligi shuning bilan birgalikda sigirlarda kuyga kelishning 45-50 kunga cho'zilganligi tajribalarda yaqol namoyon bo'ldi.

Tajriba guruhida bo'lgan 20 bosh sigirlarga xo'jalik ratsionidagi ozuqalariga "VILOFOSS" ozuqa qo'shimchasidan har bir bosh sigirga 100 grammdan aralastirib berildi bu guruhdagi sigirlarda 9 boshida bachadon subinvolusiyasi 25-30 kunga cho'zilib kuyga kelib, otalanishi (servis davri) 60-65 kun tashkil etdi tajribadan ko'rinib turibdiki ozuqaviy qo'shimcha hayvon organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatib fiziologik holatning meyor doirasida namoyon bo'lishga asos bo'ldi.

"VILOFOSS" ozuqa qo'shimchasining tarkibidagi vitamin va minerallar organizmga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi. Kalsiy tirik organizmda avvalo plastik material sifatida sarflanadi, hayvon organizmida bo'ladigan kalsiyning 97-99% suyak to'qimasi tarkibiga kiradi. Nerv va muskul to'qimalarining qo'zg'aluvchanligini ta'minlaydi, qon tomirlar o'tkazuvchanligini kamaytiradi, leykotsitlarning fagotsitar funksiyasini kuchaytirib, organizmning himoya funksiyasini oshiradi, magniy sog'lom organizmlar suyak to'qimasi tarkibida magniy fosfati ko'rinishida bo'ladi. Muskul oqsillari aktin va miozin bilan birikib, muskullar qisqarishini ta'minlaydigan oqsilli birikmasini hosil qilishida ishtirok etadi, mis oqsil birikmalari va fermentlar tarkibiga kiradigan muhim mikroelement hisoblanib organizmdagi fermentlar uchun aktivator va paralizator ta'sir ko'rsatadi, jigar va taloqda to'planadi. Hayvon organizmida qon aylanishi va gemoglobin sintezida, qon hosil bo'lishida ishtirok etadi. Junlar pigmentatsiyasi, osteogenez jarayonlarida qatnashadi hamda hayvonlarning ko'payish funksiyalariga ta'sir etadi. Oshqozon oldi bo'lmalarida mikrofloralar faoliyatini yaxshilaydi, teri qoplamasining pigmentatsiyasi va keratinizatsiyasini fiziologik sog'lom kechishini ta'minlaydi. Fermentlar aktivligi, uglevodlar almashinuvini yaxshilaydi va glyukoza oksidlanishini tezlashtiradi, marganes hayvonlarning ko'payish organlar funksiyalari va o'sish jarayonlariga

ta'sir etadi. Organizmda oksidlanish jarayonlarini yaxshilaydi. Kislorod bilan ta'minlanishi, glikogen sintezi, yog'larni utilizatsiya qilinishini tezlashtiradi. Suyak to'qimasining rivojlanishi va ko'payish organlar funksiyasini rag'batlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, fosfor ko'p miqdori fosfor-kalsiyli birikmalar shaklida suyak va suyuq biriktiruvchi to'qima qon tarkibida bo'ladi. Fosfor yetishmovchiligida: osteodistrofiya, bachadon subinvolusiyasi, qalqonoldi bezining gipofunksiyasi, buyrakning shikastlanishi, muskullar tonusining pasayishi, buzoqlarning nimjon tug'iladi, Fosfat kislotatuzlari barcha hujayralar va hujayralararo suyuqliklar tarkibiga kiradi. Organizmda kechayotgan oqsillar, lipidlar, uglevodlar, vitaminlar almashinuvida ishtirok etadi, E vitamini organizmda sintezlanmasdan faqatgina ozuqalar va yog'lar tarkibida yoki yog'li preparatlari bilan tokoferollar holida tushadi. E vitamini antioksidant bo'lganligi uchun yog'larni oksidlanishdan saqlaydi va shuningdek A, D vitaminlarini, karotinni buzilishdan saqlaydi va organizm to'qimalarida to'planib turishini ta'minlaydi. E vitamini ishtirokida A, D vitaminlari va karotinni o'zlashtirilishi yaxshilanadi. E vitamini ichak devori orqali o'tib, yog' to'qimasiga adsorbsiyalanish va zahira holida to'planib turish xususiyatiga ega. Tokoferolni ozuqalarda yetishmasligi E gipovitaminozga sabab bo'lib, sigirlar va qo'ylarda ko'payish funksiyalarning yomonlashishi, jinsiy xujayralar yetilishining to'xtab qolishi, embrionni o'limi, bir necha marta urug'lantirilishiga qaramasdan hayvonlarni bepusht va qisir qolishi bilan xarakterlanadi.

**Xulosa** Tajribadan shu xulosa kelib chiqadikim sutdan chiqarilgan sigirlar ozuqa ratsioniga "VILOFOSS" ozuqa qo'shimchasidan xar bir bosh sigirga 100 grammdan qo'shib berilsa sigirlarni tug'ish jarayonini yengil kechishi tuqqandan keyingi kasalliklardan (yo'ldosh ushlanib qolishi, bachadon subinvolusiyasi, tuxumdonlar gipofunksiyasi va sariq tanasi, endometritlar va bosh.) profilaktika qiladi va sigirlarni kuyga kelib otalanishi 2 oydan oshmasligiga erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Qo'ldoshev O.U. Sigirlarning qisir qolishini davolash va oldini olish chora-tadbirlari. Zooveterinariya.- Toshkent. 2016 yil.- № 12. 31-33 bet.
2. Qo'ldoshev O.U. Mollar pushtsizligining oldini olishda biologik preparatlarning ahamiyati.



3. Qo'ldoshev O.U., Isayev M.T. Sigirlardan buzoq olishni ko'paytirish omillari. Veterinariya meditsinasi.- Toshkent. 2018 yil. №6. 32-33 bet.

4. Qo'ldoshev O.U. Murtazin B.F., Boboev T.M. Lecheniya i profilaktika akushersko-ginekologicheskix zabolevaniy korov polimernymi soedineniyami anti-septicheskix preparatov. To'rtinchi xalqaro ilmiy konferensiya O'zVITI. Samarqand 2011 yil.

5. Sh.B.Ata-Kurbanov, B.M.Eshbo'riev. Hayvonlar qo'payish biotexnikasi Sam QXI . Samarqand 2012 yil.

6. Qo'ldoshev O.U., Mavlanov S.I. Sigirlar qisir qolishining oldini olish. Zooveterinariya № 9. s 19-20. 2012 yil.

7. Qo'ldoshev O.U., Mavlanov S.I. Sigirlar akusher-ginekologik kasalliklarini davolash. Zooveterinariya № 10.s 33-34. 2012 yil.

8. B.M.Eshburiyev professor., B.S.Alimov mustaqil tadqiqotchi., F.Ro'ziqulov talaba "Mahsuldor sigirlar reproduktiv xususiyatlarini stimullashning zamonaviy usullari" Veterinariya meditsinasi 5-son 2021. 24 bet

9. B.Tursunaliyev tayanch doktorant., Q.N.Norboev professor "Sog'in sigirlarda subklinik ketozni oldi-

ni olish usullari" Veterinariya meditsinasi 11-son 2022. 22 bet.

10. Eshburiyev B.M professor, B.Ch.Soliyev mustaqil tadqiqotchi "Mahsuldor sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi oqibatidagi bepushtliklarning profilaktikasi" Veterinariya meditsinasi 10-son 2022. 15 bet.

11. S.A.Suvanov tayanch doktorant "Mahsuldor sigirlarda persistent sariq tana kasalligining sabablari va ultratovushli tekshirish (UTT) diagnostikasi" Veterinariya meditsinasi 8-son 2022. 29 bet.

12. B.Ch.Soliyev mustaqil tadqiqotchi., B.M.Eshburiyev professor "Mahsuldor sigirlarda yod va rux yetishmovchiligi oqibatidagi bepushtliklarning prof ilaktikasi" Veterinariya meditsinasi 4-son 2022. 21 bet.

13. Sh.Q.Baliyev v.f.n., S.A.Suvanov tayanch doktorant "Mahsuldor sigirlarda endometritni davolashning zamonaviy usullari" Veterinariya meditsinasi 7-son 2022. 27 bet.

14. Дубинин Алексей Владимирович "Профилактика акушерско-гинекологических заболеваний коров с использованием композитсионного средства «Био-ФАЯЛ»" Диссертация кан.вет.наук 2020 46-47 ст.



Расулов Уткир Илашович, доктор вет. наук, доцент,  
Суюнов Рашид Уктамович, ассистент,  
Боймуратова Хонзода, магистрант 2 курса,  
Самаркандского государственного ветеринарного медицинского  
университета животноводства и биотехнологии,  
Баратов Джахангир Нурмухаммадиевич,  
Ташкентский филиал Самаркандского государственного ветеринарного  
медицинского университета животноводства и биотехнологии

## ПРОДУКТ С ВЫСОКОЙ ПИЩЕВОЙ ЦЕННОСТЬЮ

**Аннотация.** В данной статье приведены сведения о химическом составе молока, витаминах, аминокислотах, белках и других веществах содержащихся в молоке, на основе литературных сведений о молоке, полученном от сельскохозяйственных животных (преимущественно крупного рогатого скота).

**Ключевые слова.** Молоко, витамины, ферменты, белки, аминокислоты, альбумины, глобулины.

**Введение.** Большой объем научных и практических знаний о молоке, обнаруженный до сих пор, позволяет нам правильно оценить это богатство, имеющее неопределимую ценность для человечества. Наряду с зелеными листьями растений и коконом тутового шелкопряда молоко по праву можно назвать одним из семи чудес земли. Из компонентов материнской крови образуется нечто новое, необходимое для восстановления вновь образовавшейся жизни. Следовательно, физиологическая функция молока – удовлетворение всех потребностей живого организма. В связи с этим природа проявила к молоку особую заботу, и это не случайно. Он наполнил молоко биологически активными веществами и, настоявшись, отдал их ему в самых полезных пропорциях.

По словам исследователя К. В. Марковой, количество лактозы в молоке коров основных пород, откармливаемых в стране, составляет 4,5-5%. Ее количество менее 4,5% считается недостаточным. За период проверки количество общего сухого вещества в молоке колебалось от 11,6% до 12,66% в отдельных республиках и в среднем составляло 11,93%.

Коровье молоко в основном используют в пищу. Около 95 процентов молока, потребляемого населением, является коровьим.

По современным научным данным, молоко содержит более 200 ценных компонентов, 20 аминокислот в удобном балансе, более 147 жирных кислот, молочный сахар (лактоза), различные минералы, микроэлементы, все известные сейчас виды витаминов, пигменты, фосфатиды. В состав входят стероиды, ферменты, гормоны и другие вещества, необходимые организму для поддержания нормальной жизнедеятельности. Молоко содержит больше всего углеводов, жиров, белков и минеральных солей. Витамины, ферменты, микроэлементы, гормо-

ны, иммунные тела и другие вещества, присутствующие в небольших количествах, обладают высоким уровнем биологической активности и играют чрезвычайно важную роль в питании человека. Состав молока варьируется. Это зависит от ряда факторов: состояния здоровья животного, условий его кормления и содержания, породы и индивидуальных особенностей коров, возраста и условий содержания, способа доения и того, как осуществляется контроль за его качеством. организован. В результате изучения качества молока, поставляемого на молокоперерабатывающие предприятия, установлено, что содержание жира в молоке в среднем составляет 3,55%, в некоторых регионах это количество уменьшается и составляет 3,36-3,8%. Содержание общего белка в молоке также колебалось в отдельных регионах от 2,96% до 3,3%. Количество основного белка (казеина) варьировало от 2,09 до 2,79 %, количество сывороточных белков — от 0,42 до 0,51 %, количество небелковых азотистых веществ — от 0,17 до 0,38 %. Содержание лактозы колебалось от 4,40% до 4,80%, в среднем 4,62%.

Химический состав молока. В последнее время появилось четкое представление о том, что самым ценным компонентом молока являются белки. Эти белки полезнее белков мяса и рыбы и быстрее перевариваются. Основная функция белков — создание новых клеток и тканей у растущих молодых организмов и замена старых клеток у взрослых.

Белки молока в основном состоят из трех типов белков: казеина, альбумина и глобулина. В сыром молоке они растворяются. В среднем 76-88% всего белка в молоке составляет казеин. Казеин — основной компонент творога, изделий из него и глазури. Альбумина в молоке в 6 раз меньше, чем казеина. Молоко содержит глобулин в количестве 0,1%, но оно обладает антибиотическими и иммунными свойствами и служит источником антител, защища-

ющих организм от инфекционных заболеваний. Все молочные белки полны ценности.

Минеральные вещества. Буквально говоря, в молоке включены все элементы периодической таблицы Менделеева. Молоко содержит соли кальция, калия, магния, натрия, железа, соли нитратной, фосфорной и соляной кислоты, а также ряд других веществ. Все они легко усваиваются молоком.

Энергетические вещества молока. Молочный сахар – это лактоза. Молоко содержит в среднем 4,62% лактозы. Это важно для физиологии развития и питания. Это важно. Лактоза – единственный углевод, который новорожденное млекопитающее потребляет с пищей. Он имеет несколько особенностей. В частности, в кишечнике медленно расщепляется лактоза, под ее влиянием ограничиваются воспалительные процессы в кишечнике, нормализуется жизнедеятельность полезной микрофлоры кишечника. В медицине лактозу применяют как слабительное средство. Его сладость в 6-7 раз меньше, чем у белого сахара, и этим свойством он отличается от него. Физиологическое значение лактозы состоит в том, что она является веществом, оздоравливающим нервную систему и осуществляющим профилактическое и лечебное действие при сердечно-сосудистых заболеваниях. Усвоение лактозы составляет 98%.

Молочный жир биологически наиболее ценен из всех. Он содержит более 147 жирных кислот из всех известных жирных кислот. Среди них есть незаменимые, которые не синтезируются самим организмом, но должны поступать в организм человека с пищей. В других жирах, полученных из животных и растений, количество кислот не превышает 5-7. Очень важно, что молочный жир содержит полунасыщенные жирные кислоты, предотвращающие атеросклероз.

Регуляторные вещества. Витамины. Это биологически активные соединения – незаменимые питательные вещества. Лунин впервые открыл их в 1882 году. Витамины участвуют во всех важных для жизнедеятельности процессах в организме. В настоящее время известно более 30 витаминов, все они также присутствуют в молоке.

Молоко содержит ферменты. Липаза – фермент, расщепляющий жиры. Синтез в молочной железе происходит спонтанно и переходит в молоко как продукт жизнедеятельности бактерий. Лактаза вырабатывается преимущественно молочнокислыми микроорганизмами. Этот фермент контролирует расщепление молочного сахара – лактозы на глюкозу и галактозу, глюкоза и галактоза необходимы для нормального функционирования печени. Фосфатаза

участвует в функции движения мышц, в том числе сердечной, в кроветворении, костеобразовании, частично контролирует обмен веществ. Этот фермент содержится только в сыром молоке, поскольку он разрушается при приготовлении или пастеризации молока.

В молоке содержатся овечьи гормоны: адреналин, инсулин, тироксин, пролактин, окситоцин и др. Молоко содержит множество других полезных веществ, которые участвуют в обменных процессах, укрепляют сопротивляемость организма болезням, борются с вредными микроорганизмами в кишечнике. К ним относятся антибиотические вещества, иммунные тела, опсоины, лизоцимы, лактеин и другие. Я. П. Павлов называл молоко несравненным, бесценным пищевым продуктом. В правильности его оценки молока можно убедиться из этого неполного описания состава и свойств молока. По данным Института питания ВАНН, среднестатистический взрослый человек потребляет в год 172 кг цельного молока или напитков на его основе, 5,5 кг сливочного масла, 5,5 кг сыра, 7,3 кг творога, сыра, 7,3 кг сметаны, ему следует съесть 3 кг сгущенного и 1 кг сухого молока.

Выводы. Следует отметить, что, согласно анализу литературы, состав высококачественного молока, полученного на основе ветеринарно-санитарных принципов, отличается богатством витаминов, микро- и макроэлементов, белков и других веществ, чрезвычайно богатых для организма человека. тело человека.

### Использованная литература.

1. Суёнов, Р., Ильесов, З., & Расулов. (2022). Сут ва сут маҳсулотларидан наъмуналар олиш ва уни ветеринария санитария жихатдан баҳолаш. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 119-123.
2. Rasulov, U. I., Bobonazarov, E., & Ilyasov, Z. I. (2021). Measures to protect breeding and productive cattle from pyroplasmidosis. *World Bulletin of Public Health*, 5, 17-18.
3. Rayimzhonovna, N. D., Abbasovna, M. Z., & Elburusovna, I. M. Organoleptic indicators and the presence of ammonia in beef infected with fasciolosis.
4. Суёнов, Р., Ильесов, З., & Расулов. (2022). Сут ва сут маҳсулотларидан наъмуналар олиш ва уни ветеринария санитария жихатдан баҳолаш. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 119-123.
5. Расулов, О., Илѐсов, З., Суёнов, Р., Расулов, Ш., & Хуш-назарова, М. (2022). Bozorlardagi go 'shtning yangiligini aniqlash usullari. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 132-136.

Интернет маълумотлари:

1. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
2. <http://www.infect.ru>
3. [Zooveterinariya@mail.ru](mailto:Zooveterinariya@mail.ru)
4. <https://ssuv.uz/uz>



## ZAHARLANGAN HAYVONOT MAHSULOTLARINI VETERINARIYA SANITARIYA JIHATDAN TEKSHIRISH

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qishloq xo'jalik hayvqonlari orasida invazion kasalliklarining tarqalishi, mazkur kasalliklar natijasida hosil bo'lgan zaharlarning hayvon organizmiga hamda hayvonot dunyosidan olingan mahsulotlarning insonlar organizmiga salbiy ta'sirlari keltirilgan.

**Аннотация:** В статье представлено распространение инвазионных болезней среди сельскохозяйственных животных, негативное влияние ядов, вырабатываемых этими болезнями, на организм животных, а также негативное влияние продуктов животного происхождения на организм человека.

**Abstract:** This article presents the spread of invasive diseases among farm animals, the negative effects of poisons produced by these diseases on the animal body, and the negative effects of animal products on the human body.

**Kalit so'zlar:** gelmintlar, gelmintoz, parazitologiya, exinokokkoz, senuroz, invaziya, fasellyoz.

**Mavzuning dolzarbligi:** Bugungi kunning muhim vazifasi qishloq xo'jalik hayvonlarining turli invazion kasalliklaridan muhofaza qilish ulardan olinadigan mahsulotlarni inson organizmiga salbiy ta'sirini kamaytirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bu chorvachilik sohasi bo'lib, qishloq aholisini bandligi hamda daromadini ta'minlash, ichki iste'mol bozorini ekologik toza, sifatli chorvo mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Chorvachilik sohasini ilmiy asosda tashkil etish, ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalar, zamonaviy fan yutuqlarini qo'llash orqali hayvonlarning mahsuldorligini oshirishga katta etibor qaratilmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi:** Chorvachilik fermer xo'jaliklarida invazion kasalliklarning tarqalishi, invazion kasal hayvonlardan olinadigan mahsulotlarni inson organizmiga ta'sirlarini o'rganish, qushxonalarda invazion kasalliklar bilan kasallangan hayvonlarda klinik, patologoanatomik va morfologik tekshirishlar olib borishdan iborat.

**Tadqiqotlar taxlili.** Invazion kasalliklar dunyoda keng tarqalgan xavfli gelmintoz va zoontrapanoz kasallik hisoblanadi. Hayvonlar va odamlar orasida exinokokkoz va senurozlarni tarqalishiga itlar asosiy sababchi hisoblanadi. Muallifni tekshirishlaridan ma'lumkim itlarda 33,0 foizga multitsepslar bilan, 21,2 foiz exinokokklar va 24,2 foizga teni gidatigenlar bilan zararlanganligi aniqlangan. Suruv itlarini multitsepslar bilan 35,7 foizga, exinokokklar va teni gidatigenlar bilan

25,0 foizda zararlanganligi aniqlangan. 2004 yilda bayon etilgan ma'lumotlarga ko'ra Qaroqolpog'iston xududida paramfistomatoz qoramollarda o'rtacha 2,12 foiz, shimoliy mintaqalarda 3,6 foiz, markaziy mintaqasida 2,2 foiz zararlanganligi aniqlangan. So'nggi yillarda parazitlar va invazion kasalliklar bilan qoramollarning kasallanish darajasi 60,0 foiz va undan ortiq bo'lishi kuzatilmoqda. Paramfistomatozlarning etiologiyasi va epizootologiyasida P.cervi asosiy tur bo'lib hisoblanadi. Respublikamiz xududida trematodozlar orasida fassiolozdan tashqari boshqa trematodozlar, orientobilgarsioz va paramfistomatozlarning lokal tarqalish xususiyatiga ega ekanligi qayt etilgan. Paramfistomatozni tarqalishi uchun ko'pchilik xududlarda sharoit yetarli ekanligi ko'rsatilib, bu kasallikni lokal o'choqlari Samarqand viloyatining ko'pgina tumanlarida paydo bo'lganligi, oldi olinmasa, kasalliklar keng tarqalishi mumkinligi haqida ma'lumotlar keltirilgan 2015-2019 yillarda Samarqand viloyatining ko'pgina tumanlarida olib borgan tadqiqotlar natijasida qoramollarning 45-78 foizi paramfistomatozlarga chalinganligi tadqiqotlar natijasida aniqlangan.

**Tekshirish usul va materiallari:** Kushxonalarda invazion kasalliklar bilan kasallangan qoramol, qo'y, parrandalar so'yilganidan so'ng ularning organ va go'shti klinik, orgonoleptik, patologoanatomik, morfologik, tekshirishlar olib boriladi. Invazion kasalliklar bilan kasallangan hayvonlar qonining biokimyoviy ta'lili, gemotologik qabul qilingan umumiy usullar yordamida aniqlanadi. Tekshirishlar 10 bosh qoramol 10



bosh qo‘ylarda olib borildi. Birinchi tajriba guruhidagi 5 bosh qoramol invazion kasalliklar bilan kasallangan va 5 bosh sog‘lam qoramolda hamda 5 bosh invaziya bilan kasallangan qo‘y va 5 bosh sog‘lom qo‘ylarda tajribalar olib borildi. Invaziya bilan kasallangan qoramol va qo‘ylar so‘yilib ularni go‘sht va go‘sht maxsulotlarini Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 2008 yil 19 iyundagi 85-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan veterinariya-sanitariya ekspertizasi-dan o‘tkazish Qoidalari asosida organoleptik va laboratoriya tekshirishlari olib borildi.

**Olingan natijalar.** Tajribadagi hayvonlar so‘yilganda ularning go‘shtlari va ichki organlarining sifat ko‘rsatgichlarini aniqlash uchun belgilangan Davlat veterinariya standartlariga muvofiq ekanligini aniqlash maqsadida eng avvalo invazion kasalliklar bilan kasallanib so‘yilgan mollardan namunalar olinib organoleptik va laboratoriya usullari yordamida tekshirildi. Go‘shning organoleptik usulda tekshirishda asosan quyidagilarga e‘tibor qaratildi, ya‘ni tana go‘shini tashqi ko‘rinishiga, rangiga, hidiga, muskul to‘qimasi konsistensiyasi va teri osti yog‘lari tekshirildi. Invazion kasalliklar bilan kasallangan hayvonlar tana go‘shni arriqligi, rangi sarg‘ayganligi ayrimlariniki biroz ko‘kintir va och qizg‘ish ekanligi aniqlandi. Tana go‘shining xidi ayrimlarida ya‘ni 2 ta namunada badbo‘yli va qolgan namunalarda esa o‘ziga xosligi, muskul to‘qimasining konsistensiyasi biroz qattiqlashgan, ko‘p xolatlarida bo‘shashgan konsistensiya aniqlandi. Tana go‘shining teri osti yog‘lari oq-sariq va oq-sarg‘ish rangda ekanligi aniqlandi. Aloxida kasalliklarga to‘xtaladigan bo‘lsak fassiolez hayvon gavidasi oriq, shilliq pardalar oqargan, qorin bo‘shlig‘ida, yurak halatasida ko‘p miqdorda suyuqlik to‘planadi, linfa tugunlar kattalashadi, muskullar oqish rangda, tolalari ingichka qonsizlangan holat kuzatiladi, go‘shni koloriyasi past bo‘ladi. Askaridozlarda hayvon ozib ketadi, askaridalar

ajratgan toksinlar hayvon nerv sistemasini shikastlaydi, terida shishlar va krapiv toshmachalar hosil bo‘lishi zaxarli ta‘sirning yaqqol ko‘rinishidir. Hayvon go‘shining sifat ko‘rsatgichlari pasayib ketadi so‘yilgan go‘sht oqargan, tolalar ingichka, muskul to‘qimasi konsistensiyasi bo‘shashgan, yog‘ to‘qimasi bo‘lmasligi, go‘sht shilimshiq yopishqoq bo‘ladi. Exinokokoz va senuroz kasalliklarida hayvon juda ozib ketadi, exinokokozda ichki organlarda suyuqlikka to‘lgan pufakchalar (protoskoleklar) bo‘lishi bilan izoxlanib, organlar foliyatini izdan chiqaradi, bo‘shliqlarda suyuqlik to‘planishi bilan kechadi. senuroz kasalligida hayvon ozib ketishi, o‘shish va rivojlanishdan qoladi, reproduktiv faoliyati izdan chiqadi bunday hayvonlarni go‘sht va go‘sht maxsulotlari istimolga yaroqsiz bo‘ladi. Go‘shning sifat ko‘rsatgichlari pasayib ketadi so‘yilgan go‘sht oqargan, tolalar ingichka, muskul to‘qimasi konsistensiyasi bo‘shashgan, yog‘ to‘qimasi bo‘lmasligi, go‘sht shilimshiq yopishqoq bo‘ladi.

**Xulosa:** Invazion kasalliklari bilan kasallangan hayvon o‘shishdan qolishi, maxsuldorligi pasayib ketishi, organizm rezistentligini pasayishi natijasida kasalliklarga beriluvchan bo‘lib qoladi. Bunday hayvonni go‘shni va go‘sht maxsulotlari to‘g‘ridan to‘g‘ri istimolga yaroqsiz hisoblanadi, olingan maxsulotlari ikkilamchi ishlov berishdan so‘ngina ishlatish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avezimbetov Sh.D. Qoraqolpog‘iston Respublikasida qoramollar va qo‘ylar trematodozlarining biokologik va epizootologik xususiyatlari. V.f.n. Dissertatsiya avtoreferati materiallari. Samarqand 2007.
2. Aminjanov Sh.M. Itlarni tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida sestodlar bilan zararlanishini o‘rganish. Uchunchi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand-2004 yil. 12-13 b.
3. Daminov A. Paramfistomatidoz – xavfli trematodoz kasallik// Zooveterinariya jurnali Toshkent, 2009. №6 B. 17.
4. Kaypanov M.T. Qoraqolpog‘iston Respublikasi qoramolchilik xo‘jaliklarida gelmintozlarning tarqalishi. «Xayvonlarning o‘ta xavfli kasalligini tarkalish va oldini olish monitoringi» Ikkinchi xalkaro ilmiy konferensiya to‘plami. Samarqand – 2004 St. 105-108.
5. G‘afurov, A.G‘., Davlatov R.B., Rasulov U. I. Veterinariya protozoolo-giyasi. O‘quv qo‘llanma, T.: «Zarafshan».



## ASALARILAR QISHLOVI, KELASI YIL HOSIL GAROVI

**Аннотация.** В статье приводятся причины гибели медоносных пчёл в период зимовки и слабых пчелосемей весной.

Основными критериями успешной зимовки считают:

1. Обеспеченность пчелосемей качественным (цветочным) мёдом и в достаточном количестве.
2. Зимовка с молодой (сеголетка) маткой и молодыми, здоровыми рабочими пчёлами.
3. Достаточное утепление гнёзд, без сквозняков, но с обеспечением хорошей вентиляции для недопущения повышения влажности от выдыхаемого пчёлами тёплого и влажного воздуха, которая может привести к плесневению стенок улья и соторамок.

4. В период подготовки к зимовке провести обработку пчелосемей против варроатоза и обеспечить лечебным "канди" для профилактики от инфекционных болезней

**Аннотация.** Maqolada asalarilarning qish mavsumida o'lishi va erta baxorda kuchsiz oilalarning nobud bo'lish sabablari ko'rsatiladi.

Qishlovning muvoffaqiyatli o'tishi uchun quyidagi chora tadbirlar o'tkazilishi lozim deyiladi:

1. Asalari oilasining sifatli (gulasali) va kerakli miqdorda asal bilan ta'minlanishi.
2. Qishlovga yosh ona ari (shu yilgi) yosh ishchi arilar bilan kirish
3. Ari uyasining kerakli darajada istilishi, yelvizaksiz, ammo kerakli miqdorda havo almashinishini taminlash va bu orqali arilar nafasidan chiqadigan namlikdan ari uyasi davrlarining va romlarning mohor bosishinsh oldini olish.
4. Qishlovga tayyorgarlik paytida asalari oilalarini varroatozga qarshi ishlov berish hamda infeksiyon kasalliklarning oldini olish maqsadida davolavchi "qandi" bilan ta'minlash.

**Калит so'zlar:** Asalari, qishlov, gulasali, qandi, yelvizak, varroatoz, ishchi ari.

**Ключевые слова:** Пчел, зимовка, цветочным, канди, сквозняк, варроатоз, рабочий пчёл.

Respublikamizda asalarichilikni rivojlantirish uchun juda qulay geografik sharoitlar mavjud. Hozirgi paytda asalarichilik shirkat xo'jaliklari o'rmini yirik fermer xo'jaliklari, shaxsiy asalarichilik xo'jaliklari egalladi. Asalarichilik rivojlanishiga asosan akarapidoz, varroatoz, amerikacha va yevropacha chirish, nozematoz, askosferoz, aspergillyoz, virusli falaj, pestitsidlar bilan zaharlanish kabi va boshqa bir necha yuqumli va invazion kasalliklar to'sqinlik qilmoqda. Hozirgi paytda asalarichilik shirkat xo'jaliklari o'rmini yirik fermer xo'jaliklari, shaxsiy asalarichilik xo'jaliklari egalladi. Asalarichilik rivojlanishiga asosan akarapidoz, varroatoz, amerikacha va yevropacha chirish, nozematoz, askosferoz, aspergillyoz, virusli falaj, pestitsidlar bilan zaharlanish kabi va boshqa bir necha yuqumli va invazion kasalliklar to'sqinlik qilmoqda.

Asalarichida qish oldidan bir qancha savollar paydo bo'ladi: arilar kirib-chiqadigan teshiklarning qaysi birini ochib qo'yish, asalari oilasini qanday isitish, ari uyasi taxtalarining qalinligi qancha bo'lishi kerak, qanday va qancha ozuqa qoldirish kerak va yana juda ko'p savollar bor. Arilarning o'zi bu savollarga javob

berishi mumkin, faqat buni ulardan so'rab bila olish lozim. Malumki, tashqi muhitning o'zgarishiga, yangi texnologik sharoitlarga har qanday tirik organizmlar malum vaqt ichida modda almashinuvining o'zgarishi bilan, ishlab chiqaradigan issiqlik bilan-termogenez bilan javob reaksiya qiladi.

Ari uyasining ustki tomonini haddan ortiq isitish arilarda modda almashinuvi natijasida hosil bo'ladigan metabolizm chiqindilarini – suv bug'larini, uglerod dioksidini uyadan chiqarilishiga to'sqinlik qiladi va mikroorganizmlar rivojlanish o'chog'iga aylanadi [2].

Ari uyasiga kirib-chiqish teshigining qishlov paytida ochiq yoki yopiqligi arilarning ozuqani kam yoki ko'p istemol qilish orqali termogeneziga, yani ishlab chiqaradigan issiqligiga tasiri juda kuchsiz.

Bir qancha olimlar kuzatishlariga ko'ra [1] arilar juda past haroratlarda ham qishlashi mumkin. Ammo, sharti shuki, oila kuchli bo'lishi, sifatli va yetarli darajada ozuqa bilan taminlangan bo'lishi, oilada namlik va yelvizaklar bo'lmasligi lozim. Uyani ko'rpacha bilan qalin o'rab isitish arilarning termogeneziga tasir

etmaydi. Arilar faqat to‘da ichida issiqlikni boshqaradi. Uya ichidagi harorat tashqi muhit bilan qariyb barobar bo‘ladi. Tashqi sharoitda havo harorati  $-3,5^{\circ}\text{S}$  ga yetganda [6] to‘da maksimal darajada jipslashadi. Havo harorati yanada pasayib keta boshlasa, arilar to‘da ichida haroratni ko‘tarish uchun ko‘proq ozuqa istemol qila boshlaydilar. Asalarichining vazifasi arilarni ekstremal sharoitdan qochirib, harorati  $0^{\circ}\text{S}$  ga yaqin qishlov xonalari sharoitiga ko‘chirishdir.

A.I.Kasyanovning tadqiqotlariga ko‘ra, arilarni ko‘rpa bilan isitish, kirib-chiqish teshiklarnin ochiq yoki yopiq holda saqlash to‘da ichidagi haroratni saqlashda amalda hech qanday tasiri yo‘q, chunki to‘da ichidagi haroratni arilarning o‘zi ozuqani ko‘proq yoki kamroq istemol qilish orqali boshqaradi. Muhimi, arilar nafasi orqali chiqayotgan issiq, nam havoni uyadan chiqarish chunki bu nam havo uya devorlari va mumkatalarga shimilib, uyada namlikni hosil qiladi, romlari mog‘or bosadi va ularni chiqarib tashlash lozim bo‘ladi. Agar arilar to‘dasining nafasidan chiqayotgan issiq-nam havo yupqa xolstik orqali yuqoriga ko‘tarilib, tashqariga chiqib ketsa, uning o‘rniga yuqoridagi kirib-chiqish teshigi orqali sovuq, quruq, toza havo kirib keladi. Natijada uya ichida harorat tashqi muhit bilan tenglashib, uyada nam suv kondensati paydo bo‘lmaydi. Romlari mog‘or bosmaydi, uya tubi quruq, devorlari ham mog‘orsiz bo‘ladi.

Arichining kvalifikatsiya mezoni bo‘lib, uning arilarni qishlovdan qanday holda va foizda chiqara olish qobiliyati hisoblanadi. Qaysi bir asalarichi bu yilgi qishlov avvalgi yilgidan yaxshi bo‘lishini istamaydi. Bu mavzuda qanchadan-qancha tadqiqotlar o‘tkazilmagan, ammo muammo haligacha dolzarbligicha qolmoqda, arilar nobud bo‘lib, bahorda arichilarni dog‘da qoldirmoqda.

Muammoning yechimi bormi? 150-200 ari oilasi bo‘lgan arizorlarni qishlovdan 100 % eson-omon saqlab chiqarish mumkinmi?

Qishlovdan yaxshi, eson-omon chiqishning yana 3 faktori bor:

1. Har xil kuchga ega bo‘lgan ari oilalari (3-4 romdan 12-15 romgacha) qishlovdan yaxshi chiqishi mumkin, agar oila yosh, sog‘lom, fiziologik jihatdan yetuk, varroatoz sababli qonsizlanmagan arilardan tashkil topgan bo‘lsa.

2. Oila yetarli darajada yuqori sifatli, o‘simlik gullaridan olingan asal bilan taminlangan yoki 5-9 kg shakar bilan boqilgan bo‘lsa.

3. Ozuqa zaxiralari to‘daga yaqin joyda joylashgan bo‘lsa[5].

Agar romning ostki qismi bo‘sh mumkatalar maydoni inson barmoqlari yoyilgan panja maydoniga teng bo‘lib, qolgan  $2/3$  va undan ko‘proq joyida asal bo‘lib, bu asal ari to‘dasiga yaqin joyda bo‘lsa, oktabr oyida uyada qancha rom bo‘lib, hammasi ari bilan to‘lgan bo‘lsa va yana ikki tomoni asal bilan to‘lgan rom bo‘lsa, bunday ari oilasining qishlovidan havotir olmasa bo‘ladi. Bunday oila dalada ham, qor ostida ham va boshqa joylarda ham qishlovdan chiqimsiz chiqadi. Qishlovdan chiqqan oilalarning sifati har xil bo‘lishi mumkin (o‘lib tushgan ari soniga, yeyilgan ozuqaga, ich ketishiga, mog‘or bosishiga ko‘ra), ammo oila hayotchan bo‘lib, bahorda uchishni boshlashi bilan tezda kuchga kirib ketadi, agar yuqorida ko‘rsatilgan shartlarga rioya qilininsa. Ana shunda muvaffaqiyat kafolatlanadi(3).

Arilarning nobud bo‘lishiga bazan arichilarning o‘zlari beixtiyor sababchi bo‘ladilar. Ular kuzatuvchan bo‘lib, xatolarni analiz qilishlari, sharoitlarni inobatga olib, yomon oqibatlar oldini olishlari lozim.

Eng achinarli hol – gul asalini shira asalidan (padevyy myod) ajrata olmaslik. Bunday asalarichining bahorda 100 asalari oilasidan 3 oilasi tirik qolib, qolgan arilari nobud bo‘lgan bo‘lsa, ular vetbaklaboratoriyani kech yoki aniq qo‘yilmagan diagnozi uchun norozi bo‘ladilar, ammo asosiy sababini bilmaydilar.

Qishlov kelasi yil asalarichilik mavsumining asosi, samarali biznesning hal qiluvchi qismi.

Arilarni qishlovga qo‘yganda ularga tabiatan lozim bo‘lgan ozuqasini yetarli darajada bermaslik arichiga bu tejankorligi kelasi yilda samara bermaydi.

Ko‘zda arilarni qishlovga qo‘yganda ularni qaytadan tekshirib ko‘rib, xatoga yo‘l qo‘ymaslikga ishonch hosil qilish kerak.

Kuchsiz asalari oilalari qaerdan kelib chiqadi? Qisqa javob - qishlovga sifatsiz tayyorgarlik va qishlovdan yomon sharoit [4].

Qishlovga arilarni tayyorlashda asalarichining vazifasi – ortiqcha romlarni olib, uyani qisqartirish, uyani ko‘rpachalar bilan o‘rash, uyada arilar nafasidan paydo bo‘ladigan nam havoni chiqarib tashlash uchun uyada havo almashinuvini taminlash.

Ammo, arilarni dala sharoitida saqlaganda uya ichida o‘lib tushgan arilar kirib-chiqish teshigini yopib qo‘yib, havo almashinuvini qiyinlashtiradi, uya devorlari terlaydi va o‘lgan arilar sasiy boshlaydi. Arilar to‘dasi parchalanadi va aktivlasha boshlaydi. Buning



oldini olish uchun kirib-chiqish teshigini o'lik arilardan tozalab, uyadan xarakterli tovush eshitilganda ventilyatsiya teshiklarini kattalashtirish lozim.

Ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan arichilarning ham arilari qishlovda uyada namning ortishi sababli o'lib chiqadi. Buning asosiy sababi oilani noto'g'ri isitish va uyada noto'g'ri ventilyatsiya. Ustki havo kirish teshigi bo'lmagan va propolis shimilib qalinlashgan xolstik yopib, ko'rpacha bilan qalin o'ralgan uyada arilar o'zini bug'langan hammomdagiday sezadi.

Amerikalik olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, 1% bir yashar ona arilar, 5% ikki yashar ona arilar, 20% uch yashar ona arilar qishlovdan chiqolmay o'ladi. Shuning uchun ona arilarni har yili yangilash yaxshi qishlov garovi bo'lishi mumkin. Bir yashar arilar kuzda ham ko'proq tuxum qo'yadi. Qishlovga kirayotgan arilar siropni qayta ishlash va yosh arilarni o'stirishda qatnashmasligi lozim. Oilada fiziologik jihatdan yosh arilar qancha ko'p bo'lsa qishlov paytida bir ariga ozuqa xarajati shuncha kam bo'ladi.

Ona arini qishlovdan oldin avgust oyining oxirida almashtirish maqsadga muvofiq. Malumki, qari ona ari bilan yosh arilarni o'stirishni ertaroq tugatishadi, yosh ona arilar bilan uzoqroq davom etdirishadi.

Qishlov muvaffaqiyatli o'tishining yana bir asosiy omillaridan biri – bu arilar tanasini varroatoz kasalligini qo'zg'atuvchi varroa kanalaridan tozalash.

Buning uchun kuzda, mumkataklar yosh arilardan (tuxum, lichinka) bo'shagach varroatoz kasalligiga qar-

shi kamida 2 marta 7 kunlik interval bilan ishlov berilishi lozim. Buning uchun Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi tizimidagi Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining "Parranda, quyon, baliq va asalari kasalliklarini o'rganish" laboratoriyasi olimlari ishlab chiqqan flutsin, valin, amiakar kabi preparatlarning biri bilan havo harorati 10<sup>o</sup>S dan past bo'lmagan paytda ishlov berish lozim. Yuqoridagi preparatlarni almashlab qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki bir preparatni uzoq vaqt davomida qo'llash kanalarda unga qarshi rezistentlik (chidamlilik) paydo qiladi va preparat tasiri pasayadi.

Undan tashqari, arilar qishlovdan sog'lom chiqishi uchun, infeksiyon kasalliklarga qarshi yangi antibiotik preparat "apifloks"ni qo'llash yaxshi natija beradi. Buning uchun preparat "qandi" bilan beriladi. "Qandi"ni asalarichilar yaxshi bilishadi – bu toza asal bilan shakar kukuni aralashmasi. 2 kg "qandi"ga 1 ampula -2 ml apifloks aralashtiriladi va 200 grammdan ilmateshik qilingan polietilen plyonkaga o'rab romlar ustiga, ari to'dasi yaqiniga qo'yiladi. Preparat arilarni amerikacha va yevropacha chirish, salmonellyoz, kolibakterioz, nozematoz, askosferoz va boshqa infeksiyon kasalliklardan yaxshi profilaktika qiladi va arilar qishlovdan sog'lom chiqadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Касьянов А.И. Ж-л "Пчеловодство», №2, 6, 8, 10, 2008 й.
2. Сагитов В.С., Васильев Н.Г. Защита пчёл от повышения влажности во время зимовки Ж-л "Пчеловодство", №2, 2009 й.
3. Силаев А.А. Зимовка на воле. Ж-л "Пчеловодство", №10, 2010 й.
4. Гончаренко А.М. Откуда берутся весной слабые семьи?. Ж-л "Пчеловодство", № 3, 2008 й.
5. Гусяков М. Основы успеха зимовки. Ж-л "Пчеловодство", № 1, 2007 й.
6. Рамазанов В.И. Научился правильно организовать зимовку. Ж-л "Пчеловодство", №7, 2010 й.
7. V.M.Do'skulov, F.B.Ibragimov, D.R.Nasimova. Asalarilar yaxshi kishlovi, kelgusi yil xosil garovi. VII Международная научно-практическая конференция "VII Глобальная наука и инновация 2019: Центральная Азия" Нур-султан -2019 г. 25-28 сентябр. 128-132 стр.





U.I.Rasulov, v.f.d., dotsent,  
D.A.Boybutayeva, tayanch doktorant,  
Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik  
va biotexnologiyalar universiteti

## QUYONLAR PSOROPTOZINI DAVOLASHDA PREPARATLARNI TAQQOSLAB O'RGANISH NATIJALARI

**Annatsiya.** Ushbu maqolada quyonlar psoroptozini davolashda solishtirma tekshirish usulidan foydalangan, benzilbenzoat-20% hamda veterinariya bivermektin dori vositalarining organizmga samarali ta'siri solishtirib o'rganilgan.

**Аннотация.** В данной статье использован метод сравнительного исследования при лечении псороптоза у кроликов, и поставлена цель сравнить эффективность препарата бензилбензоат-20% и бивермектина на организма кроликов.

**Annotation.** This article uses a comparative research method in the treatment of psoroptosis in rabbits, and aims to compare the effectiveness of the cheap drug benzyl benzoate-20%, and the effective effect of the veterinary drug Bivermectin on the body.

**Kalit so'zlar:** preparat, Benzil benzoat 20%, emulsiya, malham, bivermektin, akarasid.

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda aholining sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida quyonchilikdan olinadigan mahsulotlar alohida o'rinni egallaydi. Bu borada asosiy ko'zga tashlanib turgan jabhalardan biri bu quyonchilikdir. Yurtimizda ham quyonchilik yaxshi rivojlangan bo'lib qishloq xo'jaligining muhim bir tarmog'iga aylanib ulguragan. Quyonlarda sifatli mahsulot olishda ularda uchraydigan yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklar quyonlar mahsuldorligining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Quyonlardan sifatli mahsulot olishda ularda uchraydigan yuqumli, yuqumsiz va invasion kasalliklariga e'tibor berish, ularga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalari qatoriga kiradi.

Quyonlarning eng muhim biologik xususiyatlaridan biri qisqa vaqt ichida juda ko'p miqdordagi parhez go'shti, terilari va yunglarini olish mumkin. Yiliga 5-6 okrol bilan bitta to'liq quyondan 30 dan ortiq quyonni o'stirishingiz mumkin va ularni boqqandan so'ng siz 60-70 kg go'sht, 25-30 terini, urg'ochi nasldan taxminan 1 kg mayin yungni olishingiz mumkin [2]

Quyonchilik fermer xo'jaliklarida uchraydigan parazitlar kasalliklar shu jumladan quyon psoroptozini oldini olish yetakchi vazifalardan biri hisoblanadi. Quyonlar psoroptozida quyonning reproduktiv funksiyasi pasayadi, kasal urg'ochi quyonlar kasallikni o'tkir darajasida kechib 2 kunidayoq nobud bo'ladi, erkak quyonlar kasallikning klinikasi og'ir va o'rtacha shaklda kechadi [1].

Psoroptoz tufayli yetkazilgan zarar bu juda katta massaing pasayishi, go'sht va teri sifatining yomonlashishi, o'sish va rivojlanishdan sezilarli darajada ortda qoladi, psoroptoz bilan kasallangan quyonlarning massasi kamayishi, qayta ishlashga qaramay xarajatlar 10-35% oralig'ida pasayadi [3].

Yuqorida aytilganlarning barchasi yanada samarali, arzon, past toksik va ekologik toza hozirgi vaqtda akarasidlar shakllarini o'rini bosuvchi tarkibida xlororganik, organofosfor, karbamat birikmalarining yangi avlodi- insektoakarasidlar paydo bo'ldi. Insektoakarasidlar - hasharotlar va kanalar uchun yuqori faollikka ega bo'lgan sintetik piretroidlar va issiq qonli hayvonlar uchun kamroq zaharli, shuningdek hayvonlarning ektoendoparazitlarga qarshi samarali bo'lgan evermektinlar akarasidlar qatoriga kiruvchi preparatlari XOB va FOB va karbamik kislot esterlaridan ustundir, atrof- muhit uchun xavfsiz hayvon organizmi ham tez parchalaydi va yo'q qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston sharoitida quyonlar psoroptoziga dorixonalarda mavjud kamxarj dori vositalarini qo'llab veterinariya dori vositalariga solishtirib o'rganilmagan.

**Tadqiqot vazifasi:** Quyonlar psoroptozini davolashda benzilbenzoat-20% hamda bivermektin dorisining organizmga samarali ta'sirini taqqoslab o'rganish.

**Tadqiqot obekti, materiallari.** Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanida "Darg'om Agro Velikan", Oqdaryo tumanidagi "Oq Muskat va Bulung'ur tumani-dagi "Bo'riboy Mustayev Zamin Nur" nomli quyon-

chilik fermer xo'jaliklarida hamda aholi quyonchilik xo'jaliklarida va Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetiga qarashli o'quv tajriba ilmiy tadqiqot ishlarini olib borildi.

**Tadqiqot usullari.** Tekshirishda umumiy va maxsus usullar qo'llanildi.

#### **Olingan tadqiqot natijalar va ularning tahlili.**

Buning uchun uchun tana vazni 2,5-3 kg bo'lgan 10 bosh quyonlar o'xshash guruhlar tamoyili asosida 2 guruhdagi quyonlar nazoratga olindi. Birinchi guruh quyonlarga mexanik ishlov berildi (ifloslangan junlar qirgildi, qatqaloqlar tozalanildi). Bivermektin dori vositasidan 1 ml 50 kg tana vaziniga xisoblanilib har 7 kunda 1 martadan jami 2 marta teri orasiga ineksiya qilindi. Tajribadagi 5 bosh birinchi guruh quyonlarda tajribaning birinchi kunida surtilgan joy terining mahalliy ta'sirchanligi, kamgina qizarish toshma toshkanday va terining quruqlashish xolatlari namoyon bo'ldi. Terini paypaslab ko'rilganda gadir budirlik seziladi. Pulsi o'rtacha 188 ta, nafas olish soni o'rtacha 53 ta, tana harorati 39,6 tashkil etdi. Quyonlar ishtahasi yaxshi qichish alomatlari to'xtagan holati yaxshi dorini ta'siri bilingan. Ikkinchi guruh quyonlarga mexanik ishlov berildi (ifloslangan junlar qirgildi, qatqaloqlar tozalanildi). Benzilbenzoat-20% emulsiyasi hamda mazi shikastlangan joyiga shimdirilib 3 kun davomida surtildi. Tajribadagi 5 bosh ikkinchi guruh quyonlarida Ko'rish usuli bilan tekshirilga terida o'zgarishlar yo'qligi ta'sir jarayon ichki tomonda kuzatilishi ilmiy adabiyotlarda keltirilgan. Klinik tekshirish natijalari tana harorati 39,7



C, pulsi 175, nafas soni 56, quyonlar ishtahadan qolgan harakatlari sust, boshda tormozlanish holatlari mavjud terida qichishish belgilari klinik belgilari ko'rsatib turibdi. Tajribaning ikkinchi kunida birinchi guruh quyonlarida teri osti kanasi mavjud joylarda terining keparlashish ko'tarilish holatlari teri tagida yangi terining rivojlanish klinik belgilari namoyon bo'ldi. Ikkinchi guruh quyonlarda terisida deyarli o'zgarishlar sezilmadi qichishish belgilari kamaygan. Tajribaning yakunida birinchi guruhdagi quyonlarda tana harorati 39,9 C, pulsi 1 daqiqada 144 ga, nafas olish soni 1 daqiqada 51,2 yetganligi namoyon bo'ldi. Bundan tashqari davolash muddati 7 kunni tashkil etdi. Terisini qayta tiklanganligi va junlar o'sishi boshlanganligi aniqlanildi. Ikkinchi guruh quyonlarda tajriba yakunida tana harorat 39,8 C, pulsi 1 daqiqada 121 ga, nafas olish soni 1 daqiqada 54 ta bo'lishligi tekshirishlarda aniqlanildi. Ko'zga ko'rinadigan ijobiy belgilar tajribaning 10 kundan aniqlanildi.

#### **Xulosa**

1) Quyonlar psoroptoz davolashda Benzilbenzoat-20% emulsiya va malhamlarini bivermektinga qaraganda tez davolash xususiyatiga ega.

2) Benzilbenzoat-20% antiparazitar dori vositasi bivermektinga qaraganda davolashni 3 kunga qisqartirishga olib keladi.

ноти занжирида маҳсулотлар йўқотилиши ва исрофгарчилигини камайтириш; трансчегаравий ҳайвонлар касалликларига қарши курашиш; чорва ҳайвонлари маҳсулдорлигини барқарор ошириш учун қишлоқ жойларда маслаҳат-ахборот тизимларини ва билимларни ошириш хизматларини такомиллаштириш белгиланган. Шу билан бирга, Стратегияда Ўзбекистоннинг турли халқаро ташкилотлар ва савдо келишувларига аъзо бўлишида мамлакат аҳолисининг озиқ-овқат хавфсизлиги ва соғлом овқатланишини таъминлаш ҳамда экспорт салоҳиятини ошириш зарурати ҳисобга олинган. Шунинг билан биргаликда, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 22-сентябрдаги 748-сонли “Ҳайвонларни идентификация қилиш, уларни ҳисобга олиш, ҳисобдан чиқариш ва сақлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида” қарорига мувофиқ республикада жисмоний ва юридик шахслар томонидан парваришлаб, кўпайтириладиган ҳайвонларни босқичма-босқич идентификация қилинишини ташкил этиш; иден-

тификация қилинган ҳайвонлар тўғрисида ягона маълумотлар базасини шакллантириш мақсадида ягона электрон ахборот тизимини жорий қилиш; ҳайвонларни идентификация қилиш ишларига жалб қилинадиган ходимларни босқичма-босқич ўқитиш ишларини амалга ошириш белгилаб қўйилган. Мазкур қарорга илова қилинган “Ҳайвонларни идентификация қилиш, рўйхатга олиш ва кузатиш тартиби тўғрисида”ги Низомда ҳайвонларни идентификация қилиш, рўйхатга олиш ва кузатиш тартиби келтирилган. Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 25-октябрдаги “Давлат ветеринария хизмати тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 361-сонли қарорига мувофиқ “ҳайвонлар ва одамларнинг соғлиғи учун хавф туғдирадиган ва бунда ҳайвонлар, келиб чиқиши ҳайвонотга мансуб маҳсулотлар ва хом ашёлар олиб қўйиладиган ҳамда йўқ қилиб ташланадиган ҳайвонларнинг касалликлари” ҳамда “профилактика, ташхис қўйиш ва тугатиш тадбирлари Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан амалга ошириладиган ҳайвонларнинг ўта хавфли юкумли касалликлари” рўйхатлари тасдиқланди.

Юқорида таъкидланган Ўзбекистон Республикаси президентининг Фармони ва Вазирлар Маҳкамасининг қарорларига мувофиқ чорвачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва хавфсизлигини таъминлашга оид халқаро стандартлар ва меъёрлар мамлакатимизда кенг тадбиқ этилмоқда. Келажакда чорвачилик соҳасининг тармоқларини янада ривожлантириш, асосий озик-овқат маҳсулотларидан гўшт ва сут ишлаб чиқариш ҳажмини кескин ошириш, ҳайвонлар нобуд бўлиши ва маҳсулдорлиги камайиши ҳамда ҳайвонлар инфекцион касалликлари келтирадиган иқтисодий зарарлар ва ижтимоий муаммоларни олдини олиш ҳамда соҳада қўшимча иш ўринлари яратиш каби узоқ муддатли стратегик мақсадларга эришиш кўзда тутилган.

**Қишлоқ хўжалиги ҳайвонларининг оқсил касаллиги ҳақида қисқача маълумот.**

Ҳозирги халқаро классификацияга кўра, оқсил касаллиги - Бутунжаҳон ҳайвонлар соғлигини сақлаш ташкилоти (БҲССТ) нинг “ҳар хил турдаги ҳайвонлар касаллиги” тоифаси рўйхатига киритилган, бунга далил 100 дан ортиқ турдаги жуфт туёқли қишлоқ хўжалиги ва ёввойи ҳайвонлар (йирик ва майда шохли ҳайвонлар, чўчка, туя, кийик, буғу ва

бошқ.) касалланишидир. Ҳозирда оқсил вирусининг 7 хил антигенли типи (серотип) маълум: А, О, С, Cat-1, Cat-2, Cat-3 и Осие-1. Асосий серотиплар ичида бир-бирдан фарқ қилувчи 84 та серологик вариантлар мавжуд. «А» -типи 46 та, «О» типи – 14 та, «С» типи – 5 та, «Cat-1» типи – 9 та, «Cat-2» - 3 та, «Cat-3» - 4 та ва «Осие-1» типи - 3 та серовариантларига эга. Оқсилга қарши кураш Asia-1/Sindh-08 ёки A/ASIA/Iran 2005<sup>sis-10</sup> каби эмлама штаммларидан антигенлик жиҳатидан фарқ қилувчи янги оқсил изолятларининг пайдо бўлиши билан янада мураккаблашди. Антиген серотиплари ва серовариантлари иммунологик жиҳатдан ҳам фарқланади: яъни уларнинг ҳар бири вируснинг бошқа серотип ва серовариантларига қарши иммунитетга эга бўлган ҳайвонларда ҳам касаллик чақириши мумкин.

**Оқсил касаллигининг мамлакат чорвачилиги ва иқтисодиётида келтирадиган зарарлари ҳақида қисқача маълумот.**

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда чорвачилик энг жадал ривожланаётган қишлоқ хўжалиги тармоқларидан ҳисобланиб, қишлоқ хўжалигидаги миллий ялпи маҳсулотнинг қарийб 60 фоизини ташкил этади. Ўзбекистон Республикаси ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси (қўмита) томонидан чорвачилик тармоқлари ҳолатини тубдан яхшилаш, қишлоқ хўжалиги ҳайвонлари бош сони ва маҳсулдорлигини ошириш, ишлаб чиқарилаётган чорвачилик маҳсулотлари хавфсизлигини таъминлаш ишлари изчил давом эттирилмоқда. Аммо чорвачилик соҳасини ривожланишида, аҳолини сифатли ва хавфсиз чорва маҳсулотлари билан таъминлашда кескин тўсқинлик қилувчи омиллар мавжуд, асосийси - ҳайвонлар касалликларидир. Ҳайвонларнинг инфекцион касалликлари, шу жумладан оқсил касаллиги - ўта хавфли, чегара билмас, яшин тезлигида мамлакат ва минтақа даражасида тарқалувчи ҳамда чорвачилик ва иқтисодиёт соҳаларига катта зарарлар келтирувчи вирусли касалликлардан ҳисобланади.

БҲССТ маълумотларига кўра ҳар йили дунё бўйлаб 50 дан ортиқ мамлакатларда оқсил касаллигининг барча серотиплари турли жуфт туёқли уй ва ёввойи ҳайвонлар орасида тарқалади. Шунингдек оқсилнинг А, О ва Осие-1 серотиплари марказий осие минтақасига доимий хавф солади. Оқсил асосан эпизоотия ва панзоотия шаклларида кечиб, мамлакатда катта иқтисодий зарар ва ижтимоий му-

аммоларга сабабчи бўлади. Чорвачилик хўжалиги микёсида иқтисодий зарарлар асосан ёш ҳайвонлар (бузоқ, қўзи, чўчка) нобуд бўлиши, соғин сигирларда сут маҳсулдорлиги кескин яъни 50-75 фоизгача пасайиши, касал ҳайвонлар вазн йўқотиши ва бўғоз ҳайвонларда бола ташлаш, шунингдек касалликни тугатиш ва карантин тадбирлари давлат ветеринария хизмати бюджетига катта харажатларга тушади. Мамлакат микёсида эса иқтисодий зарарлар катта сонли ҳайвонлар нобуд бўлиши, гўшт ва сут ишлаб чиқариш кескин камайиши, ички бозорда нархини ортиши ва тақчиллиги ҳамда экспорти таъқиқланиши, соҳада иш ўринлари қисқариши ва давлат бюджетига юкламалар ортиши каби салбий оқибатларга олиб келади.

Дунё бўйича, жумладан марказий осие минтақасида ҳам ҳайвонлар орасида оқсил касаллиги бўйича эпизоотик вазият тез ўзгарувчанлиги ва барқарор эмаслиги сабабли оқсилни республика-миз ҳудудига кириб келиши ва тарқалиши хавфи доимо мавжуд. Бунинг асосий сабаблари: минтақада касалликни эндемик учраши, чегара билмас хусусияти, минтақа давлатлари орасида қишлоқ хўжалиги ва чова маҳсулотларини мунтазам савдо айланмаси, табиий омиллар, яъни тоғли ёки чўл ҳудудлари орқали ҳайвонларнинг ноқонуний миграцияси ва бошқа ўхшаш ҳолатларни келтириш мумкин.

#### **IV. Оқсил касаллигини олдини олиш ва қарши кураш комплекс чора тадбирларини тақомиллаштириш.**

Ҳайвонларнинг оқсил касаллигини олдини олиш ва қарши кураш мураккаб ва кўп босқичли комплекс тадбирлардан ташкил топган. БҲССТ стандартлари ва талабларига асосан комплекс чора тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, шу жумладан *қишлоқ хўжалиги ҳайвонларини* оқсил касаллигига қарши эмлаш тартибини доимий янгилаш яъни қайта ишлаб чиқиш ҳамда ташхис қўйиш бўйича лабораториявий қўлланмалар тайёрлаш муҳим вазифалардан ҳисобланади. Ушбу меъёрий техник ҳужжатларни ишлаб чиқиш жараёнида оқсил бўйича марказий осие минтақасида эпизоотик вазият, жумладан вирус серотипи ва серовариантларини табиатда ҳаракатланиши, эмлама танлаш ва эмлаш усуллари, шунингдек касалликка аниқ ва тезкор ташхис қўйиш ҳамда эмланган подада серомониторинг ўтказишда халқаро ёндашув ва замо-

навий лаборатория усуллари қўллаш каби муҳим жиҳатлар ҳисобга олиниши талаб этилади.

Шу муносабат билан қўмита билан ветеринария илмий-тадқиқоти институти (ВИТИ) нинг масъул мутахассис ва илмий ходимлари ҳамкорликда “Қишлоқ хўжалиги ҳайвонларини оқсил касаллигига қарши эмлаш тартиби бўйича тавсиянома” ишлаб чиқишди ва 2024 йил 30-апрелда қўмитани илмий техник кенгаши томонидан амалиётга жорий этиш мақсадида тасдиқланди.

Мамлакатда эпизоотик вазиятни доимий ҳисобга олиб, қишлоқ хўжалик ҳайвонларини оқсил касаллигига қарши комплекс чора тадбирлар, жумладан тартиб асосида профилактик ва мажбурий эмлаш, шубҳали ва фавқулодда ҳолатларда тезкор ва аниқ ташхис қўйиш ҳамда серомониторинг ва бошқа ветеринария тадбирларини тизимли амалга ошириш иқтисодий жиҳатдан энг самарали усул ҳисобланади.

Шунингдек Республика ҳайвонлар касалликларига ташхис қўйиш ва озиқ-овқат хавфсизлиги давлат маркази лабораториялари ҳамда ВИТИ томонидан ҳайвонларнинг инфекция касалликларига тезкор ва аниқ ташхис қўйиш ҳамда серомониторинг ўтказишда замонавий диагностика усуллари қўллаш муҳим вазифалардан ҳисобланади. Оқсил касаллиги диагностикаси ва серомониторинги тадбирларини халқаро стандарт ва қоидаларга мувофиқ ташкил этиш мақсадида қўмита билан ВИТИ нинг масъул мутахассислари ва етакчи олимлари ҳамкорликда “Ўзбекистон Республикасида ҳайвонларнинг оқсил касаллигига ташхис қўйиш бўйича лабораториявий қўлланма” тайёрлашди ва 2024 йил 21-июнда қўмитанинг илмий техник кенгаши томонидан амалиётга жорий этиш мақсадида тасдиқланди. Мазкур қўлланма республика ва ҳудудий микёсдаги лабораториялар мутахассислари, қўмита мутахассислари ҳамда ВИТИ илмий ходимлари учун мўлжалланган. Унда республика ва ҳудудий микёсдаги лабораторияларда қишлоқ хўжалиги ҳайвонларининг оқсил касаллигига лаборатория ташхиси қўйиш ва ташкил этиш тартиби, ўзаро ҳаракатланиш шакллари, номенклатураси, текширишлар ҳажми ва усуллари, шунингдек лабораторияларга, текширишларни ўтказиш учун жалб этилган мутахассис ва ходимлар салоҳиятига ва лабораторияларни материал ва техник таъминланишига ҳамда мутахассислар ишларини ташкил этиш-



да биологик хавфсизликка қўйиладиган талаблар белгиланган.

Мазкур ветеринария меъёрий ҳужжатларини амалиётда қўлланилиши натижасида мамлакатимизда амалга оширилаётган оқсилни олдини олиш ва қарши кураш комплекс чора тадбирлари самардорлиги ортишига эришилди. Шунингдек қишлоқ хўжалик ҳайвонларини оқсилнинг А, О ва Осие-1 серотипларига қарши тизимли профилактик эмлаш, фавкулудда ҳолатларда тезкор ва аниқ ташхис қўйишда замонавий халқаро лаборатория усуллари қўллаш, эмланган ҳайвонларда иммунитетни ўрганиш учун серомониторинг тадбирларини мунтазам ташкил этиш ва таҳлил қилиш натижасида ҳайвонлар орасида оқсил бўйича эпизоотик барқарорлик таъминланмоқда.

**Хулоса.** Ҳайвонларнинг инфекция касалликлари, шу жумладан оқсил касаллигини олдини олиш ва қарши кураш комплекс чора тадбирларини такомиллаштириш орқали чорвачиликда эпизоотик барқарорликни таъминлаш, қишлоқ хўжалиги ҳайвонлари бош сони ва маҳсулдорлигини яхшилаш, ветеринария назорати остидаги озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни кескин ошириш, чорвачилик ва иқтисодиётда касаллик туфайли турли иқтисодий зарарлар ва ижтимоий муаммоларни олдини олиш, гўшт ва сут маҳсулотларини хавфсиз ва сифатли истеъмолга қўплаб етказиш ҳамда экспортга имкон яратилади. Буларнинг барчаси юқорида таъкидланган узоқ муддатли стратегик мақсадларга эришиш йўлида ижобий платформа вазифасини бажаради.



### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 16-февралдаги “Республикада озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-36-сонли фармони;

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси 2017 йил 22-сентябрдаги 748-сонли “Ҳайвонларни идентификация қилиш, уларни ҳисобга олиш, ҳисоб-дан чиқариш ва сақлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида” қарори;

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси 2016 йил 25-октябрдаги “Давлат ветеринария хизмати тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 361-сонли қарори;

4. “Оқсилга қарши курашиш тадбирлари тўғрисидаги йўриқнома”. Ўзбекистон Республикаси Давлат ветеринария қўмитасининг 2018 йил 18-июлдаги 40 - сонли қарори билан тасдиқланган;

5. БҲССТ нинг қуруқликдаги ҳайвонлар учун *Кодекси*, 2023 й.: 8.8.-боб: «Оқсил вируси инфекцияси»;

6. “Қишлоқ хўжалиги ҳайвонларини оқсил касаллигига қарши эмлаш тартиби бўйича тавсиянома”. Ўзбекистон Респ. ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси томонидан 2024 йил 30-апрелда тасдиқланган;

7. “Ўзбекистон Республикасида ҳайвонларнинг оқсил касаллигига ташхис қўйиш бўйича лабораториявий қўлланма”. Ўзбекистон Респ. ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси томонидан 2024 йил 21-июнда тасдиқланган;

8. Захаров В.М., Раҳманов А.М., “Разработка программы по борьбе с ящуром в странах СНГ” Матер. Межд. Конф. стр.14-18, 2003 г., ВНИИЗЖ, Россия;

9. Авилов В.М. Гусев А.А. и др. “Международный проект создания противоящурной буферной зоны стран СНГ”. Журнал Ветеринарии, №23-7с. 2002 г., г.Москва, Россия;

10. Салимов Х.С., Ашурув С.А. “Оқсил касаллиги ва унинг олдини олиш чоралари”. 2001 йил, Самарқанд ш., Ўзбекистон.

**А.И. Камалова**, ассистент., в.ф.ф.д. (PhD), Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали,

**С.И. Мавланов**, в.ф.д., профессор, Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали,

**А.Ш. Исмоилов**, Ветеринария илмий-тадқиқот институти

## ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АЙРИМ ХУДУДЛАРИДА ҚЎЙЛАР ЭКТОПАРАЗИТЛАРИНИНГ ТАРҚАЛИШИ

**Аннотация.** Ушбу мақолада Қорақалпоғистон Республикаси айрим туманлари қўйчилик хўжаликларида мавжуд қўйларда паразитлик қиладиган эктопаразитлар тарқалиши ва мавсумий динамикаси ўрганилган.

**Калим сўзлар.** Фауна, зообиоценоз, эктопаразит, жунхўр, акароз, қўй, паразит, *Bovicola ovis*, *Rhipicephalus bursa*, *Hyalomma anatolicum*, мавсумий динамика.

**Аннотация.** В данной статье изучены распространение и сезонная динамика эктопаразитов, паразитирующих на овцах, в некоторых районах Республики Каракалпакстан.

**Ключевые слова.** Фауна, зообиоценоз, эктопаразиты, влосаед, акароз, овцы, паразиты, *Bovicola ovis*, *Rhipicephalus bursa*, *Hyalomma anatolicum*, сезонная динамика.

**Summary.** This article examines the distribution and seasonal dynamics of ectoparasites parasitizing sheep in some regions of the Republic of Karakalpakstan.

**Key words.** Fauna, zoobiocenosis, ectoparasites, lice beetle, acarosis, sheep, parasites, *Bovicola ovis*, *Rhipicephalus bursa*, *Hyalomma anatolicum*, seasonal dynamics.

**Кириш.** Чорвачиликни ривожлантиришда, аҳолини гўшт, сут, жун ва бошқа чорвачилик маҳсулотлари билан таъминлашда шахсий, хусусий қўйчилик хўжаликларидаги моллар бош сонини кўпайтириш, маҳсулдорлигини ошириш, уларни тўғри парваришлаш билан биргаликда турли паразитар касалликлардан муҳофаза қилиш тадбирлари муҳим аҳамият касб этади.

Қорақалпоғистон Республикаси айрим худудларидаги қўйчиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида мавжуд қўйларга эктопаразитлар, хусусан иксод каналар ва жунхўрлар жиддий хавф солмоқда. Ушбу худудларда эктопаразитлар тарқалишини ҳамда мавсумий динамикасини ўрганиш уларга қарши курашишда муҳим амалий аҳамиятга эга. Сўнгги йилларда чорвачиликда мулк шаклини ўзгариши натижасида майда шохли хайвонлар орасида эктопаразитлар ва улар томонидан чақириладиган касалликларни учраш ҳолатлари кўпаймоқда. Жумладан, бовиколёз, псороптоз, саркоптоз, эстроз, мелофагоз ва бошқа касалликларни қўй ва қўзиларни ўсишига, ўз тенгқурларидан орқада қолишига, жун, тивит, бола бериш каби маҳсулдорлигининг камайишига олиб келмоқда.

Шунинг учун қўйлар танасида паразитлик қилиб яшайдиган эктопаразитлар ва улар қўзғатадиган паразитар касалликлар тарқалишини ўрганиш долзарб муаммо ҳисобланади.

Тадқиқот мақсади. Қорақалпоғистон Республикаси айрим туманлари қўйчиликка ихтисослашган фермер хўжаликларида эктопаразитлар тарқалиши ва мавсумий динамикасини ўрганиш тадқиқотнинг мақсади ҳисобланади.

Тадқиқот услублари ва методикаси. Паразитологик, фаунистик, экологик, фенологик, миграция, терапевтик, профилактик ва бошқа тадқиқотлар ветеринария ҳамда тиббиётда қабул қилинган (Herbert Ross, Paul De Vach, Г.Я.Бей-Биенко, В.А.Догел, В.Н.Беклемишев, В.В.Яхонтов, С.Д.Павлов, А.Р.Рўзимуродов ва бошқа тадқиқотчилар) усуллар, қўлланма ва аниқлагичлар ёрдамида олиб борилди. Терилган эктопаразит турлари “Атлас иксодоидных клещей” М. “Колос”, 1968, И.М.Ганиев ва бошқа аниқлагич, китоб ва қўлланмалар ҳамда адабиётлардан фойдаланиб аниқланди.

**Тадқиқот натижалари.** Илмий тадқиқот ишлари Қорақалпоғистон Республикасининг Нукус ва Қораўзак туманларидаги қўйчиликка ихтисос-

лашган фермер хўжаликларда ва аҳолининг шахсий хўжаликларида парваришланаётган қўйларда олиб борилди.

Қорақалпоғистон Республикаси Қораўзак туманидаги “Nur-tilek Qarao‘zek” фермер хўжалигида 232 дош қўйлар парвариш қилинади. Ушбу хўжаликдаги мавжуд қўйларни эктопаразитлар билан зарарланиш даражасини аниқлаш мақсадида ҳар ойнинг ҳар декедаси йил мобайнида ушбу хўжаликдаги қўйлар визуал усулда текширишлар ўтказилиб улардан топилган эктопаразитлардан намуналар олиниб текширилди. Олинган намуналар лаборатория шароитида микроскоп (МБС – 1, МБС – 2) остида ўрганилганда, намуна олинган 17 бош ёки 33,3 фоиз қўйларда *Hyalomma anatolicum*, *Hyalomma detritum* туридаги эктопаразитлари (нимфа ва етук шакллари) паразитлик қилиш аниқланди. Қолган 33 бош қўйлардан олинган намуналарда эктопаразитлар топилмади.

Баҳор ойларида олиб борган тадқиқотларимиз давомида Нукус туманидаги “Dami-ata” фермер хўжалигидаги мавжуд қўйларни эктопаразитлар билан зарарланиш даражасини ўрганиш мақсадида улардан намуналар олиб ўрганилди.

Текширишлар натижасида 20 бош қўйлардан олган намуналаримизни 8 тасида *Rhipicephalus bursa* эктопаразитини эркаги ва 9 та намунамизда эса унинг урғочи жинси паразитлик қилиши аниқланди, 3 та намунада эктопаразитлар аниқланмади.

Қорақалпоғистон Республикаси Қораўзак туманидаги “Qon‘iratbay-Mexri” фермер хўжалигидаги мавжуд 120 бош қўйларни эктопаразитлар билан зарарланиш даражасини аниқлаш мақсадида намуна олинди ва намуналар лаборатория шароитида фиксатсия қилинди. Ҳавонинг ҳарорати 20 °C ни ташкил қилди. Олинган намуналарни ўрганиш борасида деярли ҳамма олинган намуналар эктопаразитлар билан зарарланганлиги аниқланди ва олинган эктопаразитлар турлари микроскоп ёрдамида кўрилди ва улар битлар ва *Hyalomma detritum*, *Rhipicephalus bursa*, *Hyalomma anatolicum* эктопаразитларининг урғочи ва эркак турлари эканлиги аниқланди. Олинган намуналар СамДВМЧБУНФ ва ВИТИ арахноэнтомология ва акарология лабораторияларида таҳлил қилинди.

Баҳор ойларида (май) Нукус туманидаги “Dami-ata” фермер хўжалигида олиб борилган тадқиқотлар давомида фермер хўжалигидаги 25 бош 1 ва 2,5 ёш-

даги қўйларни эктопаразитлар билан зарарланиш даражасини аниқлаш мақсадида намуналар олинди ва намуналар лаборатория шароитида фиксатсия қилинди. Ҳаво ҳарорати 35°C ни ташкил қилди. Олинган намуналарни барчаси эктопаразитлар билан зарарланганлиги аниқланиб, уларнинг турлари микроскоп ёрдамида аниқланди. Яъни битлар, *Hyalomma detritum* va *Hyalomma anatolicum* эктопаразитларнинг урғочи ва эркак турлари ва бургалар борлиги аниқланди.

Қорақалпоғистон Республикасининг Нукус туманидаги “Qon‘iratbay-Mexri” фермер хўжалигидаги қўйлар ҳамда Қораўзак туманидаги “Қўйбақ” ва Нукус туманидаги “Саманбай” маҳаллаларига қарашли аҳоли хонадонларидаги қўйларни эктопаразитлар билан зарарланишини мавсумий динамикасини ўрганиш борасида олиб борган тадқиқотларимиз таҳлили натижасида таъкидлаш керакки, қўйларнинг эктопаразитлар билан зарарланиш кўрсаткичи қиш фаслида ўртача даражада, баҳор фаслида максимал даражада ва ёз-куз ойларида эса минимал даражада бўлиши аниқланди.

Йилнинг қиш фаслида, яъни декабр-феврал ойларида “Qon‘iratbay-Mexri” фермер хўжалигига қарашли текширилган 120 бош қўйларнинг *bovicola* эктопаразитлари билан зарарланиш экстенсивлиги ўртача 67,5 фоизни, ўртача зарарланиш интенсивлиги 10-30 минг донани, баҳор фаслида, асосан март ойида зарарланиш экстенсивлиги ўртача 77,5 фоизни, зарарланиш интенсивлиги 45-65 минг донани, ёз ойларида, яъни июн-август ойларида зарарланиш экстенсивлиги ўртача 1,2 фоизни, зарарланиш интенсивлиги 1-1,5 минг донани, куз ойларида, яъни сентябр-ноябр ойларида зарарланиш экстенсивлиги 9,1 фоизни, зарарланиш интенсивлиги эса 3-6 минг донани бўлиши қайд қилинди. Худди шу тажриба кузатув ишлари йилнинг қиш фаслида, яъни декабр-феврал ойларида аҳоли хонадонларида текширилган 40 бош қўйларнинг *bovicola* эктопаразитлари билан зарарланиш экстенсивлиги ўртача 75,6 фоизни, ўртача зарарланиш интенсивлиги 15-32 минг донани, баҳор фаслида, асосан март ойида зарарланиш экстенсивлиги ўртача 84,9 фоизни, зарарланиш интенсивлиги 45-70 минг донани, ёз ойларида, яъни июн-август ойларида зарарланиш экстенсивлиги ўртача 2,2 фоизни, зарарланиш интенсивлиги 2-2,5 минг донани, куз ойларида, яъни сентябр-ноябр ойларида зарарланиш экстенсивлиги 12,1 фоизни, за-


Қўйларнинг жунхўр эктопаразитлар билан мавсумий зарарланиши

Т.р.	Хўжалик номи	Хайвон тури	Эктопаразитни ривожланиш фазалари	Мавсумлар бўйича ЭЗ, фоиз			
				qish	Bahor	yoz	kuz
1.	“Qon’iratbay-Mexri” фермер хўжалиги	Қўйлар	Сирка	68,8	72,8	1,5	9,4
			Личинка	65,4	78,4	1,2	9,1
			Имаго	68,3	81,2	1,1	8,9
			Жами ўртача:	67,5	77,5	1,2	9,1
2.	Аҳоли хонадонлари	Қўйлар	Сирка	76,6	84,4	2,7	11,8
			Личинка	72,8	81,8	1,5	11,7
			Имаго	77,4	88,6	2,5	12,8
			Жами ўртача:	75,6	84,9	2,2	12,1

рарланиш интенсивлиги эса 8-10 минг дона бўлиши аниқланди (1-жадвал ва 1-расм).

Намлик даражаси юқори ва санитария талабларига паст биноларда қўйлар сақланганда, уларнинг эктопаразитлар (*bovicola*, маллофаглар, битлар, *Psoroptes ovis* ва бошқа паразитлар) билан кучли даражада зарарланиши кузатилди.

Эктопаразитозлар билан касалланган қўйлар соғлом қўйлар билан бирга боқилганда, озиклантирилганда касалликни соғларига тез юкишига олиб келади, бунда ёш қўзилар катта ёшдаги қўйларга нисбатан кучли зарарланди.



1-расм. Қўйларнинг жунхўр эктопаразитлар билан мавсумий зарарланиш динамикаси

Қайд этиб ўтиш керакки, тадқиқотларда чорвачилик фермер хўжаликларидида боқиладиган қўйларга нисбатан, аҳоли хонадонларида парваришланаётган қўйлар орасида эктопаразитлар билан зарарланиш экстенсивлиги ва интенсивлиги юқори даражада эканлиги кузатилди.

Хулоса.

1. Эктопаразитлар (кана, бит, жунхўр, пат ва пархўрлар) барча турдаги уй, кишлок хўжалиги хайвонлари ва паррандаларда учрайди ҳамда уларда турли эктопаразитоз касалликларини чақиради. Мазкур гуруҳга кирувчи касалликлар мавсумий касаллик бўлиб, айрим турлари билан чорва хайвонлари асосан қиш ва баҳор ойларининг бошида кўпроқ зарарланади (энтомозлар). Бошқа тур эктопаразитозларни қўзғатувчиларининг (акарозлар) фаоллиги март ойининг иккинчи ярми ва апрел ойларидан бошланиб, ёз фаслида (июл-август) ойларидида уларнинг чорва хайвонларини зарарлаш даражасининг энг юқори чўққига чиқиши кузатилди.

2. Қорақалпоғистон шароитида чорвачилик фермер хўжаликларидидаги қўйларда эктопаразитлар, яъни каналарнинг ҳаракатланиш фаоллиги апрел ойининг иккинчи декадасидан бошланиб, энг чўққига чиқиши июн-июл ойларида кузатилиши аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Рўзимуродов, А., Раҳимов, М., Исмоилов, А., Абдуллаева, Д., & Пўлатов, Ф. С. Монография. *Пиретроидлар. Табиий ўчоқли ва трансмиссив касалликлар муҳофазаси. “Zarafshon” наирёти ДК, Самарқанд-2018 й.*

2. Pulatov, F. S., Rakhimov, M. Y., Ismoilov, A. S., Boltayev, D. M., Kamalova, A. I., & Djalolov, A. A. (2023). Ecogenesis of ECTO and Endoparasites in Animals. *Journal of Survey in Fisheries*



*Sciences, 10(3S), 2238-2245.*

3. Ainura, K. (2023). Study of the diseases ixodidosis in experimental experiments. *models and methods for increasing the efficiency of innovative research, 3(28), 190-196.*

4. Ainura, Kamalova. "Distribution of ectoparasites in livestock farms of the republic of Karakalpakstan." *Formation and Development of Pedagogical Creativity: International Scientific-Practical Conference (Belgium). Vol. 1. 2023.*

5. Мавланов С., Камалова А. Қорамолларни иксодидоз касаллигини экспериментал тажрибаларда ўрганиш //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. SpecialIssue 8. – С. 1755-1761.

6. Мавланов, С., Камалова, А., &Маматкулов, У. (2022). Экология энтомофагов. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности, 1(1), 267-271.*

7. Рахимов, М., Исмоилов, А., Шеркулов, А., & Камалова, А. (2024). Фауна и сезонная динамика симбионтов на пастбищах. *inLibrary, 2(2), 30-33.*

8. Kamalova, A. I. (2024). The significance of echinococcosis in veterinary medicine and human life. *Creative Commons Attribution 4.0 International License., 1(5), 90-95.*

9. Камалова, А. И., Мавланов, С. И., Пулотов, Ф. С., &Исмоилов, А. Ш. (2024). "Alpha-shakti" 10% ес препаратининг қорамоллар сути таркибидаги колдигини ўрганиш. *Ustozlar uchun, 1(1), 201-205.*



## “SAPRALIGNIOZ BILAN ZARARLANGAN BALIQ GO‘SHTINI VETERINARIYA SANITARIYA JIXATDAN BAHOLASH”

**Annotatsiya.** Olib borilgan tajribalar shuni kursatdiki Saprolignioz bilan zararlangan baliq go‘shini biokimyoviy tarkibi tekshirilib ya‘ni vodorod ionlari ko‘rsatkichi pH qiymati 7.3 ekanligi aniqlanib bu baliq go‘shlari veterinariya sanitariya jihatidan iste‘molga yaroqsiz ekanligini tajribalarimiz ko‘rsatdi.

**Резюме:** Проведенные эксперименты показали, что проверен биохимический состав мяса рыб, пораженного сапролигниозом, то есть установлено значение pH ионов водорода, равное 7,3.

**Abstract:** The conducted experiments showed that the biochemical composition of the fish meat affected by saproligniosis was checked, that is, the pH value of hydrogen ions was determined to be 7.3.

**Kalit so‘zlar:** Saprolignioz, tilapiya, ekstrakt, vodorod ionlari, pH, saproligniya mixta, peroksidaza, kislorod benzidin, oksid, spirt, probirka, vodorod peroksid, ferment, indikator, mixaelis shkalasi, komparator, rang o‘zgarishi, moviy-yashil rang, jigarrang, musbat, manfiy, yaroqli, yaroqsiz.

**Ключевые слова:** Сапролигния, тилапия, экстракт, ионы водорода, pH, сапролигния микста, пероксидаза, кислородный бензидин, оксид, спирт, пробирка, перекись водорода, фермент, индикатор, шкала Михаэлиса, компаратор, изменение цвета, сине-зеленый цвет, коричневый, положительный, отрицательный, действительный, недействительный.

**Key words:** Saprolignia, tilapia, extract, hydrogen ions, pH, saprolignia mixta, peroxidase, oxygen benzidine, oxide, alcohol, test tube, hydrogen peroxide, enzyme, indicator, Michaelis scale, comparator, color change, blue-green color, brown, positive, negative, valid, invalid.

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimiz aholisini sifatli va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida chorvachilikni barcha tarmoqlari qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilik, keyingi paytlarda parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Sohani rivojlantirish uchun birinchi navbatda uning ilmiy asoslari yaratilishi zarur.

Respublikamizda baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish, baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etgan holda ishlab chiqarish hajmini oshirish, sohani tartibga solish bo‘yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ularning ijrosini sifatli va puxta ta‘minlash choralari ko‘rilmog‘da.

Hozirgi kunda sohaning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda baliqlar kasalliklariga qarshi kurash, oldini olish va diagnostika qilish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ushbu farmon va qarorlarning ijrosi yuzasidan mamlakatimizda ko‘plab amaliy tadbirlar o‘tkazilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 avgustdagi PQ-4816 sonli “Baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida, Respublikamizda baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash, baliqchilik va baliq ovlash xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohada yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda intensiv texnologiyalarning keng joriy etilishini ta‘minlashga katta e‘tibor qaratilgan. Biroq, baliq va baliq mahsulotlarini ko‘paytirishda baliqlarda uchraydigan ayrim kasalliklar, jumladan, baliqlar kasalliklari ushbu sohaning rivojiga ma‘lum darajada to‘sqinlik qilib kelmoqda.

Bugungi kunda ko‘plab havfli kasalliklarning ak-sariyati yetarli darajada chuqur o‘rganilgan, ularni profilaktikasi va davolash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Lekin, joylarda malakali kadrlar talab qilin-

moqda, ular aniq sharoitlarda maqbul bo'lgan va iqtisodiy samarali tadbirlarni tanlay ola bilishi, qaysikim kasalliklardan ko'riladigan zararni oldini olishi va kamaytirishi lozim.

**Tadqiqot obekti va uslublari.** Tajribalar Samarqand tumanidagi "Oq amur" baliqchilik xo'jaligidan keltirilgan saprolignioz bilan zararlangan baliqlarni, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida hamda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining O'zbekistonda veterinariya, biotexnologiya va chorvachilik sohasini rivojlantirish uchun ilmiy kadrlarni intensiv tayyorlash ilmiy biznes inkubatori" MEGA loyihasi «Baliq» tajriba xonasida hamda "Veterinariya sanitariya ekspertizasi" kafedrasida laboratoriyasida olib borildi.

Tajribalar uchun 15 bosh bir yozlik baliqlar ajratib olindi. Baliqlarning saprolignioz bilan zararlangan holatidagi go'shti sifat ko'rsatkichiga ta'siri Peroksidaza reaksiyasi va vodorod ionlari (pH) qiymati baliqning kasal yoki sog'lomligini, istemolga yoroqli yoki istemolga yaroqsizligini hamda yangiligini aniqlashda maqsadida olib borildi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Vazni 600 gr va 1000 gr bo'yi 18-24 sm eni esa 10-15 sm Saprolignioz bilan zararlangan tilapiya baliqlar go'shtini veterinariya sanitariya jihatidan peroksidaza reaksiyasi hamda vodorod ionlari (pH) ko'rsatkichini aniqlash orqali olib borildi.

**I-** Peroksidaza reaksiyasi orqali biz tajribadagi saproligniya mixta bilan zararlangan baliq go'shti ekstrakti tarkibidagi peroksidaza fermenti ta'sirida vodorod peroksid tezda suv va kislorodga parchalandi. Kislorod benzidinni oksidlab, birikma hosil bo'ldi, u oksidlanmagan benzidin bilan birikib, moviy-yashil rangdan jigarrang modda hosil bo'ldi.

Probirkaga tilapiya baliq jabrasidan tayyorlangan ekstraktidan 2 ml (1:10) solinib, benzidinning 0,2 % spirtli eritmasidan 5 tomchi qo'shildi. Probirkaning tarkibi chayqatildi, so'ngra 2 tomchi 1% vodorod peroksid eritmasi qo'shildi.

Peroksidaza reaksiyasi orqali saprolignioz bilan zararlangan baliq go'shti mahsuloti tarkibida peroksidaza fermenti ta'sirida vodorod peroksid tezda suv va kislorodga parchalandi. Kislorod benzidinni oksidlab, birikma hosil bo'ldi, u oksidlanmagan benzidin bilan birikib, moviy-yashil rangdan jigarrang modda hosil bo'ldi.

Saprolignioz bilan zararlangan tilapiya baliq go'shtini peroksidaza reaksiyasi orqali tekshirganimizda manfiy reaksiya berib ko'kish rang hosil bo'lmay, ekstrakt birdan jigarrang tusga kirdi va baliq go'shtlari veterinariya sanitariya jihatidan iste'molga yaroqsiz deb topildi.

Sog'lom baliq go'shtini peroksidaza reaksiyasi orqali tekshirganimizda musbat reaksiya ko'kish rang hosil bo'ldi va ko'kish rang 3-4 daqiqadan so'ng yo'qoldi. Bundan ko'rinib turibdiki biz tajribamizdagi kasal baliq go'shti iste'molga yaroqsiz ekanligi va nazoratdagi baliqlar esa iste'molga yaroqli ekanligi peroksidaza reaksiyasi orqali aniqlandi.

2- guruhdagi baliqlar esa vodorod ionlari (pH) qiymati baliqning kasal yoki sog'lomligini, istemolga yoroqli yoki istemolga yaroqsizligini hamda yangiligini aniqlashda muhim laboratoriya ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, biz ikkinchi bosqich tajribalarimizni ushbu uslubda olib bordik.

Tajribamizdagi sog'lom (normal) baliqning tekshiruvdan o'tkazganimizda pH qiymati neytralga (6,94 pH) yaqinligi aniqlanib, bir necha (8-9) soatlardan so'ng qayta tekshirilganda u ishqoriy tomonga (7,4) o'zgarib boshlaganligi kuzatildi. Baliqning pH qiymati "pH-metr" va Mixaelis komparatori yordamida aniqlandi. Mixaelis komparatoridan foydalanganda biz tomonimizdan tajribalar meta-nitrofenol indikatoridan qo'shish orqali amalga oshirildi.

Baliq go'shtidan ekstrakt tayyorlash uchun 25 gramm go'sht na'munasi oldik hamda 40-50 bo'lakka bo'lib, 250 ml. hajmli kolbaga soldik. Bu kolbaga 100 ml. distillangan suv quyib, yaxshilab aralashirdik. Bu go'sht aralashmasi 15 daqiqa turgandan keyin (shu orada 3 marta qo'zg'atildi har 5 minutda bir marta) qog'oz filtridan o'tkazib, filtrladik.

Sog'lom baliqlar go'shtidan tayyorlangan ekstrakt filtr qog'ozidan tezda o'tdi va bu ekstraktning rangi tiniq bo'ldi. Buzilish jarayoni ketayotgan ya'ni zararlangan baliqlar go'shtidan tayyorlangan ekstrakt filtrlanganda yomon filtrlandi va olingan filtrat loyqali bo'ldi. Bizda tajribamizda filtrlash paytida ekstrakt filtrdan oson va loyqa xolatda o'tgan ikkala filtrat mahsulotdan foydalandik.

Tekshiruvlarimizda vodorod ionlari konsentratsiyasini aniqlashimiz uchun, ikkinchi nomerli probirkaga 2 ml tekshirilayotgan go'sht ekstraktidan quyildi va bunga yana 1 ml indikator (meta-nitrofenol), 4 ml distillangan suv qo'shildi; birinchi, uchinchi, probirka-



larga 2 ml dan go'sht ekstrakti va 5 ml distirlangan suv qo'shildi, beshinchi nomerli probirkaga faqat 7 ml suv quyildi. Komparatorni to'rtinchi va oltinchi xonalariga Mixaelis shkalasida joylashgan, rangi ikkinchi probirkaga o'xshash probirkalar tanlandi, bu tanlangan probirkalarda pH ko'rsatkichi yozilgan bo'lib va biz ikkinchi probirkaga mos bo'lgan ko'rsatkichni aniqlab oldik.

Nazoratdagi: Sog'lom baliqlarning pH qiymati 6,8-7 gacha;

Kasal baliqlarning pH qiymati esa saproligniozda 7,3 va undan yuqori bo'ladi.

Saprolignioz bo'lgan baliq go'shtini vodorod ionlari ko'rsatkichini aniqlaganimizda, ikkinchi probirkaga o'xshash probirkalar tanlaganimizda bizda vodorod ionlari ko'rsatkichi yuqori chiqdi yani pH qiymati 7,2-7,3 chiqdi baliq go'shtlari veterinariya sanitariya jihatidan iste'molga yaroqsiz deb topildi.

Sog'lom baliq go'shtini vodorod ionlari konsentratsiyasi ko'rsatkichini aniqlaganimizda, ikkinchi probirkaga o'xshash probirkalar tanlaganimizda bizda vodorod ionlari ko'rsatkichi (pH) 6.9 ekanligi aniqlandi. Tajribalarmiz shuni ko'rsatdiki, kasal baliq go'shti iste'molga yaroqsiz ekanligi va nazoratdagi baliqlar esa iste'molga yaroqli ekanligini Mixaelis komparatori yordamida aniqlandi.

### **Xulosa**

Saprolignioz bilan zararlangan tilapiya baliq go'shtini peroksidaza reaksiyasi orqali tekshirganimizda manfiy reaksiya berib ko'kish rang hosil bo'lmay, ekstrakt birdan jigarrang tusga kirdi va baliq go'shtlari veterinariya sanitariya jihatidan iste'molga yaroqsiz deb topildi.

Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki Saprolignioz bilan zararlangan tilapiya baliq go'shtini vodorod ionlari ko'rsatkichi pH qiymati 7.3 ekanligi aniqlanib bu baliq go'shtlari veterinariya sanitariya jihatidan iste'molga yaroqsiz ekanligini tajribalarimiz ko'rsatdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. S.Murodov "Veterinariya sanitariya ekspertizasi" darslik Samarqand 2006 yil.
2. A.S. Daminov, Sh.N. Nasimov, V.A. Gerasimchik, S.B. Eshbo'riyev, F.I. Qurbonov Baliq kasalliklari. O'quv qo'llanma. "Navro'z" nashriyoti, Toshkent, 2020.
3. V. M. Poznyakovskiy, O. A. Ryazanova, T. K. Kalenik, V. M. Dasun. Ekspertiza rьby, rьboproductov i ne rьbnykh ob'ektov vodnogo promыsla kachestvo i bezopastnost. Uchebnik. Irkutsk. 2005 g.





UDK: 633:636.3:632.523.619

H.R.Zarifov, *mustaqil izlanuvchi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali assistenti,*  
 A.A.Xoliqov, *ilmiy rahbar, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, dotsenti, v.f.n.,*  
 A.A.Azamatov, *ilmiy maslahatchi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademik S.Yu. Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi instituti, katta ilmiy xodimi, b.f.n.*

## YAYLOVLAR SHAROITIDA QO'YLARNING UCHMA O'TLAR BILAN ZAHARLANISHLARI PATOGENEZI, ZARARLANGAN QO'Y GO'SHTINI BIOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA ZARARSIZLANTIRISH CHORALARINI ISHLAB CHIQISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yaylovlarda o'sadigan zaharli o'simliklar, xususan uchma o'tlar va shu o'simliklarni iste'mol qilgan hayvonlarda (qo'ylar) dagi asosiy patologik o'zgarishlar, diagnost davolash hamda oldini olish usullari, fitotoksin bilan zaharlangan qo'y go'shtini xavfsiz iste'mol darajasini ta'minlash choralari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об основных патологических изменениях в растущих на пастбищах ядовитых растениях, в частности, летучих травах, и животных (овец), употреблявших эти растения в пищу, методах диагностического лечения и профилактики, мерах по обеспечению безопасного уровня потребления баранины, отравленной фитотоксинами.

**Annotation.** This article presents information about the main pathological changes in poisonous plants growing on pastures, in particular, flying grasses, and animals (sheep) that used these plants for food, methods of diagnostic treatment and prevention, measures to ensure a safe level of consumption of mutton poisoned with phytotoxins.

**Kalit so'zlar:** fitotoksin, ataksiya, zaharlanish, konvulsiya, raninkulin, anemonin, protoanemonin, alkaloid, uchma o'tlar, xolin.

**Ключевые слова:** фитотоксин, атаксия, отравление, судороги, ранинкулин, анемонин, протоанемонин, алкалоид, летучие травы, холин.

**Keywords:** phytotoxin, ataxia, poisoning, seizures, ranunculin, anemonin, protoanemonin, alkaloid, volatile herbs, choline.

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda respublikamiz aholisining soni kabi demografik ko'rsatkichlarimiz yuqori sur'atlarda o'sayotgan bir paytda aholiga ekologik toza, sifatli, hamda arzon go'sht va go'sht mahsulotlari yetkazib berish nafaqat tadbirkorlar balki biz veterinarlar oldida turgan yuksak vazifadir.

Hozirgi paytdagi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra respublika miqyosidagi chorvanning 92% qismi aholida 8% ga yaqin qismi esa xususiy yoki davlat chorvachilik komplekslari hissasiga to'g'ri keladi. Shunday ekan yaylovlar sharoitida boqiladigan, aholi qaramog'i va qo'ychilik fermer xo'jaliklarida boqiladigan qo'ylar ko'pincha o'zida alkaloidlar, glikozidlar,

organik kislotalar, glikoalkaloidlar va shunga o'xshash zaharli moddalar saqlaydigan o'simliklarni iste'mol qilishi natijasida zaharlanishlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ushbu soha toksikologiyaning bir bo'limi sifatida qo'ychilik va chorvachilikni boshqa tarmoqlari bilan birgalikda bir maqsad ya'ni biologik xavfsiz, ekologik toza, sifatli, organizm uchun bezarar oziq-ovqat hamda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko'zda tutadi.

Shuning uchun ham soha mutasaddilari bir qator qonun va qonun osti hujjatlari, muhtaram Prezidentimizning qator qaror hamda farmonlari ushbu sohaning naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

Xususan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-maydagi 538-sonli "Yaylovlar to'g'risida"gi qonuni hamda

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi 543-1-sonli qonunning 7.9.14.16-moddalarida ko'rsatib o'tilgan, "Ayrim turdagi yovvoyi o'simliklarning tarqalishi va ularni miqdorini tartibga solish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil 3-martdagi PQ 5017-son "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 18-noyabrda 912-sonli qarorida. "Davlat veterinariya xizmati nazorati ostidagi tovarlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ko'rsatib o'tilgan. Yuqoridagi qonun va qarorlar sohani naqadar muhim ekanligi hamda mavzuning nechog'lik dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Respublikamiz florasi foydali, shifobaxsh o'simliklarga boyligi bilan ajralib turadi. Shuning bilan bir qatorda zaharli o'simliklar ham yaylovlarimizda, daryo va zovurlar yoqalari, adir hamda tog'larda, hatto cho'llarimizda ham keng tarqalgan. Shuning uchun ham yaylovlar sharoitida qoramollar, otlar ayniqsa qo'ylar ko'proq zaharlanadi. Bugungi kunda O'zbekiston sharoitida Qorako'l, mahalliy, Arabi, Histori, Duragay, Merinos, Romanov, Doper, Edilboy hamda Qozog'iston, tojik kabi qo'y zotlari boqilmoqda.

Bugungi kunda chorva ozuqasiga bo'lgan talab 2022-yil oxiri holatiga ko'ra 120 million tonnani tashkil etadi, ammo o'tgan 2022-yil hisobida atigi 47 million tonna ozuqa ishlab chiqarish talabni 40% qismigina bajarilgan hisoblanadi. Ayni vaqtda chorvachilikning klaster komplekslar va mikrofermalar soni ortayotganligi yuqoridagi bajarilmagan qism hisobiga 2023-2024 yillarda bu talabni yanada ortishiga olib keladi. Bu esa ayniqsa yaylovlardan to'g'ri foydalanish eng avvalo ularni yovvoyi, zaharli begona o'tlardan tozalab borishni talab qiladi.

**Muammoni o'rganilish darajasi** Zaharli o'simliklar va ular tarkibidagi toksik zaharlovchi moddalarini o'rganishga hissa qo'shgan olimlardan F.I.Gizze, A.M.Vilner, A.K.Golostinskiy, J.Medijskiy, A.P.Arixov, I.A.Gusnin, N.S.Kojemyakin, P.D.Yevdikimova, V.M.Minervin, N.S.Xoroshev, A.M.Gushin.

O'zbekistonlik olimlardan S.Yu.Yunusov, M.S.Yunusov, S.Sodiqov, X.Z.Ibragimov, D.A.Tovmasyan, A.Abdukarimov.

Qishloq xo'jaligi hayvonlarida quyidagi fitotoksinlar bilan zaharlanish hollari kuzatiladi. Bularga alkaloidlar, glikozidlar, organik kislotalar, terpen moylari va steroidlar, gliko alkaloidlar, sianoglikozidlar, toksalbuminlar, efir moylari, oksalat kislota unumlari kabilari kiradi.


Shulardan ko'proq cho'l ekologiyasiga moslashgan yaylov o'simliklari orasida Ranunculaceae oilasi *Ceratocephalus* turkumi *cer.orthoceras* D.S. *cer. falcatus* Pers turlari to'g'ri tumshuq va ilmoq tumshuq uchma o'tlar, Rossiyaning janubiy qismi, Yevropa, G'arbiy Sibir, Kavkaz, O'rta Osiyo, Turkmaniston, Qozog'iston, O'zbekistonning janubiy viloyatlarida bu o'simliklarni gullash davri fevral-mart oylarida, shimoliy hududlarda esa aprel-may oylarida boshlanadi. Uning gullash davri 7-10 kun davom etadi.



*Cer.orthoceras*

V.N Minervin, N.S.Xoroshev, A.M.Gushin kabi olimlar ushbu uchma o'tlar qo'ylar uchun yuqori zaharliligini takidlaydi. Moskva davlat universitetining o'simliklar biokimyosi kafedrasidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki uchma o'tlar va ularning toksikligi undagi protoanemonin miqdori bilan bog'liq.

To'g'ri- tumshuq uchmaning rivojlanish fazalarida protoanemonin miqdori quyidagicha: gullashdan oldin quruq modda tarkibida 0,43%, to'liq gullash



Uchma o'tlar tarkibidagi toksik alkaloidlarning har xil fazalarda hosil bo'lishi

davrida 1,93%, barg gullash davrida 1,57%.ni tashkil etadi.

Uchma o'tlar va ayiqtovonlar tarkibi jihatdan o'xshash anemonin, protoanemonin, raninkulin alkaloidlarini saqlaydi. C.orthoceras D.S tarkibida yana gamma-lakton, protoanemonin, raninkulin, karotinoidlar, flavonoidlar, qatron, anemanol, efir moylari, organik kislotalar, xolin va boshqa birikmalar mavjud.

Yuqoridagi birikmalar ta'sirida zaharlanishning klinik belgilari namoyon bo'ladi.

**Klinik belgilari** Uchma o'tlar bilan asabiy qo'zg'aluvchanlik (nerv buzilishlari) kuchayishi, ataksiya, depressiya (tushkunlik) kabi klinik belgilar to'satdan paydo bo'ladi. V.N Minervin takidlashicha zaharlanish belgilari hayvon o'limidan biroz oldin seziladi. Kasal qo'ylar ovqat va suv iste'mol qilmay qo'yadi, hayvonda gipersalivatsiya, qusish, kavsh qaytarishning to'xtashi, qorinda kuchli og'riq, ich ketishi (diareya), qon aralash ich o'tishi, gemokolit, gemoturiya. Qo'ylar podadan orqada qoladi, to'rtala oyoqlarini oldinga uzatib yotib qoladi. Bezovtalanish, mushaklarda titrash, qaltiroq, ko'z qorachig'i kengayishi, puls tezlashadi, so'ngra susayadi, ayrim hayvonlar oyog'ida tura olmaydi. Zaharlangan qo'ylar boshlarini orqaga tashlab ag'anaydi. Tana harorati normal holatda yoki 0.5-1°C gacha ko'tariladi, ko'pincha bola tashlash (abort) ham kuzatiladi. Emizikli ona sovliqlarda sut bilan ham zaharlanishlar ya'ni qo'zilarida ich ketishi bilan kechadi.

**Dastlabki patologik anatomik** tekshirishlarda yurak qon tomir tizimi shikastlanishi hodisasi birinchi o'rinda kuzatiladi. Yurak endokarditida, o'pkada, taloq va buyraklarda qon to'planish, tangasimon qon quyilishlar hamda gematomalar hosil bo'lishi, ko'krak va qorin bo'shlig'ida qonli suyuqlik gemotransudat, limfa tugunlari shishgan, o'pka shishgan, jigarrangda, ko'pikli suyuqlik to'plangan bo'ladi. O't pufagi ham

suyuqlik bilan to'lgan va kattalashgan, oshqozon oldi bo'limi, ichaklar yallig'langan, gemorragiya yuzaga keladi. Hayvonda gemofilik (qon ivimaslik) holati ham kelib chiqadi. Umumiy qilib aytganda gemoenterokolit, buyrakda gemoturiya yuzaga keladi. Jigar kattalashgan parenximasi yumshoq konsistensiyada, tashqi tomondan sarg'ish dog'lar ko'rinadi.

**Tashxis** Yaylovlar florasi qoplamini geografik zonalarini biologik tekshiruvlardan o'tkazish, o'simlik tarkibidagi zaharli fitotoksinni aniqlovchi ya'ni  $J_2 + KJ$  eritmasi yordamida ishlov berish orqali aniqlanadigan reaksiya natijalariga ko'ra, hayvonni podada kuzatish, anamnez, klinik belgilari, patanatomik yorib ko'rish natijalari shu o'rinda shirdon massasida fitotoksin bor yoki yo'qligini nitroprussid + NaOH va  $CH_3COOH$  yordamida aniqlash, toksikologik tekshiruvlarda alkaloidlarga xos reaksiyalar hamda express gaz-suyuqlik, rangli xromatografik tekshiruvlar, sut va go'shtni veterinariya sanitariya ekspertiza tekshiruvlaridan o'tkazish hamda biokimyoviy, pH ko'rsatkichlarini aniqlash, peroksidaza, formalin reaksiyalari orqali qo'yiladi.

**Davolash usuli** Umumiy antidot sifatida 0,1% li atropin sulfat teri ostiga 2mg/kg yuboriladi yoki NaCl ning 0,9 % 100 ml eritmasiga Natriy tiosulfatning 30% li 20 ml eritmasidan qo'shib vena qon tomiri orqali yuboriladi. Adsorbentlardan faol ko'mir tabletkasi har 10kg ga 1 tabletkaga, oshqozon ichakni yuvish uchun  $NaHCO_3$  ning 1-3 %li 300-500ml miqdorda ishlatiladi. Qondagi zaharli modda konsentratsiyasini pasaytirish va qon o'rinbosarlaridan gemodez yoki 0,9 % NaCl ning vitaminlar bilan birgalikda qon tomirdan yuboriladi. Nerv faoliyatini normallashtirish uchun Kofein natriy benzoat

20 % 2ml miqdorda yoki strixinin tritrat 0,1% li 2ml miqdorda teri ostiga yuboriladi. Jigar faoliyatini me'yorlashtirish uchun apkasul, essensial forte, karsil



yoki gepatoprotektor Liv 52 tabletkasini qo'llash tavsiya etiladi. Diuretiklar sifatida furasemid 0,1% li eritmasidan 2 ml muskul ichiga yuboriladi. Kasallik yengil kechganda tuzala boshlagan hayvonlarga donli atala, sut yoki qaynatilgan ildiz mevalardan tayyorlangan parhez ozuqalar beriladi.

**Oldini olish** chorasi sifatida yaylovlarda qo'ylar ushbu o'simlik gullagan vaqtda ya'ni mart-aprel oylarida boqilmasligini ta'minlash lozim. Yaylovlarni botanik tekshirib o'simlik tarqalgan hudud yaylovlarini zonlashtirib yaylovlarni o'zgartirib boqish, ayniqsa ushbu o'simlik o'sadigan hududlarda qo'ylarni biroz to'qlab keyin boqish ya'ni bunda kam miqdorda iste'mol qilish natijasida zaharlanish yengil kechadi. Chunki qo'ylar zaharlanishi uchun maxsus tajribalarda o'rgangan chet ellik olimlar tadqiqotlarida qo'ylar ushbu o'simlikdan bir kunda 1300gr gacha iste'mol qilganda nobud bo'lgan. Bundan tashqari qorako'l qo'ychilik shirkatlari va boshqa qo'ychilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga borib cho'ponlarga yaylovdagi zaharli o'simliklar qoplami to'g'risida botanik ya'ni ularni vegetatsiya davri hamda toksikligi to'g'risida ma'lumotlar va tavsiyalar berish lozim.

**Xulosa:** Zaharli o'simliklar tarkibidagi alkaloidlar qo'y organizmiga zararli ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda hayvon go'shtining sifat ko'rsatkichlarini buzadi. Ushbu o'simliklar organizmda mahalliy gepatotoksik va pantrop ta'siri, toksigenlik xususiyatlari tufayli qo'ylar mahsuldorligini pasayishiga, go'sht mahsulotining sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Арестова И.Г “Ветеринария токсикология”, “Минск” Урожай 2000
2. Бакиров. Б “Хайвонлар касалликлари” Самарканд 2019
3. Вильнер А.М “Кормовые отравления сельскохозяйственных животных” Ленинград 1966 г.
4. Голоснитский А.К “Профилактика отравлений животных растительными ядами” Москва 1979 г
5. Гусынин И.А “Захарли усимликлар токсикологияси” монография Москва 1962.
6. Ибрагимов Х.З, Хабиёв М.З, Бабаев П.Б, Товмасын Д.А “Растительные токсикозы сельскохозяйственных животных Ўзбекистана” Тошкент 1979 г
7. Машковский М.Д “Лекарственные средства” I-II том 1977-1983 г
8. Никитина Э.В “Киргизистон СССР яйловларидаги захарли, захарли ейилмайдиган ўсимликлари” 1959 й
9. Привалова Е.Г, Мирович Б.М “Основы фитотоксикологии обзор растительных объектов” Элементы фитохимического анализа. Иркутск растительными И МУ 2018 г
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 2005 й
11. Хамидов.А, Набиев.М, Одилов.Т “Ўзбекистон ўсимликлар аниқлагичи” Тошкент 1987 й
12. Интернет сайтлари  
[www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)  
[www.Arxiv.uz](http://www.Arxiv.uz)  
[www.Library.uz](http://www.Library.uz)





UDK 615.19; 615.213; 614.283

Safarov Madadjon begmurog o'g'li<sup>1</sup>, Jalilov Fazliddin Sodiqovich<sup>2</sup>, Abbosov Nurali Nosirovich<sup>1</sup>, Abduraimov Abbas Abduqaim o'g'li<sup>1</sup>, Baratov Jaxongir Nurmuxammadiyevich<sup>1</sup>, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar unversitetining Toshkent filiali. Assistenti<sup>1</sup> Alfraganus Universiteti<sup>2</sup>  
[safarovmadad@gmail.com](mailto:safarovmadad@gmail.com) [dr.fazliddin@gmail.com](mailto:dr.fazliddin@gmail.com)

## O'ZBEKISTON VETERINARIYA FARMATSEVTIKA BOZORIDA MAVJUD SIPERMETRIN DORI VOSITASINING DORI SHAKLI BO'YICHA TAHLILI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida mavjud insektitsid vosita sipermetrinning bozorga kirib kelish dinamikasining ishlab chiqarilish shakli, asosiy ta'sir etuvchi moddaning foizi kabi ko'rsatkichlari orqali kontent tahlili natijalari keltirilgan.

**Annotation:** This article presents the results of the content analysis of the dynamics of the entry of the insecticide cypermethrin into the market of the veterinary pharmaceutical market of Uzbekistan by means of such indicators as the production form, the percentage of the main active substance.

**Аннотация:** В данной статье представлены результаты контент-анализа динамики поступления инсектицида циперметрина на рынок ветеринарно-фармацевтического рынка Узбекистана по таким показателям, как форма выпуска, процентное содержание основного действующего вещества.


**Kirish.** Sipermetrin jahon bozorida 1970-yillarning boshlarida paydo bo'lganiga qaramay, bu birikma hozirda dunyoda eng ko'p qo'llaniladigan insektitsid hisoblanadi asosan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan neyrotoksik zahardir. Hashorotlar organizimiga tushganda asab impulslarining uzatilishini buzadi, bu esa falajlanish va o'limga sabab bo'ladi. Yuqori harorat va ultrabinafsha nurlarga nisbatan ancha chidamli bo'lganligi sababli, ishlov berilgan maydonda uzoq muddat saqlanadi 20-30 kun davomida. Hashoratlardan himoya qilish muddati 10-15 kunni tashkil etadi. Bundan tashqari, u repellent xususiyatga ega. Qishloq xo'jaligida donli maxsulotlar bug'doy, arpa, jo'xori, va boshqa ekinlarni zararkunanda hashoratlardan, veterinariya va chorvachilikda hayvonlarni bezovta qiluvchi hashoratlardan himoyalash uchun ishlatiladi.

**Ishning maqsadi.** O'zbekiston Respublikasi veterinariya farmatsevtikasi bozorining ma'lum bir qismini tashkil etgan insektitsidlar guruhiga mansub kimyoviy himoya vositalarining toksikologik ahamiyatini inobatga olgan holda ushbu preparatlarning O'zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida tutgan o'rni tahlilini o'tkazish.

**Material va metodlar.** O'zbekiston Respublikasi veterinariya sohasida, qishloq xo'jaligida qon so'ruvchi hashorotlar va kanalar, o'simlik zararkunandalari,

kasalliklariga va begona o'tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari ro'yxatida qishloq xo'jaligida ishlatish uchun tavsiya etilgan hayvonlarni, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari yaxlit ro'yxatini, ulardan samarali va bezarar foydalanishning asosiy mezon va me'yorlarini joriy etadi. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, Veterinariya dori vositalari, ozuqabop qo'shimchalar sifati va muomalasi nazorati bo'yicha davlat ilmiy markazi saytida keltirilgan reestr ma'lumotlari asosida O'zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida ishlatiladigan insektitsidlar va akaritsidlarning kontent tahlili amalga oshirildi[8].


**Natijalar va ularning tahlili.** Bunda 2023-yildagi ro'yxat ma'lumotlariga asosan O'zbekiston hududida umumiy 14 nomdagi veterinariya amaliyotida qo'llash uchun tavsiya qilingan sipermetrin dori vositalari ro'yxatdan o'tganligi ma'lum bo'ldi. Sipermetrin kimyoviy vositasining dori shakli bo'yicha tahlili amalga oshirildi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, insektitsidlar va akaritsidlarining dori shakli bo'yicha tahlili natijasida ularning katta ulushini, ya'ni 57 % emulsiya shaklida ekanligi aniqlandi. Keyingi o'rinda suspenziya 29 %, kukun 14 %, ekanligi ma'lum bo'ldi.



3-rasm. Sipermetrinning dori shakli bo'yicha tahlili

#### Asosiy ta'sir qiluvchi moddaning foizi bo'yicha tahlil natijalari

Tadqiqotni keyingi bosqichida O'zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida mavjud insektitsid vositalar orasida yetakchi bo'lgan vosita sipermetrinning asosan 10 %, va 25 % li ko'rinishda ishlab chiqarilgan shakllari mavjudligi aniqlandi.



4-rasm. Asosiy ta'sir qiluvchi moddaning foizi bo'yicha tahlil natijalari



**Xulosa:** Natijalardan ko'rinib turibdiki O'zbekiston Respublikasi veterinariya farmatsevtikasi bozorida insektitsid vositalar guruhiga kiruvchi sipermetrin dori vositasi 3 xil dori shaklida bozorda mavjud bo'lib, ularning katta ulushini emulsiya 57 % shakldagi dori vositalar tashkil qildi. Asosiy ta'sir qiluvchi moddaning foiz ko'rsatgichi tahlili bo'yicha asosan 10 % va 25 % li ko'rinishda ishlab chiqarilganligi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Yu. Salimov, F.S. Jalilov, K.B. Hamzayev, M.B. Safarov. "Veterinariya farmakologiyasi" fani bo'yicha o'quv uslubiy majmua, Toshkent-2022

2. М.Б. Сафаров; Ф.С. Жалилов; Н.Н. Аббосов; Р.Қ. Нормаматов. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида ишлатиладиган инсектицидлар ва акарицидлар ва уларнинг қўлланилиш шакллари. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*. 2, 3 (May 2023), 36–41.

3. Yu. Salimov, F.S. Jalilov, K.B. Hamzayev, M.B. Safarov. "Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi" fani bo'yicha o'quv uslubiy majmua, Toshkent-2022

4. Abbosov, N. N., Jalilov, F. S., Safarov, M. B., & Normamatov, R. Q. (2023). o'simliklar himoyasi uchun ishlatiladigan fungitsidlarning o'zbekiston bozorida tutgan o'rni. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 2(3), 42-48.

5. Safarov, M., Normamatov, R., Abbosov, N., & Sayfullayeva, M. (2023). analysis of insecticides and acaricides used in the territory of the republic of uzbekistan. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(8), 26-29.

6. Safarov, M., Jalilov, F., Abbosov, N., & Mahbuba, S. (2023, October). o'zbekiston veterinariya farmatsevtikasida qo'llanilayotgan insektitsidlar va akaritsidlarni asosiy tasir etuvchi moddasi bo'yicha tahlili. In "Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 10, pp. 129-130).

7. M. B. Safarov, N. N. Abbosov, G. A. Mengliyev, K. B. Hamzaev, M. E. G'oyipova F. S. Jalilov, L. T. Pulatova. O'zbekiston bozorida o'simliklar himoyasi uchun ishlatiladigan insektitsidlar va akaritsidlarning assortiment Tahlili. //International journal of agrobiotechnology and veterinary medicine jurnali 2022/12/26 Tom 2 B. 26-31.

8. <http://gnkc.uz/>

## QORAMOLLAR OZUQA MIKOTOKSIKOZINING DIAGNOSTIKASI VA OLDINI OLISH

**Annatsiya.** Ushbu maqolada qoramollar ozuqalari va ozuqaviy qo'shimchalarida uchraydigan mikotosinlar haqida fikrlar keltirilgan bo'lib, ular hayvonlarning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda mikotoksinlarga qarshi ishlab vositalar haqida ma'lumotlar keltirilgan

**Аннотация.** В этой статье приведены данные про микотоксины которые могут встречаться в кормах и кормовых добавках, микотоксины могут привести к отравлению скота с микотоксикозами. Которые отрицательно влияют на здоровье животных а также методов борьбы с микотоксинами.

**Summary.** This article provides an overview of mycotoxins in livestock feeds and nutritional supplements, their adverse effects on animal health and productivity, and methods developed by scientists to combat mycotoxins.

**Kalit so'zlar:** mikotoksikozlar, mikotoksin, aflotoksin, oxrotoksin, zearalenon, T-2 toksini, okratoksin A, DON, trixotesenlar, ergovalin va lolitrom-B.

**Ключевые слова:** микотоксикозы, микотоксин, афлотоксин, охротоксин, зearаленон, токсин T-2, ократоксин A, ДОН, трихосени, эрголини и лолитром-В.

**Key words:** mycotoxicoses, mycotoxin, aflatoxin, ochratoxin, zearalenone, T-2 toxin, ocratoxin A, DON, trichoseni, ergolini and lolitrom-B.

**Kirish.** Mikotoksikozlar chorvachilikning iqtisodiy jihatdan global muammolaridan biri bo'lib, bugungi kunda asosiy oziq-ovqat xafvsizligiga tahdidir. Tarixga murojaat qiladigan bo'sak sobiq ittifoq davlatlarida mikotoksinlar o'tgan asrning 30-50-yillarida olimlar va amaliyotchilarning e'tiborini tortdi. Ushbu davrda tadqiqotchilar birinchi bo'lib F. sporotrichioides bilan zararlangan don tovuq va o'rdaklarda fusariotoksikoz, hamda mikromitset bilan zaharlangan don mahsulotlari esa o'n minglab odamlarning hayotiga zomin bo'lganligini aniqladi. [Ivanov va boshqalar, 2008].

Olimlar tomonidan o'rganilayotgan mikotoksinlarning ko'pchiligi uchta avlod: Aspergillus, Penicillium va Fusarium mog'or zamburug'lari tomonidan hosil bo'ladi. Qoramollarda mikotoksikoz qo'zg'atuvchi mikotoksinlarning asosiy turlariga aflatoksinlar, T-2 toksinlari, fumonisinlar, zearalenon, oxratoksinlar va disoksinivalenon kiradi.

Muayyan turdagi mikromitsetalar tomonidan sintez qilingan mikotoksinlarning turlari va miqdori ko'plab omillarga bog'liq: mog'or paydo bo'ladigan substrat turi, namlik, ozuqa moddalarining mavjudligi, harorat, zamburug' koloniyasining etukligi, boshqa mikroorganizmlar bilan raqobat, stress omillari, substratlarga jismoniy shikastlanish (hasharotlar, zararkunandalar) va boshqalar. [Diaz va boshq., 2006].

Qishloq xo'jalik ekinlari, ozuqalar va ozuqaviy

qo'shimchalarning mikotoksinlar bilan ifloslanishi bu sanoatning muqarrar qismidir. Qoramollarning deyarli barcha asosiy ozuqalari mikotoksinlar bilan-pichan, somon, silos, don, konsentratlar zamburug'lar tomonidan zararlanadi. Avstraliyada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, hayvon ozuqa namunalarining deyarli 50 foizi bir yoki bir nechta mikotoksinlar uchun ijobiydir.

Naslli qoramollar mikotoksinlarga juda sezgir. Lekin aniq klinik belgilar bilan o'zini namoyon qilmasligi mumkin, ammo sut mahsuldorligining kamayishi, bep-ushtlik va abortlarning (bola tashlash) ko'payishi bilan harakterlanadi.

Bugungi kunga kelib, 500 dan ortiq mikotoksinlar ma'lum bo'lib, ularning aksariyati hayvonlarga toksik ta'sir ko'rsatadi. Eng keng tarqalgan va xossalari eng ko'p o'rganilgan: aflatoksinlar, oxratoksin, fumonisin, trikotesenlar guruhidan ba'zi mikotoksinlar va zearalenon.

**Asosiy qism.** Mikotoksikoz mog'or qo'ziqorinlari, ya'ni ularning toksinlari keltirib chiqaradigan kasalliklarga ishora qiladi. Bu butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan muammo bo'lib, asosan harorat va namlik yuqori bo'lgan iqlim sharoitida keng tarqaladi.

Ko'pgincha mikotoksikozlar yirik shoxli hayvonlarda uchraydi, shu bilan bir qatorda uy va ekzotik hayvonlarda jiddiy epidemiyalar shaklida paydo bo'lishi mumkin.

**Mikozlar va mikotoksikozlar, patogenlar va infektsiya manbalari 1-jadvalda keltirilgan**

Kasallik/ toksin	Zamburug' yoki mog'or	Zaharlangan zaharli oziq-ovqat turlari	Zararlanadigan hayvonlar
Aflatoksikoz/Aflatoksinlar	Aspergillus flavus, parazit	Mog'orlangan yeryong'oq, soya, paxta chigiti, guruch, jo'xori, makkajo'xori, boshqa donlar	Barcha parrandalar, cho'chqalar, qoramollar, qo'ylar, itlar
Ergotizm/alkaloid xayollari	Claviceps purpurea	Ko'k o'tlarning urug' boshlari, donlar	Qoramollar, otlar, cho'chqalar, parrandalar
Estrogenizm va vulvovaginit, Zearalenon	Fusarium graminearum Ideal lager: Gibberella zeae	Mog'orlangan makkajo'xori va granullangan don, yemlar, tik makkajo'xori, makkajo'xori silosu, boshqa donlar	Cho'chqalar, qoramollar, qo'ylar, parrandalar
Yuz ekzemas (pitomikotoksikoz)	Pithomyces chaturum	Yaylov qoldiqlaridagi zaharli sporelar	Qo'y, qoramol, dehqonchilik kiyiklari
Cho'chqalarda fusariotoksikoz, qusish va yemdan voz kechish, Makrosiklik bo'lmagan trixotesenlar	Fusarium sporotrichioides, Fulmorum, F graminearum, Fnivale; Zamburug'larning boshqa turlari	Donli ekinlar, mog'orlangan dag'al xashak	Cho'chqalar, qoramollar, otlar, parrandalar
Mikotoksik lupinoz/Fomopsinlar	Phomopsis leptostromiformii	Urug'lar, donlar, somon va xashaklar	Qo'ylar, vaqti-vaqti bilan qoramollar, otlar, cho'chqalar
Mirotetiotoksikoz, dendrodotoksikoz/Makrosiklik trikotesenlar (verrukarinlar, rorodinlar va boshqalar)	Myrothecium verrucaria, M roridum	Javdar sopi va somoni mog'orlangan xashak	Qo'ylar, qoramollar, otlar
Okratoksikoz/Okratoksin, sitrin	Aspergillus ochraceus va boshqalar, Penicillium viridicatum, P citrinum	Mog'orlangan arpa, makkajo'xori, bug'doy	Cho'chqalar, parrandalar
Penitsiliy bilan bog'liq tremoroglar/Penitrem A	P crustosum, P cyclopium, P kommuna	Don, tvorog, mevalar, go'sht, yong'oqlar, sovutilgan ovqatlar; kompost	Qoramollar, itlar, otlar, qo'ylar
Cho'chqalarda o'pka shishi/Fumonisin B 1 va Fumonisin B 2	Fusarium verticilloides	Makkajo'xori	Cho'chqalar
Staxibotryotoksikoz/makrosiklik trikotesenlar (saratoksin, roridin, verrukarin)	Stachybotrys atra (S alternans)	Mog'orlangan dag'al, boshqa ifloslangan ozuqa	Otlar, qoramollar, qo'ylar, cho'chqalar

Kasallik subklinik bo'lib, tashxis qo'yish qiyin. O'tkir yoki surunkali toksikozlar har xil saprofit yoki fitopatogen zamburug'larning o'sishi natijasida hosil bo'lgan toksinlar yoki don, pichan, somon hamda boshqa yemlarda mog'or paydo bo'lganda toksinlar bilan ifloslangan ozuqa yoki to'shamalar ta'sir qilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Mikotoksikozning boshqa kasallikalardan farqli jihatlari:

- 1) Sababni darhol aniqlash mumkin emas.
- 2) Bir hayvondan boshqasiga o'tmaydi.
- 3) Dori vositalri yoki antibiotiklar bilan davolash kasallikning kechishiga kam ta'sir qiladi.
- 4) Kasallik ko'pincha mavsumiydir, chunki iqlimning ma'lum o'zgarishlari zamburug'larning ko'payishi va toksin ishlab chiqarishni rag'batlantirishi mumkin.
- 5) Ma'lum oziq-ovqatlar bilan o'ziga xos aloqada bo'ladi.

6) Ozuqani tekshirish paytida topilgan ko'p sonli zamburug'lar yoki ularning sporalari toksinlar ishlab chiqarilishini ko'rsatmaydi.

Biroq, mog'orning yo'qligi mikotoksikozni istisno etmaydi, chunki ozuqani saqlash yoki tayyorlash jarayonlarida, ya'ni ozuqaga kislotalar bilan ishlov berishda yoki granula qilishda issiqlikka bardoshli mikotoksin saqlanib qolganda mog'orni o'ldirishi mumkin.

Ba'zida ozuqalarda bir nechta xil mikotoksinlar bo'lishi mumkin va ularning turli xil toksikologik xususiyatlari hayvonlarga eksperimental ravishda sof yagona mikotoksinlar ta'sirida kuzatilganlarga mos kelmaydigan klinik belgilar va zararlanishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

**Mikotoksikozning belgilari:**

Mikotoksikoz turiga, mikotoksinga, ishlatilgan dozaga va ta'sir qilish davriga qarab farqlanadi:

- Diareya.



- Falaj yoki muvofiqlashtirishni yo'qotishi.
- Vazning kamayishi yoki tuxum ishlab chiqarish/inkubatsiya qobiliyati yo'qolishi.
- Jigar kattalashishi.
- Otopsiya belgilari.
- Oshqozon va ichakning shilliq pardalari shikastlanishi.
- To'qimalarda turli qon ketishi.
- Jigar va buyrak shikastlanishi - jigar kattalashishi va yog' distrofiyasi bo'lishi mumkin, yoki safro tutilishi yoki o'smalar bo'lishi mumkin.
- Turli darajadagi enterit paydo bo'lishi mumkin.
- Gidroperikard.
- Rangsiz suyak iligi.
- Bursa Fabriciusning regressiyasi.
- Oshqozon eroziyasi.

**Diagnoz.** Mikotoksikozlar bilan zaharlangan hayvonlarga diagnoz aniq klinik belgilar asosida hamda laboratoriyada ozuqa namunalaridan mikotoksikozlarni topish orqali qo'yiladi.

**Mikotoksikozning oldini olish.** Diagnoz aniqlangandan so'ng, mikotoksikozlarni odatda dori vositalari bilan muvaffaqiyatli davolash qiyinchilik tug'diradi.

Mikotoksikozlarning oldini olish, xavf omillarini kamaytirish va toksik ta'sirni oldini olish yoki kamaytirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- yuqori sifatli ozuqa bilan ta'minlash va ozuqalarni to'g'ri saqlash sharoitlaridan foydalanish;
- oshqozon-ichak traktida toksinning adsorbsiyasi yoki inaktivatsiyasi;
- o'rim-yig'im paytida shubhali donlarni sindan o'tkazish, saqlash joylarini toza va quruq saqlash, saqlash joylarida mog'or o'sishini nazorat qilish uchun kislota qo'shimchalaridan (masalan, propion kislotasi) foydalanish;
- silos saqlash joylarida samarali ventilyatsiyani ta'minlash;
- tayyorlangan yemlarni saqlash vaqtini qisqartirish.

Kislotali qo'shimchalar mog'or o'sishini yo'qatadi, lekin oldin hosil bo'lgan toksinlarni yo'q qilmaydi. Mikotoksinlar uchun maxsus antidotlar mavjud emas; toksin manbasini olib tashlash (y'ni mog'orlangan ozuqa) keyingi ta'sirni yo'q qiladi. Aluminosilikatlar ba'zi mikotoksinlarning (masalan, aflatoksin) so'rilishini samarali ravishda oldini oladi.

Agar mikotoksikozga gumon qilinsa, yo'qotish choralari quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) Muayyan mikotoksin aniqlanmagan bo'lsa ham, ozuqani o'zgartirish.
- 2) Saqlash idishlarini, aralashtirish uskunalari va oziqa tarqatuvchilarni sekin qoliplash yoki chiriyotgan hidlarni ehtiyotkorlik bilan tekshirish.

3) Zararlangan yemni olib tashlash va jihozlarni tozalab va gipoxlorit (kir yuvish vositasi) bilan dezinfektsiya qilish.

4) Mikotoksinlar uchun tahlil o'tkazish.

5) Mog'or zamburug'lari mavjudligi aniqlash uchun havo va namunalarida mikrobiologik monitoring o'tkazish.

6) Saqlash sharoiti yomon yoki don namligi yuqori bo'lsa, mog'or rivojlanishini kamaytirish yoki kechiktirish uchun mog'orga qarshi vositalardan foydalanish. Lekin mog'orga qarshi vositalar oldin hosil bo'lgan toksinlarni yo'q qilmaydi.

7) Mikotoksin adsorbentidan foydalanish.

Zararlangan ozuqada mikotoksinlarning adsorbsiyasi juda tez o'tadi. Aflatoksinlar aluminosilikat ozuqaviy qo'shimchalari bilan samarali adsorbsiyalanadi. Maxsus ishlab chiqilgan **Klinotoksil** mikotoksin adsorbenti don va ozuqada mavjud bo'lgan toksinlarni o'ziga singdiradi, ularning hayvonlar organizmidagi miqdorini kamaytiradi, cho'chqalar, qoramollar, parrandalar kasalliklanishini oldini oladi, ovqat hazm qilish organlari va najasdagi ammiak miqdorini kamaytiradi. hayvonlarda tajovuzkorlik va qo'zg'aluvchanlikni pasaytiradi.

**Xulosa.** Ozuqa xomashyosini tanlash, xom ashyo tarkibidagi suv miqdorini kamaytirish va tegishli saqlash sharoitlarini ta'minlash orqali mikotoksikozning oldini olish mumkin.

Antifungal ozuqa qo'shimchalaridan foydalanish mumkin, ammo ular allaqachon hosil bo'lgan toksinlar bilan kurasha olmaydi.

Baliq uni va donli ozuqalar ayniqsa mikotoksinlarga sezgir hamda ularni 3 haftadan ortiq saqlanmaslik kerak.

Yemni paketlash qo'ziqorinlarni kamaytirishi mumkin, ammo toksinlarga ta'sir qilmaydi.

Ba'zi mineral qo'shimchalar mikotoksinlarni bog'lashi va ularning ta'sirini kamaytirishi aniqlangan.

## Adabiyotlar

1. Mikotoksikologiya asoslari bilan tibbiy mikologiya / ed. Leontieva D.V., Serbina A.G – 2010 yil.
2. Ivanov A.V., Fisinin V.I., Tremasov M.Ya., Papunidi K.X. Mikotoksikozlar (biologik va veterinariya jihatlar). M.: "Kolos", 2010.
3. Ivanov A.V., Fisinin V.I., Tremasov M.Ya., Papunidi K.X. Mikotoksinlar (ozuq-ovqat zanjirida). M.: FGBNU "Rosinformagrotex", 2012.
4. Kononenko G.P., Burkin A.A. Chorvachilik fermalarida pichan va silosning mikotoksinlar bilan ifloslanishi to'g'risida // Qishloq xo'jaligi biologiyasi. 2014 yil. 6-son.
5. Kryukov V.S. Ozuqaning mikotoksinlar bilan ifloslanish darajasini va adsorbentlarning samaradorligini baholash // Mahsuldor hayvonlar biologiyasi muammolari. 2014 yil. 3-son.

## YOSH TOVUQLARDA KOLIBAKTERIOZINI OLDINI OLISHDA ANTIBIOTIKLARNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Farg'ona viloyatining parrandachilik xo'jaliklarida parvarish qilinib kelinayotgan yosh tovuqlar orasida bugungi kunda ko'plab uchrab turadigan va kelib chiqish darajasi yuqori hisoblangan kolibakterioz kasalligining tarqalishi, kasallikni keltirib chiqaruvchi omillar va sabablari, iqtisodiy zarari, diagnostikasi hamda kasallikni kelib chiqishini bartaraf etish bo'yicha bir qator dolzarb ma'lumotlar yoritib berilgan. Bundan tashqari maqolaning asosiy mazmun mohiyati yosh jo'jalar orasida kolibakterioz kasalligini kelib chiqishi va tarqalishini oldini olish maqsadida Rossiya federatsiyasi maxsuloti hisoblangan Oflosan antibiotigidan foydalangan holda bir qator antibiotiklar bilan birga tajriba guruhlarida sinab ko'rib, boshqa antibiotiklarga nisbatan samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va ishlab chiqarishga samarali antibiotiklarni tadbiq etishga oid ma'lumotlar bayon qilingan.

**Аннотация:** В данной статье приводится ряд современных сведений о распространенности колибактериоза, который в настоящее время широко распространен и имеет высокую заболеваемость среди молодняка кур, выращиваемого в птицеводческих хозяйствах Ферганской области, факторах и причинах возникновения заболевания, его экономическом ущербе, диагностике и ликвидации заболевания. Кроме того, основное содержание статьи заключается в том, что с целью профилактики возникновения и распространения колибактериоза среди молодняка кур проведено испытание антибиотика Офлосан, производства в Российской Федерации, в опытных группах с рядом антибиотиков, а также сведения о внедрении эффективных антибиотиков в производство и определении показателей их эффективности по сравнению с другими антибиотиками.

**Annotation:** This article provides a number of current information on the prevalence of colibacillosis, which is currently common and has a high incidence among young chickens raised in poultry farms in the Fergana region, the factors and causes of the disease, its economic damage, diagnostics, and elimination of the disease. In addition, the main content of the article is that in order to prevent the occurrence and spread of colibacillosis among young chickens, the antibiotic Oflosan, a product of the Russian Federation, was tested in experimental groups with a number of antibiotics, and information on the introduction of effective antibiotics into production and the determination of their effectiveness indicators compared to other antibiotics.

**Kalit so'zlar:** Oflosan, Aliseryl ws, E.coli, zoogigiyena, klon, mutant, antigen, fermentativ, virulentlik.

**Ключевые слова:** Офлосан, Алисерил ws, E.coli, гигиена животных, клон, мутант, антиген, ферментативный, вирулентность.

**Keywords:** Oflosan, Aliceryl ws, E.coli, animal hygiene, clone, mutant, antigen, enzymatic, virulence.

**Mavzuning dolzarbligi.** Parrandachilik chorvachilik sohasining eng serdaromad tarmoqlaridan biri hisoblanib, o'tgan davr mobaynida iqtisodiy islohotlar sharoitida faoliyat ko'rsata boshlagan bir qator fermer va dehqon xo'jaliklari hamda oilaviy tadbirkorlar ham mazkur sohani afzal ko'rmoqdalar. Yaratilgan sharoit va imkoniyatlar chorvachilik sohasi, shuningdek parrandachilik tarmog'i mutaxassislari hamda ilmiy tadqiqotchilarni zimmasiga aniq vazifalar qo'yib, katta mas'uliyatlarni yuklaydi. Parrandachilikda mavjud

imkoniyat va ishlab chiqarish zahirasidan to'la foydalanilmasdan kelinmoqda. Bu borada muhim vazifa parrandalarni sog'lom asrab o'stirish va mahsuldorligini oshirish hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, parrandachilikka sezilarli darajadagi iqtisodiy zarar ayrim yuqumli va invazion kasalliklar hamda parrandalarni asrash va oziqlantirish bilan bog'liq kamchiliklar oqibatida sodir etilmoqda. Xususan, kolibakterioz kasalligi bilan kasallangan parrandalarda o'rtasida o'lim ko'rsatkichi 75 % gacha kuzatila-

di. Shuning uchun ham parrandalarning kolibakterioz kasalligini epizootologiyasini, kechish xususiyatlarini va tashhis usullarini o'rganish, davolash va oldini olishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasallik vaqtida organizmda moddalar almashinuvi intensiv kechganligi sababli to'liq ratsionli oziqa bilan oziqlantirish maqsadga muvofiqdir. Tovuqlar sanoat asosida boqilib asralayotganda bosh sonlari ko'p bo'lib ular cheklangan joylarda, sun'iy yorug'likda to'shamalar ustida yoki simli katakchalarda saqlaniladi. Inkubatsiyadan ochib chiqayotgan jo'jalar bir kunligidan boshlab har haftada bir marta toki 120 kunligigacha, ya'ni katta tovuqlar guruhiga o'tguniga qadar profilaktik emlash rejasi asosida infeksiya kasalliklarga qarshi emlanadi. Tayyor oziqalar texnika yordamida mexanik moslamalar orqali tarqatiladi. Chunki, kasallik vaqtida E.coli-ichak tayoqchalari ichak tizimida rivojlanganligi uchun oziqa moddalarning so'rilishiga to'sqinlik qiladi va so'rilish jarayonlarining qiyinlashuvi hisobiga, ular o'sish va rivojlanishdan ortda qoladi. Kelajakda bunday parrandalarning mahsuldorlik ko'rsatkichi past bo'ladi. Ularni davolash uchun sarf xarajatlar miqdori ortib, xo'jalikka iqtisodiy zarar yetkazadi. Shuning uchun ham bu kasallikni o'rganish, oldini olish va davolash tadbirlarini doimo takomillashtirib, antibiotiklarni qo'zg'atuvchilarning sezgirlik darajasiga moslab qo'llab, uning oldini olish orqali parrandalarning bosh sonlarini saqlab qolib, yuqori mahsuldorlikka erishish veterinariya xizmatining dolzarb vazifasi bo'lib hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Kolibakteriozni oldini olishda Oflosan antibiotigini boshqa antibiotiklarga nisbatan samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

**Tadqiqotning usullari.** Oflosan antibiotigini samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida «LO-MANN SENDI» zotiga mansub 90 kunlik 45 bosh yosh tovuqlar tanlab olinib 3 guruhga 15 boshdan taqsimlandi va birinchi tajriba guruhiga Oflosan antibiotigi, ikkinchi tajriba guruhiga Aliseryl ws antibiotigi berilib, tajriba guruhlaridagi yosh tovuqlarning saqlanuvchanlik ko'rsatkichlari va tirik vaznining ortishiga qarab antibiotiklarning samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlandi.

**Tadqiqotning material va metodlari.** Tadqiqotlar jarayonidagi profilaktika tadbirlari Farg'ona viloyati Farg'ona tumani "TOJIXON NIHOLLARI" fermer xo'jaligida parvarish qilinayotgan yosh tovuqlar orasida o'tkazildi.

Foydalanilgan antibiotiklar: - Oflosan - tarkibi ofloksatsin.

Qo'llanilishi – og'iz orqali suv bilan berish uchun. 1ml preparat 1litr suvda eritilib, 3-5 kun davomida beriladi. Rossiya federatsiyasi, OOO"Apitsenna" maxsuloti.

- Aliseryl ws – tarkibi oksitetratsiklin.

Qo'llanilishi – og'iz orqali suv bilan berish uchun. 1 gr preparat 1 litr suvda eritilib, 5-7 kun davomida beriladi. Gollandiya maxsuloti.

Xo'jalik sharoitida ushbu mavzuda o'tkaziladigan ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish uchun dastlab «LO-MANN SENDI» zotiga mansub 90 kunlik 45 bosh yosh tovuqlar tanlab olindi va 3 guruhga 15 boshdan taqsimlandi. Xar bir guruhdagi yosh tovuqlar ham xo'jalik sharoitida asralib, birinchi tajriba guruhiga 5 kun davomida Oflosan antibiotigi 1ml + 1 litr suvga aralashtirilib berildi.

Ikkinchi tajriba guruhidagi yosh tovuqlarga esa 7 kun davomida Aliseryl ws antibiotigi 1 gr + 1 litr suvga aralashtirilib berildi.

Uchinchi tajriba guruhidagi yosh tovuqlar esa o'zaro taqqoslash uchun nazorat guruhi vazifasini o'tadi.

So'ngra tajriba guruhidagi yosh tovuqlarning klinik holati va o'sishi hamda rivojlanishi nazorat guruhidagi parrandalarga taqqoslab taxlil qilindi. Amaliy sinov tajribasi o'tkazilgan ushbu guruhlardagi yosh tovuqlar muntazam nazorat qilinib borildi.

**Tadqiqot natijalari:** Birinchi tajriba guruhiga Oflosan antibiotigi qo'llanilganda yosh tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasi 100 foizni, tirik vaznining o'sishi esa 127,5 foizni tashkil qildi.

Ikkinchi tajriba guruhiga esa Aliseryl ws antibiotigi qo'llanilganda yosh tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasi 86 foizni, tirik vaznining o'sishi esa 125,8 foizni tashkil qildi.

Uchinchi nazorat guruhidagi yosh tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasi esa 53 foizni, tirik vaznining o'sishi esa 78,5 foizni tashkil qildi.

Shunday qilib, birinchi tajriba guruhidagi yosh tovuqlarning saqlanuvchanligi 100 foizni tashkil etib, antibiotik olmagan nazorat guruhiga nisbatan 47 % yuqori natijaga erishildi.

Ikkinchi tajriba guruhida yosh tovuqlarning saqlanuvchanligi esa 86 foizni tashkil etib, antibiotik olmagan nazorat guruhiga nisbatan 33 % yuqori natijaga erishildi.



**Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani “TOJIXON NIHOLLARI” parrandachilik xo‘jaligida kolibakteri-  
ozni oldini olishda Ofosan antibiotigining samaradorlik ko‘rsatkichlari**

T/r	Guruhlar nomi	Preparatlar nomi	Dozasi va qo‘llash uslubi	Tovuqlar bosh soni	Saqlanuvchanlik (bosh hisobida)	Saqlanuvchanlik (% hisobida)
1	Tajriba	Ofosan	1 ml-1 litr suv bilan	15	15	100
2	Tajriba	Aliseryl ws	1 gr – 1litr suv bilan	15	13	86
3	Nazorat	-	-	15	8	53

**Xulosalar.** Parrandachilik xo‘jaliklarida yosh tovuqlarni zoogigiyenik talablarga mos keladigan binolarda saqlash, oziqlantirish sifatini yaxshilash va sanitariya talablarini bajarish kolibakterioz kasalligini kelib chiqishini oldini olishda muhim vazifalardan hisoblanadi.

- Ofosan antibiotigi ishlab chiqarish sharoitida parrandalarning kolibakterioz kasalligini oldini olish maqsadida qo‘llanilganda yosh tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasi 100 % ko‘rsatkichda qayd etildi,

-shuni takidlash joizki, Ofosan antibiotigi jo‘ja va tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasini oshiribgina qolmasdan, ularning tirik vaznini ortishi va me‘yorda o‘sib rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatganligini inobatga olib, ushbu muolajani parrandachilik xo‘jaliklarida kolibakterioz kasalligini oldini olish va davolash maqsadida qo‘llash tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Bakirov B.B., Ro‘ziqulov N.B. va boshqalar “Hayvonlar kasalliklari” (ma‘lumotnoma) 2015 yil.
2. Bozorov X.K., A.Xo‘jamshukurov., X.Esonov. Tovular kolibakteriozi va pullorozini davolash hamda oldini olishda yangi antibiotiklarning samaradorligi. J. — Zooveterinariya №4. 2012 yil. 12-13 bet.
3. Davlatov R.B., Ibragimov D. Jo‘jalarning eymerioz va kolibakterioz kasalliklarining assotsiativ kechishi va profilaktika chora tadbirlari. Sam MI iqtidorli yoshlarning ilmiy ishlar to‘plami. Samarqand 2006 yil.
4. Davlatov R.B., Salimov X.S., Xo‘damshukurov A.N. “Parrandalar kasalliklari”, O‘quv qo‘llanma, Samarqand-2018.
5. Davlatov R.B., Nasimov SH.N., Niyozov X.B., Jabborov SH.A., Xo‘damshukurov SH.A., Safarov X.A. “Parranda kasalliklarini profilaktikasi va davolash bo‘yicha TAVSIYALAR” Toshkent 2019 yil.





## “ДИРОНЕТ 1000” PREPARATINING TAENIA HYDATIGENAGA TASIRI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada itlarning sestodoz kasalliklaridan biri bo'lgan (*Taenia hydatigena*) ning kelib chiqish sabablari, biologiyasi va qarshi kurashishda “ДИРОНЕТ 1000” antigelmintik preparatining samaradorligi haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

**Аннотация.** В статье приведены краткие сведения о причинах возникновения, биологии и эффективности антигельминтного препарата «ДИРОНЕТ 500» в борьбе с *Taenia hydatigena* – одним из цестодозов собак.

**Abstract.** This article provides brief information about the causes, biology and effectiveness of the anthelmintic drug “DIRONET 1000” in the fight against *Taenia hydatigena*, one of the cestodosis diseases of dogs.

**Kalit so'zlar:** *Taenia hydatigena*, skoleks, germofradit, *Cysticercus tenuicollis*, pirantel pomoat, prazikvantel, ivermectin.

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizning chorvachilik tarmog'iga mayda va yirik shoxli hayvonlarning sistiserkozi katta iqtisodiy zarar keltirishini barcha fermer xo'jaliklari misolida yillar davomida kuzatishimiz mumkin. Shuning uchun bu borada turli qarorlar ishlab chiqildi, qator izlanishlar, ilmiy tajribalar yanada kuchaytiradi. O'zbekiston Respublikasi Pezdidentining 2022 yil 8-fevraldagi PQ 121-sonli “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustaxkamlash chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarori misol bo'la oladi hamda sohani yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Respublikamizda sifatli va yetarli miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan birga ularni turli talofatlardan asrash, har xil kasalliklarning oldini olish orqali ham iqtisodiy samaraga erishish mumkinligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida yil mavsumida abiotik ekologik omillar (havo namligi, harorat, atmosfera bosimi) keskin o'zgarib turadi. Ushbu ekologik omillar barcha tirik organizmlarga, shu jumladan sestodozlarning taraqqiyotiga, ularning asosiy va oraliq xo'jayinlari organizmiga o'z tasirini ko'rsatadi.

Qo'ychilik xo'jaliklarida uchraydigan sestodoz kasalliklar chorvachilikka iqtisodiy zarar yetkazish bilan bir qatorda inson salomatligiga ham katta xavf tug'diradi.

Qo'ylar sistiserko'zi (*Cysticercus ovis*) subklinik ko'rinishda kechuvchi sestodoz bo'lib, qo'ylarning asosan charvisida yani yog' to'qimalarida parazitlik

qiladi. Kasallikni *Taenia hydatigena* ning lichinkalik shakli *Cysticercus tenuicollis* keltirib chiqaradi. Kasallik qo'zg'atuvchisining asosiy xo'jayini it, bo'ri, shog'ol va boshqa go'shtxo'r hayvonlar hisoblanadi. Kasallik organizmning allergik javob qaytarilishi bilan xarakterlanadi. Kasallikning boshlang'ich (o'tkir) davrida oshqozon-ichak faoliyatining buzilishi (ich ketish), tana haroratining ko'tarilishi, xolsizlanish, qorin devorini paypaslaganda og'riq sezishi kuzatiladi. Keyingi davrda klinik belgilar sezilmaydi, hayvon oriqlab borishi hamda ko'rinadigan shilliq pardalarning anemiyasi kuzatiladi.

T.H.Сивкова, Е.А.Доронин-Доргеленский (2018) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning ayrim mamlakatlari-da, jumladan Sharqiy Efiopiyada 26,0 %, G'arbiy Avstraliyada 20,5%, Saudiya Arabistonida 23,0% qo'ylarda kasallik uchrashi aniqlangan.

A.O.Oripov, R.B.davlatov, N.E.Yo'ldoshev (2016) ma'lumotlariga ko'ra, Respublikamizda bu kasallik qo'y-echkilarda 70,0-80,0% gacha uchrashi aniqlangan.

**Taenia hydatigena** - (*Cysticercus tenuicollis*)ning voyaga yetgan shakli hisoblanib it, bo'ri, shog'ol va boshqa go'shtxo'r hayvonlarning ingichka ichaklarida parazitlik qilib yashaydi. Uning uzunligi 5 m, kengligi 7,5 mm. gacha keladigan tasmasimon, bo'g'inlarga bo'lingan sestodadir. Teniyalarning skoleksda ikki qatorda joylashgan 26-44 ta har xil kattalikdagi ilmoqchalar bilan qoplangan. Skoleks faqat xo'jayin organlarida uning shilliq pardasini shimib, mustaxkam xolda

*Itlardagi Taenia hydatigena ga qarshi “ДИРОНЕТ 1000” preparatini qo‘llash*

№	Rangi	Yoshi	Jinsi	Tirik vazni kg	Berilgan antigelmantik miqdori	Berilgan antigelmantik turi
1	Qora ola	3	Urg‘ochi	25	1 tabletka	“ДИРОНЕТ 1000”
2	Sariq	2	Erkak	29	1 tabletka	
3	Oq	1	Urg‘ochi	31	1 tabletka	

yopishish vazifasini bajaradi. Skoleksdan keyingi qismi qismi parazitning bo‘yni bo‘lib, bu o‘shish zonasidir. U yerdan asta sekin yangi yangi bo‘g‘inlar (stobilalar) o‘sa boshlaydi. Har bir bo‘g‘in ichida orgaqlar sistemasi joylashgan. Yetuk segmentlarda genital tuberkulyarlar aniq ko‘rinadi, ular teng ravishda almashadilar. Yetuk segmentlarda bachadon 20-25 lateral shoxlari bo‘lgan magistralga o‘xshaydi.

**Qo‘zg‘atuvchining biologiyasi.** Voyaga yetgan parazit hayvonlar tezagi bilan minglab tuxumlar saqlovchi yetilgan bo‘g‘inlar ajratadi. Bazan bo‘g‘inlar ichaklarda yoriladi va tezak bilan parazit tuxumlari ham chiqadi. Chiqqan bo‘g‘inlar harakat qilib, yorilib tashqi muhitga tuxumlarni tarqatadi. Oraliq xo‘jayin hisoblanuvchi qo‘ylar mazkur bo‘g‘in va tuxumlari bilan zararlangan ozuqa va ichimlik suvi orqali kasallanadi. Oshqozon-ichak tizimiga tushgan teniya tuxumlaridan onkosfera ajralib chiqib, ingichka ichakning shilliq pardasini teshib, kapilyar qon tomirlariga o‘tadi va qon-limfa oqimi bilan muskul to‘qimalari, yurak, jigar va charviga borib joylashadi, u yerda rivojlanib, 3 oydan keyin sistiserk pufagini hosil qiladi.

It, bo‘ri, shog‘ol va tulkilar sistiserk pufagini istemol qilib zararlanadi va parazit 3-3,5 oy ichida jinsiy voyaga yetgan shaklga aylanib, organizmda ko‘p yil yashashga qodir.

**Tadqiqotning maqsadi.** Respublikamizning qo‘ychilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarida qo‘ylar orasida asosiy sestodozlardan biri hisoblangan Cysticercus tenuicollis ning epizootologik holatini o‘rganish, oldini olish maqsadida ularning asosiy xo‘jayini hisoblangan itlarni gijjasizlantirishda yangi antigelmantik preparatlarni sinovdan o‘tkazishdan iborat.

**Tadqiqot obekti va usullari.** Tadqiqotlarimiz Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti “Gelmintozoonoz” laboratoriyasining tajriba hayvonlarini saqlash maydonchasida hamda gavda yorish honasida K.I.Skriyabinning noto‘liq gelmintologik yorish usulida o‘tkazildi.

**Tadqiqot natijalari.** Qishloq xo‘jalik hayvonlari orasida turli xil parazitlar kasalliklarning tarqalishida itlar muntazam ishtirok etishi sababli, ularni gijjasizlantirib borish- sestodozlarga qarshi tadbirlar orasidagi muhim va samarali hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz davomida itlarni gijjasizlantirishda Rossiya Federasiyasida ishlab chiqarilgan “ДИРОНЕТ 1000” antigelmantik preparatlarning tasirini o‘rganish maqsadida tajribamiz asosida sinovdan o‘tkazildi.

Biz tadqiqotlarimiz davomida “Gelmintozoonoz” laboratoriyasi tajriba hududida saqlanayotgan, sistiserk pufaklari bilan suniy zararlangan 3 bosh itlarda olib bordik. Itlar laboratoriyaning tajriba hududida

*Itlarning tezak namunasini gelmintokopologik tekshirish natijalari*

№	Rangi	Yoshi	Jinsi	Tirik vazni (kg)	Berilgan antigelmantik miqdori	Tekshirish natijalari (T.hydatigenia)
1	Qora ola	3	Urg‘ochi	25	1 tabletka	topilmadi
2	Sariq	2	Erkak	29	1 tabletka	2 nusxa
3	Oq	1	Urg‘ochi	31	1 tabletka	1 nusxa

maxsus kataklarda 1 boshdan qilib 3 guruhga ajratilgan.

“ДИРОНЕТ 1000” (1 ta tabletka tarkibida pyrantel pomoat – 450 mg, prazikvantel – 150 mg, ivermectin 0,18 mg) saqllovchi preparat bo’lib 1 ta tabletka 30 kg tirik vazn hisobida berildi.

Biz tadqiqotlarimiz davomida tajribadagi itlarning har kg tirik vazniga qarab antigelmintik preparatini berdik, ya’ni itlarning tirik vazni o’rtacha 25-30 kg bo’lganligi sababli har bir itga 1 tadan tabletka berildi.

Tajribadagi itlarga antigelmintik preparati berilgandan so’ng 72 soat ichida itlarning tezak namunalari gelmintokaprologik tekshirildi. Tekshirish natijalari quidagi jadvalda bayon etilgan.

Tajribadagi *T.hydatigenia* bilan suniy zararlantirilgan itlarga “ДИРОНЕТ-1000” preparatini berganimizda 1 bosh itning tezak namunasidan 1 nusxa, 1 bosh itning tezak namunasidan esa 2 nusxadan parazit ajralib tushdi. 1 bosh itning tezak namunasidan esa parazit topilmadi.

Tezak namunalarini gelmintokoprologik tekshirilganidan keyin yakuniy diagnoz qo’yish uchun “Gelmintozoonoz” laboratoriyasining gavda yorish honasida K.I.Skriyabinning noto’liq gelmintologik yorish usuli bilan itlarning ingichka ichak tizimi tekshirildi.

Ingichga ichaklar tekshirilganda 2 bosg itning ichagidan 2 tadan skoleks topildi. Tekshirishlar natisasiga ko’ra “ДИРОНЕТ 1000” preparatining samaradorligi 93,0 % ni tashkil etganligi aniqlandi

#### Xulosalar

1. Qo’ylar orasida *Cysticercus tenuicollis* ning tarqalishida itlar muntazam ishtirok etishi sababli, ularni gijjasizlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Itlardagi *Taenia hydatigena* ga qarshi yangi antigelmintik preparatlardan “ДИРОНЕТ 1000” preparatining samaradorligi 93,0 % ni tashkil etdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Бессонов А.С. “Тениоз Taenia solium-цистицеркоз”. Монография. Москва 1996.
2. Бессонов А.С. “Цистный эхинококкоз и гитатидоз”, Монография. Москва 2007.
3. Oripov A.O., Davlatov R.B., Yo’ldoshev N.E. “Veterinariya gelmintologiyasi”. O’quv qo’llanma. Toshkent, 2016.
4. Сивкова Т.Н., Доронин-Дорнгеленский Е.А. “Ларвальные цестодозы. Биология, патология, Ветеринарно-санитарная экспертиза и контроль”. Учебное пособие. 2018.





## MAVZU: “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGINING GLOBAL VA MILLIY MUAMMOLARI HAMDA DOLZARB VAZIFALARI”

**Annotatsiya.** Oziq-ovqat xavfsizligi - bu global ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi. Ushbu maqolada oziq-ovqat xavfsizligining asosiy jihatlari, oziq-ovqat xavfsizligining global va milliy muammolari, xalqaro hamkorlik va dolzarb vazifalari tahlil qilinadi.

**Anotation.** Food security is an issue of global importance. This article will analyze the main aspects of food security, global and national problems of food security, international cooperation and current tasks.

**Аннотация** Продовольственная безопасность-это вопрос глобального значения. В этой статье будут проанализированы основные аспекты безопасности пищевых продуктов, глобальные и национальные проблемы безопасности пищевых продуктов, международное сотрудничество и текущие задачи.

**Kalit so'zlar:** Oziq-ovqat xavfsizligi, xalqaro hamkorlik, global, milliy muammolar, FAO, so'ngi tadqiqotlar, milliy mahsulotlar, qishloq xo'jaligi.

**Kirish.** Oziq-ovqat xavfsizligi insonning istalgan vaqtda sog'lom turmush tarzini kechirish uchun zarur bo'lgan elementlarga boy va xavfsiz ovqatlanishi imkoniyatiga ega bolish demakdir. Shu sababdan aytishimiz mumkinki, hozirgi globallashuv jarayonida dunyo mamlakatlarida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan sifatli va sotib olish imkoniyati doirasida taminlash muhim bir masalagan aylandi.

Mustaqil yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida, qo'lga kiritilayotgan yuksak natijalar, eng avvalo iqtisodiyotimizning yangicha mazmun va mohiyat kasb etib borishi, mustaqil taraqqiyot yo'lining to'g'ri tanlanganligi, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat strategiyalarining har tomonlama puxta asoslangan hamda xalqimizning fidokorona mehnati eng asosiy omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini yanada yaxshilashga yo'naltirilgan qator qarorlar va me'yoriy xujjatlar istiqbolning ilk kunlaridanoq qabul qilingan bo'lib, jumladan 1997-yil Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi buning yaqqol misolidir. Qonunda aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsuloti bilan ta'minlashning huquqiy asoslarini belgilab berilgan [1].

Prezidentimizning 2018-yil 16-yanvardagi "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash" to'g'risidagi farmoniga nazar tashlaydigan bo'lsak, farmon mazmun mohiyati yurtimiz bozorlarini arzon, sifatli, va xavfsiz oziq-ovqat bilan to'ldirish, xalqimizning savdo imkoniyatlarini yaxshilab, sog'lom raqobatni shakllantirish imkoniyatini beradi. Shunday qilib ushbu sohani rivojlantirish va yanada takomillashtirish bugungi kun uchun nafaqat moddiy balki iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir [2].

**Oziq-ovqat xavfsizligi: global va milliy muammolar**

Barchamizga ma'lumki oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi dunyo mamlakatlarining oldida turgan global, dolzarb va milliy muammolari hisoblandi. Barcha rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda ham oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish borasida qilinayotgan samarali ishlarga qaramasdan, oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmining oshishi aholi sonining ortishidan orqada qolmoqda. Bu esa sohani rivojlantirish uchun yetarli sharoit mavjud bo'lmagan mamlakatlarda muammoning yanada chuqurlashib borayotganligini ko'rsatadi.

Dunyo aholisi sonining ortishi, iqtisodiy muammolar, tabiatning o'zgarishi va boshqa bir qancha omillar

sababli yer yuzida ozi-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish yanada qiyinlashib bormoqda. BMT tashkilotida va Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti malumotlariga tayanib aytamizki, hozirgi kunda yer yuzida 840 milliondan ortiq inson, yani har 8 odamdan biri to'yib ovqatlanmaydi. Oxirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki dunyo aholisining 30 foizidan ko'prog'i to'yib ovqatlanmasligi sabali organizm uchun zarur hisoblangan mikroelementlar va vitaminlar yetishmovchiligi muammosidan aziyat chekmoqda. Dunyoning 52 mamlakatida ochlikning jiddiy, xavotirli, va favqulotda jiddiy darajalari ko'rsatilgan. Buning oqibatida yer yuzida 160 milondan ortiq bolalarda bo'yining o'sishi, jismoniy va shaxsiy rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan muammolar yuzaga kelmoqda. Keyingi 3 yilda esa bu ko'rsatgich oshib borgani qayd etilgan [3].

Mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini dunyoga eksport qilmoqda va bu chet davlatlarning oziq-ovqat xavfsizli ta'minotiga yetrlicha hissa qo'shayotganligidan dalolat beradi. Yurtimiz esa dunyo hamjamiyatining yuksak etirofiga sazovor bo'lmoqda. Shu jumladan BMTning "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti" FAO ning 2015-yilda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha maxsus mukofotiga erishgan dunyodagi 14 davtning biri sifatida yurtimizning e'tirof etilganligi ushbu sohadagi izchil siyosatimizga berilgan munosib baho ekanligini ko'rishimiz mumkin.

FAO mutaxassislarining ta'kidlashiga ko'ra, oziq-ovqat xavfsizligi quidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi, bular barqarorlik, oziq-ovqat mavjudligi, oziq-ovqatga ega bo'la olish va foydalanish. Shunday ekan insonlarning oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash mamlakat oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligining bir qismi hisoblanadi. Yurtimiz aholisining asosiy oziq-ovqat turlariga bo'lgan talabini qondirish, oziq-ovqatning narxini va uning sifatligini ta'minlash hamda uning xavfsizligi davlat tomonidan ta'minlanishi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi [4].

Ushbu sohada yurtimizda insonlarni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va ularni yetishtirish bo'yicha strategik jihatdan maqsadli va izchil chora tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yurtimizda yigirma million tonnadan ortiq meva-sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi va oxirgi yillarda 800ming tonnadan ortiq oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash sig'imiga ega bo'lindi. Lekin bu hozirgi ehtiyojimizga kamlik

qiladi. Shu sabali ishlab chiqargan mahsulotlarimizni saqlash eng kamida 10 foizga oshirilsa, aholimizni yillar davomida bir xil narxlarbob oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyatimiz paydo bo'ladi [3].

### Xulosa

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligiga erishish qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati va savdo tarmog'ida strategiya va dasturlarning ijrosiga bog'liqligini hisobga olgan holda soha va tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish lozim [3].

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, yer yuzida oziq-ovqat taqchilligi ortib borayotgan bir vaqtda, mamlakatimiz ichki talabini qondirish, tashqi bozordan yurtimizga import bo'ladigan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni maksimal ravishda kamaytirish imkonini beradigan chora-tadbirlarni yanada samarali hamda sifatli amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shu jumladan ayni damda dunyodagi murakkab siyosiy vaziyat ishtirokchisi bo'lgan davlatlarning o'zaro bir biriga bo'lgan sanksiyalar qo'llashi paytida, dunyo bozorlarida vujunga kelishi mumkin bo'lgan tovarlar va mahsulotlar aylanmasidagi ehtimoliy uzilish va to'xtashlardan samarali foydalangan holda, yurtimizda yetishtiriladigan milliy mahsulotlarimiz eksporti hajmini ko'paytirish imkoniyatidan unumli foydalanib qolishimiz maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Bu tadbirlar yakunida olinishi mumkin bo'lgan qo'shimcha daromadlar oziq-ovqat va qishloq xo'jalik sohasida ish olib borib, qaysidir sabablar bilan to'xtalishlar yuz berayotgan iqtisodiyotimiz tarmoqlarini yangilash va tiklash uchun sharoit yaratibgina qolmay, balki yurtimiz iqtisodiy jihatidan o'sishiga yetrlicha hissa qo'shadi [4].

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.08.1997 yildagi 483-I-son <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash to'g'risida"gi farmoni. Toshkent 2018-yil 16-yanvar]
3. <https://zarnews.uz/uz/post/oziq-ovqat-xavfsizligi-uning-mohiyati-nimada> R.Siddiqov, Oliy Majlisi Senati, Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisining o'rinbosari.
4. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar"(Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 5/2023, sentabr-oktabr (№ 00067) Global oziq-ovqat tanqisligi va milliy oziq-ovqat xavfsizligi: Bojxona aspektida xavf omili sifatida Quvatova Zaxro Orifjonovna Bojxona qo'mitasining Bojxona institutining o'qituvchisi.
5. Internet ma'lumotlari <https://lex.uz>

## ИНВАЗИОН КАСАЛЛИКЛАР НАТИЖАСИДА ҲОСИЛ БЎЛГАН ЗАҲАРЛАРНИНГ ҲАЙВОН ОРГАНИЗМИГА ТАЪСИРИ

**Аннотация:** Ушбу мақолада инвазион касалликларнинг тарқалиш даражаси, инвазион касалликлар натижасида ҳосил бўлган заҳарларнинг ҳайвон организмига ҳамда ҳайвонот дунёсидан олинган маҳсулотларнинг инсонлар организмига салбий таъсирлари келтирилган.

**Калим сўзлар:** гельминтлар, гельминтоз, паразитология, эхинококкоз, ценуроз, инвазия, фацеллэз.

**Мавзунинг долзарблиги:** Чорвачилик мамлакатимиз қишлоқ хўжалигининг муҳим тармоғи бўлиб, қишлоқ аҳолисини бандлиги ҳамда даромадини таъминлаш, ички истеъмол бозорини экологик тоза, сифатли чорво маҳсулотларига бўлган эҳтиёжини қондиришда муҳим аҳамиятга эга. Чорвачилик соҳасини илмий асосда таъкил этиш, ишлаб чиқаришга илғор технологиялар, замонавий фан ютуқларини қўллаш орқали уларни маҳсулдорлигини оширишга катта этибор қаратилмоқда.

Ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишга оид Давлат дастурида ветеринария хизматларини яхшилаш ва эпизоотик вазиятни барқарорлигини таъминлаш бўйича ўта долзарб вазифалардан бири бўлиб ҳисобланади. Бугунги куннинг муҳим вазифаси қишлоқ хўжалик ҳайвонларининг турли инвазион касалликларидан муҳофаза қилиш улардан олинадиган маҳсулотларни инсон организмига салбий таъсирини камайтириш долзарб вазифалардан бири бўлиб ҳисобланади.

**Тадқиқотнинг мақсади:** Чорвачилик фермер хўжаликларида инвазион касалликларининг тарқалиши уларни ҳайвон организмига салбий таъсирлари ҳамда инвазион касал ҳайвонлардан олинадиган маҳсулотларни инсон организмига таъсирларини ўрганиш. Қушхоналарда инвазион касалликлар билан касалланган ҳайвонлар организмларининг клиник, ветеринария-санитария экспертизаси, патологоанатомик ва морфологик текширишлар олиб бориш.

**Тадқиқотлар таҳлили.** Инвазион касалликлар дунёда кенг тарқалган хавфли гельминтоз ва зооантрапаноз касаллик бўлиб, муаллифлар такидлашча қорамоллар орасида парамфистоматозни инва-

зия экстенсивлиги ҳайвоннинг ёшига боғлиқ ҳолда пропорционал тарзда ошиб бориши кузатилган. Қорамолларда парамфистоматозни ҳайвонларнинг ёшига нисбатан ортиб бориши улар қайтқ-қайта супер инвазияланиши билан боғлиқ деб ҳисоблайди. Ҳайвонлар ва одамлар орасида эхинококкоз ва ценурозларни тарқалишига итлар асосий сабабчи ҳисобланади. Муаллифни текширишларидан маълумким итларда 33,0 фоизга мултицепслар билан, 21,2 фоиз эхинококклар ва 24,2 фоизга тени гидатигенлар билан зарарланганлиги аниқланган. Сурув итларини мултицепслар билан 35,7 фоизга, эхинококклар ва тени гидатигенлар билан 25,0 фоизга зарарланганлиги аниқланган. 2004 йилда баён этилган маълумотларга кўра Қароқолпоғистон худудида парамфистоматоз қорамолларда ўртача 2,12 фоиз, шимолий минтақаларда 3,6 фоиз, марказий минтақасида 2,2 фоиз зарарланганлиги аниқланган. Сўнгги йилларда паразитар ва инвазион касалликлар билан қорамолларнинг касалланиш даражаси 60,0 фоиз ва ундан ортиқ бўлиши кузатилмоқда. Парамфистоматозларнинг этиологияси ва эпизоотологиясида *P.cervi* асосий тур бўлиб ҳисобланади. Республика-миз худудида трематодозлар орасида фасциолёздан ташқари бошқа трематодозлар, ориентобильгарциоз ва парамфистоматозларнинг локал тарқалиш хусусиятига эга эканлиги қайт этилган. Парамфистоматоз касалликларини тарқалиши учун кўпчилик ҳудудларда шароит етарли эканлиги кўрсатилиб, бу касалликни локал ўчоқлари Самарқанд вилоятининг кўпгина туманларида пайдо бўлганлиги, олди олинмаса, касалликлар кенг тарқалиши мумкинлиги ҳақида маълумотлар келтирилган 2005-2009 йилларда Самарқанд вилоятининг кўпгина туманларида олиб борган тадқиқотлар натижасида



қорамолларнинг 50-80 фоизи парамфистоматозларга чалинганлигидан далолат беради

**Текшириш усул ва материаллари:** Қушхоналарда инвазион касалликлар билан касалланган қорамол, қўй, паррандалар сўйилганидан сўнг уларнинг орган ва гўшти клиник, оргонолептик, патологоанатомик, морфологик, текширишлар олиб борилади. Инвазион касалликлар билан касалланган ҳайвонлар қонининг биокимёвий таълили, гематологик қабул қилинган умумий усуллар ёрдамида аниқланади. Тажрибаларда 10 бош қорамол 10 бош қўй фойдаланди. Биринчи тажриба гуруҳидаги 5 бош қорамол инвазион касалликлар билан касалланган ва 5 бош соғлам қорамолда ҳамда 5 бош инвазия билан касалланган қўй ва 5 бош соғлом қўйларда тажрибалар олиб борилди. Инвазия билан касалланган қорамол ва қўйлар сўйилиб уларни гўшт ва гўшт маҳсулотларини Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш давлат қўмитасининг 2008 йил 19 июндаги 85-сонли буйруғи билан тасдиқланган ветеринария-санитария экспертизасидан ўтказиш Қоидалари асосида оргонолептик ва лаборатория текширишлари олиб борилди.

**Олинган натижалар.** Тажрибадаги ҳайвонлар сўйилганда уларнинг гўштли ва ички органларининг сифат кўрсаткичларини аниқлаш учун белгиланган Давлат ветеринария стандартларига мувофиқ эканлигини аниқлаш мақсадида энг аввало инвазион касалликлар билан касалланиб сўйилган моллардан намуналар олиниб органалептик ва лаборатория усуллари ёрдамида текширилди. Гўштни органалептик усулда текширишда асосан қуйидагиларга эътибор қаратилди, яъни тана гўштини ташқи кўринишига, рангига, ҳидига, мускул тўқимаси консистенцияси ва тери ости ёғлари текширилди. Инвазион касалликлар билан касалланган ҳайвонлар тана гўшти арриқлиги, ранги сарғайганлиги айримлариники биров кўкимтир ва оч қизғиш эканлиги аниқланди. Тана гўштининг хиди айримларида яъни 2 та намунада бадбўйлиги ва қолган намуналарда эса ўзига хослиги, мускул тўқимасининг консистенцияси биров қаттиқлашган, қўп ҳолатларда бўшашган консистенция аниқланди. Тана гўштининг тери ости ёғлари оқ-сарик ва оқ-сарғиш рангда эканлиги аниқланди. Алоҳида касалликларга тўхталадиган бўлсак фасцилез ҳайвон гавдаси орик, шиллик пардалар оқарган, қорин бўшлиғида, юрак ҳалтасида қўп микдорда суюқлик тўпланади, лимфа тугунлар катталашади, мускуллар оқиш рангда, толалари ингичка қонсизланган ҳолат кузатилади, гўштни колорияси паст бўлади. Аскариндозларда ҳайвон озиб кетади, аскариндозлар ажратган токсин-

лар ҳайвон нерв системасини шикастлайди, терида шишлар ва крапив тошмачалар ҳосил бўлиши захарли таъсирнинг яққол кўринишидир. Ҳайвон гўштининг сифат кўрсаткичлари пасайиб кетади сўйилган гўшт оқарган, толалар ингичка, мускул тўқимаси консистенцияси бўшашган, ёғ тўқимаси бўлмаслиги, гўшт шилимшиқ ёпишқоқ бўлади. Эхинококк ва ценуроз касалликларида ҳайвон жуда озиб кетади, эхинококкда ички органларда суюқликка тўлган пуфакчалар (протосколеклар) бўлиши билан изохланиб, органлар фолиятини издан чиқаради, бўшлиқларда суюқлик тўпланиши билан кечади. Ценуроз касаллигида ҳайвон озиб кетиши, ўсиш ва ривожланишдан қолади, репродуктив фаолияти издан чиқади бундай ҳайвонларни гўшт ва гўшт маҳсулотлари истимолга яроқсиз бўлади. Гўштининг сифат кўрсаткичлари пасайиб кетади сўйилган гўшт оқарган, толалар ингичка, мускул тўқимаси консистенцияси бўшашган, ёғ тўқимаси бўлмаслиги, гўшт шилимшиқ ёпишқоқ бўлади.

**Хулоса:** Инвазион касалликлар табиатда кенг тарқалган бўлиб, ҳар хил йўллار билан ҳайвон организмга тушади ва организмда тиклаб бўлмас жараёнларни чақиради. Инвазион билан касалланган ҳайвон ўсишдан қолиши, маҳсулдорлиги пасайиб кетиши, организм резистентлигини пасайиши натижасида касалликларга берилувчан бўлиб қолади. Бундай ҳайвонни гўшти ва гўшт маҳсулотлари тўғридан тўғри истимолга яроқсиз ҳисобланади, бундай ҳайвонлар маҳсулоти иккиламчи ишлов беришдан сўнггина ёки бўлмаса гўшт уни қилиб паррандачилик фермаларида ишлатиш мумкин.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Аvezимбетов Ш.Д. Қорақолпоғистон Республикасида қорамоллар ва қўйлар трематодозларининг биоэкологик ва эпизоотологик хусусиятлари. В.ф.н.Диссертация автореферати материаллари. Самарқанд 2007.
2. Аминжанов Ш.М. Итларни тоғ ва тоғолди минтақаларида цестодлар билан зарарланишини ўрганиш. Учунчи Республика илмий-амалий конференция материаллари. Самарқанд-2004 йил. 12-13 б.
3. Даминов А. Парамфистоматидоз – хавфли трематодоз касаллик// Зооветеринария журнали Тошкент, 2009. №6 Б.17.
4. Кайпанов М.Т. Қорақолпоғистон Республикаси қорамолчилик хўжаликларида гельминтозларнинг тарқалиши. «Ҳайвонларнинг ўта хавфли касаллигини тарқалиш ва олдини олиш мониторинги» Иккинчи халқаро илмий конференция тўплами. Самарқанд – 2004 Ст. 105-108.
5. Фафуров, А.Ф., Давлатов Р.Б., Расулов У. И. Ветеринария протозоологикаси. Ўқув қўлланма, Т.: «Зарафшан».

## ПОДБОР КАТАЛИЗАТОРОВ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА МОДИФИЦИРОВАННЫХ ЖИРОВ

**Аннотация.** В статье дан обзор катализаторов, применяемых для получения модифицированных жиров. Проанализированы основные виды контактов, влияние таких факторов как состав, методы получения, способы модификации на их активность, селективность и изомеризующую способность. Показано, что для гидрогенизации растительных, в частности, хлопковых масел наиболее перспективными являются сплавные никель-алюминиевые катализаторы с различными добавками.

**Ключевые слова:** транскислоты, активные центры, гидрогенизация, активность и селективность катализатора, промоторы.

**Annotation.** The article provides an overview of the catalysts used to produce modified fats. The main types of contacts, the influence of factors such as composition, methods of preparation, methods of modification on their activity, selectivity and isomerizing ability are analyzed. It has been shown that for the hydrogenation of vegetable, in particular: The most promising cotton oils are nickel-aluminum alloy catalysts with various additives.

**Keywords:** trans acids, active centers, hydrogenation, activity and selectivity of the catalyst, promoters.

**Annatasiya.** Maqolada o'zgartirilgan yog'larni olish uchun ishlatiladigan katalizatorlar haqida umumiy ma'lumot berilgan. Katalizatorlarning asosiy turlari, tarkibi ishlab chiqarish usullari o'zgartirish usullari kabi omillarga ularning faoliyati selektivligi va izomerizatsiya qobiliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. O'simlik moylarini gidrogenlash uchun ko'rsatilgan. Xususan paxta yog'larini gidrogenizatsiya qilish uchun turli qo'shimchalar kiritilgan nikel-alyuminiy katalizatorlar eng istiqbolli hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** trans kislotalar, faol markazlar, gidrogenizatsiya, katalizatorning faolligi va selektivligi, promotorlar.

**Введение.** Одним из источников получения твердых жиров является процесс гидрирования растительных масел. Данный способ позволяет преобразовать жидкие растительные масла в твердые, путем изменения их молекулярной структуры. При этом происходит насыщение непредельных жирных кислот водородом. Гидрированные жиры имеют большую твердость и температуру плавления, увеличивается срок годности, меняется вкус.

Однако в процессе гидрогенизации происходит изменение пространственной конфигурации ненасыщенных жирных кислот с образованием их трансизомеров [1]. Пищевая ценность таких масел значительно снижается [2].

Изменение пространственной конфигурации жирных кислот, входящих в состав триглицеридов, происходит под действием различных факторов: состав сырья, высокая температура, тип катализатора, его свойства и др. В связи с этим количество трансизомеризованных жирных кислот в модифицированных растительных маслах разное. Снизить количество транс кислот можно за счет увеличения твердости конечного продукта, т.е. увеличения доли насыщенных жирных кислот. Такие масла можно

использовать для получения спредов, переэтерифицированных жиров и т.д. Твердые жиры используются и в других целях [3,4]. Поэтому полностью отказаться от производства гидрированных жиров нецелесообразно.

**Основная часть.** Основным сырьем в производстве твердых гидрированных жиров в республике является хлопковое масло, отличающееся сложным составом. По сравнению с другими растительными маслами сырое хлопковое масло имеет высокое кислотное число (до 7 мг КОН и более), токсичное вещество госсипол, придающее маслу темный цвет. Технология его переработки также отличается сложностью.

Целью данной работы является анализ факторов, влияющих на процесс гидрирования хлопкового масла с целью получения высокотвердых саломасов. Для этого необходимо осуществить следующее: провести сравнительный анализ существующих катализаторов гидрогенизации; осуществить анализ влияния сопутствующих веществ растительных масел и водорода на процесс гидрирования триацилглицеринов; изучить способы предотвращения отравления катализаторов гидрогенизации масел.

К числу наиболее перспективных катализаторов можно отнести и сплавные никель-алюминиевые катализаторы гидрогенизации масел и жиров с различными добавками. Введение промоторов диктуется необходимостью улучшения свойств сплавного катализатора

Одним из преимуществ сплавных катализаторов является то, что их каталитические свойства можно регулировать путем ввода специальных веществ: полифосфата натрия - для повышения изомеризирующей способности, сераорганических соединений и воды - для повышения селективности процесса гидрогенизации масел и жиров и т.д. [5, 6].

Изменением технологии приготовления или введением в состав никелевого сплава различных промоторов (незначительных добавок других металлов) было установлено, что некоторые промоторы (титан, молибден, хром, магний, медь, кобальт, платина, палладий, родий и др.) значительно повышают активность, стабильность и селективность действия катализаторов.

На основе результатов системного исследования процесса гидрирования хлопкового масла на никель-алюминиевых катализаторах (50% Ni) с различными добавками установлено, что их активность, селективность и транс-изомеризуемость зависят от природы промотора, а изученные катализаторы располагаются в следующие убывающие ряды [7 ]:

-по активности: Ni-Al-V> Ni-Al-Mo> Ni-Al-Nb> Ni-Al-Pd> Ni-Al> Cu> Ni-Al-Rh> Ni-Al-Fe> Ni-Al-Ga> Ni-Al-Co> Ni-Al. Наивысшая активность промотированных катализаторов достигнута при 20% V и Pd; 12% Mo и Nb; 5% Rh и Cu; 10% Co и Fe; 2% Cu;

-по селективности: Ni-Al-Pd> Ni-Al-Nb> Ni-Al-Mo> Ni-Al-Gr> Ni-Al> Ni-Al-V> Ni-Al-Rh> Ni-Al-Fe> Ni-Al-Co> Ni-Al;

-по транс-изомеризуемости: Ni-Al-Mo> Ni-Al-Nb> Ni-Al-Ru> Ni-Al-Fe> >Ni-Al> Ni-Al-Pd> Ni-Al-V> Ni-Al-Gr.

На основании анализа этих рядов можно считать, что наиболее эффективными являются никель-молибден-алюминиевые и никель-палладий-алюминиевые катализаторы.

В целом, сплавные катализаторы можно отнести к перспективным контактам гидрогенизации растительных, в частности хлопковых, масел и жиров.

### Список литературы:

1. В.В.Бессонов, Л.В.Зайцева. Трансизомеры жирных кислот: риски для здоровья и пути снижения потребления. Вопросы питания. Том 85, № 3, 2016 – с.6-17.
2. Технология переработки жиров / Н.С.Арутюнян, Е.А.Аришева [и др.]. – М.: Агропромиздат, 1985. – 368 с.
3. Оптимизация состава жировых композиций для спредов / Л.В.Терещук, А.С.Мамонтов, К.В.Краева [и др.] // Техника и технология пищевых производств. – 2014. – Т. 35, № 4. – С. 63–71.
4. Арашидзе Х.И., Чивадзе Г.О., Кобаладзе З.В., Сокольский Д.В., Орлов В.К. Изучение действия смешанных катализаторов на носителях при гидрировании хлопкового масла в растворителях.// Масложировая промышленность, 1976, № 4, -с.16-17.
5. Особенности использования твердых природных масел в производстве спредов./ К.В.Старовойтова, М.А.Тарлюн, Л.В.Терещук [и др.] // Техника и технология пищевых производств. – 2017. – Т. 44, № 1. – С. 44–51.
6. Сокольский Д.В., Жубанова Л.Д. Гидрирование водных эмульсий хлопкового масла на палладиевых катализаторах. //Масложировая промышленность. -1976, № 12, -с.14-15.
7. Технология жиров и жирозаменителей / [В.Х.Паронян., Ф.И.Мазняк, Н.Б.Чекмарева] 1982, № с.182-187.





## ПОЛУЧЕНИЕ СБАЛАНСИРОВАННЫХ КУПАЖЕЙ РАСТИТЕЛЬНЫХ МАСЕЛ НА ОСНОВЕ РАПСОВОГО МАСЛА

**Аннотация.** В статье приведены возможности создания сбалансированных по жирным кислотам купажей растительных масел на основе рапсового масла, которое является богатым источником моно и полиненасыщенных жирных кислот. Авторами предлагается создание купажа хлопково-подсолнечно-рапсового масла в соотношении насыщенных: моно: и полиненасыщенных жирных кислот приблизительно 3:6:1,5, где содержание линоленовой кислоты составляет 7,8%, что соответствует оптимальной норме потребления.

**Ключевые слова:** купаж, линоленовая кислота, жирно-кислотный баланс, эссенциальные жирные кислоты.

**Annotation.** The article presents the possibilities of creating fatty acid-balanced blends of vegetable oils based on rapeseed oil, which is a rich source of mono and polyunsaturated fatty acids. The authors propose the creation of a blend of cotton-sunflower-rape seed oil in a ratio of saturated: mono: and polyunsaturated fatty acids of approximately 3:6:1.5, where the linolenic acid content is 7.8%, which corresponds to the optimal consumption rate.

**Keywords:** blend, linolenic acid, fatty acid balance, essential fatty acids.

**Аннотация.** Мақолада моно ва кўп тўйинмаган ёғ кислоталарнинг бой манбаи бўлган рапс ёғи асосида ўсимлик мойларининг ёғ кислотаси билан мувозанатли аралашмаларини яратиши имкониятлари келтирилган. Муаллифлар пахта, кунгабоқар, рапс ёғи аралашмасини тўйинган: моно: ва кўп тўйинмаган ёғли кислоталар нисбатида тахминан 3:6:1,5 нисбатда яратишни таклиф қилмоқдалар, бу ерда линолен кислота миқдори 7,8% ни ташкил қилади. Бу оптимал истеъмол даражасига тўғри келади.

**Калит сўзлар:** аралаш, линолен кислота, ёғ, кислота, баланс, муҳим ёғ кислоталари.

Как известно, значение жиров в организме определяется не только содержанием в них калорий, так же они играют немаловажную роль в обеспечении витаминами, фосфолипидами, микро и макроэлементами. Организм человека не может синтезировать линолевую и линоленовую кислоты. Арахидоновая кислота синтезируется только из линолевой при помощи витамина B<sub>6</sub> и токоферола. Поэтому, эти кислоты называют незаменимыми и в некоторых источниках витамином F [1].

Рацион питания человека в основном состоит из белков, углеводов и жиров. Жиры составляют около 30% в рационе, где важным фактором является состав и соотношение насыщенных, моновенасыщенных и полиненасыщенных жирных кислот составляющее соответственно 3:6:1 [1, 2]. В нервной ткани содержится до 25% жиров, в клеточных мембранах - до 40% и являются источником синтеза гормонов, простагландинов, тромбоксанов и лейкотриенов, выполняют транспортную функцию, переносят жирорастворимые витамины, участвуют в процессах терморегуляции, способствуют поддержанию внутренних органов в определенном положении.

Население Узбекистана в основном употребляет

хлопковое и подсолнечные масла. Хлопковое масло имеет высокую калорийность, который на 100 граммов продукта приходится 884 калории. Полезные свойства обусловлены наличием в его составе витамин В, Е, РР, насыщенные и моновенасыщенные жирные кислоты. В 100 граммах хлопкового масла содержится примерно 100 миллиграммов токоферола, что доказывает его высокое содержание витаминов [3].

Жирнокислотный состав хлопкового и подсолнечных масел приведены в табл. 1.

Как видно из данных табл. 2, хлопковое масло содержит значительное количество насыщенных и моновенасыщенных жирных кислот.

Однако, в нем почти не содержится линоленовая (18:3 или ω3), в том числе α- и γ- линоленовой кислоты, в котором нуждается организм человека. Линоленовая кислота играет важную роль в физиологии человека. Незаменимыми (эссенциальными) называют соединения, которые не синтезируются в организме человека и, таким образом, должны находиться в потребляемых человеком продуктах питания. [3]. Линоленовая кислота в организме человека преобразуется в длинноцепочечные оме-

Таблица 1.

*Жиринокислотный состав хлопкового и подсолнечных масел*

Наименование жирных кислот	Степень насыщения	Содержание жирных кислот, в % от общего количества масла	
		в хлопковом	в подсолнечном
Стеариновая	Насыщенные	до 2,0	до 6,5
Пальмитиновая	-"-	22,0-25,0	5,0-7,6
Миристиновая	-"-	0,3-1,4	-
Арахидовая	-"-	до 1,3	0,1-0,5
Олеиновая	Ненасыщенные	25,0-26,6	14,0-39,4
Линолевая	-"-	45,9-54,25	48,3-74,0
Пальмитолеиновая	-"-	1,5-2,5	до 0,3

газ кислоты: эйкозапентаеновую и докозагексаеновую, играющие большую роль в регуляции уровня липидов, в предотвращении тромбообразования и противовоспалительных процессах, т.к. усиливает иммунную систему.

Линоленовая кислота является структурным элементом клеточных мембран и обеспечивает нормальное развитие и адаптацию организма к неблагоприятным условиям окружающей среды. Полиненасыщенные жирные кислоты являются предшественниками образующихся из них биорегуляторов - эйкозаноидов. Физиологическая потребность человека в этих кислотах составляет около 2% от калорийности суточного рациона [4].

Потребление растительных масел составляет в среднем 12,4 кг/год на душу населения, 99,1% которого составляют хлопковое и подсолнечные масла. Анализ источников информации показывает, что

несмотря на обеспеченность населения республики в растительном масле, следует работать в направлении обеспечения эффективного использования источников питания и безопасности.

В последние годы в республике ведутся работы по увеличению посевных площадей таких местных масличных культур, как подсолнечник, соя, лен, сафлор, кунжут и рапса. Освоена агротехнология выращивания сафлора, сои и подсолнечника. На основе Постановления кабинета Министров Республики №1025 от 20 декабря 2019 г. культивируется и каждым годом увеличивается посевные площади рапса на озимых землях. В 2024 г. ожидается сбор урожая озимого низкоэрукового рапса более чем 2700 тонн.

Исходя из перспективности рапса, нами предлагается технология купажирования таких растительных масел, как хлопковое, подсолнечное и

Таблица 2.

*Результаты исследований по купажированию растительных масел*

Наименование жирных кислот	Содержание жирных кислот, в % от общего количества масла			При соотношении масел хлопковое : подсолнечное : рапсовое	
	в хлопков.	в подсол.	в рапсов.	50:0:50	40:20:40
Стеариновая	2,00	4,50	1,60	1,8	2,34
Пальмитиновая	25,70	6,20	7,40	16,6	14,48
Миристиновая	1,10	0,00	0,18	0,6	0,51
Арахидовая	1,20	0,30	1,10	1,2	0,98
Олеиновая	22,20	51,20	53,10	37,7	40,36
Линолевая	41,90	33,30	17,30	29,6	30,34
Линоленовая	0,14	0,30	15,40	7,8	6,28
Пальмитолеиновая	2,50	0,20	0,60	1,6	1,28
Другие всего:	3,26	4,00	3,32	3,3	3,43

рапсовое. Путем купажирования масел можно достижение оптимального жирнокислотного состава употребляемых населением масел местного происхождения. [ 5 ].

В исследованиях, для получения растительного масла с оптимальным жирнокислотным составом использовали хлопковое, подсолнечное и рапсовые масла. Для получения купажированного растительного масла применяли различные процентное соотношение вышеуказанных масел, полученный жирнокислотный состав которых приведены в таблице 2.

В исследованиях варьировали разные соотношения компонентов купажирования и на основе расчетов пришли к выводу, что оптимальными считаются 2 варианта купажирования:

– без добавления в купаж подсолнечного масла, т.е. соотношение хлопковое:рапсовое масло составляет 50:50. Соотношение насыщенные: мононенасыщенные: полиненасыщенные жирных кислот составляют приблизительно 3:6:1,5, а содержание линоленовой кислоты 7,8%, что соответствует оптимальной нормы.

– с добавлением в купаж подсолнечного масла в соотношении 40:20:40. При таком соотношении содержание олеиновой кислоты оптимальная. [ 6 ].

#### **Список использованной литературы:**

1. Паронян В. Технология жиров и жирозаменителей. 3. -М.: ДеЛи принт, 2006. -760 с.
2. Технология производства растительных масел В.М.Копейковский, С.И. Данильчук, Г.И. Гарбузова и др. № с. 243-248.
3. Технология жиров и жирозаменителей / [В.Х.Паронян., Ф.И.Мазняк, Н.Б.Чекмарева] 1982, № с.182-187.
4. Ёғларни қайта ишлаш технологияси Ю.Кадиров, А.Рузибаев Тошкент 2014. 57-64 б.
5. В.В.Бессонов, Л.В.Зайцева. Трансизомеры жирных кислот: риски для здоровья и пути снижения потребления. Вопросы питания. Том 85, № 3, 2016 – с.6-17.
6. Технология переработки жиров / Н.С.Арутюнян, Е.А.Аришева [и др.]. – М.: Агропромиздат, 1985. – 368 с.





## RESPUBLIKADA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING USTIVOR YO'NALISHI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oziq-ovqat xavfsizligi borasida mavjud global muommolar, mamlakatimizda bu sohada ko'rilayotgan chora-tadbirlar, fikrlar va takliflar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Oziq-ovqat, xavfsizlik, BMT, er va suv resurslari.

**Аннотация:** в этой статье рассматриваются текущие глобальные проблемы безопасности пищевых продуктов, а также меры, мнения и предложения, принимаемые в нашей стране в этой области.

**Ключевые слова:** продовольствие, безопасность, ООН, земельные и водные ресурсы.

**Abstract:** This article examines current global food safety issues, as well as measures, opinions and proposals being taken in our country in this area.

**Keywords:** food, security, UN, land and water resources.

Oziq-ovqat xavfsizligi hozirgi kunda butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlayapti.

Insonlarning tabiatga befarq munosabat, unga antropogen ta'sirning kuchayib borishi, isrofgarchilik, ilg'or va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi oziq-ovqat balans bo'yicha farqning o'sayotgani, iqlim o'zgarishlari qator salbiy omillarni keltirib chiqaryapti. Noz-ne'matlarimiz, chuchuk suv, ummonlar, o'rmonlar, biologik xilma-xillik keskin sur'atlarda kamayib bormoqda, er unumdorligi pasayib, tuproq degradatsiyaga uchrayapti.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozirda jahon aholisining 815 million nafari och qolayotgan bo'lsa, 2050 yilga borib bu soni 2 mlrd. kishiga etadi. Ularning 12,9 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashaydi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'rtasidagi o'limning 45 foizi aynan to'yib ovqat emaslik natijasida kelib chiqayotir. Hozirgi kunda har yili 3,1 nafar bola aynan shu sabab hayotdan ko'z yummoqda. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash siyosati qachonki, mahsulot ishlab chiqarish va import qilish darajalari oqilona uyg'unlashtirilsa, bu borada aholi uchun kafolatlangan imkoniyatlar yaratilsa, xalqaro pragmatik hamkorlik aloqalarni rivojlantirilsa, davriy ravishda yangilanib turadigan oziq-ovqat zaxirasini yaratishga ham qaratilgan bo'lsagina ijobiy samara beradi. {1} SHunday ekan, oziq-ovqat xavfsizligini masalasi barcha davlatlar qatori O'zbekistonning ham ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta'minlash garovi hisoblanadi. YUrtimizda bu muammo hamon dolzarb masalalardan biri bo'lib, ayni paytda oziq-ovqat mahsulotlari bo'lgan talab oshyapti, aholi

oni o'sishi asnosida jon boshiga icte'mol ko'paymoqda. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda tabiiy resurslardan barqaror foydalanish borasida foydalanilmayotgan bir qator imkoniyatlar mavjud. Bu borada davlat rahbarining 2018 yil 16 yanvardagi "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va ayni paytda ishlab chiqilayotgan O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020—2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi shu nuqtai-nazardan dolzarbdir.

Strategiyada O'zbekistonda 2018 yil holatiga ko'ra aholi o'rtasida umumiy to'yib ovqatlanmaydiganlarning ulushi 6,3 foizni tashkil etishi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu ulushni 2021 yilgacha 5, 2025 yilga kelib 3 foizgacha kamaytirish, 2030 yilga borib nol darajaga tushirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Xo'sh, buning uchun nima qilish kerak? Sir emaski, yurtimizda eksport-import operatsiyalarini tartibga solish, ehtiyoj katta bo'lgan oziq-ovqat tovarlarini import qilishdagi to'siqlar, nosog'lom raqobat, ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan import mahsulotlarining monopollashtirilishi, narx-navoning sun'iy oshirilishi, taqchilikning yuzaga kelishi kabi bir qator muammolar hamon uchrab turibdi.

Bunday holatlar sohadagi ishchanlik muhiti, mamlakat investitsiyaviy imkoniyati va jahon bozorida obro'siga jiddiy ziyon etkazishi tabiiydir. Binobarin, yuqoridagi Farmonning hayotga tatbiq etilishi yurtimiz bozorlarini sifatli, arzon va xavfsiz oziq-ovqatlar bilan to'ldirish, aholining xarid imkoniyatlarini mustahkamlash, sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish imkonini beradi. {2}

**O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun quyidagilarni amalga oshirish yuqori samara beradi:**

-qishloq xo‘jaligida er va suv resurslaridan unumli, samarali foydalanishni ta’minlashga qaratilgan qonunchilikni yanada mustahkamlash;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining yuqori bo‘lishiga erishish;

-qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining zarur hajmlarda etishtirilishi yo‘lida suvdan foydalanish tizimini takomillashtirish.

Jumladan, qo‘shni davlatlar tomonidan gidroenergetika sohasida nazarda tutilgan loyihalar amalga oshirilgan va suv ta’minoti tegishli qisqargan taqdirda 2025 yilda suv taqchilligini qoplash uchun sug‘oriladigan erlarda tomchilatib sug‘orishni joriy etish talab etiladi. Bu katta miqdordagi investitsiyalarni taqozo qiladi, albatta. Ammo tomchilatib sug‘orish qo‘llaniladigan mineral o‘g‘itlar hajmini ma’lum darajada qisqartirish imkonini beradi. Bu etishtirilayotgan oziq-ovqat tanarxini pasaytirish va er sifati yomonlashishi muammosini hal etishga ko‘maklashadi. Demak, hosildorlik va oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishning qo‘shimcha hajmlaridan olinadigan foyda ham oshadi. Ayni chog‘da dehqonchilik mahsulotlari hosildorligi va chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish vazifalarini hal etish uchun zamonaviy agrotexnologiyalar joriy etilishini rag‘batlantirish, qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish va tayyorlash, taqsimlash, qayta ishlash va sotishning samarali tizimini yaratish ham muhim. Xususidan, butun yil mobaynida ham oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlaydigan, ham narxlarning mavsumiy o‘zgarib turishini pasaytiradigan mexanizm yaratish lozim. SHu nuqtai nazardan yangi va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashning samarali usullarini tatbiq etish davr talabidir. {2}

Boisi 2025 yilga borib O‘zbekiston o‘rtacha darajadan yuqori daromad oladigan mamlakatlar guruhiga o‘tishi maqsad qilingan. Bu turmush tarzi, xulq-atvor andozalari, ovqatlanish tarkibini tegishli tarzda o‘zgarishiga olib keladi. SHularni e‘tiborga olgan holda bir qancha tovarlar bo‘yicha qayta ishlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari ulushi o‘shini ta’minlash zarur bo‘ladi. Qolaversa, ovqatlanish standartlari va me‘yorlarini joriy etish (shu jumladan, mikroelementlar va zarur nutrientlar mavjud bo‘lishi, zararli moddalar, turli qo‘shimchalar, bo‘yoqlar, ta‘m beruvchilar, emulgatorlarni nazorat qilish, tayyorlash, tashish texnologiyalariga rioya qil-

ishni nazorat qilish), shuningdek, ovqatlanish sifati ustidan nazorat qilish mexanizmini yanada rivojlantirish lozim. Aholining ovqatlanish modelini yaxshilash maqsadida sog‘lom ovqatlanish to‘g‘risidagi zarur axborotni tarqatish, bu borada tibbiyot muassasalari faolligini oshirish lozim.

Ayni chog‘da yangi va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashning samarali usullarini tatbiq etish davr talabidir.

Boisi 2025 yilga borib O‘zbekiston o‘rtacha darajadan yuqori daromad oladigan mamlakatlar guruhiga o‘tishi maqsad qilingan. Bu turmush tarzi, xulq-atvor andozalari, ovqatlanish tarkibini tegishli tarzda o‘zgarishiga olib keladi. SHularni e‘tiborga olgan holda bir qancha tovarlar bo‘yicha qayta ishlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari ulushi o‘shini ta’minlash zarur bo‘ladi. Qolaversa, ovqatlanish standartlari va me‘yorlarini joriy etish, shuningdek, ovqatlanish sifati ustidan nazorat qilish mexanizmini yanada rivojlantirish lozim. Aholining ovqatlanish modelini yaxshilash maqsadida sog‘lom ovqatlanish to‘g‘risidagi zarur axborotni tarqatish, bu borada tibbiyot muassasalari faolligini oshirish lozim. {3}

Xulosa o‘rnida shuni takidlash lozimki, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Qishloq xo‘jaligidagi islohotlardan maqsad – iqtisodiy foyda ko‘rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir.”

Zero, jahon iqtisodiyoti globallashuvi sharoitlarida faqatgina innovatsion rivojlanish, eng samarali ilmiy yutuqlarni qo‘llash mamlakatimiz agrar sektori barqarorligini ta’minlash, mamlakat oziq-ovqat havfsizligini saqlanishi bilangina aholi turmush darajasi oshishini ta’minlashi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. D.N.Saidova, I.B.Rustamova, SH.A.Tursunov. “Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi”. O‘quv qo‘llanma. T.: “O‘zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi” bosmaxonasi nashriyoti, 2016.

2. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi. UNDP. 2010

3. M.Matchanova, D.Xolmuminova. Ekologik toza mahsulot etishtirish va uning o‘ziga xosligi. Xalqaro ilmiy-texnikaviy konferensiya tezislari to‘plami. Tashkent. 24-25 sentyabr. 2021yil. 98-100 b.

## KUZGI BUG'DOY NAVLARINING QIMMATLI BELGILARI

**Annatsiya.** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining iqlim sharoitida o'stirilgan yumshoq bug'doy namunalari hosildorlik, 1000 dona don vazni, don naturasi, oqsil miqdori kabi ko'rsatkichlari taxlil natijalari keltirilgan. Hosildorlik bo'yicha seleksiya ishida nav namunalari uzun, tig'iz bashoqli, to'lishgan yirik donli, boshog'idagi don soni 40 – 45 tadan ko'p bo'lganlari tanlab olinib, intensiv tipdagi kuzgi bug'doy navlarini yaratishda boshlang'ich man'ba sifatida seleksiya ishida foydalanish uchun o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** yumshoq bug'doy, qurg'oqchilik, issiqlik, mikroblar, turli kasalliklar, 1000 dona vazni, donning shaffofligi, donning tabiati.

**Аннотация.** В данной статье представлены результаты анализа образцов мягкой пшеницы, выращенной в климатических условиях Кашкадарьинской области, по урожайности, массе 1000 зерен, типу зерна и содержанию белка. В селекционной работе по продуктивности были отобраны образцы сорта с длинным плотным колосом, полным крупным зерном и числом зерен в колосе более 40-45, что положило начало созданию интенсивного типа, сортов озимой пшеницы, изученных для использования в селекционной работе в качестве ресурса.

**Ключевые слова:** мягкая пшеница, засуха, жара, микробы, различные заболевания, масса 1000 зерен, прозрачность зерна, характер зерна.

**Annotation.** This article presents the results of the analysis of soft wheat samples grown in the climatic conditions of the Kashkadarya region, according to yield, weight of 1000 grains, grain type and protein content. In the breeding work on productivity, samples of varieties with a long, dense ear, full large grains, and the number of grains per ear more than 40-45 were selected, which is the beginning of the creation of an intensive type. varieties of winter wheat studied for use in breeding work as a resource.

**Key words:** soft wheat, drought, heat, microbes, various diseases, weight of 1000 grains, grain transparency, grain character.

Mintaqamizning geografik joylashuviga xos bo'lgan sharoitlaridan biri bu qurg'oqchilikdir. Ushbu holat – dunyoning lalmi maydonlarida qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda qiyinchiliklar tug'diruvchi asosiy omillardan biridir, jumladan g'allachilikda bu stress ko'proq seziladi. Suvning yetishmasligi, ya'ni qurg'oqchilik, dastavval, o'simliklarning suv almashinuv jarayonlariga salbiy ta'sir etadi va o'simlikning boshqa fiziologik jarayonlarida (fotosintez, nafas olish, ildiz orqali mineral elementlarning o'zlashtirilishi va boshqalar) ham namoyon bo'ladi. Natijada o'simliklarning o'sish va rivojlanishi sekinlashadi yoki to'xtab qoladi. Respublikamizdagi asosiy dehqonchilik sohasi faqat sun'iy sug'orishga asoslangan. Keyingi yillarda iqlimning o'zgarib borishi oqibatida qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish uchun zarur bo'lgan suv tanqisligi kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ekinlardan olinadigan hosilga, uning sifatiga salbiy ta'sir etmoqda. Buning oldini olish uchun suv tejovchi yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga joriy etish lozim. Qishloq xo'jaligida bunday texnologiyaning bir turi – qurg'oqchilikka chidamli ekin navlarini yaratishdir

[1]. Qurg'oqchilikka chidamli, yuqori va stabil hosildorlikka ega bo'lgan navlarni yaratishdagi asosiy qiyinchiliklar shundan iboratki, o'simlikning qurg'oqchilikka fiziologik chidamliligini oshirish, uning o'sish jarayonini va butun metabolizmini qisqarishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida hosildorlikning kamayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham hosildorlik va stabil hosil belgilari bilan korrelyatsiyada bo'lgan fiziologik va morfologik markerlarni izlab topish zarur hisoblanadi. Sug'oriladigan maydonlardagi ekinlarni sug'orish uchun berilayotgan suvning asosiy qismi, ya'ni 65-70% o'simliklar orqali o'zlashtiriladi, qolgan 30-35% esa fizik bug'lanib tuproqning chuqur qatlamlariga shimilib ketmoqda [2].

Yumshoq bug'doy hosildorlik ko'rsatkichlarini oshirishning asosiy yo'li yuqori mahsuldorlik imkoniyatiga ega bo'lgan, tashqi muhitning turli xildagi noqulay omillariga chidamli, donining sifat ko'rsatkichi yuqori bo'lgan intensiv tipdagi yumshoq bug'doy navlarni tanlab ekish hamda o'stirish texnologiyasini, ekiladigan geografik mintaqaning tuproq-iqlim sharoitiga moslab ishlab chiqish muhim masalalardan biridir [3]. Har bir



nav ma'lum bir mintaqada hosildorlik, tashqi muhitning turli omillariga chidamlilik xususiyatlarini ma'lum bir tarzda namoyon qilsa, boshqa mintaqada esa buning aksi bo'lishi yoki ushbu xususiyatlar to'la yuzaga chiqmasligi ham mumkin. Shuning uchun yumshoq bug'doyni turli navlarini hosildorlikdagi imkoniyatlarini o'rganish maqsadida ushbu tadqiqot ishlari amalga oshirildi [4].

**Tadqiqot predmeti va uslublari.** Qashqadaryo viloyatining g'alla maydonlarida ekib o'stirilib kelinayotgan mahalliy sharoitga moslashgan 9 ta yumshoq bug'doy nav namunalari olingan. Tajribani joylashtirishda nav namunalarning ekin maydoni 10 m<sup>2</sup>, 3 qaytariqda ekildi. Tajriba davomida fenologik kuzatish, hisob va tahlillar olib borildi.

Tajribamiz natijalariga ushbu navlardan yuqori eng yaxshi hosildorlikka ega bo'lgan 9 ta nav namunalarning ba'zi ko'rsatkichlariga to'xtalib o'tamiz.

**Natijalar:** Boshqoqli ekinlardan yuqori hamda sifatli hosil olishimiz uchun tashqi muhit omillarining o'simlik o'sish va rivojlanish jarayonlariga ta'sirini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'simlik ontogenezi bir yillik o'simliklarda ekilgan urug'dan boshlab, to yangi urug' hosil bo'lgunga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda o'simlikning turli muhit omillariga bardoshliligi nomoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda o'simlik hosildorligi nomoyon bo'ladi.

O'simlik ontogenezida ma'lum davrlar farqlanib, ularning har qaysida eng muhim fiziologik va morfologik o'zgarishlar bilan farqlanadi. Boshqoqli ekinlarning har bir rivojlanish fazasida o'ziga xos organlar shakllanib boradi. Qashqadaryo vohasining tashkil qilgan barcha tuproq tiplarining unumdorlik qobiliyatlari bir xil emas. Shuning uchun

bug'doyning unib chiqish fazasi o'simlik hosilining yaxshi bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot namunalari hosildorlik, 1000 dona don vazni, don naturasi, oqsil miqdori kabi ko'rsatkichlari taxlil natijalari berilgan (1-jadval).

**1000 dona don vazni.** Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, 1000 dona don vazni eng yuqori bo'lgan navlar 46 gr Qizil bug'doy navida, Oq bug'doy navida 44 gr ekanligi aniqlandi. 1000 dona don vazni bo'yicha eng kam ko'rsatkich G'ozg'on (o'rta pishar) navida 38 gr ga teng bo'ldi. Yumshoq bug'doy navlarida donning yirikligi, boshqoqlash pishib yetilish davriga bog'liq bo'lishi yaxshi o'rganilgan. 1000 dona don vaznining 40 grammdan oshishi bu uning qurg'oqchilikka chidamliligini bildiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Respublikamizning sug'oriladigan yerlarda kuzgi yumshoq bug'doy navlari donning 1000 dona don vazni 39-44 gramm bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Don shaffofligi.** Shaffofligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Sanzar-4 navida 98, Sanzar-8 navida 96,5, Qizil sharq (o'rta pishar) va Grom navlarida 96 % ga teng bo'ldi. Eng past ko'rsatkich Krasnodar-99 navida 74 %ga teng bo'ldi.

**Don naturasi.** Don naturasi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Sanzar-8 navida 811, Sanzar-4 navida esa 808 gr/l ga teng bo'ldi. Don naturasi bo'yicha eng quyi ko'rsatkich Oq bug'doy navida 740 gr/l ga teng bo'ldi.

Kuzgi boshqoqli don ekinlari orasida kuzgi yumshoq bug'doylar hosildorligi eng yuqori va qimmatliligi bilan ajralib turadi. Kuzgi yumshoq bug'doy donlarining tarkibida 16 foizgacha oqsil va 80 foiz uglevodlar bo'lib, baxori bug'doy bilan bir qatorda non, makaron va konditer maxsulotlari tayyorlashda keng foydalaniladi, don chiqindilari esa chorvachilik uchun omixta yem sifatida

1-jadval.

*Yumshoq bug'doy navlarining sifat ko'rsatkichlari*

№	Nav nomi	Shaffofligi (%)	1000 dona don vazni, gr	Don naturasi, gr/l
1	Yaksart	84	40	776
2	Krasnodar-99	74	40	760
3	G'ozg'on (o'rta pishar)	81,5	38	784
4	Sanzar-8	96,5	40	811
5	Qizil sharq (o'rta pishar)	96	42	788
6	Sanzar-4	98	40	808
7	Oq bug'doy	95,5	44	740
8	Qizil bug'doy	85	46	774
9	Grom	96	42	774

ishlatiladi. Kuzgi bug'doy doni tarkibida 11-20 foizgacha oqsil bo'lsa, 64-74 foizi kraxmal, 2 foizi moy, 2 foiz kletchatka va shuncha miqdorda kul moddalarini tashkil qiladi. Shuningdek, insonning kundalik hayoti faoliyati uchun zarur bo'lgan B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, PP vitaminlari hamda kalt-siy, fosfor va temir birikmalari mavjud bo'ladi. Eng sifatli non yopish uchun don tarkibida 17-18 foizgacha oqsil moddalarini bo'lishi kerak.

Kuzgi yumshoq bug'doyning kuchli, qimmatbaxo don beradigan navlari mavjuddir. Un kuchi buyicha yumshoq, bug'doy navlari uch sinfga: kuchli, o'rtacha va kuchsizga bo'linadi. Urtacha don beradigan bug'doy navlari donini "Qimmatbaxo" — deb atashadi. Bunday sinflarga bo'linishi don tarkibidagi oqsil, kleykovina miqdori va kleykoviiani sifatiga bog'liq bo'ladi. Kuchli burdoy doni naturasi 755 g/l. Shaffofligi 60 %, oqsil miqdori 14 % va kleykovina miqdori 28 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Kuchli burdoy unidan oddiy burdoy uniga 20-50 foiz aralashirilib non tayyorlanganda non xajmi ortadi va sifatli bo'ladi. Shu sababli kuchli burdoyni yaxshilovchi deb xam atashadi. Qimmatbaxo bug'doy doni tarkibidagi oqsil miqdori 11-12 foiz va kleykovina 25-27 foizdan kam bo'lmasligi kerak. Bugungi kunda respublika g'alla maydonlarida ekilayotgan bug'doy navlarini asosiy qismi qimmatbaxo don beradigan bug'doy navlaridir. Kuchsiz bug'doy doni tarkibidagi oqsil miqdori 11 % va kleykovina 25 % ni tashkil etadi.

**Xulosa** o'rnida takidlash joizki, olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, nav va namunalarning mahsuldorlik elementlarining ko'rsatgichlarini taqqoslab qo'rganimizda mahsuldorlikning yuqori bo'lishi boshog'dagi donlar soni va vazniga, 1000 dona don vazniga va tuplash koeffitsentiga bog'liq bo'ldi. Hosildorlik

yo'nalishi bo'yicha seleksiya ishida nav namunalari-ning uzun, tig'iz bashoqli, to'lishgan yirik donli, boshog'idagi don soni 40 – 45 tadan ko'p bo'lganlari tanlab olinib, intensiv tipdagi kuzlik bug'doy navlarini yaratishda boshlang'ich man'ba sifatida seleksiya ishida foydalanish taklif etildi.

#### Adabiyotlar:

1. Turaev OS, Baboev SK, Ziyaev ZM, Norbekov JK, Erjigitov DSh, Bakhadirov USh, Tursunmurodova BT, Dolimov AA, Turakulov KhS, Ernazarova DK, Kushanov FN (2023). Present status and future perspectives of wheat (*Triticum aestivum* L.) research in Uzbekistan. *SABRAO J. Breed. Genet.* 55(5): 1463-1475.

2. Baboyeva, Sevara Saidmurotovna, Umid Shokirjonovich Bohodirov, and Rustam Mahmudovich Usmonov. "QURG'OQCHILIK SHAROITIDA YUMSHOQ BUG'DOY NAVLARINI XLOROFILLAR SONI BO'YICHA FENOTIPLASH." *Academic research in educational sciences* 2.11 (2021): 14-23.

3. Baboeva S.S., Matkarimov F.I., Usmanov R.M., Turaev O.S., Baboev S.K., Kushanov F.N. (2023). Climate change impact on chlorophyll content and grain yield of bread wheat (*Triticum aestivum* L.) SABRAO Journal of Breeding and Genetics 55 (6) 0-0, 1930-1940. 2023 <http://doi.org/10.54910/sabrao2023.55.6>.

4. pM.E.Azimova. (2021) The effect of planting-date, sowing norm and fertilization norm to the yield and yield components of winterbread wheat varieties (in the southern regions of the republic of Uzbekistan). *Plant cell biotechnology and molecular biology/ Plant Cell Biotechnology and Molecular Biology* 22(39&40): 2021. India. *Published: 02 July 2021*



## ПАХТА ПОЯСИНИ ҚАЙТА ИШЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

**Аннотасия.** Мақолада инновацион технологияларни қўллаш орқали пахта хўжаликларида экологик вазиятни сақлаш доирасида иккиламчи пахта чиқиндиларини комплекс қайта ишлаш натижасида қурилиш материаллари ва чорва хайвонлари учун озуқа, озик-овқат пектинлари, шунингдек ерни хосилдорлиги ошириш учун биогумуслар тайёрлаш технологияси амалга оширилган.

**Калит сўзлар.** Пахта хомашёси, гўза поя, барг, этил спирти, фуран бирикмалари, озик-овқат, пектинлари, қайта ишлаш, пахта қолдиқлари, биологик ўғит пахта целлюлоза, озуқа.

**Аннотация.** В статье реализована технология приготовления строительных материалов и кормов для животных, пищевых пектинов, а также биогумусов для повышения плодородия земли в результате комплексной переработки вторичных хлопковых отходов в рамках поддержания экологической обстановки на хлопковых фермах с применением инновационных технологий.

**Ключевые слова.** Хлопковое сырье, стебли, листья, этиловый спирт, фурановые соединения, пищевые продукты, пектины, переработанные отходы хлопка, биоудобрения хлопковая целлюлоза, корма.

**Annotation.** The article implements the technology of preparation of building materials and animal feed, food pectins, as well as biohumus to increase the fertility of the earth as a result of complex processing of secondary cotton waste within the framework of maintaining the ecological situation on cotton farms using innovative technologies.

**Keywords.** Cotton raw materials, stems, leaves, ethyl alcohol, furan compounds, food products, pectins, recycled cotton waste, biofertilizers, cotton cellulose, feed.

**Кириш.** Ўрта Осиёда, хусусан, Ўзбекистонда пахта хомашёси йиғиб олингандан сўнг гўза пояларининг асосий қисми (гўзапоя) чаноклари билан бирга бўш чаноклар ҳам кесилиб, қишлоқ жойларда арзон ёқили сифатида фойдаланилган. 3 миллион тоннадан ортиқ пахта чаноғининг фақат бир қисми ёғоч этил спирти ва турли фуран бирикмаларини ишлаб чиқариш учун гидролиз заводларида ишлатилади. Ўзбекистон олимлари таркибида 9% гача пектин бўлган пахта чанокларидан озик-овқат пектинини олиш технологиясини яратишди [1, 2].

Муаллифлар гўза пектинида бўлган катта миллий хўжалик аҳамиятини ва талабни ҳисобга олиб, мақсадли маҳсулот, чорва учун озуқа ва биологик ўғит олиш учун пахта қолдиқларини қайта ишлашнинг чиқиндисиз технологияси масаласига комплекс ёндашувни таклиф этадилар. Белгиланган вазифалар билан боғлиқ ҳолда, олинган назарий ва экспериментал маълумотларни таҳлил қилиш ва умумлаштириш асосида бир бутун ишлаб чиқаришнинг оқилона экспериментал-технологик схемасини (ЭТС) ва баъзи бир асосий машина ва аппаратларнинг ишлашнинг умумий тамойиллари ишлаб чиқилади.

**Тадқиқот мақсади:** пахта хўжаликларида эко-

логик вазиятни сақлаш доирасида иккиламчи пахта чиқиндиларини комплекс қайта ишлаш учун мос инновацион технологияларни топишдан иборат. Юқоридагилардан келиб чиқиб, муаллифлар олдида куйидаги вазифалар қўйилди:

- назарий ва экспериментал тадқиқотларни таҳлил қилиш ва умумлаштириш асосида пахта толарини қайта ишлаш учун оптимал машина ва аппаратлар яратиш,
- пахта чанокларидан озик-овқат пектинини олишнинг такомиллаштирилган ресурс тежовчи технологиясини яратиш;
- пахта пулпасидан фойдаланган ҳолда бойитилган биоозуқа олиш технологиясини ишлаб чиқиш;
- биогумус ишлаб чиқариш билан пахта чиқиндиларини биогенерация қилиш масаласини ҳал қилинмоқда;
- пахта қолдиқларини қайта ишлашнинг экспериментал-технологик схемасини (ЭТС) ишлаб чиқилди.

**Тадқиқотни ўтказиш методологияси.** Пахта қолдиқларини қайта ишлашнинг чиқиндисиз технологиясини ишлаб чиқиш ва масса ўтказиш жараёнларини амалга ошириш, оқилона машина ва



аппаратларни танлаш учун пахта чаноқнинг физик-механик хусусиятларини ҳисобга олиш керак. Бу жиҳатдан барғни балласт моддалардан тозалаш жараёни, унинг шишиши, шунингдек, гўза барғидан пектин гидролизланиши жараёнига кинематика ва электр импульсли ишлов беришнинг таъсири ўрганиб чиқилди.

Экспериментал пахта далаларидан пахта териш машиналари ёрдамида териб олинган поялари бўлган новдалар ва қисман бутун бошоқлар вақтинча сақлаш жойига етказилади. Бундай сақлаш жойи сифатида сотувда мавжуд бўлган А-18ТС1 пневматик тузилмасидан фойдаланиш тавсия этилади [3]. У ниҳоятда мобил, кўчма, тезда ўрнатилиши ва 2-3 кун ичида бошқа жойга кўчирилиши мумкин. Пневматик омборнинг сизими 800 м<sup>3</sup> ҳажми ташкил қилади.

Хом ашёни сақлаш учун бунтлашдан олдин уни иложи борица механик ва органик аралашмалардан, шунингдек, ОХС-500 1 йиғма тозалагичдаги қолган поялардан тозаланади ва хом ашёнинг намлигида барабанли қуритгич 2 да қуритилади қолдик намлиги 8% дан ортмаслиги керак. Стандартга қадар қуритилган пахта толаси пневматик транспорт билан тўлдирилади ва пневматик конструксия ичига куйма етказилади. Узоқ муддатли сақлаш вақтида микроорганизмларнинг ривожланиши ва бузилишининг олдини олиш учун олтинугурт диоксиди вақти-вақти билан тизим орқали стандарт массасига етказиб берилади.

Гўза новдасидан пектин моддаларини олиш технологияси маълум усулларга асосланган бўлиб, қуруқ лавлаги пулпасидан ёки олма пулпасидан пектин олишга ўхшаш, унинг ўзига хос жисмоний ва биологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади [4].

Гўза вегетатив ўсиш ва етилиш даврида пестисидлар ва хлорорганик хусусиятга эга бўлган гербитсидлар, шунингдек дефолиантлар билан бир неча марта ишлов берилганлиги сабабли гўза бошоқларида 8% гача катехин табиатли фенолик бирикмалар ҳосил бўлади.

Шунинг учун қуруқ пахта толаси 4 барабанли махсус ювиш машинасида 3-4% ли NaCl эритмаси билан ювилади ва ювиш эритмаси 5 тасмали филтрга қуйилади. Кейин шишган барғ уч рулонли аппарат 6 орқали ўтказилади, ўрнатилган қурилмада электр импульсли ишлов берилади ва оксалат кис-

лотаси эритмаси билан пектин моддаларини гидролиз экстракциялаш жараёни амалга ошириш учун винтли-аеролифтли экстрактор 8 га берилади. Гидролизатни тозалаш, унинг концентрацияси, пектинни чўктириш ва қуритиш жараёни замонавий технологиялар бўйича амалга оширилади

Гўзадан пектин экстракти олиш жараёнларини ўрганиш таклиф этилаётган технологик тизимнинг самарадорлигини ошириш учун қайта ишланган хомашёнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда янада илғор машина ва аппаратлар аратиш зарурлигини кўрсатади. Шу нуқтаи назардан, биз эшқак эшиш туридаги барабанли ювиш машинасини (4) таклиф қиламиз, унинг ишлаши хом ашёни сув билан аралаштириш эффектидан (NaCl эритмаси) фойдаланишга ва ювилган хомашёнинг бир вақтнинг ўзида ҳаракатланишига асосланган ювиш машинасининг параметрларини ҳисоблашда “ювиш-шишиш” жараёнининг кинетик қонунлари ҳисобга олинган [5].

Пахта чаноғини барабанли ювиш машинасида ювиш полифенолларни юқори сифатли олиб ташлашни ва чанок структурасининг дастлабки шишишини тامينлайди, бу гидролиз экстракция жараёнининг кучайишини олдиндан белгилловчи омил ҳисобланади. Маълумки, экстракция пайтида экстрагентнинг ўсимлик хужайрасига киришига асосий қаршилик ситоплазма ва мембраналар томонидан яратилади, уларнинг ичида пектин ўз ичига олган моддалар молекулалари жойлашган бўлади.

Органик қолдиқлар, пектинни майдалаш ва қадоқлаш балласт моддаларини ювиш, шишиш олиб ташлаш, саралаш, ажратиш қуритиш ва юмшатиш, қанотни динамик қайта ишлаш (прокат) филтрлаш гидролизатни ажратиш, биогумус нейтраллаш, био-генерация пулпа, лой қайта ишланган спиртни ректификация қилиш, хом ашёни тайёрлаш: қуритиш, тозалаш, майдалаш, қайта ишлаш жараёнида хом ашёнинг хужайра мембранаси структурасининг ёрилиши ва деформатсияси содир бўлади, бу эса пектиннинг экстракторга диффузия ўтишини оширади.

Қурилманинг иш параметрлари: Дв=400 мм рулонларнинг диаметри: тш 6 мм - ҳалқали гофрировкаларни кесиш босқичи; 11 102 112 112 124 3 2 2 1, н н н н = = = рулоннинг ишқаланиши. Прокат аппаратидан фойдаланиш мақсадли махсулот ҳосилдорлигини 5-7% га оширади ва хом ашёни

майдалаш учун тегирмонларни талаб қилмайди, бу бошқа қуруқ хом ашё турларидан қанд лавлаги, олма ва бошқа турдаги пектинлардан пектин олишнинг классик усули учун хос бўлган, ситрус помаси. Пахта чаноғини олишнинг яна бир кучайтирувчи омили уни электропулсли разрядлар билан қайта ишлаш бўлиб, унинг таъсири остида зарба тўлқини, электрокавитатсия ва харорат кўтарилади.

Пахта чаноғини электропулс билан қайта ишлаш жараёнида диффузия хусусиятларининг ўзгариши билан бир қаторда, унда кансероген модда бўлган госсиполнинг эркин шаклининг камайиши кузатилади. Шундай қилиб, қорамоллар учун озуқа тайёрлаш хом ашё бўлган пектин ишлаб чиқариш чикиндилари бўлган пахта пулпасининг озуқавий қиймати ортади. Озуқа тайёрлаш учун олинган пахта пулпаси ва лой қолдиқлари билан аралаштирилади ва биоқушимчалар билан ферментланади. [6].

Тайёр биоозик суюқлик шаклида чорва озуқасига ёки донатор қуруқ ем тайёрлашга юборилади. ОХС-500 тола тозалашдан кейин органик чикинди ва механик яширин компост ишлаб чиқаришга ўтади. Бунинг учун маълум нисбатларда улар тупроқ билан аралаштирилади, сув ўтказмайдиган чуқурларга ётқизилади ва ёмғир қуртлари (Калифорния) билан сепилади, вақти-вақти билан совуқ сув билан ишлов берилади. Органик моддалар билан озикланадиган қуртлар компостни биогумусга айлантиради.

Биологик парчаланиш жараёни охирида биогумус тайёрланади, тебраниш экранидан ўтказилади ва ажратилган қуртлар кейинги фойдаланиш учун юборилади.

**Хулоса.** Юқоридагиларни умумлаштириб, қуйидагиларни ажратиб кўрсатишимиз мумкин:

- гўза бурмасидан пектин экстракти олишнинг рационал технологик схемаси ишлаб чиқилди:
- физикавий ва конструктив хусусиятларини инобатга олган ҳолда чанок учун барабанли ювиш машинаси ишлаб чиқилди:
- барғни электропулс билан қайта ишланнинг пектин моддаларининг чиқишига таъсири ўрганилди:
- босқичма-босқич принсиал блок ишлаб чиқилди гўзадан пектин, қорамоллар учун биоозик ва агрометитсия учун биогумус олиш схемаси ишлаб чиқилди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар.**

1. Содиқов С. «Хлопчатник-чудо-растение». М. «Наука». 1985 г.
2. Сборник инструкции и методик по техническому контролю и отценка качества хлопка-сырца и продукции его переработки в хлопкоочистительной промышленности. Т. «Мехнат» 1992 г.
3. Зикрияев Э. «Первичная переработка хлопка-сырца». Т. «Мехнат». 1999 г
4. А.М. Юсупов и др СО8 В 37/06, 08.01.90. Способ получения пектина /.
5. Ермолов В.В. Воздухоопорные здания и сооружения. М. Стройиздат./
6. Донченко Л.В. Разработка и интенсификация процессов получения пектина из свекловичного и других видов сырья: автореф. дис. д.т.н. Киев, 1990. 48 с.



## HAYVONLARDA BRUTSELLYOZ DIAGNOSTIKASINING ALLERGIK USULINI QO‘LLASH TARTIBLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada GOST 34579-2019 Davlatlararo standarti asosida qoramol va qo‘y-echkilar, shimol bug‘ulari, hamda cho‘chqalar brutsellyozining laboratoriya diagnostikasidagi allergik usul batafsil bayon qilingan. Ushbu standart 2019-yilda Rossiya Federatsiyasi Butunrossiya hayvonlar dori vositalari va ozuqalari sifati va standartlashtirish davlat Markazi (FGBU “VGNI”) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, 7 ta davlatlar (Armaniston, Belarus Respublikasi, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston, O‘zbekiston va Qozog‘iston) uchun amal qiladi va 2020 yil 1-iyulidan kuchga kirgan. Maqolada hayvonlarda allergik tekshirish tartiblari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** brutselloz, qo‘chqor epididimiti, diagnostika, brutsellin, brutselloovin, allergik reaksiya, komplementni bog‘lash reaksiyasi, komplementning uzoq bog‘lash reaksiyasi.

**Qo‘llash doirasi.** Ushbu standart qoramol va qo‘y-echkilar, shimol bug‘usi, cho‘chqalar uchun qo‘llaniladi va brutsellyozning laboratoriya diagnostikasida allergik usulni belgilaydi.

**Atamalar va ta‘riflar.** Ushbu standartda quyidagi ta‘riflar va atamalar qo‘llaniladi: brutsellyoz: *a-Proteotekteria* sinfiga mansub *Rhizobiales* turkumiga kiruvchi *Brucellaceae* oilasining *Brucella* avlodiga mansub bakteriyalar keltirib chiqaradigan hayvonlar va odamlarning yuqumli kasalligidir.

**Brucellin VIEV:** Brusellalardan olingan oqsil va lipopolisaxarid tabiatli maxsus moddalarni o‘z ichiga olgan steril suyuqlikdan iborat allergen.

**Kechiktirilgan yuqori sezuvchanlik reaksiyasi (KYuSR):** Inson yoki hayvon organizmining gomologik antigen bilan sensibilizatsiyasi natijasida faollashgan T-limfotsitlarining o‘zaro ta‘siriga asoslangan immunopatologik reaksiya.

**Tadqiqot shartlari va xavfsizlik talablari.** Tadqiqot shartlari:

- GOST ISO/IEC 17025 bo‘yicha xodimlarga qo‘yiladigan talablar;

- tadqiqot o‘tkazishga allergik diagnostika usulini yaxshi o‘zlashtirgan malakali xodimlarga ruxsat beriladi.

**Xavfsizlik talablari:** - biologik ob‘ektlar bilan ishlashda umumiy xavfsizlik talablari GOST 12.1.008 ga; - ishchilar uchun himoya vositalari GOST 12.4.011 talablariga; - xodimlarni mehnatini muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish - GOST 12.0.004 bo‘yicha; - biologik materiallarni, shuningdek, foydalanilgan shaxsiy hi-

moya vositalari, asboblari va boshqalarni zararsizlantirish 30 daqiqa qaynatish yoki 0,20 MPa bosimda ( $132 \pm 2$ )°S haroratda 1 soat davomida avtoklavlash orqali amalga oshiriladi.

**Usulning mohiyati.** Allergik diagnostika usuli brutsellyoz bilan kasallangan hayvonlarda maxsus allergenga kechikkan turdagi yuqori sezuvchanlik reaksiyasini aniqlashga asoslangan.

**Tadqiqotga tayyorgarlik.** Allergik usul yirik va mayda shoxli hayvonlar, shimol bug‘usi va cho‘chqalarning to‘rt oyligidan boshlab brutsellyozga qarshi emlanmagan, shuningdek, qo‘ylarning infeksiyon epididimitini (*Brucella ovis* tomonidan chaqiriladigan qo‘chqorlarning infeksiyon kasalligi) aniqlashda qo‘llaniladi. Brutsellyozning allergik diagnostikasi uchun GOST 25134 bo‘yicha brutsellin VIEV allergeni va brutselloovin qo‘llaniladi. Shpirtsalar va ignalar qo‘llashdan oldin va keyin GOST 6709 bo‘yicha distillangan yoki qaynatilgan suvda 30 daqiqa davomida qaynatish orqali sterilizatsiya qilinadi. Ignasiz inektorlardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomasiga muvofiq sterilizatsiya qilinadi.

**Tadqiqotni o‘tkazish.** Allergen flakon ochilgan kuni ishlatiladi. Brutsellin yoki brutselloovinni yuborish uchun ikki trubkali, teri ichiga inyeksiya qilish uchun kichik ignalar (№ 0420-0813), sig‘imi 2-5 sm<sup>3</sup> bo‘lgan shpirtsalar, shuningdek teri ichiga in’ektsiya uchun ignasiz inektorlar qo‘llaniladi. Brutsellin (brutselloovin)ni ishlatishdan oldin dastlab flakonning alyuminiy qopqog‘i kichik ochiladi, rezina tiqinga spirt bilan ishlov beriladi, in’ektsion igna bilan teshiladi



va shprints yordamida zarur miqdorda allergen olinadi. In'ektsiyadan oldin hayvonning terisi 70% etil spirti yoki 3% bor kislotasi eritmasiga namlangan paxta bilan artib olinadi. Allergenlar hayvonlarga aseptika qoidalariga rioya qilgan holda yuboriladi. Qoramollar ko'zning tashqi burchagidan teri ostiga (palpebral namuna) 1 sm<sup>3</sup> hajmda ko'z qovog'ining pastki chetidan 1 sm pastroqda yoki teri ichiga (teri ichi namunasi) dum osti burmalaridan birining o'rtasiga 0,2 sm<sup>3</sup> hajmda yuboriladi. Qo'y, echki va shimol bug'ulariga 0,5 sm<sup>3</sup> hajmda palpebral usulda yoki 0,2 sm<sup>3</sup> hajmda dum osti burmalardan birining o'rtasiga teri ichiga yuboriladi. Cho'chqalarda allergen quloq suprasining tashqi tomonidan teri ichiga, quloq asosiga yaqinroq 0,2 sm<sup>3</sup> hajmda yuboriladi. Preparatning teri ichiga kiritilishi natijasida no'xat o'lchamidagi papula hosil bo'lishi lozim. Hayvonlarda tadqiqot o'tkazish jarayonida har bir shprints allergen bilan to'ldirilishidan oldin in'ektsiya ignalari almashtiriladi. Inyeksiyalar oralig'ida igna 70% etil spirti yoki 3% bor kislotasi eritmasi bilan namlangan paxta tamponida ushlab turiladi.

**Natijalarni hisobga olish.** Qoramol, qo'y, echki va shimol bug'ularida allergik reaksiya allergen yuborilgandan keyin 48 soatdan keyin bir marta hisobga olinadi. Cho'chqalarda reaksiya allergen yuborilgandan so'ng 24 va 48 soatdan keyin kuzatish yo'li bilan, noaniq reaksiya kuzatilganda, in'ektsiya joyini paypaslash (palpatsiya) orqali hisobga olinadi.

Agar allergen yuborilgan joyda zich yoki yumshoq shish ko'rinishidagi yallig'lanish reaksiyasi kuzatilsa va bu odatdagi tekshirishda aniq ko'rinadigan bo'lsa, allergik reaksiya ijobiy hisoblanadi. Cho'chqalarda giperemiyaning rivojlanishi, shishning markazida to'q qizil nuqta ko'rinishidagi qon quyulishlar va ba'zan qon sizib chiqishi kuzatilishi mumkin. Sog'lom hayvonlarda mahalliy reaksiya kuzatilmaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan reaksiya belgilari kuzatilmasa, test natijasi salbiy hisoblanadi.

Brutsellinga ijobiy reaksiya bergan hayvonlarga belgi qo'yilib, podadan ajratiladi.

Allergik tekshiruvga ijobiy reaksiya bergan hayvonlar komplementni bog'lash reaksiyasida (KBR) yoki komplementni uzoq bog'lash reaksiyalarida (KUBR) brutsellyozga serologik tekshiriladi.

Allergik tekshiruv KBR va KUBRda ham ijobiy natija bilan tasdiqlangan taqdirdagina ushbu hayvonlar brutsellyoz bilan kasallangan deb hisoblanadi. Xo'jalik (ferma) brutsellyoz kasalligi bo'yicha nosog'lom deb topilib, amaldagi veterinariya va sanitariya qoidalariga muvofiq choralar ko'riladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Межгосударственный стандарт ГОСТ 34579-2019. Животные. Лабораторная диагностика бруцеллеза. Аллергический метод. Издание официальное. Москва. Стандартинформ 2019. С.10.
2. Ulug'muradov, A. D., Saidov, A. A., Muxtarov, F. N., & Sharipov, N. A. (2024). QO 'Y VA Echkilar brutsellyozida teri allergik reaksiyalariga asoslangan serologik tadqiqotlar va usullar. *Ustozlar uchun*, 1(1), 40-44.
3. Рузимуродов, М., Улугмуродов, А., Саидов, А., & Мухтаров, Ф. (2024). Серологические исследования и методы, основанные на кожных аллергических реакциях при бруцеллезе овец и коз. *in Library*, 2(2), 7-10.
4. Улуғмуродов, А. Д. (2022). Майда шохли хайвонларда бруцеллёзнинг аллергия ташхислаш воситалари тажриба намуналарини синаб кўриш натижалари. *World scientific research journal*, 9(1), 151-158.
5. Ulugmuradov, A. D., Turdikulov, A. A., & Adilov, S. A. (2023). An Innovative Method For Prevention Of Episodic Emergencies-Testing Of A New Allergic Method For The Diagnostic Of Animal Brucellosis. *Texas Journal of Medical Science*, 18, 60-62.

**Irnazarov Shuxrat Ismatullayevich,**  
Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi kafedrasini mudiri, professor  
Каршинский инженерно-экономический институт  
Qarshi shaxri. e.mail: [shuhratirnazarov1974@gmail.com](mailto:shuhratirnazarov1974@gmail.com)

**Jo'rayev Ruyiddin Nurali o'g'li,**  
Oziq-ovqat xavfsizligi 1 -bosqich magistri  
Каршинский инженерно-экономический институт  
Qarshi shaxri. e.mail: [ro'yiddinjo'rayev@gmail.com](mailto:ro'yiddinjo'rayev@gmail.com)

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI OKSIDLANISHINI OLDINI OLISHDA ER NOKI KUKUNIDAN FOYDALANISHNING ILMIIY AXAMIYATI

**Annotatsiya.** Maqolada terapevtik, profilaktik va funktsional ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlarni olish uchun er noki kukunini oziq-ovqat qo'shimchasi sifatida ishlatish bo'yicha tajribalar natijalari muhokama qilinadi. Quritilgan er noki ildizidan olingan kukun sut mahsulotining ozuqaviy qiymatini oshiradi va erkin radikal oksidlanish jarayonlarini erkin radikallarni oksidlanishini oldini olishga yordam beradi va sut mahsulotlarining antioksidant xususiyatlarini oshiradi va ularning saqlash muddatini uzaytiradi.

**Kalit so'zlar:** er noki, kukun, oziq-ovqat qo'shimchalari, sut mahsulotlari, antioksidant xususiyatlar.

**Аннотация.** В статье рассмотрены результаты экспериментов по применению порошка топинамбура в качестве пищевой добавки для получения продуктов, имеющих лечебно-профилактическое и функциональное значение. Показано, что порошок из сушеных клубней топинамбура повышает пищевую ценность молочного продукта и способствует торможению процессов свободнорадикального окисления и повышает антиокислительные свойства молочных продуктов, увеличивает срок их хранения.

**Ключевые слова:** топинамбур, пищевые добавки, молочные продукты, антиокислительные свойства.

**Abstract.** The article discusses the results of experiments on the use of ground pea powder as a food additive to obtain products of therapeutic, preventive and functional value. The powder obtained from dried pea root increases the nutritional value of dairy products and helps prevent free radical oxidation processes and increases the antioxidant properties of dairy products and prolongs their shelf life.

**Key words:** pea, powder, food additives, dairy products, antioxidant properties.

Atrof-muhit sharoitlarining yomonlashishi va hayotning stressli ritmi turli kasalliklar, jumladan, saraton va yurak-qon tomir tizimi kasalliklari paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Buning bir usuli - erkin radikallar va tananing antioksidant tizimi o'rtasidagi muvozanatni buzadigan oksidlovchi stresni oldini oladi.

Erkin radikallarning ko'pligi prooksidantning ko'payishiga va antioksidant resurslarning kamayishiga olib keladi. Oksidlanish stressining oldini olish uchun antioksidantlarning ko'pchiligi organizmga antioksidant komplekslarga boy oziq-ovqat orqali ta'minlanishi kerak [1].

Shu sababli, turli tabiat va ta'sirga ega bo'lgan katta miqdordagi antioksidantlarni o'z ichiga olgan terapevtik, profilaktik va funktsional mahsulotlarning roli ortib bormoqda. Bunday mahsulotlarga antioksidant xususiyatlarga ega fermentativ va ferment bo'lmagan tabiatdagi moddalarning tabiiy majmuasini o'z ichiga olgan sut va fermentlangan sut mahsulotlari kiradi [2, 3].

Sutning antioksidant xususiyatlari fermentativ (katalaza, peroksidaza, superoksid dismutaza va boshqalar) va fermentativ bo'lmagan (A, E, C, SH vitaminlari birikmalari) antioksidantlarning tarkibiga bog'liq [3].

Shu bilan birga, sutni texnologik qayta ishlash sut va undan olingan fermentlangan sut mahsulotlarining fizik-kimyoviy va biologik xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, sut va fermentlangan sut mahsulotlari tarkibidagi lipidlar texnologik qayta ishlash va saqlash jarayonida erkin radikal oksidlanishga duchor bo'lishi mumkin, bu ularning sifati va biologik qiymatining pasayishiga olib keladi [4].

Ikkilamchi oksidlanish mahsulotlari (aldegidlar va ketonlar) mahsulotga o'ziga xos yoqimsiz ta'mlarni beradi. Oksidlangan lipidlar bilan sut mahsulotlarini iste'mol qilish organizmda patologik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun sut mahsulotlarini ulardagi peroksidlanishning boshlanishidan himoya qilish vositalarini izlash nafaqat saqlash muddatini uzay-

tirish, balki sut mahsulotlari sifatini yaxshilash uchun ham muhimdir.

Oziq-ovqatlarning buzilishining oldini olish uchun kimyoviy moddalardan foydalanishga asoslangan juda samarali usullar ma'lum:

ammiak, karbonat angidrid, sorbin kislota va uning tuzlari, xitozan, antibiotiklar. Mahsulotlarning saqlash muddatini ko'paytirishda ultrabinafsha va ionlashtiruvchi nurlanish yordamida sovutish orqali ham amalga oshiriladi.

Bu muammoni hal qilish yo'llaridan biri tabiiy moddalar, masalan, aromatik o'simliklarning efir moylari va dorivor o'simliklarning ekstraktlaridan foydalanishdir [5, 6].

Oziq-ovqat mahsulotlarida o'simlik xom ashyosi asosidagi tabiiy qo'shimchalardan foydalanish hozirgi vaqtda muhim va juda dolzarbdir, chunki ular mahsulotning ozuqaviy qiymatini oshiradigan biologik faol moddalar majmuasini o'z ichiga oladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, evolyutsiya jarayonida inson tanasi tabiiy birikmalarga, ularning nisbatiga moslashgan va shuning uchun tabiiy oziq-ovqat qo'shimchalari sintetikdan ko'ra organizmga yumshoqroq fiziologik foydali ta'sir ko'rsatadi.

O'simlik kelib chiqishi oziq-ovqat qo'shimchasi sifatida biz ildizlarning noyob mineral va biokimyoviy tarkibiga ega bo'lgan quruq er noki kukunini o'rgandik. Er noki kukunining asosiy xususiyati shundaki, u juda ko'p miqdorda quruq moddalarni (20% gacha) o'z ichiga oladi, ulardan 80% gacha inulin bo'lib, uning parchalanishi natijasida fruktoza hosil bo'ladi - diabetga chalinganlar uchun zararsiz bo'lgan insulinga bog'liq bo'lmagan shakar hosil bo'ladi.

Er nokini qayta ishlashdan hosil bo'lgan mahsulotlar qator kasalliklarni – qandli diabet, podagra, oshqozon yarasi, semirish, yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Er noki kukunida inulin mavjud bo'lib, u odamlarga qadim zamonlardan beri oshqozon-ichak traktining normal ishlashini ta'minlash uchun xizmat qilgan. Er noki kukunida uning antioksidant xususiyatlarini aniqlaydigan fenolik birikmalar mavjud. Shunday qilib, er noki kukunidagi qo'shimchalari bo'lgan sut mahsulotlari funksional, terapevtik va profilaktik maqsadlarda foydalaniladi.

Er noki kukunidan foydalanish imkoniyatini o'rganish uchun fermentlangan sut mahsulotlarini ishlab chiqarishda biz kefir tayyorlashda er noki kukunidan foydalanish bo'yicha laboratoriya tajribalarini o'tkazdik. Fermentatsiyadan so'ng, quritilgan er noki kukuni kefir namunalari 5% miqdorda qo'shildi. Er noki

kukuni fermentlangan sut bilan yaxshi aralashtiriladi. Tayyorlangandan so'ng, fermentlangan sut ichimligidan bir hil massali mahsulot hosil bo'ldi va bir xil mustahkamlikni saqlab qoldi. Er noki kukuni qo'shimchalari bilan kefirning organoleptik ko'rsatkichlari nazorat namunalarinikiga to'g'ri keldi.

Изменение органолептических свойств чистого кефира и кефира с добавками порошка топинамбура определялись в течении 15 суток при

температуры 4 °С. Kefirning xavfsizligi titrlanadigan va faol kislotalilikning o'zgarishi bilan kuzatildi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, er noki kukunini fermentlangan sut mahsulotlariga kiritish orqali kislotalik nazorat namunalari qaraganda ancha sekinroq oshadi.

Olingan natijalarga ko'ra, ishlab chiqarish texnologiyasi yuqori haroratli ishlov berishni o'z ichiga olgan, ba'zi foydali moddalarning yo'qolishiga olib keladigan sut mahsulotlarining xususiyatlarini yaxshilash uchun aytishimiz mumkin.

Topinambur ildizidan olingan kukunni fermentlangan sut mahsulotlariga oziq-ovqat qo'shimchasi sifatida kiritish tavsiya etiladi, bu sut mahsulotining ozuqaviy qiymatini sezilarli darajada oshiradi, unga funksional, terapevtik va profilaktik xususiyatlarni beradi, shuningdek, erkin radikal jarayonlarini susaytirishga yordam beradi. oksidlanish va sut mahsulotlarining antioksidant xususiyatlarini va ularning saqlash muddatini uzaytiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Лазарева О.Н. Свободнорадикальные процессы и антиокислительные свойства молока и кисломолочных продуктов: автореф. дисс. ... канд. биолог. наук. - Уфа, 2009.

2. Богатова О.В., Догарева Н.Г. Химия и физика молока: учебное посо бие. - Оренбург: ГОУ ОГУ, 2004. - 137 с.

3. Нечаев А.П., Траубенберг С.Е., Кочеткова А.А. Пищевая химия. - Л.: ГИОРД, 2003. - 640 с.

4. Щербакова Ю.В. Влияние тепловой обработки на компоненты анти оксидантной системы молока и его интегральную антиоксидантную актив ность: автореф. дисс. канд. биолог. наук / Ю.В. Щербакова. – М., 2011. – 21 с.

5. Sh.I.Irnazarov Juraev R.N - Topinambur to'ganaklaridan sharbat olish usulining amaliy ahamiyati - Journal of innovations in scientific and educational research volume-7 issue-4 (30- april).2024 yil.

6. Ш.И.Ирназаров, Р.Н Жураев - Научное значение процесса получения инулина путем диффузии топинамбура.- Journal of innovations in scientific and educational research volume-7 issue-4 (30- april).2024 yil.



*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali assistenti.*

**M.A.Aslonova**, *mustaqil izlanuvchi,*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali assistenti*

**Komiljonov Kamol Komiljonovich**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali assistenti*

**Turaboyev Nurpo'lat Jamalovich,**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali dotsenti, v.f.n.*

## VETERINARIYA FARMATSEVTIKASI SANOATIDA JIGAR KASALLIKLARINI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN DORIVOR O'SIMLIKLARNING FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada jigar kasalliklarini davolashda qo'llaniladigan dorivor o'simliklarni botanik va farmakologik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация о ботанических и фармакологических свойствах лекарственных растений, применяемых при лечении заболеваний печени.*

**Abstract:** *This article provides information on the botanical and pharmacological properties of medicinal plants used in the treatment of liver diseases.*

**Kalit so'zlar:** *Jigar, botanik, geografik, alkaloid, glikozid, flavonoid, vitamin, karotin, shuvoq, bo'znoch, na'matak, yalpiz, kimyoviy, gepatit, preparat.*

**Ключевые слова:** *Печень, ботанические, географические, алкалоид, гликозид, флавоноид, витамин, каротин, полынь, бессмертник, шиповник, мята, химические, гепатит, препарат.*

**Keywords:** *Liver, botanical, geographical, alkaloid, glycoside, flavonoid, vitamin, carotene, wormwood, immortelle, rose hips, mint, chemical, hepatitis, drug.*

**Mavzuning dolzarbligi.** Ensiklopedik lug'at va O'zbekiston o'simliklar aniqlagichi kabi kitoblar hamda chet el maqolalarida bu o'simliklarning botanik tavsifi, kimyoviy tarkibi, ishlatilishi, ayniqsa ushbu o'simliklar tarkibidagi biologik faol moddalar, foydali alkaloidlar, glikozidlar, organik kislotalar, vitaminlar, flavinoidlar, uglevodlar, shilliq moddalar, makro va mikro elementlar va boshqa moddalar mavjudligi keltirilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi 543.1-sonli Qonunni 7.9.14.16-moddalari, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 4-yanvarda qabul qilingan "Dori vositalari farmasevtik faoliyat to'g'risida"gi 185-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga

qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar qo'llashni kengaytirishga oid chora tadbirlar to'g'risida"gi qarorida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-mart 124-son qarori, O'zbekiston Respublikasi o'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi huzuridagi dorivor o'simliklar yetishtirish, qayta ishlab chiqarish markazi to'g'risidagi nizomni tasdiqlashga oid qarorda keltirilgan. Ammo ushbu dolzarb vazifani amalga oshirishda qator dorivor o'simliklarning dorivorlik xususiyatlari, farmakokinetikasi, farmakodinamikasi, terapevtik xususiyatlari va ta'sir mexanizmlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borish katta ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** Dorivor o'simliklar va ular tarkibidagi shifobaxsh moddalar va ularni turli kasalliklar ayniqsa jigar kasalliklarga ta'sirini o'rgangan olimlardan Abu Ali ibn Sino, Rus olimlar-

idan A.D.Turova, I.Z.Akopov. O'zbekistonlik olimlardan X.Z.Ibragimov, D.A.Tovmasyan, A.Abdukarimov, H.X.Xolmatov, O'.A.Ahmedov, U.Q.Izbosarov, Sh.U.Izbosarov, Xolida Mirfayoz qizi. M.S.Mahkamov, Q.H.Haydarov, Q.H.Hojimatov, S.Sahobiddinov, M.A.Jo'rayeva va boshqalar gepatoprotektorlarning ta'sir xususiyatlarini o'rgangan. Ushbu o'simliklardan yig'malar, qaynatma, damlama, ekstrakt, sharbat, kukun, tabletka, bo'tqa, infuzion eritma, vitaminlar va boshqa biologik faol moddalar bilan boyitilgan sirop, suspenziya va malham, fitochoylar shaklidagi dori vositalari ustida umuman olganda bu o'simliklar ta'sir xususiyatlari tarkibi bo'yicha izlanishlar olib borishgan.

**Tadqiqot maqsadi.** Mamlakatimizning turli hududida tarqalgan shifobaxsh o'simliklar o'rganish, shuning bilan birgalikda ushbu foydali o'simliklarning hayvonlardagi jigar bilan bog'liq kasalliklarni samarali davolash usullarini ishlab chiqishda foydalanish.

**Tadqiqot usullari.** Geografik ekspeditsion, biologik (botanik taqqoslash), sistematik,

**Tadqiqot obyekti va joyi.** Dastlabki tadqiqotlar Toshkent shaxri, Toshkent viloyati va unga yaqin tumanlar Zangiota, Bo'stonliq, Yangiyo'l, tumanlari shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklari yaylov hududlarida olib borildi.

#### **Tadqiqot natijalari.**

Achchiq shuvoq (Ermon)- *Artemisia absinthium* L Asteraceae oilasiga mansub, balandligi 60-100 sm bo'lgan kulrang kumushsimon ko'p yillik o'simlik bo'lib o'ziga xos hidga ega.



*Achchiq shuvoq(Ermon)*

Hayotining birinchi yilida ildiz bo'g'zida qo'shimcha kurtaklari hosil bo'ladi, ulardan ikkinchi yili yangi poyalar rivojlanib, keyingi yil gullash va mevalashga kirishadi.

**O'sish joyi va tarqalishi.** Ermon butun O'zbekiston hududida xususan, Toshkent, Farg'ona, Andijon, Surxondaryo viloyatlarida dasht va adir zonalarida o'sadi. Asosan urug'lari, shuningdek ildizbo'g'zida hosil bo'lgan vegetativ qo'shimcha kurtaklari bilan ko'payadi.

**Kimyoviy tarkibi.** Ermonning barglari va yer ustki qismlari tarkibida efir moylari mavjud (0,12 dan 2% gacha).

O'simlik moyi tarkibiga quyidagilar kiradi: tuyil spirt, uglevodorodlar (tuyon, pinen, kadenin, fellandren, bizabolen), monosiklik katolaktanlar (ketopelanolid A, ketopilanoid V). Bundan tashqari, shuvoq tarkibida flavonoidlar, taninlar, lignanlar, organik kislotalar, karotin, askorbin kislotasi mavjud. Barglari va poyalarida uchraydigan asbintin va anabsintin moddalari bu o'simlikka xos taxir maza beradi, uning yallig'lanish va mikroblarga qarshi ta'siri ham shu moddalarga bog'liq.

O'zbekistonda o'sadigan ermonning yer ustki qismidan arabsin degan yangi alkaloid modda ajratib olingan.

**Ishlatilishi.** Xalq tabobatida ermon o'simligidan tayyorlangan qaynatma ovqat hazm qilish organlari, jigar, me'da, taloq, o't pufagi kasalliklarida shuningdek, ishtahani ochish, uyquni maromiga keltirish uchun ishlatiladi. Abu Ali Ibn Sino ermon qaynatmasini ko'z kasalliklarini davolashda ishlatgan. O'tidan siqib olingan suvni esa sariq kasalligi (virusli hepatit) va istisqoda foydalangan. Zamonaviy tibbiyotda ermon o'simligining galen preparatlari me'da-ichak yo'li ishini yaxshilab, o't ajralishini va me'da osti bezi funksiyasini yaxshilaydi. Uning tarkibidagi alkaloid va boshqa faol moddalar bakteriya va zamburug'larni o'ldirib, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi, absintin esa immunitetni jonlantirish xususiyatiga ham ega.

**Preparatlari.** O'simlik qizil shuvoq turi tarkibida efir moyi va 10% li qaynatmasi kuchli siydik haydovchi ta'sirga ega. Bu o'simlikdan artemizol preparati olingan.

**Yalpiz-Mentha longifolia** L. Lamiaceae oilasiga mansub bo'yi 1 m gacha boradigan ko'p yillik o'simlik. O'simlik juda xushbo'y. Iyun-oktyabr oylarida gullaydi, iyul-sentyabr oylarida mevalaydi.



*Yalpiz – Mentha longifolia*

**O'sish joyi va tarqalishi.** U tog'larning o'rta mintaqasigacha bo'lgan nam joylarda, ariqlarda, daryo irmoqlarining qirg'oqlarida o'sadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan, Jizzax, Samarqand, qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

**Kimyoviy tarkibi.** O'simlikning yer ustki qismida yoqimli yalpiz hidi va ozgina achchiq tam bo'lgan 0,3-0,6 % efir moyi, mentol, menton, pinen, flandren, tseniol, nezliol, karotin, ramnoza, glukoz. Bundan tashqari C vitamini va organik kislotalarning (qahrabo, limon, olma) mavjudligi aniqlangan.

**Ishlatilishi.** Ibn Sino yalpiz vositasida bir qator xastaliklarni davolay olgan. Xalq tabobatida yalpiz oshqozon ichak traktidagi yallig'lanish bilan bog'liq bo'lgan ko'ngil aynishi, qusish va ich ketishida, ayniqsa og'riqli sanchiq va ko'p miqdorda ichak gazi hosil bo'lganda ishlatiladi. Yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma tish og'rig'i, milklar yallig'lanishida ijobiy samara beradi. Yalpiz qaynatmasiga qand qo'shib tayyorlangan qiyom epilepsiya ga davo bo'lib, o'simlik shirasi istisqo va sariq kasalligiga foydasi bor. Yalpiz, shuningdek, jigar va o't pufagi kasalliklarida (og'riq qoldiruvchi o't haydovchi vosita sifatida) hamda turli asab kasalliklarida tinchlantiruvchi vosita sifatida buyiriladi.

**Preparatlari.** Yalpiz o'simligidan olinuvchi anbar moylar sanoat ko'lamida chiqarilayotgan validol, karvalol, olemetin, enatin, anestezol kabi dorivor preparatlar tarkibiga kiritilgan bo'lib, bu preparatlar yurak toj tomirlarining hamda yurak mushaklarining xastaliklarida qo'llaniladi.

**Bo'znoch-Helichrycum arenarium** L. Asteraceae (Qoqio'tdoshlar) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Bo'yi 15-30 sm ga boradi, poyalari to'g'ri o'sadi.



*Bo'znoch - Helichrycum*

**O'sish joyi va tarqalishi.** Tog' bag'irlaridagi qumli yerlarda, Qoraqalpog'istonning dashtli tumanlarida, Janubiy Qozog'istonda, Kavkazoldi va Janubiy Sibirda o'sadi.

**Kimyoviy tarkibi.** Bo'znoch, ya'ni o'lmas o't to'pgullarida (gul to'plami) flavonoidlar (0,25 %), kumarinlar, sterinlar, efir moyi yuqlari (0,05 %), vitaminlar (K), smolalar, organik kislotalar, polisaxaridlar, inozit, oshlovchi va shilliq moddalar bor. O'ti sal xushbo'y hidli bo'lib, achchiq mazaga ega.

**Ishlatilishi.** Bo'znoch to'pgullaridan tayyorlangan qaynatma yoki damlamadan xalq tabobatida gepatitlar, xoletsistitlar, nefrit, gastrit, siydik-tosh va o't yo'llaridagi tosh kasalliklarda foydalaniladi. Bo'znochning galen preparatlari o't haydaydigan ta'sirga ega. O't kislot konsentratsiyasini kamaytiradi va bilirbin miqdorini oshiradi. Bundan tashqari spazmolitik va antibakterial ta'siri aniqlangan.

Galen preparatlari (qaynatmasi, damlamasi, ekstraktlari) hayvonlar ustidagi tajribalarda o't pufagi tonusini kuchaytirishi, o't haydash xususiyati, me'da va me'da osti bezining sekretor funksiyasini jonlantirishi, diurezni kuchaytirishi aniqlangan. Tajribalarda bo'znoch gullari bakteriyalarga qarshi ta'sir ko'rsatishi ham aniqlangan. Bu ta'siri arenarin degan antibiotik borligi bilan bog'liq.

**Preparatlari.** Dorixonalarda har xil fitochoylar va yig'ma ko'rinishda preparatlari mavjud.

**Qoqio't (momaqaymoq) –Taraxacum officinale, Wigg Asteraceae** (qoqio'tdoshlar) oilasiga mansub bo'yi 15-30 sm ni tashkil etuvchi ko'p yillik, sut-shirali o'simlik.





*Qoqio‘t—Taraxacum officinale*

**O‘shish joyi va tarqalishi.** Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlarida turar joylar atrofida, yo‘l yoqalarida, bog‘larda o‘sadi.

**Kimyoviy tarkibi.** Qoqio‘tning to‘pgullari bilan barglarida triterpen glikozidlar, C va B<sub>2</sub> vitaminlari, shuningdek, temir, kalsiy, ftor va boshqa moddalar bor. Ildizlaridan ham triterpen birikmalar tarakserol, taraksol, taraksasterol, psevdotarakserol ajratib olinadi. Bundan tashqari qoqio‘t ildizlarida inulin, kauchuk, shilimshiq moddalar, yog‘li moy, organik kislotalar mavjud.

**Ishlatilishi.** Qoqio‘tdan tayyorlangan preparatlar kamqonlik, umumiy quvvatsizlikda, nafas a‘zolari kasalliklari, qandli diabetda, qorin dam bo‘lishi, bavo-sil, gepatit, o‘t-tosh kasalligi va boshqalarda foydalaniladi.

Abu Ali Ibn Sino qoqio‘tning sutsimon shirasini jigar, taloq kasalliklari, istisqo davosiga ishlatgan, uni badanning so‘gal toshgan, ilon, chayon chaqqan joylarga surtishni buyurgan. Zamonaviy tibbiyotda qoqio‘tning ildizi damlama va kukun xolida ishtaha ochish, o‘t haydash va ichni yumshatish uchun qo‘llaniladi. Bundan tashqari qoqio‘t preparatlari o‘t haydovchi vosita sifatida jigar kasalliklarini davolashda hamda hazm faoliyatini yaxshilashda qo‘llaniladi.

**Preparatlari.** Allergidon nomi ostida sirop shaklida dorivor qoqio‘t ekstrakti qo‘shiladi.

**Makka jo‘xori (popugi)** - Mauc. Zea, Mays L. Poaceae (Bug‘doydoshlar) oilasiga mansub o‘simlik.

**O‘shish joyi va tarqalishi.** Deyarli hamma joyda ekiladi. Asl vatani Janubiy Amerika. O‘zbekistonda sug‘oriladigan maydonlarda doni va poyasidan

yem-xashak tayyorlash uchun katta maydonlarda yetishtiriladi.



*Makkajo‘xori (popugi)*

**Kimyoviy tarkibi.** Makkajo‘xori popugida sintosterol, stigmasterol, efir moyi, moy, yelimsimon moddalar, glikozidlar, saponinlar, C va K vitaminlari, alkaloidlar, flavonoidlar, organik kislotalar, mikroelementlar va boshqa moddalar bor. Donida anchagina kraxmal, yog‘li moy, bir qancha vitaminlar, nikotinat kislota, biotin, karatinoidlar va boshqa kimyoviy moddalar mavjud.

**Ishlatilishi.** Xalq tabobatida makkajo‘xori popugidan tayyorlangan damlama va qaynatma, shuningdek qovurilib asalga aralashtirilgan so‘talari qon ivishini tezlashtiradigan, o‘t, siydik haydaydigan va moddalar almashinuvini maromiga keltiradigan vosita sifatida ishlatilib kelingan. Zamonaviy tibbiyotda makkajo‘xori popuklaridan tayyorlangan damlama, suyuq ekstraktidan jigar, o‘t pufagi va o‘t yo‘llarining yallig‘lanish kasalliklarida o‘t haydaydigan va ichki qon ketishida qon to‘xtatuvchi sifatida, shuningdek buyrak, qovuqtosh kasalliklarida foydalaniladi.

**Preparatlari.** Makkajo‘xori popuklaridan qon ivishini tezlashtiradigan K<sub>2</sub> vitamini olingan, shu sababli ulardan qon to‘xtatuvchi dori sifatida foydalaniladi.

**Na‘matak (mevasi)** - *Rosa nanothamnus Bouleng.* Rosaceae (ra‘nodoshlar) oilasiga kiruvchi, bo‘yi 2-3 m bo‘lgan buta.

**O‘shish joyi va tarqalishi.** Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tog‘ qiyaliklarining o‘rta va yuqori mintaqalarida uchraydi.

**Kimyoviy tarkibi.** Mevasi tarkibida vitaminlar (B<sub>2</sub>, P, E, K, C), karotin, organik kislotalar (limon, olma), ug-

levodlar, pektin va oshlovchi moddalar bor. Na'matakning ko'pgina turlarini mevalari o'xshash tarkibli vitaminlarga boy bo'lganligi uchun ularni tibbiyotda qo'llash o'xshash bo'ladi. Na'matakning gullarida efir moylari ko'proq bo'ladi. Urug'larida A, C, E vitamini borligi aniqlangan.



*Na'matak (mevasi)*

**Ishlatilishi.** Xalq tabobatida na'matakdan burushtiradigan, qon to'xtatadigan, tinchlantiradigan, talvasaga qarshi ta'sir ko'rsatadigan vosita sifatida foydalaniladi. Uni vitaminlar yetishmovchiligida, ayniqsa gipovitaminozlarda, jigar, o't yo'llari, qovuq kasalliklarida, me'da va o'n ikki barmoqli ichakning yara kasalliklarida, shuningdek o't-tosh va siydik-tosh kasalliklarida ham ishlatiladi.

Zamonaviy tibbiyotda na'matak mevalarining zararlangan to'qimalarni et olishini tezlashtirib, gormonlar sintezini kuchaytirishi, uglevodlar almashinuvi, tomirlar o'tkazuvchanligiga yaxshi ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Na'matak mevalari nefrit, gepatit, xoletsistit, enterit, shuningdek aterosklerozni davolashda ishlatiladi. Na'matak urug'laridan moy olinadi bu moy bir qancha teri kasalliklari, trofik yaralar, yarali kolit kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi.

**Preparatlari.** O'simlikning foydali xususiyatlari ko'proq urug' va mevalarida bo'lganligi uchun o'simlik mevalaridan qaynatma, damlama, ekstrakt va quyuq ekstrakt ko'rinishidagi preparatlari ishlatiladi.

**Xulosa.** Mintaqamizda keng tarqalgan *Artemisia L.*, *Mentha L.*, *Helichrycum L.*, *Taraxacum L.*, *Zea Mays L.*, *Rosa L.* turkumlariga mansub o'simliklarning keng farmakologik xususiyatga ega ekanliklarini e'tiborga olgan holda ulardan yangi zamonaviy dori vositalari ishlab chiqish va veterinariya amaliyotda foydalanish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni taqazo etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" I,II,III,IV,V kitobi tomlari "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent-2020.
2. Abdullayeva.N, Teshaboyev.N, Kisel.N "O'zbekiston Respublikasi qizil kitobi" I jild Toshkent-2016.
3. Ahmedov.O', Ergashev.A, Abzalov.A, Yulchiyeva.M, Mustafakulov.D "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi" Toshkent-2020.
4. Hamidov.A. Nabiye.M. Odilov.T. "O'zbekiston o'simliklar aniqlagichi" Toshkent 1987.
5. Imomaliyev.A. Zikiryoiev.A. "O'simliklar biokimyosi". Toshkent 1978.
6. Izbosarov.U.Q. Izbosarov.Sh.U. "Shifobaxsh o'simliklar".
7. Jo'rayeva.M.A "Dorivor o'simliklar atlas" Toshkent 2019.
8. Maxsumov.M, Aliyev.X, Saidov.S, Maxsumov.Sh "Fitoterapiya" Toshkent-2013.
9. Muxtarov.M "Ming dardga davo" Nasaf nashriyoti 2009.
10. Sobirov.I.A "Farmakognoziya" darslik Andijon-2023.
11. Turova.A.D. "SSSRning Dorivor o'simliklari va ulardan foydalanish" Moskva 1967.
12. Usmanxodjayev.A, Basitxanova.E.I, Prатов.O'.P, Dajabbarov.A "O'zbekistonda
13. Xojimatov.O.K, Haydarov.X.Q, Xamraeva.D.T, Imomova.D.A, Xujanov.A.N "O'zbekiston dorivor o'simliklar atlas" Samarqand-2021.
14. Xolmatov.H.X, Ahmedov.O'.A "Farmakognoziya" I-II tom O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti Toshkent-2007.
15. Xolmatov.H.X. Ahmedov.O'.A. Farmakognoziya I-II tom Toshkent 2007.
16. Xolida Mirfayoz qizi. Mahkamov.S.M. "Mijozingizni bilib davolaning" Toshkent 1997.
17. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi- Toshkent 2005.
- o'sadigan shifobaxsh o'simliklarning etimologik zamonaviy Ensiklopediyasi" Toshkent 2018.
18. Internet saytlari:  
w.w.w lex.uz  
w.w.w arxiv.uz  
w.w.w ziyo\_net .uz  
зооветеринария @ mail.ru



## O'ZBEKISTON VETERINARIYA FARMATSEVTIKASIDA ISHLATILADIGAN SIPERMETRIN DORI VOSITASINING KONTENT TAHLILI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida mavjud insektitsid vosita sipermetrinning bozorga kirib kelish dinamikasining ishlab chiqaruvchi davlatlar orasidagi taqsimoti, orqali kontent tahlili natijalari keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлены результаты контент-анализа распределения динамики поступления на рынок ветеринарных фармацевтических препаратов Узбекистана инсектицида циперметрина среди стран-производителей.

**Annotation:** This article presents the results of the content analysis of the distribution of the market entry dynamics of cypermethrin, an insecticide available in the veterinary pharmaceutical market of Uzbekistan, among the producing countries.

**Kirish.** Sipermetrin jahon bozorida 1970-yillarning boshlarida paydo bo'lganiga qaramay, bu birikma hozirda dunyoda eng ko'p qo'llaniladigan insektitsid hisoblanadi asosan qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan neyrotoksik zahardir. Hashoratlar organizimiga tushganda asab impulslarining uzatilishini buzadi, bu esa falajlanish va o'limga sabab bo'ladi. Yuqori harorat va ultrabinafsha nurlarga nisbatan ancha chidamli bo'lganligi sababli, ishlov berilgan maydonda uzoq muddat saqlanadi 20-30 kun davomida. Hashoratlardan himoya qilish muddati 10-15 kunni tashkil etadi. Bundan tashqari, u repellent xususiyatga ega. Qishloq xo'jaligida donli maxsulotlar bug'doy, arpa, jo'xori, va boshqa ekinlarni zararkunanda hashoratlardan, veterinariya va chorvachilikda hayvonlarni bezovta qiluvchi hashoratlardan himoyalash uchun ishlatiladi.

**Ishning maqsadi.** O'zbekiston Respublikasi veterinariya farmatsevtikasi bozorining ma'lum bir qismini tashkil etgan insektitsidlar guruhiga mansub kimyoviy himoya vositalarining toksikologik ahamiyatini inobatga olgan holda ushbu preparatlarning O'zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida tutgan o'rni tahlilini o'tkazish.

**Material va metodlar.** O'zbekiston Respublikasi veterinariya sohasida, qishloq xo'jaligida qon so'ruvchi hashoratlar va kanalar, o'simlik zararkunandalari, ka-


salliklariga va begona o'tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari ro'yxatida qishloq xo'jaligida ishlatish uchun tavsiya etilgan hayvonlarni, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari yaxlit ro'yxatini, ulardan samarali va bezarar foydalanishning asosiy mezon va me'yorlarini joriy etadi. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, Veterinariya dori vositalari, ozuqabop qo'shimchalar sifati va muomalasi nazorati bo'yicha davlat ilmiy markazi saytida keltirilgan reestr ma'lumotlari asosida O'zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida ishlatiladigan insektitsidlar va akarisidlarining kontent tahlili amalga oshirildi[8].

**Natijalar va ularning tahlili.** Bunda 2023-yildagi ro'yxat ma'lumotlariga asosan O'zbekiston hududida umumiy 14 nomdagi veterinariya amaliyotida qo'llash uchun tavsiya qilingan sipermetrin dori vositalari ro'yxatdan o'tganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu kimyoviy vositaning assortimentidagi 14 ta preparatdan 12 tasi (86 %) xorijiy ishlab chiqaruvchilar va 2 tasi (14 %) mahalliy ishlab chiqaruvchilar ulushiga to'g'ri kelishi aniqlandi. (1-rasm).


Ushbu vositalarni ishlab chiqaruvchi davlatlar kesimida tahlil qilinganda eng ko'p, Xitoy va Hindiston (36 %), keyingi o'rinda mahalliy ishlab chiqaruvchilar (14 %), Iordaniya va Saudiya Arabistoni (7 %), davlatlarida



ishlab chiqarilgan vositalar tashkil qildi. Tahlil natijalari 2-rasmda keltirilgan.



**1-rasm.** O'zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida mahalliy va chetel ishlab chiqaruvchilarining foiz ko'rsatgichlari



**2-rasm.** O'zbekiston bozorida ro'yxatdan o'tgan sipermetrin vositasi ishlab chiqarilgan davlatlar tahlili.

**Xulosa:** Natijalardan ko'rinib turibdiki O'zbekiston Respublikasi veterinariya farmatsevtikasi bozorida insektitsid vositalar guruhiga kiruvchi sipermetrin dori vositasi 14 ta nomda bo'lib, sipermetrin dori vositasini ishlab chiqaruvchi davlatlar orasida eng katta ulush 36 % Xitoyda ishlab chiqarilgan va 36 % Hindistonda ishlab chiqarilgan. Respublikamiz miqyosida ishlab chiqarilgan ulushi esa 14 % miqdorni tashkil qildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yu. Salimov, F.S. Jalilov, K.B. Hamzayev, M.B. Safarov. "Veterinariya farmakologiyasi" fani bo'yicha o'quv uslubiy majmua, Toshkent-2022
2. M.Б. Сафаров; Ф.С. Жалилов; Н.Н. Аббосов; Р.Қ. Нормаматов. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида ишлатиладиган инсектицидлар ва акарицидлар ва уларнинг қўлланилиш шакллари. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*. 2, 3 (May 2023), 36–41.
3. Yu. Salimov, F.S. Jalilov, K.B. Hamzayev, M.B. Safarov. "Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi" fani bo'yicha o'quv uslubiy majmua, Toshkent-2022
4. Abbosov, N. N., Jalilov, F. S., Safarov, M. B., & Normamatov, R. Q. (2023). O 'SIMLIKLAR HIMOYASI UCHUN ISHLATILADIGAN FUNGITSIDLARNING O 'ZBEKISTON BOZORIDA TUTGAN o'RNI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 2(3), 42-48.
5. Safarov, M., Normamatov, R., Abbosov, N., & Sayfullayeva, M. (2023). ANALYSIS OF INSECTICIDES AND ACARICIDES USED IN THE TERRITORY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(8), 26-29.
To'rtinchidan, **mavjud standartlar va normativ hujjatlar** tahlil qilindi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun joriy etilgan xalqaro va milliy standartlar (masalan, ISO, HACCP) tahlil qilindi. Bu standartlar yordamida usullarni baholashda yondashuvlar belgilandi.

Beshinchidan, **statistik tahlil** o'tkazildi. Olingan natijalar statistik usullar yordamida tahlil qilindi, bu esa usullar samaradorligini o'lchashda va ularni solishtirishda yordam berdi. Olingan ma'lumotlar grafik va diagrammalar orqali taqdim etildi.

Oxirgi sifatida, **case-studiyalar** ishlab chiqildi. Turli xil oziq-ovqat mahsulotlarida qo'llanilgan zamonaviy usullar bo'yicha konkret misollar keltirildi. Bu misollar orqali usullarni amaliyotga qanday joriy etish mumkinligi ko'rsatildi.

Ushbu metodikalar yordamida tadqiqot maqsadi o'zining dolzarbligini, ahamiyatini va natijalarining amaliy qo'llanilishini namoyon etdi. Oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirishda zamonaviy usullarni qabul qilishning afzalliklari ko'rsatildi va kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tadqiqot yo'nalishlari belgilandi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirishning zamonaviy usullari bo'yicha adabiyotlar tahlili turli xil manbalardan olingan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy metodlar va usullar qo'llanildi:

**Muhokama va natijalar.** Zamonaviy tekshirish usullari oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini oshirishda katta rol o'ynaydi. Misol uchun, spektral analiz pestitsidlar va og'ir metallarning izlarini aniqlashda samarali. Mikrobiologik testlar orqali esa oziq-ovqatdagi patogen mikroorganizmlar aniq tahlil qilinadi. Sensorli tahlil esa mahsulotning iste'molchilarga taqdim etilishida muhim rol o'ynaydi, chunki u mahsulotning ta'mini va sifatini baholashga yordam beradi.

HACCP tizimi yordamida jarayonlarda nazorat qilinishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tezkor testlar esa iste'molchilarning xavfsizligini ta'minlashda va muammolarni tezda hal qilishda yordam beradi.

**HACCP** (Hazard Analysis and Critical Control Points) — bu oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan boshqaruv tizimi. HACCP tizimi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida potensial xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish uchun mo'ljallangan. Tizimning asosiy maqsadi iste'molchilarni oziq-ovqatdan keladigan xavflardan himoya qilishdir.

**HACCP Tizimining Afzalliklari**

**Xavfsizlikni oshiradi:** Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlaydi va iste'molchilarni himoya qiladi.

**Tizimlilik:** Jarayonlarni tizimli ravishda nazorat qilish imkonini beradi.

**Muvofiqlik:** Xalqaro standartlar va qonunlarga muvofiqlikni ta'minlaydi.

**Ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi:** Muammolarni oldini olish orqali ish jarayonlarini samarali qiladi.

HACCP tizimi oziq-ovqat sanoatida yuqori sifat va xavfsizlik standartlarini saqlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu tizim, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini oshirish va iste'molchilarni himoya qilishda samarali yondashuvni ta'minlaydi.

### Xulosa

Zamonaviy usullar oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirishda samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Har bir usulning o'ziga xos afzalliklari bor va ularning birgalikda qo'llanilishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhimdir. Kelajakda yangi texnologiyalarni rivojlantirish va usullarni innovatsiyalash zarur.

HACCP (Hazard Analysis and Critical Control Points) tizimi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun muhim boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Ushbu tizim oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonida potensial xavflarni aniqlash, baholash va nazorat qilish orqali iste'molchilarni himoya qilishga qaratilgan. HACCP tizimining asosiy tamoyillari xavf tahlili, tanqidiy nazorat nuqtalarini belgilash, monitoring va korreksion choralarni o'z ichiga oladi.

HACCP tizimi oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish va xalqaro standartlarga muvofiqlikni

ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu tizim nafaqat ishlab chiqaruvchilarga, balki iste'molchilarga ham oziq-ovqat xavfsizligi haqida ishonch hosil qilish imkonini beradi.

Ushbu tizimni qo'llash orqali oziq-ovqat sanoatida-gi muammolarni oldini olish, mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin. Kelajakda HACCP tizimining takomillashtirilishi va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash imkoniyati mavjud. Shunday qilib, HACCP tizimi oziq-ovqat sanoatida xavfsizlikni ta'minlash va iste'molchilarni himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. FAO (2021). Oziq-ovqat xavfsizligi va sifat nazorati bo'yicha qo'llanma. Xalqaro Oziq-ovqat Tashkiloti.

2. WHO (2020). Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha global hisobot. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti.

3. Smith, J., & Brown, A. (2020). Zamonaviy oziq-ovqat xavfsizligi tahlili. Oziq-ovqat sanoati jurnali, 15(3), 45-56.

4. Mikrobiologik xavflar tahlili. Oziq-ovqat sanoati uchun mikrobiologik xavflarni nazorat qilish (2021). Oziq-ovqat xavfsizligi ilmiy tadqiqotlari jurnali.

5. Jones, P., & Williams, R. (2019). HACCP: Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi asosiy yondashuvlar. Oziq-ovqat va sog'liqni saqlash jurnali, 12(2), 78-89.

6. Tashkent Institute of Food Technology. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar. O'zbekiston.

7. Kuznetsov, M. (2023). Oziq-ovqat xavfsizligi: yangi yondashuvlar va texnologiyalar. Oziq-ovqat sanoati va sifatni boshqarish bo'yicha xalqaro konferentsiya materiallari.





## ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ БОРАСИДА ДЕХҚОН БОЗОРЛАРИДА СУТ МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ СИФАТИНИ АНИҚЛАШ

**Аннотация.** Республикаимиз бозорлари ва савдо марказларида сут ва сут маҳсулотлари сифати, инфекциян касалликлар билан зарарланиши ва бу касалликларни одамлар орасида тарқалиши ҳақида маълумотлар келтирилган.

**Annotation.** Information is provided on the quality of milk and dairy products in the markets and shopping centers of our republic, infection with infectious diseases and the spread of these diseases among the population.

**Калим сўзлар:** озиқ-овқат маҳсулотлари, сут маҳсулотлари, ваксена, анпаразитар, ветеринария санитария экспертизаси, паразит, химиявий кўрсаткичлар.

**Мавзунинг долзарблиги.** Республикаимизнинг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш борасида қишлоқ хўжалиги хом ашё маҳсулотларининг қайта ишлаб чиқариш ва ички сотиш бозорларини ривожлантиришга, қисман, чет эллардан озиқ-овқат маҳсулотларини импорт қилиш асосида аҳолини озиқ-овқатга бўлган эҳтиёжини қондириш бўйича йиллик режа ишлаб чиқилади. Давлатнинг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш сиёсати ўзини-ўзи озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш даражаси ҳамда уларни импорт қилиш даражаларини оқилона уйғунлаштириш, мамлакат аҳолисини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлашнинг кафолатланган имкониятларини яратиш, бу борада халқаро ҳамкорлик алоқалари ўрнатилиб келинмоқда. Бундан ташқари, ушбу сиёсат даврий равишда янгилашиб турадиган озиқ-овқат захирасини яратишга ҳам қаратилган бўлади.

Бугунги кунда Республикаимиз бўйлаб бозор ва савдо марказларида аҳолини сут ва сут маҳсулотлари билан таъминлаш мақсадида 20 дан ортиқ сут маҳсулотлари турлари расталарда сотилмоқда. Аҳолининг эҳтиёжи учун ўртача 10 миллион кишига бир кунлик сут маҳсулотларини 1,6 марта кўпайтириб режага киритишга тўғри келади. Озиқ-овқат хавфсизлиги мамлакатнинг

иқтисодий жиҳатдан барқарор ривожланиши, ўз аҳолисини озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган эҳтиёжларини қондириш қобилятини ифодалайди. Бозор иқтисодиётини шакллантираётган мамлакатларнинг олдида турган муҳим муаммолардан бири табиий ресурслар миқдори чекланганлиги, экология муҳитининг ёмонлашиб бораётган бир шароитда аҳолини иқтисодий жиҳатдан сифатли озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабини қондириш муҳим муаммолардан биридир.

Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий барқарорликни таъминлашнинг гарови озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ҳисобланади. Сўнгги йилларда озиқ-овқат хавфсизлиги масалалари республикаимизнинг ижтимоий-иқтисодий сиёсатида марказий ўринлардан бирида туради. Мутахассислар томонидан озиқ-овқат маҳсулотларни сифати бозор ва савдо марказларига сотишга рухсат беришдан олдин замонавий техникалар асосида тайёрланганлиги ва техник талабларга жавоб бериши, маҳсулотлар сақланадиган идишларни тури ва сифатлилиқ даражасидаги талаблар инобатга олиниши муҳим аҳамиятга эга. Бундан ташқари савдо марказларидаги сут ва сут маҳсулотларининг химиявий кўрсаткичларининг меъёр даражаси ва турли юқумли касалликлардан ҳолислиги бўйича хавф-

сизлик чоралари олиб бориладими? Агар олиб бориладиган бўлса тегишли бозор ёки савдо марказларига тегишли лабораторияларда текшириш имкони ярагиб берилганми? Лаборатория мутахассислари қайси услублар билан текширув ишлари олиб боришади каби саволлар истеъмолчиларни қизиқтиради. Бундан ташқари қорамолчилик фермаларида ва аҳоли қўлида боқиладиган қорамоллар йил мавсуми бўйича ҳар олти ойда турли юқумли ва паразитар касалликларга қарши вакциналар, антипаразитар препаратлар, турли касалликларга қарши антибиотиклар қўлланилади. Хуш! Бундай ҳолатларда соғиладиган сигирларнинг сутлари тукиб ташланмаса керак албатта. Ваҳоланки, бундай жараёнларда сотиладиган сутларнинг химиявий таркиби билан ким қизиқади. Албатта, ҳеч бир инсонни қизиқтирмаган. Оддий аҳоли препаратларнинг организмдан қачон тўлиқ чиқиб кетиши, бу препаратларнинг инсонлар, айнан ёш болалар организмга токсинлик таъсир даражаси ҳақида ўйлаб ҳам кўришмайди. Таркиби бўзилган сут ва сут маҳсулоти қайта ишланганда ҳам унинг таркибида қанчалик даражада препаратларнинг сақланиши мумкин. Сут таркибида қолган препаратларнинг қолдиқлари инсон организми учун токсин ҳисобланади. Натижада, моддалар алмашинув жараёнида эса қоннинг захарланиши, овқат ҳазм қилиш системасининг бўзилиши ва бошқа органлар функциясини ҳам қисман бўзилиши келиб чиқади. Оқибатда иммунитетнинг пасайиб кетиши кузатилади. Бундай ҳолатда ёш авлодимиз организми табиатдаги миллионлаб микроорганизмлар билан

курашишга бардош берадими. Инсоният билмасдан, тушуниб етмасдан, эътиборсизликдан ўз қўли билан келажак авлодни захарлаб келаятганлигини билармикин.

Мамлакатимизда аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш тизими устуворликларининг иқтисодий ривожланиш йўлида биринчи ўринда аҳолини соғлигини таъминлаш хавф-хатарларни олдиндан аниқлаш ва хатарлилик даражасига мувофиқ равишда қайта кўриб чиқиши ва мунтазам назорат қилиниб борилиши лозим.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Н.Н.Архангельский ва бошқалар. "Санитария производства молока". Москва "Колос" нашриёти, 1974 йил.
2. Н.В.Барабаншиков. "Молочное дело". Москва "Колос" нашриёти, 1983 йил.
3. Р.Б.Давидов. "Молоко и молочное дело" Москва "Колос" нашриёти, 1973 йил.
4. А.Ю.Худайбердиев. "Гўшт, сут, балиқ ва консерваланган маҳсулотлар технологияси". Самарқанд 2002 йил
5. С.М.Муродов. "Сутчилик иши". Самарқанд 1997 йил.
6. С.М.Муродов. "кишлоқ хўжалик маҳсулотларининг ветсанэкспертизаси, қайта ишлаш технология асослари ва стандартиризация". Самарқанд 1997 йил.
7. С.М.Муродов. "Ветеринария санитария экспертизаси" Самарқанд 2006 йил.



Atakulova Dilfuza Tursunova,

Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti dotsenti t.f.f.d.,  
dilfuzaatakulova.65@list.ru

Gulimmatova Shoira Fayzulla qizi,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti OOT-165-21 guruh talabasi  
shoirashoira851@gmail.com

## SARIYOG'LI MAYONEZNING INSON ORGANIZMI UCHUN FOYDALI JIHATLARI

**Annatsiya:** Ushbu maqolada sariyog'li mayonezning foydali tomonlarini, mahsulotning kaloriya manbai sifatida tez energiya ta'minlashdan tortib, yurak, miya faoliyatiga ijobiy ta'sir etuvchi Omega-3 va Omega-6 yog' kislotalarini ta'minlashgacha bo'lgan jihatlari hamda foydali tomonlarini aniqlab, uning iste'mol miqdori va sog'liq uchun ahamiyati o'rganilgan.

**Аннотация:** В этой статье определены преимущества масляного майонеза от обеспечения быстрой энергии в качестве источника калорий до жирных кислот Омега-3 и Омега-6, которые положительно влияют на сердце и мозг, а также изучена их потребление и польза для здоровья.

**Abstract:** This article identifies the benefits of oil mayonnaise from providing quick energy as a source of calories to Omega-3 and Omega-6 fatty acids that have positive effects on the heart and brain, and examines their consumption and health benefits.

**Kalit so'zlar:** Omega-3 va Omega-6 yog' kislotalari, oqsil va yog'lar, vitamin, minerallar.

**Ключевые слова:** Жирные кислоты Омега-3 и Омега-6, белки и жиры, витамины, минералы.

**Key words:** Omega-3 and Omega-6 fatty acids, proteins and fats, vitamins, minerals.

**Kirish.** Hozirgi kunda oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining xilma-xilligi ortib borar ekan, ularning inson sog'lig'iga ta'siri ham keng tadqiq qilinmoqda. Shu jumladan, kundalik hayotda keng tarqalgan mayonez mahsuloti, xususan, sariyog'li mayonez ham ko'plab iste'molchilar orasida qiziqish uyg'otmoqda. Sariyog'li mayonez o'zining boy ta'mi, yuqori kaloriyali tarkibi va organizm uchun muhim bo'lgan yog'lar bilan mashhur. Ammo, ko'p hollarda yog'li mahsulotlar salomatlik uchun xavfli deb hisoblanadi. Shu boisdan, sariyog'li mayonezning inson organizmi uchun qanday foydali jihatlari borligi va u sog'lom ovqatlanish tizimida qanchalik ahamiyatli ekanligini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi[1,2].

**Mavzuning dolzarbligi.** Sariyog'li mayonezning foydalari haqida ilmiy yondashuv bugungi kunda sog'lom ovqatlanishga bo'lgan qiziqishning ortishi bilan dolzarb mavzulardan biriga aylanmoqda. Sariyog' va yog'li mahsulotlar ko'pincha salomatlik uchun zararli deb ko'rilsa-da, zamonaviy tadqiqotlar muvozanatli iste'mol qilinsa, ularning o'ziga xos foydali tomonlarini ta'kidlaydi. Shu bois, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibi va ularning inson organizmiga ta'siri haqida chuqur bilimga ega bo'lish, sog'lom ovqatlanishning asosi sifatida katta ahamiyatga ega. Sariyog'li mayonez

o'zining yuqori energiya manbai sifatida oson hazm bo'lishi, Omega-3 va Omega-6 kabi foydali yog' kislotalarini ta'minlashi bilan ham dolzarb bo'lib, yurak, miya faoliyati, shuningdek, teri va soch salomatligi uchun foyda berishi mumkin. Shu sababli, sariyog'li mayonezning ijobiy tomonlarini to'g'ri baholash va uni muvozanatli iste'mol qilish zaruriyatini o'rganish bugungi kun ovqatlanish madaniyatida muhim o'rinni egallaydi[2,3].

Mayonez kundalik iste'mol qilinadigan mahsulotlardan biri bo'lib, u sariyog' yoki o'simlik yog'i asosida tayyorlanadi. Sariyog'li mayonez o'ziga xos xushbo'y ta'mi va to'yingan yog'lar miqdori bilan ajralib turadi. Odatda, bu mahsulot ovqatlarda xushbo'ylik va tuzlamalarga lazzat qo'shish uchun ishlatiladi.

Sariyog'li mayonezda o'ziga xos yuqori kaloriya mavjud bo'lib, bu uning tarkibidagi yog'lardan kelib chiqadi. Bir qoshiq mayonez 90-100 kaloriya atrofida bo'lishi mumkin. Bu energiyani talab qiladiganlar, masalan sportchilar yoki jismoniy faoliyat bilan shug'ullanadiganlar uchun tez va oson energiya manbai bo'lishi mumkin. Shuningdek, past vaznga ega bo'lgan va semirishni istagan insonlar uchun u foydali ovqat qo'shimchasi hisoblanadi[3,4].



Sariyog'li mayonezning ozuqaviy qiymati va kimyoviy tarkibi

Ozuqa moddasi	Miqdori	Norma	100 g da normaning %	100 kkalda normaning %
Kaloriya tarkibi	847 kkal	1684 kkal	50,3	5,9
Oqsillar	8,3 g	76 g	10,3	1,3
Yog'lar	90 g	56 g	160,7	19
Uglevodlar	1,7 g	219 g	0,8	0,1
Vitaminlar				
Vitamin E	1,414 mg	15 mg	9,4	1,1
Vitamin K	7,2 mkg	120 mkg	6	0,7
Makroelementlar				
Kaltsiy	56,46 mg	1000 mg	5,6	0,7
Fosfor	140,9 mg	800 mg	17,6	2,1
Yog' kislotalari				
Omega-3 yog'kislotalari	0,1 g	3,7 g	11,1	1,3
Omega-6 yog'kislotalari	1,9 g	16,8 g	40,4	4,8
To'yingan yog'li kislotalar	55,4 g	18,7 g		
Bir to'yinmagan yog'li kislotalar	29,772 g	16,8 g	177,2	20,9
Ko'p to'yinmagan yog'li kislotalar	3,256 g	20,6 g	29,1	3,4

Sariyog'li mayonez tarkibida o'simlik moylaridan (masalan, kungaboqar yoki soya moyi) olingan Omega-3 va Omega-6 yog' kislotalari mavjud bo'lib, bu yog'lar yurak va miya faoliyati uchun foydalidir. Ushbu yog' kislotalari tanamizda yallig'lanishga qarshi va yurak qon tomir kasalliklarini oldini olishda yordam beradi.

Sariyog'li mayonez tarkibida E vitamini va K vitaminlari mavjud. E vitamini antioksidant xususiyatlarga ega bo'lib, hujayra membranalarini erkin radikallardan himoya qiladi, bu esa teri va soch sog'lig'i uchun foydali hisoblanadi.

K vitamini esa qonning normal ivishida muhim ahamiyatga ega[1,3,4].

Mayonezga qo'shilgan tuxum sarig'i oqsillar bilan boyitilgan. Tuxumdagi oqsil miqdori, ayniqsa, hujayra regeneratsiyasi va mushaklar o'sishi uchun zarur hisoblanadi. Shuningdek, oqsillar organizmning turli jarayonlarida ishtirok etuvchi fermentlar va gormonlar sintezida ishtirok etadi. Mayonezkaltsiy va fosfor manbai hisoblanadi. Sariyog'li mayonez tarkibidagi tuxum sarig'idan kaltsiy va fosfor moddalari olinadi.

Bu minerallar suyak va tishlarning mustahkam bo'lishida, hamda suyaklarning mineralizatsiyasi jarayonida muhim rol o'ynaydi. Kaltsiy mushaklar faoliyatida ham asosiy rol o'ynaydi, fosfor esa energiya almashinuviga yordam beradi[2,3,4].

Teri va soch uchun foydasi katta. Sariyog'li mayonezdagi yog'lar teri va soch uchun zarur bo'lgan namlikni saqlashda muhim hisoblanadi. Ko'p hollarda, uy sharoitida soch niqobi sifatida ishlatiladi, bu esa sochni oziqlantiradi va yorqinlik beradi. Teri uchun esa u yumshoqlik va elastiklikni saqlashga yordam beradi.

Nerv tizimi uchun qo'shimcha hisoblanadi. Yuqori kaloriyalı mahsulotlar, shu jumladan sariyog'li mayonez, nerv tizimi uchun muhim bo'lgan fosfolipidlarni ta'minlaydi. Fosfolipidlar miya hujayralari uchun zarur bo'lib, diqqatni jamlash va fikrlash jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi[8,9].

Bundan tashqari sariyog'li mayonez tez hazm bo'lish xususiyatiga ega. Sariyog'li mayonez tarkibidagi tuxum sarig'i va yog'lar organizm tomonidan oson hazm qilinadi. Bu oshqozon-ichak tizimi uchun yengil-

lik bo'lib, bu mahsulot osonlik bilan energiyaga aylantiriladi[5,6,7].

**Xulosa.** Sariyog'li mayonezning inson organizmi uchun foydalari ko'p, ammo uni me'yorida iste'mol qilish lozim. Haddan tashqari ko'p iste'mol qilish ortiqcha yog'lar va kaloriyalarni yig'ilishiga olib kelishi mumkin, bu esa semizlik va boshqa sog'liq muammolarini keltirib chiqarishi ehtimoli yuqori. Shu bilan birga, sog'lom turmush tarzini saqlab qolish uchun mahsulot tarkibiga e'tibor qaratish va muvozanatli ovqatlanish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Suvanova F. U. O'simlik moylarini ishlab chiqarish texnologiyasi. Toshkent "Voris – nashriyoti" 2020.

2. Y. Q. Qodirov, M.N. Raximov Yog'larni qayta ishlash texnologiyasi. Toshkent iqtisod – moliya 2013 197-208-betlar.

3. Popov A.A. Funktsional maqsadlar uchun boyitilgan yog'li oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini yaxshilash. [Funktsional maqsadlar uchun boyitilgan yog'li ovqatlar sifatini yaxshilash. Abstract of Cand. dis] Mokkov, 2006 yil. sifatini yaxshilash. [Funktsional maqsadlar uchun boyitilgan yog'li ovqatlar sifatini yaxshilash. Abstract of Cand. dis] Mokkov, 2006 yil.

4. Н. С. Арутюнян, Е. А. Аришева, Л. И. Янова и др.; под ред. Н. С. Арутюняна Технология переработки жиров: учеб. для вузов по спец. «Технология жиров».

5. Д.Т. Атакулова Получение биологически безопасного экологически чистого пищевого продукта при применении виноградных листьев для приготовления во многих кухнях мира. Iscience, Актуальные вызовы современной науки XXVI XXVI Международная научная конференция 26-27 июня 2018 г. Сборник - научных трудов, Переяслав-Хмельницкий. №6 (26), 2018. -С.32-34.

6. Атакулова Д.Т., Джураева Г.Х. (Карши, Узбекистан) Химический состав и свойства виноградных листьев. материалы XXVII Международной научно-практической интернет-конференции «Проблемы и перспективы развития науки в начале третьего тысячелетия в странах Европы и Азии» 29 – 30 июня. Сборник научных трудов. Переяслав-Хмельницкий – 2016 С. 278-279.

7. Атакулова Д.Т., Додаев К.О. Химический состав и пищевая ценность листьев винограда // Международный научно-технический журнал Инновации в технике и технологиях». Т. 2, №1. 2021. -С.59-63.

8. Atakuova D., Dodaev K. Chemical composition and nutritional value grape leaves // International scientific and technical journal Innovati on technical and technology. Vol.2, No. 1. 2021. –P. 59-63.

9. Атакулова Д.Т., Додаев К.О. Лечебные свойства нетрадиционного сырья, виноградных листьев и их использование в приготовлении популярных блюд // Универсум: Технические науки. Москва. № 6, 2019. –С. 71-73.



## TOVARBOP DONLARNI QAYTA ISHLAB UN TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TURK TEGIRMONLARINING AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Bug‘doy donlarini sifatli bo‘lishi avvalo iqlim sharoitiga va dala sharoitida olib borilgan agrotexnologik tadbirlarning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq. Donni qayta ishlash jarayonida turk texnologiyalarini qo‘llab yuqori sifatli un olishni amalga oshirish hozirgi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

**Tayanch so‘zlar:** texnologiya, agrotexnologik, madaniy, takomillashtirish, seleksiya, serxosil, bug‘doy, iste‘mol, strukturaviy-mexanik.

**Аннотация:** Качество зерна пшеницы в первую очередь зависит от климатических условий и правильной организации агротехнологических мероприятий, проводимых в полевых условиях. Получение муки высокого качества по турецким технологиям при переработке зерна сегодня является актуальным вопросом.

**Ключевые слова:** технология, агротехнология, культура, улучшение, селекция, высокая урожайность, пшеница, расход, структурно-механический.

**Abstract:** The quality of wheat grain primarily depends on climatic conditions and the correct organization of agrotechnological measures carried out in the field. Obtaining high-quality flour using Turkish technologies in grain processing is a pressing issue today.

**Keywords:** technology, agrotechnology, crop, improvement, selection, high yield, wheat, consumption, structural-mechanical.

G‘alla etishtirish madaniyati takomillashib bormoqda, respublikamizning murakkab iqlim sharoitiga moslashgan yangi, serhosil bug‘doy navlarini yaratishga qaratilgan seleksiya ishlari yaxshilanmoqda, etishtirilayotgan donning sifati va iste‘mol xususiyatlari ham sezilarli darajada oshmoqda.

Eng muhimi odamlarning, birinchi navbatda dehqonlarning erga, o‘z mehnatining natijasiga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgarmoqda. Bugun barchamiz qishloqda ishlab chiqarish va mulkchilik munosabatlarini isloh qilish, dehqon mehnatini rag‘barlantirish naqadar ulkan samara berishni g‘allachilik sohasi misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Fan va texnikaning rivojlanishi natijasida yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan maydalovchi uskunalar, navlarga ajratuvchi va elaklovchi uskunalar, mexanik va pnevmatik harakatlanuvchi transport moslamalaridan foydalanishga erishilmoqda. Tegirmon toshlariga ega bo‘lgan kichik korxonalar bilan bir qatorda, bug‘ kuchidan foydalanib ishlaydigan korxonalar, suv turbinalari va faoliyati elektr quvvatiga asoslangan zavodlar yuzaga kela boshladi.

Un ishlab chiqarish korxonalarini doimiy ravishda ishlashini ta‘minlash, dondan foydalanish darajasini ko‘tarish, unning sifatini yaxshilash, don zaxiralardan

ratsional foydalanish uchun elevatorlarda pomol partiyalar shakllantiriladi. Ular korxonaning 10 sutka davomida to‘xtovsiz ishlashini ta‘minlab berishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasidagi eng zamonaviy tegirmonlari o‘tgan asr 60-yillarining oxiri 70-yillarining boshida “Buhler” firmasining litsenziyasi bo‘yicha konstruksiyalangan 3-avlod uskunalar bilan jihozlangan.

Qashqadaryo viloyatida turk tegirmonlari hozirgi kunda bir nechtani tashkil qilib ularning quvvatlari turli hil.

Olib borilgan tadqiqot ishlarimiz Koson don mahsulotlari qabul qilish ma‘suliyati cheklangan jamiyatida va Qashqadaryodan mahsulotlari aksiyadorlik jamiyatida Dunyo-M aksiyadorlik jamiyatidagi tegirmon sehlari olib borildi.

Maydalash sistemadan oldin un va kepaklarni tortish bo‘yicha eng zamonaviy elektron tortish moslamasi bilan jihozlangan. Bu tarozilardan axborot kompyuterga uzatiladi, bu erda ular qayta hisoblanadi, don va tayyor mahsulot miqdori kompyuter xotirasiga kiritiladi, matematik operatsiyalar amalga oshiriladi don, un va kepakning harakati grafigini yozadi, istalgan vaqtda don, un va kepak bo‘yicha tegirmon dastlab ishga tushirilgan paytdan boshlab, oy boshi va smena boshidan ahborot bera oladi, un va kepakning chiqishini hi-



soblaydi, smena oxirida esa tegirmonning ishi haqida raport beradi, u tegirmon har soatda qanday yuqlama bilan ishlagani va qancha tayyor mahsulot chiqargani va qancha vaqt to'xtab qolganini ko'rsatib turadi. Ma'lumotda qancha mahsulot ishlab chiqarilgani, uning tushumi, shuningdek, qancha donga qayta ishlov berilgani ham ko'rsatiladi.

Tegirmonlarning 2007 yil fevral oyidagi ish yakunlari bo'yicha don kuldorligining pasayishi 0,16 % ni tashkil etadi - bunday ko'rsatkichlarga boshqa ilg'or korxonalar bo'yicha birorta tegirmonda xatto g'adirbudur yuzali ishlov beruvchi uskunadan foydalanganda ham erishilmagan.

Texnologik jihatdan yuqori unumli uskunalar bilan don tozalashning birinchi bosqichida turli iflosliklardan 95 % gacha tozalash imkoniyati mavjud.

Texnologik jarayon bir xil navli 76% 1-navli unni saralab tortish asosiga qurilgan, lekin zarurat bo'lganda "Patent" unni saralash variantini qo'llash mumkin bo'lib, u pnevmatik tarzda amalga oshiriladi, uni saqlash uchun esa 4 xil sig'imli unning biridan foydalanadi.

Maydalash uskunalari va aspiratsion qurilmalarning o'tish yo'lida vertikal vibrotsentofugaldan foydalanib, kepakka yuqori oqsilli, yupqa dispersli muchkaning tushib qolishiga yo'l qo'ymaydi.

Olib borilgan va o'rganilgan tadqiqotlar bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak shvesariya buyuller texnologik liniyasida o'rnatilgan uskunalarining ishlash prinsiplarini faqatgina ochib ko'rish va mexanik usulda o'rganishimiz mumkin. Un chiqishini 24 soatda amalga oshirilgan bunkerda tortilmay qolgan don massasi va chiqqan un miqdorini bilish faqat qoplagandan so'ng aniqlashga erishilgan.

Turk texnologiyasining avfzalligi shundagi barcha uskunalarining ishlashi va bug'doyni bunkerda qancha qolgani sensirda ko'rinib turadi mahsulot chiqimini to'liq aytishga erishish mumkin. Shvesariya texnologiyasining yana bir kamchiligi qisqartirish jarayoni mavjud emasligi bo'lsa turk tegirmonida 1 qavvat to'liq qisqartirishga erishilgan shuni hisobiga mahsulotni chiqishiga va ishlab chiqarish jarayonidagi vaqtdan uskunalarining joylashgan masofalarining ixchamligi tomonidan ustun turadi. Yana bir o'ziga xos jihati shundaki, bir tonna un ishlab chiqarish uchun sarflanadigan eng past solishtirma norma respublikamizda 75 kvtdan oshmasligini ta'kidlash lozim. Tayyor mahsulotlar bo'limining an'anaviy, alohida xususiyatlari bu - unni nazorat qilish bevosita uni qoplariga joylashdan oldin amalga oshiriladi eng zamonaviy, yuqori unumdorlikka ega bo'lgan, elektron boshqaruvli tarozi yuritish apparati "Endustriel elektrik" firmasining mahsulotidan foydalaniladi eng zamonaviy qop tikish mashinasiga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бутковский В.А.Технология мукомольного, крупяного и комбикормового производства М.ВО «Агропромиздат», 1989.
2. Егоров Г.А., Мелников Е.М., Максимчук Б.М. Технология муки, крупы и комбикормов М: Колос 1984.
3. Егоров Г. А. Мартыненко Я. Ф., Петренко Т. П. Технология и оборудование мукомольной, крупяной и комбикормовой промышленности. Изд-во "Издательский комплекс МГАПП". М. 1996.
4. Р.Р.Галиский Оборудование зерно-перерабатывающих предприятий М.:Агропромиздат, 1990.



## KUZGI BUG'DOYNI TRANSPARTIROVKA QILISH JARAYONIDA NAMLIKNING AXAMIYATI

**Annotatsiya:** Don namligining texnologik ahamiyati naviga, yetishtirilgan hududga, uni namlash texnologik rejimiga bog'liqligi va Respublikamizda yetishtirilayotgan mahalliy bug'doy donlaridan navli un tortish samarali jarayonlardan hisoblanadi

**Tayanch so'zlar:** texnologiya, bug'doy, iste'mol, stukturaviy-mexanik, valyuta, resurstejamkor, sinf, yormacha, rejim, ratsional, parametr, fizik-kimyoviy, tabiiy qiyalik va ishqalanish, ob'ekt, nav, tip, morfologik, natura, shaffoflik, granulometrik

**Аннотация:** Технологическое значение влажности зерна зависит от сорта, площади возделывания, технологического режима его увлажнения, а извлечение сортовой муки из зерна местной пшеницы, выращенной в нашей Республике, является одним из наиболее эффективных процессов.

**Ключевые слова:** технология, пшеница, расход, структурно-механический, валютный, ресурсоэффективный, класс, ярмарка, режим, рациональный, параметр, физико-химический, естественный уклон и трение, объект, сорт, тип, морфологический, характер, прозрачность, гранулометрический.

**Abstract:** The technological significance of grain moisture depends on the variety, cultivation area, technological mode of its moistening, and the extraction of varietal flour from local wheat grain grown in our Republic is one of the most effective processes.

**Keywords:** technology, wheat, consumption, structural-mechanical, currency, resource-efficient, class, fair, mode, rational, parameter, physicochemical, natural slope and friction, object, variety, type, morphological, character, transparency, granulometric.

Hozirda kuchli va qattiq bug'doy donlari asosan xorijdan valyutaga xarid qilinmoqda. Sug'oriladigan va lalmikor maydonlarda xarid narxlari 3 sinf bug'doy doniga nisbatan 30-40% yuqori bo'lgan kuchli va qattiq bug'doy donini respublikamiz ehtiyojiga yetarli miqdorda yetishtirish, valyutani tejashga, aholini sifatli non va makaron mahsulotlari bilan ta'minlashga va fermer xo'jaliklarida g'alla yetishtirish samaradorligini, rentabelligini oshirishga ko'maklashadi.

Bunda mahalliy yaratilgan yangi bug'doy navlarini resurstejamkor hamda donning hosildorlik va sifat ko'rsatkichlarini oshiruvchi texnologiyalarni ishlab chiqish talab etiladi.

Hozirgi paytda yetishtirilayotgan bug'doy donining asosiy qismi 3-sinfga, qolganlari 4 va 5- sinflarga topshirilmoqda. Don sifati kuchli va qimmatli (1 va 2-sinf) bug'doy doni talablariga javob bermaydigan hosil yetishtirilishi tufayli donchilikdan fermer xo'jaliklari yetarli miqdorda foyda olishmayapti.

Qashqadaryo viloyatining och tusli tipik bo'z tuproqlari sharoitida birinchi marta bug'doyning G'ozg'on, Elomon, Hisorak, Hazrati Beshir, Yaksart, Bunyodkor, Farovon, Barhayot navlari mahalliy sharoitda yaratilgan va intensiv tipga mansub bug'doy navlaridan ishlab

chiqarishga tadbiiq etidmoqda. Don namligining texnologik ahamiyati: naviga, yetishtirilgan hududga, uni namlash texnologik rejimiga bog'liqligi va Respublikamizda yetishtirilayotgan mahalliy bug'doy donlaridan navli un tortish samarali hisoblanadi.

Maydalash sistemasida yuqori sifatli yormachalar olishda siqilish va siljish kuchlar nisbatini aniqlash zarurligi va ularni nisbatlari, maydalash partiyasidagi bug'doy donlarni, yetishtirilgan hududga, ularning navlariga, hamda texnologik sifat ko'rsatkichlariga bog'liqligi aniqlandi. Kuchlar nisbatini, maydalovchi val rifellarini ratsional formasi ta'minlashi hamda aynan ushbu ratsional formalar ta'siri mahalliy bug'doy donlaridan navli un olish mumkinligi aniqlandi.

Ombor va siloslarga donlar tushirilayotganda og'ir donlar va og'ir aralashmalar yuqori zichlikka ega bo'lganliklari tufayli markazga yaqinlashadi, aksincha yengil donlar va yengil aralashmalar markazdan uzoqlashadi. O'z-o'zidan saralanish mikroorganizmlar va zararkunandalar rivojlanishi uchun qulay muhitlarni yuzaga keltiradi. Bu esa omborxonada va silos devorlari yaqinida vertikal holatda o'z-o'zidan qizish jarayoni boshlanishiga turtki bo'ladi, chunki aynan shu joylarga

*Maxalliy bug‘doy navlarining fizik-kimyoviy sifat ko‘rsatkichlari*

Bug‘doy navlari	Don namligi, %	Natura og‘irligi, g/l	1000 don vazni, g	Shaffofligi, %	Kuldorlik %	Endospermning massa ulushi, %
G‘ozg‘on,	10	774	39	79	1,74	76,1
Elomon	9	775	38	81	1,82	80,6
Hisorak,	11	777	40,3	85	1,92	81,8
Hazrati Beshir	12	779	39	83	1,76	80,8
Bunyodkor	11	771	38	74	1,86	82,8
Barhayot	9	786	38,2	76	1,84	83,6
Yaksart	10	780	37,6	86	1,88	85,2
Farovon	10	770	39,8	69	1,89	83,8

yuqori namlikka ega bo‘lgan mayda donlar va organik aralashmalar tushib qoladi.

Donning texnologik xossalari o‘zgarib turadi. Bunga donning struktura-mexanik, fizik-kimyoviy, biokimyoviy va fizik-issiqlik xossalari va uning anatomik qismlari taʼsir ko‘rsatadi. Donni qayta ishlashga tayyorlashda donning texnologik xossalarini o‘zgartirgan holda optimal darajaga keltiriladi. Buning uchun texnolog tayyorlov jarayonining ratsional rejimlarini tanlaydi. Natijada donning texnologik xossalarini parametrlari bir xil bo‘ladi va don optimal rejimda qayta ishlanadi. Donni boshlang‘ich texnologik xossalari ko‘rsatkichlarini har xil bo‘lishiga qaramasdan ishlab chiqarish yuqori samaradorlikda taminlanishi shart. Un va yorma mahsulotlarida saralanish jarayoni kuzatilmaydi, chunki ular asosan o‘lchami va zichligi bo‘yicha bir xil bo‘lgan zarrachalardan tashkil topgan.

Mahalliy bug‘doy donlaridan navli un ishlab chiqarishda texnologik, morfologik va fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, respublikamizda yetishtirilayotgan mahalliy bug‘doy donlarining aksariyatini III-IV tip bug‘doy donlari tashkil etgan bo‘lib, ularni yetishtirilgan hududlar bo‘yicha qiyoslanganda, iqlim sharoitidan kelib chiqib, texnologik sifat ko‘rsatkichlari o‘zgarib boradi. Olib borilayotgan tadqiqot ob’ekti sifatida Qashqadaryo viloyatida yetishtirilgan maxalliy bug‘doy navlaridan G‘ozg‘on, Elomon, Hisorak, Hazrati Beshir, Yaksart, Bunyodkor, Farovon, Barhayot donlarining fizik-kimyoviy sifat ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltiril-

gan.

Tajribalar natijasiga asoslanib donlarning namligi bir-biridan uncha katta farqlanmaydi. Ularning natura og‘irligi ahamiyatlidir, ya’ni 770 g/l dan 786 g/lgachani tashkil etdi. 1000 ta don vazni bo‘yicha ularning farqi yuqori emasligi 37,6 grammdan 40,3 grammgacha ekanligini tashkil qildi.

Bundan tashqari sifat ko‘rsatkichlar kuldorligi, shaffofligi standart talablarini inkor etmaydi. Jumladan, shaffofligi yuqori bo‘lgan bug‘doy donida qobiqning endospermga nisbatan ulushining pasayishi endospermida oqsil moddalarining miqdori yuqori bo‘lishi bilan asoslanilgan.

Bug‘doy donlarini yig‘ib olishda daladan begona o‘t urug‘lari va boshqa mineral va organik aralashmalar bilan birga yig‘iladi, shuni inobatga olish muximki don komponentlarining razmerlari ham aloxida ahamiyatga ega bo‘ladi. Don to‘plamlari va massasining namligi yuqori bo‘lishi ham oquvchanligini kamaytiradi.

Donlarni elevator va bunkerlarda joylashda, noriya va transpartiyor, uskunalarlarda xarakatlanishi oquvchanlikni muxim hisoblanadi. Agar don massasining namligi yuqori va g‘ovakligi kam bo‘lganda umuman transpartiyorlarga xarakatga kelmaydi va uskunalarda tiqilishlarni va donlarning nobud, isrof bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Elevatorning don saqlash bunkerlarida va boshqa ishlab chiqarish korxonalarida silos, oddiy don omborlarida bug‘doyning oquvchanligi to‘xtaydi. Donlarni tegirmonda yoki omixta yem sexlarida o‘tkazishda oquvchanligi etiborga olinadi.



*Namligi yuqori bo'lgan maxalliy bug'doy donlarining transpartiyor, noriya va samatok trubalarda xarakatlanishi*

t/r	Bug'doy navlari	Don namligi, %	Tabiiy ishqalanish burchagi, sm	Tabiiy qiyalik burchagi, sm
1.	G'ozg'on,	15	18,9	34,2
2.	Elomon	13	17,8	27,3
3.	Hisorak,	15	17,4	26,7
4.	Hazrati Beshir	14	18,5	29,6
5.	Bunyodkor	13	18,3	32,1
6.	Barhayot	14,5	18,6	33,6
7.	Yaksart	15	19,2	33,9
8.	Farovon	14	18,9	29,5

Oquvchanlik bu donlarning sirpanishi va moslamalarda yurishi bilan tabiiy qiyaligi va ishqalanish burchaklari bilan baxolanadigan ko'rsatkich hisoblanadi. Don massasining oquvchanlik darajasiga don massasidagi qattiq jismlarning granulometrik tarkibi va tabiati ta'sir ko'rsatadi. Bular don va aralashmalar yuzasining holati, tavsifi, shakli, o'lchamlari, namligi, aralashmalarining tarkibi va miqdori, shuningdek, sirpanuvchi yuzadan, materialidan va formasidan iborat. Yukori oquvchanlikka va kichik tabiiy qiyalik burchagiga ega bo'lgan don massalari yumalok shaklga, silliq yuzaga ega bo'lgan donlardir. Donlar shakli yumalok ko'rinishdan uzoqlashgan sari ularning oquvchanligi kamayadi. Don massalari tarkibidagi aralashmalar miqdori uning oquvchanligini kamaytiradi. Ayniqsa yengil aralashmalar (somon, xas va boshqalar) uni sezilarli darajada kamaytiradi.

Don massasining namligi oshib borgan sari uning oquvchanligi kamayadi va aksincha tabiiy qiyalik burchagi katta bo'ladi.

Olingan tajribalarimiz natijasiga ko'ra quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Respublikamizda yetishtirilayotgan maxalliy bug'doy yoki sodda qilib aytganda tovar donlardan navli un tortishda don namligining o'zgarishi tabiiy qiyalik va tabiiy ishqalanish burchagini ortishiga sabab bo'la-

di. 2. Maydalash jarayonida berilgan donning namligi sababli val yuzasiga bir tekisda tarqalmasligiga sabab bo'ladi va I, II va III maydalash jarayonlarida vallarni yuzalariga yopishishi natijasida yaxshi ezilmasligi oqibatida chiqadigan mahsulotning ham sifatiga salbiy tasir ko'rsatadi.

3. Ishlab chiqarish sexlaridagi vallarning yaroqsiz bo'lib qolishiga bir tomondan tasir etsa, uskunalarining ishlash samaradorligini pasayishiga olib keladi.

4. Shuning uchun ishlab chiqarishda donlarni qabul qilganda standart talablariga muvofiq ravishda maxalliy tovar donlarning namligiga katta etibor qaratish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Куприц Я.Н. Физико-химические основы размола зерна. М: «Заготиздат», 1946. - 214 с.

2. Егоров Г.А. Технологические свойства зерна. М: «Агропромиздат», 1985. 334 с.

3. Ахмаджонов Б. Носил сифати нималарга боғлиқ. // Ўзбекистон кишлок хўжалиги. – Тошкент, 2006. – №4. – Б.16.

4. Xolmurodova Z. Don tarkibidagi begona aralashmalarini saqlanuvchanlikka ta'siri. O'zbekiston mustaqilligining XV-yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan professor-o'qituvchilar ilmiy konferensiyasi materiallari. – Qarshi, QMII. 23-24 iyun 2006. – B.132-134.

Абдурахимова Азиза Уразалиевна,  
PhD, доцент, декан, филиал РХТУ им. Д.И. Менделеева в г. Ташкенте,  
Бекбаева Феруза Уразалиевна,  
ТХТИ, г. Ташкент, ассистент,  
Мухторхужаева Дурдона Муталибжон кизи,  
филиал РХТУ им. Д.И. Менделеева в г. Ташкенте, студентка,  
Дуйсенова Севара Нурали кизи,  
филиал РХТУ им. Д.И. Менделеева в г. Ташкенте, студентка

## ПРИМЕНЕНИЕ МУКИ ТОПИНАМБУРА В ТЕХНОЛОГИИ ИЗГОТОВЛЕНИЯ МАКАРОННЫХ ИЗДЕЛИЙ

*Аннотация:* Востребованность на сбалансированное и качественное питание среди всех возрастов и групп населения является актуальной задачей не только пищевой отрасли, но и современной медицины и имеет определяющее значение для состояния здоровья и качества его жизни. Макароны имеют постоянный спрос у всех групп населения, кроме того, этот продукт входит в список повседневных продуктов. Изготовление макаронных изделий из хлебопекарной муки не отвечает требованиям функционального питания. Учитывая популярность макаронных изделий, возможность включения обогащающего сырья в состав макаронного теста в целях изменения химического состава и повышения пищевой ценности, это направление можно считать актуальным и перспективным. В исследовании рассмотрена технология применения топинамбурной муки в изготовлении макаронных изделий.

*Ключевые слова:* функциональные продукты, мука топинамбура, макаронные изделия, обогащение, пищевая ценность.

*Annotsatsiya:* Aholining barcha yosh va ijtimoiy guruhlari orasida muvozanatli va sifatli ovqatlanishga bo'lgan ehtiyoj nafaqat oziq-ovqat sanoatining, balki zamonaviy tibbiyotning ham dolzarb vazifasi hisoblanib, inson salomatligi va hayot sifatini uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Makaron mahsulotlari aholining barcha guruhlari tomonidan doimiy ravishda talab qilinadi, bundan tashqari, ushbu mahsulot kundalik iste'mol qilinadigan oziq-ovqatlar ro'yxatiga kiradi. Non pishirish uchun mo'ljallangan undan tayyorlangan makaron mahsulotlari funksional ovqatlanish talablariga javob bermaydi. Makaron mahsulotlarining ommaviyligi, kimyoviy tarkibini o'zgartirish va ozuqaviy qiymatini oshirish maqsadida boyituvchi xom ashyoni makaron xamiri tarkibiga qo'shish imkoniyatini hisobga olsak, bu yo'nalishni dolzarb va istiqbolli deb hisoblash mumkin. Tadqiqotda topinambur unidan foydalanib makaron mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasi ko'rib chiqilgan.

*Kalit so'zlar:* funksional mahsulotlar, topinambur uni, makaron mahsulotlari, boyitish, ozuqaviy qiymati.

*Abstract:* The demand for balanced and high-quality nutrition among all ages and population groups is an urgent task not only for the food industry, but also for modern medicine and is crucial for the state of health and quality of life. Pasta is in constant demand among all groups of the population, in addition, this product is included in the list of everyday products. The production of pasta from baking flour does not meet the requirements of functional nutrition. Given the popularity of pasta, the possibility of including enriching raw materials in the composition of pasta dough in order to change the chemical composition and increase nutritional value, this area can be considered relevant and promising. The study examines the technology of using Jerusalem artichoke flour in the manufacture of pasta.

*Keywords:* functional products, jerusalem artichoke flour, pasta, fortification, nutritional value.

В последние годы в Узбекистане проводятся широкомасштабные мероприятия по охране здоровья населения, в частности, Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев провел открытый диалог с медицинскими работниками и привел статистику, в которой по данным Всемирной организации

здравоохранения, здоровье человека на 19 процентов зависит от окружающей среды, на 20 процентов – от генетических факторов, на 9 процентов – от организации здравоохранения и на 52 процента – от образа жизни [1].

Известно, что обеспечение полноценного и ка-

качественного питания является основной частью здорового образа жизни.

Сегодня проблема здорового питания выходит далеко за пределы ее формирования. Еда занимает особое место в жизни современного человека и поэтому интерес к исследованиям в этой области находится в постоянном росте. Стабильная работа всего организма, полноценное усваивание всех необходимых полезных веществ, быстрое и правильное протекание процессов пищеварения есть основа крепкого здоровья и высокого иммунитета. Как подтверждают научные исследования, работа иммунной системы напрямую связана с поступлением необходимых витаминов и минералов в организм человека, поэтому правильное питание в наши дни приобретает все большую популярность и актуальность [2].

Макаронные изделия имеют не только стабильный спрос у всех групп населения, но и возрастающий, а также входят в список продуктов повседневного потребления [3]. Так, по данным Госкомстата Республики Узбекистан в стране продолжает увеличиваться производство макаронных изделий – в январе-апреле 2023 года крупными предприятиями произведено 5,9 тыс. тонн данной продукции. Это на 31,8 % выше по сравнению с соответствующим периодом 2022 г. В апреле 2023 г. произведено 1,6 тыс. тонн макаронных изделий, а за весь 2022 год было произведено 15,85 тыс. тонн макаронных изделий (+32,6% к 2021 г.) [5].

За последнее время среди населения Узбекистана растет спрос на качественную, натуральную продукцию, в том числе макаронных изделий, высокого качества, которые определяются как «диетические» продукты питания.

Практически вся употребляемая макаронная продукция изготавливается из мягкой хлебопекарной муки из-за недостаточного количества специальной макаронной муки, получаемой исключительно из сортов твердой пшеницы [7, 8, 9]. Макаронные изделия из пшеницы мягких сортов имеют высокую калорийность и невысокую пищевую ценность. Они содержат порядка 10 % белка, 76 % углеводов, 1,5 % жира. Содержание минеральных веществ и клетчатки незначительно. Поэтому хлебопекарную муку для макаронного производства обогащают. Увеличение ассортимента макаронных продуктов с обогащенными компонентами высокой

пищевой и биологической ценностью (белки, пищевые волокна, витамины и др.), является весьма актуальной задачей современной пищевой промышленности, так как поможет решить задачи повышения качества питания населения и расширения ассортимента продуктов питания с повышенной пищевой ценностью. В настоящее время при производстве макаронных изделий используют такие злаковые культуры, как пшеница, рожь, ячмень, полба, овес, рис, сорго, просо, кукуруза, гречиха и др. [3]. Выбор обогащающих добавок, в том числе при производстве макаронных изделий, должен основываться на теории сбалансированного питания и учитывать содержание биологически активных веществ, которое должно быть на уровне, обеспечивающем профилактические свойства, а также гарантировать соблюдение требуемого качества продукта при хранении, транспортировании и варке [9].

Изделия из высшего сорта муки имеют высокую калорийность и гликемический индекс. В них отсутствует клетчатка, а простые углеводы провоцируют раннее появление чувства голода, колебания инсулина в крови, что особенно опасно для людей, болеющих сахарным диабетом. Следствием злоупотребления такими макаронами является прибавка в весе [6].

Все более популярным становятся продукты питания функционального назначения, а именно продукты, изготовленные исключительно из сырья только природного происхождения, не содержащее генетически модифицированные компоненты.

Исследования направлены на разработку технологии изготовления макаронных изделий из муки топинамбура для диетического профилактического питания потребителей всех групп населения, в том числе страдающих избыточным весом или ожирением.

Для получения муки топинамбура исследовательская работа проводилась в лаборатории филиала РХТУ им. Д.И. Менделеева в г. Ташкенте. Клубни топинамбура очищены механическим способом, промыты, разделены на тонкие чипсы и высушены при температуре 70°C в течение 7 часов. Сушка проводилась с применением конвективной сушилки. Следует отметить, что выбор температуры процесса сушки чипсов топинамбура для получения муки выбрана не случайно, а именно при температуре более 70°C разрушаются его компоненты, к примеру, полифруктозан (инулин).



В результате сушки доля сухой массы составила 20,19% от общей массы. Высушенную массу измельчили до тонкодисперсной структуры как показано на рис. 1.



Рисунок 1. Мука топинамбура, просеянная через сито 0,5 мм.

**Mavzuning dolzarbligi.** Biologik faol qo'shimchalar yoki oziq-ovqat qo'shimchalari oziq-ovqat bilan bir vaqtda iste'mol kilinadigan yoki oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibiga kiritilgan tabiiy yoki o'xshash tabiiy biologik faol moddalardir. Ular oziqlantiruvchi moddalarga bo'linadi ozukaviy qiymati bilan parhez ovqatlaniruvchi moddalar va dorivor biologik faol parhez taomlardir.

Nutrietlar tabiiy oziq-ovqat moddalari bo'lgan asosiy oziq moddalar: vitaminlar va ularga yo'ldosh moddalar, o'ta to'yinmagan yog' kislotalari, fosfolipidlar, ma'lum minerallar va mikroelementlar (kalsiy, temir,

rux, nod, ftor), muxim aminokislotalar, ayrim mono va disaxaridlar, selluloza, pektin, gemisellyuloza va boshqalar.

Raps moyi tarkibida tabiiy antioksidantlar tokoferol (E vitamini), fenolik birikmalar va tanin moddalari mavjud, ammo ayni paytda oziq-ovqatga qarshi vositalar: glyukozinolotlar, eruk va fitik kislotalar. Turli xil navlarning glyukosinolat darajalari 0,03-1,5% oralig'ida o'zgaradi va eruk kislotalari tarkibi 3% dan yuqori emas. Eng qimmatli xususiyatlar zig'ir urug'i va yog'ni ajratishdan keyin olingan kunjara tarkibida faol moddalar. Ayniksa, ko'p miqdorda V1 vitamini, E vitamini. Kunjara tarkibidagi minerallar va mikroelementlar orasida kalsiy, fosfor, kaliy, natriy, magniy, temir, xrom, alyuminiy, kobalt, molibden, nikel katta miqdorda bo'ladi. Omega-3 kislotalari ham mavjud.

Qovoq urug'i kunjarasi 50% gacha oqsilni o'z ichiga oladi, shuning uchun kimmatli oziq-ovqat mahsulotidir. Bundan tashqari, u tolaga (20% gacha), ozuqaviy tola, efir moylariga, V1, V2, V6, V9, E, RR vitaminlariga boy. Kaliy, marganes, rux, temir, fosfor va boshqa moy kislotalarni o'z ichiga oladi. Qovoq pirogi diabet, ateroskleroz, semizlik kabi kasalliklarga chalinan kishilarning rasioniga kiritish tavsiya etiladi [1.2].

Respublikamizda mavjud bo'lgan noan'anaviy moyli xom ashyolar bazasini quyidagilar tashkil etadi.

Uzum danagi moyi tarkibida E vitamini (kunga-boqar moyiga nisbatan 10 barobarga) ko'p. Bundan tashkari, A vitamini, linolen va linol kislotalari (0-3 va 0-6 yog' kislotalari), foydali moddalar, lesitinning ko'p miqdorda mavjudligi bu moyni virusga qarshi vosita sifatida samarali foydalanish imkonini beradi. Tabiatda faqat uzum urugi moyida uchraydigan tabiiy antioksidant resveratrol borligi, bu moyning qiymatini yanada oshiradi. Resveratrol bakteriya va zamburug'lardan himoyalash uchun o'simlik tomonidan ishlab chikariladigan tabiiy fitoaleksin moddasidir.

Qovun urugi tarkibida 30% moy mavjud bo'lib, uning asosiy qismini linolen va linol kislotalari (0-3 va 0-6 yog' kislotalari) tashkil etadi. Bu moy xam xudi qovok moyi kabi organizmda gixolestirinni kamaytirishga yordam beradi, unda A, E, R va K kabi kator vitaminlar mavjud. Qovun moyi xushbuy ta'm va hidga ega bo'lib, salat va pishiriklar tayyorlashda eng qulay moylardan biri hisoblanadi. Qovun moyining tarkibidagi foydali moddalar qon- tomir tizimi kasalliklarini, asab tizimini davolashda bebaxo hisoblanadi. Atir upa sanoatida sochto'kilishini to'xtatuvchi va terini yumshatuvchi vosita sifatida foydalaniladi.

Tarvuz urug'ida 25-45% moy mavjud bo'lib, fizik-kimyoviy ko'rsatgichlariga ko'ra, bodom moyiga yaqin. Yog'-kislota tarkibilini (60-65%). olein (20-25%), palmitin (10-12%), stearin (8-10%) yog'kislotalaridan tashkil topadi. Tarvuz moyi tarkibida A, E, S va V vitaminlari, makro va mikro elementlar mavjud. Tarkibida linol kislotasining ko'pligi sababli ushbu mahsulot inson terisi uchun foydali, shuningdek, asab va qon-tomir tizimlaridagi kasalliklarni davolashda ishlaganda yaxshi samara beradi, stenokradiya va saraton kasalliklarining oldini olishda uning tarkibidagi anti oksidantlar muhim omil hisoblanadi. Allergiya qo'zg'atuvchi (zigirva kunjut moylari) moylarga sezgir insonlar ham tarvuz moyini iste'mol qilishlari mumkin [3,4].

Kunjut urug'i tarkibida 60% gacha moy, E vitamini, faktor-T, sezamin, sezamon, sezamanin va boshqa moddalar bo'ladi. Kunjut moyi 3-6° S temperaturada qotadigan sariq rangdagi suyuqlik bo'lib, yarim quruvchi moylarga kiradi. Solishtirma og'irligi 20 °Sda 0,9197-0,9260, refraksiya soni 1,4731-1,4760, kislota soni 1,4-2,0 sovunlanish soni 185,5-195,0 yod soni 103-116. Moy tarkibida olein, linol, stearin, araxin va lignoserin kislotalarining tllisiridlari uchraydi. Kunjut moyi qondagi trombositlar sonini oshiradi va qon ivishini tezlashtiradi. Shuning uchun ham ba'zan qon kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Kunjut moyi va urug'i oziq- ovqat sanoatida ko'p ishlatiladi. Kunjut kunjara-

si tarkibida kalsiy, rux, magniy, kaliy, temir, fosfor. V guruh vitaminlari va karotinni yuqori sifatli oqsillar va yog'lar, vitaminlar (E vitaminlari ko'p) va minerallar mavjud. Bundan tashqari, muhim vamuxim bo'lmagan aminokislotalar, ozukaviy tolalar, yarim to'yinmagan yog' kislotalarni o'z ichiga oladi.

Anor urugining tarkibida 13-15%gacha moy mavjud. Anor moyi tarkibida 80-85% gacha essensial granat (punik) yog' kislotalari mavjud bo'lib, u xo'jayraning metabolitik jarayolarini me'yorlashtirib turadi. Anor moyi terini yumshatuvchi va namlovchi eng yaxshi kosmetik vosita hisoblanadi.

**Xulosa.** Shuni aloxida ta'kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan noan'anaviy moyli urug'larni qayta ishlash natijasida nafaqat shifobaxsh moylar balki, kunjara ham ishlab chikariladiki, uning tarkibida inson organizmi uchun juda zarur biologik faol moddalar; oksillar, lipidlar, minerallar, vitaminlar va yuqori darajada oziqaviy, ta'm va dovalovchi xususiyatlarga ega bo'lgan moddalar borki, bular asosida aholining oziq- ovqat mahsuloti tarkibi tabiiy moddalar bilan boyitiladi. Ushbu turdagi noan'anaviy xom ashyolardan o'simlik moylarini yangi turlari, farmasevtika uchun xom ashyo sifatida foydalanish hamda spred, mayonez va non, pishirik, kondetir mahsulotlari ishlab chikarishda qo'llash yuqori samara beradi [4,5].

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ataqlulova D.T., Dodaev K.O. Noan'anaviy xom ashyoning dorivor xususiyatlari, uzum barglari va ulardan mashhur tayyorlashda foydalanish idishlar // Koinot: Texnik fanlar. Moskva. 6-son, 2019 yil. 71-73-betlar.
2. Ataqlulova D.T., Dodaev K.O. Eksperimental natijalar va optimallashtirish qayta ishlash, umumiy yog' kislotalari tarkibini aniqlash, in usuli bilan neytral (nl), gliko (gl)- va fosfo (fl)-lipidlarni o'z ichiga oladi. Quruq uzum barglaridagi GLC Universum: Texnik fanlar. Moskva. № 7, 2020 yil 36-39-b.
3. Boyberilayotgan millionlar. Official site of the Association "Uzyogmoysanoat" yogmoy.uz (25.10.2019).
4. Belova S.M. zdorove Bezopasnost produktov pitaniya [FoodSafetyandNationHealth] III Mejdunarodnogo simpoziuma "Ekologiya cheloveka: problemi i sostoyanie lechebno-profilakticheskogo pitaniya" [InternationalSymposium "HumanEcology: problemsandthestateoftherapeutic andpreventivenutrition"] Moccov, 1994, pp. 261-263.
5. Popov A.A. Funktsional maqsadlar uchun boyitilgan yog'li oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini yaxshilash. [Funktsional maqsadlar uchun boyitilgan yog'li ovqatlar sifatini yaxshilash. AbstractofCand.dis]Mokkov, 2006 yil.sifatini yaxshilash. [Funktsional maqsadlar uchun boyitilgan yog'li ovqatlar sifatini yaxshilash. AbstractofCand.dis] Mokkov, 2006 yil.
6. Rukovodstvo po texnologii polucheniya i pererabotki rastitelnix masel i jirov. Pod obshey redaksiyey d.t.n. A.G. Sergeeva A.G. L.: 1975. 715 s. T-1.



## BUZOQLARDA BRONXOPNEVMONIYA KASALLIGINING ETIOLOGIYASI DAVOLASH VA OLDINI OLISH USULLARI (adabiyot ma'lumotlari tahlili asosida)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buzoqlar bronxopnevmoniyasi kasalligining etiologiyasi, klinik belgilari, davolash va oldini olish usullari adabiyot ma'lumotlari tahlili asosida yoritilgan. Bronxopnevmoniya kasalligining hayvonlar mahsuldorligiga ta'siri va chorvachilikka keltiradigan iqtisodiy zarari tahlil qilingan.

**Abstract:** This article describes the etiology, clinical signs, treatment and prevention methods of calf bronchopneumonia based on the analysis of literature data. The effect of bronchopneumonia disease on animal productivity and the economic damage it causes to animal husbandry is analyzed.

**Kalit so'zlar:** Bronxopnevmoniya, bronx, alveola, yallig'lanish, infeksiya, selen, sink, izolyatsiya, gidrotatsiya.

**Key words:** Bronchopneumonia, bronchus, alveoli, inflammation, infection, selenium, zinc, isolation, hydration.

**Kirish.** Chorvachilik sohasining asosiy tarmoqlardan biri qoramolchilik bo'lib, u Respublikamiz aholisini sifatli go'sht, sut hamda yog' mahsulotlari bilan, sanoatni esa xom-ashyo sifatida teri mahsuloti bilan ta'minlaydi. Ammo bunday ijobiy ishlarni to'liq ro'yobga chiqarishda ushbu sohani rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi abiotik va biotik omillar ham mavjud. Ular jumlasiga hayvonlar orasida uchrab turadigan turli yuqumsiz kasalliklar, jumladan o'pka kasalliklari orasida keng tarqalishi va keltiradigan iqtisodiy zarari bo'yicha buzoqlar bronxopnevmoniyasi ko'pchilik holatlarda to'siq bo'lib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida ushbu kasalliklarni etiologiyasi, davolash va ularga qarshi kurashish choralarini izlab topishni talab etadi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Qoramolchilikni rivojlantirishda, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda chorva mollari bosh sonini ko'paytirish, ularni mahsuldorligini oshirish, turli yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklarga qarshi kurashish va oldini olish choralarini ko'rib borish jarayonida, ushbu sohani rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi qator omillar ham mavjud. Shu jumladan, qishloq xo'jalik hayvonlari orasida uchrab turadigan yuqumsiz kasalliklar orasida, buzoqlar bronxo-

pnevmoniyasi tarqalishi va keltiradigan iqtisodiy zarari bo'yicha muhim o'rin egallaydi. Ushbu kasallikni davolash va oldini olish ishlarini takomillashtirish esa bugungi kunda veterinariya vrachlarining oldida turgan muhim masala hisoblanadi

Chorvachilik bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Biroq chorva hayvonlarning, ayniqsa yosh hayvonlarning sog'ligiga doimiy e'tibor berishni talab qiladi. Buzoqlar moyil bo'lgan jiddiy kasalliklardan biri bronxopnevmoniyadir. Ushbu maqolada bronxopnevmoniyaning klinik belgilari, etiologiyasi va oldini olish va davolash usullarini takomillashtirish haqida yoritilgan..

Bronxopnevmoniya - bronxlar va alveolalarning yallig'lanishi bilan kechuvchi o'pka kasalligi hisoblanadi. Bu kasallik turli yoshdagi hayvonlarga ta'sir qilishi mumkin, ammo yosh hayvonlar kasallikka moyil hisoblanadi. Buzoqlarning immun tizimi hali to'liq shakllanmagan va ular turli infeksiyalarga ko'proq moyil bo'ladi.

**Buzoqlarda bronxopnevmoniya kasalligining klinik belgilari.** Bronxopnevmoniya kasalligining klinik belgilari kasallikning kechishiga qarab farq qilinishi mumkin.

Bronxopnevmoniya kasalligining quyidagi bosqichlari ajralib turadi:

O'tkir bosqich. Dastlabki belgilar umumiy zaiflik va ishtahani yo'qolishini o'z ichiga oladi. Ushbu alomatlar paydo bo'lganidan 2-3 kun o'tgach, buzoqning ahvoli keskin yomonlashadi: tana harorati 42 C° darajagacha ko'tariladi, nafas olishdagi muammolar va yo'tal paydo bo'ladi, shuningdek burun yo'llaridan yiringli oqmalar oqishi kuzatiladi. O'z vaqtida davolanmasa og'ir asoratlarga olib kelishi mumkin. Kasallikning boshida yo'tal quruq va o'tkir, ammo vaqt o'tishi bilan u nam va tez-tez bo'ladi. Keyinchalik yuqori nafas yo'llarining shishishi paydo bo'ladi, bu esa bo'g'ilish tufayli o'limga olib kelishi mumkin. Yallig'lanish jarayoni intoksikatsiyani keltirib chiqaradi, bu ham o'limga olib kelishi mumkin. O'tkir bosqichning davomiyligi taxminan 5 - 7 kungacha.

Yarim o'tkir bosqich. Kasallik belgilari o'tkir bosqichga o'xshaydi zaiflik, ishtahaning yo'qolishi, nafas olish qiyinlashishi, nam yo'tal, bronxial shish, nafas olish yo'llaridan yiringli oqmalar kelishi kuztiladi. Tana harorati ertalab normal bo'lishi mumkin, lekin kun davomida 1-1,5 C° ga ko'tariladi. Hayvon vazn yo'qotadi keyinchalik diareyaga duch kelishi mumkin. Ushbu bosqichning davomiyligi taxminan bir oyni tashkil etadi va har qanday vaqtda o'tkir bosqichga o'tish mumkin.

Surunkali bosqich. Ishtahaning o'zgarishi, jismoniy rivojlanishning kechikishi bilan tavsiflanadi. Shilliq pardalar oqimtir rangga kiradi, o'pkada xirillash eshitiladi, ba'zida tana haroratining biroz ko'tarilishi kuzatiladi. Yo'tal va burun yo'llaridan oqmalar oqadi.

**Bronxopnevmoniya kasalligining etiologiyasi.** Bronxopnevmoniya rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar:

- buzoqlar saqlanadigan bokslarda havoning quruqligi va qizib ketishi.
- Surunkali shamollashning kuchayishi.
- Ratsionda vitaminlar, ayniqsa retinol va mikroelementlarning yetishmasligi.
- Noto'g'ri oziqlantirish.
- Ovqat hazm qilish muammolari.
- Bokslarda yuqori namlik va past harorat.
- Bundan tashqari, kasallikning qo'zg'atuvchilari asosiy omillar sanaladi.

**Buzoqlarda bronxopnevmoniya kasalligini davolash.** Davolash ishlari og'ir asoratlarni oldini olish uchun imkon qadar erta boshlanishi kerak. Buning uchun buzoqlarni tekshirish va tegishli davolash usullarini qo'llash talab etiladi. Buzoqlarda bronxopnevmoniya kasalligini davolashda asosiy chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

**Antibiotiklar:** Agar bronxopnevmoniya bakterial infeksiyalardan kelib chiqqan bo'lsa, tegishli antibiotiklarni qo'llash tavsiya etiladi. Antibiotiklarni qo'llash dozasi va davomiyligi bo'yicha yo'riqnomalarga amal qilish muhim sanaladi.

**Yallig'lanishga qarshi dorilar** bronxlar va o'pkaning yallig'lanishini kamaytirishga yordam beradi, bu esa buzoqlarning nafas olishini osonlashtiradi.

**Buzoqlarni saqlash va oziqlantirish:** bokslarni issiq tutish, ventilyatsiyasini yaxshilash va to'g'ri oziqlantirishni o'z ichiga oladi. Bu ishlar infeksiyaga qarshi kurashishga yordam beradi.

**Gidrotatsiya:** suvsizlanishni oldini olish buzoqlarda bronxopnevmoniya kasalligini davolashda muhim omil sanaladi.

**Izolyatsiya:** infeksiya tarqalishining oldini olish uchun kasal buzoqlarni sog'lom buzoqlardan ajratish kerak.

**Buzoqlarda bronxopnevmoniya kasalligini oldini olish.** Bronxopnevmoniyani oldini olish hayvonlarni sog'ligini saqlash va buzoqlar nobud bo'lishini kamaytirish uchun muhimdir. Buning uchun bir nechta profilaktika choralari mavjud:

**Emlash:** Emlash buzoqlarda bronxopnevmoniyaga olib keladigan virus va bakteriyalarning ayrim turlarini yuqish xavfini kamaytirishga yordam beradi.

**Vitaminlar va minerallar:** C va B guruh vitaminlari shuningdek, selen va sink kabi minerallar sog'lom immunitetni taminlashda va to'qimalarni davolashda muhim rol o'ynaydi. Ularni buzoqlar ratsioniga qo'shish foydali hisoblanadi.

**Antioksidantlardan foydalanish:** buzoqlarda bronxopnevmoniyani davolashda erkin radikallar va yallig'lanish bilan kurashishda yordam beradi.

**Saqlash, tozalik va gigiyena:** buzoqlar saqlanadigan joyi toza tutish va ularni parvarish qilishda saqlash qoidalariga rioya qilish muhim sanaladi.

*Muntazam tekshiruvlar:* Kasallikni dastlabki bosqichlarida aniqlash uchun kilinik tekshiruvlarni muntazam o'tkazish zarur.

Xulosa. Buzoqlarda bronxopnevmoniya kasalligining rivojlanishi jiddiy holat bo'lishi mumkin, ammo to'g'ri yondashish bilan, jumladan, ozuqa\_qo'shimchalaridan foydalanish, samarali davolash va buzoqlar sog'ligini tiklashda asosiy omillar sanaladi. Veterinariya vrachlarining tavsiyalariga rioya qilib, parvarish va oziqlantirishga e'tibor qaratish, qoramolchilik sohasida ushbu xavfli kasallikning rivojlanish xavfini kamaytirishga va podaning sog'lig'ini ta'minlashga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:**

1. Norboev Q.N., Bakirov B.B., Eshburiev B.M. Yosh hayvonlar yuqumsiz kasalliklarining patologiyasi va terapiyasi. Uslubiy qo'llanma. Samarqand, N-Doba, 2006. 110 bet.

2. Norboev Q.N., Bakirov B.B., Eshburiev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik. Samarqand, N.Doba, 2007. 122-132 b.

3. R.X.Gadzaonov. Aerozoleterapiya nespesificheskoy bronxopnevmonii yagnyat i telyat v usloviyax xozyaystv Severnogo Kavkaza: Avtoref. dis. ... kand. vet. nauk. – Moskva.: 2005.

4. Ro'ziqulov N.B. Fermer xo'jaliklarida yosh chorva mollari bronxopnevmoniyasini davolashning pnevmotiopatogenetik usuli (PEPU) G'G' Qishloq xo'jaligida islohatlarning samaradorligini oshirish omillari / Yosh olim va magistrantlarning ilmiy ish tezislari to'plami. – Samarqand, 2002. – B. 40-43.





**Po'latov Sarvar Mustafoyevich**, dotsent,  
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali,*  
**Nodirova Dildora Bahodir qizi**, talaba,  
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali*  
**Mustafoyeva Sevinchoy Sarvar qizi**, talaba,  
**Mustafoyeva Kibora Sarvar qizi**, talaba,  
*Toshkent pediatriya meditsinasi instituti*

## XASHAKI KO'K NO'XAT YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Ko'kno'xat oqsilga boy. qimmatli oziq-ovqat mahsulotidir. Pishgan urug'lari butunligicha va maydalangan holda ishlatiladi, ba'zan har xil ovqatlarga ham solinadi. Ko'kno'xat uni Illakaronlarga ham qo'shiladi. Odatda oziq-ovqatga ish latish maqsadida oq donli, sariq donli, sarg'ishqizg'ish rangdagi, ba'zan ko'k rangdagi urug'lari yetishtiriladi. Qoramtir rangli urug'lar pishirganda yomon pishadi va rangi chiqib ketib ovqatning ta'mini va rangini buzadi. Ko'k holida donlami yig'ib olingandan so'ng qolgan poyalardan pichan va silos uchun foydalanish mumkin. Yig'ishtirib olingandan so'ng 1 ga tuproqqa 100 kg sof azot qoldiradi, buni 20 t go'ng bilan tenglashtirish mumkin. Ko'kno'xat ildizi pastki qatlamlarga kirib boradi, tuproqda qiyin yeri yidigin tuzlarni o'simlik o'zlashtirish uchun qulay holga o'tkazib beradi.

Ko'kno'xat ozuqa maqsadida ham ekiladi. 100 kg no'xat donida 117 ozuqa birligi bor, uning 1 kg.da 180-240 g hazm bo'ladigan protein, 12,5 g lizin, poxolida 31 oziqa birligi bor. Ekin maydoni va hosildorligi. Bu o'simlik Yer sharida qariyib 8 mln. gektar maydonni egallaydi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlari AQSH, Kanada, Xitoy. Yevropada ekilgan. O'zbekistonda bu o'simlik asosan oraliq ekin va ko'kat o'g'it sifatida uzoq yillardan byeri ekilib kelinadi. Respublikamiz sug'oriladigan maydonlarida ko'kat o'g'it sifatida ham uzoq yillardan byeri mavjud bolgan. O'zbekiston sug'oriladigan maydonlarida ko'k poyasidan 320-350 sentner, donidan 25-28 sentner hosil olingan. Asosan kuzda qo'ng'ir donli xashaki ko'kno'xatning qishlovchi navlari ekiladi Botanik belgilari. Ko'kno'xat - bir qancha turi bo'lib, shundan bir turi ekma no'xat (Salivum Y) ko'p ekiladi. Uning bir qancha turi bor, shundan asosiysi:

I. SSP Sativlin - oq gulli bir tUSDagi.

2. SSP Arvnse - qizg'ish binafsha rang gulli va ko'pgina holhol bo'lgan dala yoki xashaki no'xat, qizil dog'li yonbargchasi bor.

Ekma no'xat doni oziq-ovqatga ishlatiladi. U qo'biqlari va shirin donasi navlariga ajratiladi, no'xat dukkagining devorlarida pishiq pyergament qavat bo'ladi. Bu no'xat don uchun ekiladi. Shirin donli navlarida pergament qavat bo'lmaydi. Bu dukkaklarning hosilini yoki ko'kligida ovqatga ishlatamiz. Ko'kno'xat bir yillik o'tsimon o'simlik bo'lib, poyalari o'sish davrining boshida tik o'sadi. Poyasining o'rta qismi tez, oson yotib qoladi. Poya uzunligi naviga qarab 30-300 sm tashkil qiladi.

Ko'kno'xatning gul to'plami shingil holda, guli oq, qizg'ish yoki binafsha ranglarda bo'ladi. Ko'kno'xat gulida 10 ta changchisi bo'lib, shundan 9 tasi birikib o'sgan, 1 tasi erkin bo'ladi. Mevasi dukkak, naviga qarab har bir dukkak ichida 3-9 don bo'ladi. Ko'kno'xat dukkagi qattiq parda bilan qoplangan. U 2-3 qavat yog'ochli hujayralardan tashkil topgan. Shirin ko'kno'xat dukkagi qalin parda bilan qoplangan, shuning uchun uni ko'k holida iste'mol qilish mumkin. Ko'kno'xatning shirin navlari sabzavot sifatida, oziq-ovqat, konserva sanoatida ishlatiladi. Shirin va yarim shirifl no'xat dukkaklari quruq havoda chatnab ketadi, ulami yanclib olish ancha qiyin.

Ko'kno'xat donlari sharsimon, cho'zinchoq, ustki qismi tekis, ba'zan ustki katlom bo'rtgan bo'ladi. Ko'kno'xatning oq ranglisini ustki qismidagi pardasi rangsiz bo'ladi. Urug'ining rangi urug' pallasining rangiga bog'liq. Ko'kno'xat urug'i sariqqizg'ish, ko'k, kulrang, ba'zan qora bo'ladi. 1000 dona urug'ining og'irligi naviga va o'sish sharoitiga qarab 40 dan 400 g.gacha bo'ladi. 1000 dona urug'ining o'rtacha og'irligi 200-270 g. Biologik xususiyatlari. Ko'kno'xatning

ko'pchilik shakllari qisqa yarovizatsiya davriga ega. Birinchi o'suv davri  $-2^{\circ}$ ,  $+20^{\circ}\text{C}$  haroratda 10-20 kun ichida kechadi. Yarovizatsiya davri uchun eng qulay harorat  $3-5^{\circ}\text{C}$ . Bundan kelib chiqadiki, ko'k no'xatning o'sib rivojlanishi uchun uni ertaroq ekish kerak. Kech-pishar navlari ertapisharlariga nisbatan ertaroq yarovizatsiya davrini o'taydi. Ko'k no'xat uzun kunli o'simlik.

Ko'kno'xatning navlari. Vostok-55. G'allachilik da yaratilgan bo'lib, 1954- yildan beri iqlimlashgan.

Xashaki ko'kno'xat navi. Bo'yining balandligi 80-120 sm.ga yetadi. Yarim yotib o'sadi, poyasida 15-18 ta bo'g'im oralig'i bor. 3-5 tagacha yon shoxlar hosil qiladi. Ko'p barg hosil qiladi, 2-3 juft bargli, uehidajingalaklari bor va ular yordamida ehirnashib o'sadi. Guli oeh pushti, sariq, qaymoq rang, bittalik urug'lari dumaloq, rangi yashil va qo'ng'ir tusda. Hosildorligi 3-5 sentner, ko'k poyasi sug'oriladigan, maydonda 350-370 sentner, doni 20-25 sentner/ga. 1000 dona urug'ining vazni 80-100 g, o'sish davri 150-155 kun. Kuzda ekiladi.

Kormovoy-24. Moldaviya dala ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi va agrotexnikasi ITIda yaratildi. Respublikada 1962-yildan beri ekiladi. Bo'yining balandligi o'rtacha, gullari yirik oq tusda, dukkaklari uzunligi 5-6 sm, to'g'ri, uchi o'tmas, 4-5 don urug'i bor. Urug'lari silliq dumaloq, och pushti tusda, 1000 dona urug'i 250-270 g. O'sish davri 107-110 kun, bahorda ekiladi. Ko'k poya hosili 250-300, doni 17-20 sentner/ga.

Ramonskiy-77. Butlnittifoq qand lavlagi ITIda yaratilgan bo'lib, 1963- yildan byeri ekiladi. Bahorda ekish lozim. Poyasi bo'yli, nay uzunligi 25-35 sm. Poyada bo'g'imlar; 12-18 tagacha yetadi. Gullari oq rangda, 1-2 tadan joylayshadi. Dukkaklarining uzunligi 4-6,5 sm, 3-4 dona urug' to'ladi. Urug'lari dumaloq, silliq, 25-26 % oqsil saqlaydi. Tez pishadi. 1000 dona urug'i 200-208 g keladi.

Yetishtirish usuli. Ko'kno'xat dastlabki rivojlanish davrida begona o'tlarning o'sishiga to'sqinlik qiladi. Ko'k no'xat o'tmishdosh kuzgi don ekinlari va qator orasi ishlanadigan ekinlardan qand lavlagi, kartoshka, makkajo'xori va boshqalar hisoblanadi. Ob-havo qulay kelgan yillari ko'kno'xat ekilgan joylardan toza shudgorga nisbatan kuzgi g'alla ekinlaridan yuqori hosil olish mumkin. Ko'kno'xat g'alla ekinlaridan sifatli urug' olish uchun eng yaxshi o'tmishdoshdir. Ko'kno'xatdan bo'shagan maydonlarga g'alladosh ekinlar ekilganda dondagi oqsilning miqdori oshadi. Hosildorlikni oshirish maqsadida ko'kno'xat yig'ib olingandan so'ng


kuzgi shudgor qilinadi.

Ko'kno'xat nafaqat azot to'playdi, balki tuproqning fizik holatini yaxshilaydi. Ko'kno'xatdan yuqori hosil olish maqsadida yerni kuzda chuqur xaydash kerak. Asosiy ishlovda D-5-35 M rusumli pyeredplujnikli pluglardan foydalaniladi. Ko'kno'xat tuproqni chuqur yumshatishga talabchan, ildizi tuproqqa chuqur kirib boradi. Agar ko'kno'xat kuzgi va bahorgi g'alla ekinlaridan keyin ekiladigan bo'lsa, tuproqni 13-15 sm yuza yumshatiladi. Begona o't urug'lari unib chiqqanidan so'ng haydab yuboriladi. Asosiy ishlovni o'tkazganda tuproq kesakchali bo'lib qolsa, erta bahorda yer yetilganda shudgorning yuza qismi ko'ndalangiga ikki marta boronalanadi. Namlikni to'liq saqlab qolish maqsadida boronlashni 1-2 kunda tugatish kerak. Tuproq turiga qarab boronlashda o'rtacha og'ir va yengil boronalaridan foydalanish mumkin. Ko'kno'xat ekilgan tuproq qurib qolmasligi uchun 6-8 sm chuqurlikda yumshatiladi. Keyin sekinlik bilan boronalanadi.

Ko'kno'xatni fosforli va kaliyli o'g'itlar bilan oziqlantirish hosildorlikni keskin oshirib, urug'ning pishish va kasalliklar bilan zararlanishini kamaytiradi. Boshqa dukkakli don ekinlaridan farq qilib ko'kno'xatning har gektariga 15-20 tonna va ilgari o'g'itlanmagan yerlarga 30 tonnagacha organik o'g'itlar solinadi. Organik o'g'it o'simlikning rivojlanishini tezlashtiradi va don yetilishini yaxshilaydi. Fosforli o'g'itlarning bir qismi ekin bilan bir vaqtda qatorlarga solinadi, 90-120 kg P beriladi.

Kam miqdorda azotli o'g'itlarni solish ham o'simlikka yaxshi ta'sir etadi. Organik o'g'itlarni minyeral o'g'itlar bilan aralashtirib berish yuqori samara beradi. Yuqori hosil olish uchun donador, zararlanmagan urug' olinadi. Dukkaklar bir tekis yetilmagani hamda urug'ning unib chiqish energiyasi va unuvchanligini oshirish uchun ularga ekish oldidan issiq havoda ishlov beriladi. Ko'kno'xatning hosildorligini oshirish maqsadida ekishdan oldin urug'lar nitragin bilan ishlanadi. Nitragin maxsus o'g'itdir, u tuganak bakteriyalar hosil bo'lishida ahamiyati kattadir. Azot to'plovchi maxsus tuganak bakteriyalar hosildorlikni oshiradi. 0,5 l shishadagi nitragin 1 gektarga ketadigan urug'ni ishlashga etadi. Shishadagi nitraginni bir litr suv bilan aralashtirgach, uni uruqqa solinib aralashtiriladi. Nitraginni qo'llash hosildorlikni oshiradi, dukkaklarning bir vaqtda yetilishini va donning yirikligini ta'minlaydi va 30 %gacha miqdori oshadi.

Ko'kno'xatni shimoliy tumanlarda ertagi muddatlarda ekish nihollarni zamburag'lar bilan kasallanishini kamaytiradi. Tajriba dalasida ko'kno' xat besh marta ekilganda hosildorlik gektariga 20,6 s.ni tashkil etgan. Ko'kno'xat urug'i qatorlab ekiladigan seyalkalarda ekiladi. Bunda g'alla ekish seyalkalaridan foydalaniladi. Hosilning bir tekis yetilishida, yoppasiga ekish yuqori samara beradi. Keng qatorlab ekish urug'chilik xo'jaliklarida olib boriladi. Keng qatorlab ekilganda qator orasiga mexanizasiya yordamida ishlov berish osonlashadi.



Mayda urug'li navlar ekilayotganda gektariga 8-10 s, yirik urug'li navlarida esa 1,2-1,5 s urug' saralanadi. Keng qatorlab yoki tasmasimon usulda ekilganda ekish me'yori 25-30 %ga kamayadi. Ekish me'yori 1000 dona urug' og'irligiga qarab aniqlanadi. Ko'kno'xat urug'lari unib chiqishi uchun nam tuproqda yetarli bo'lishi zarur. Quruq havoda tuproqning yuza qismi qurib qoladi, oqibatda urug' har xil ta'sirlarga uchraydi. Tuproqning mexanik tarkibiga qarab engil tuproqlarda urug' 8-10 sm chuqurlikda tashlanadi, og'ir tuproqlarda esa yuzaroq tashlanadi.

Ekinga ishlov berish. Og'ir tuproqning yuza qismi yog'ingarchilik ko'p bo'lsa, qatqaloq bo'lib qoladi. Qatqaloqqa qarshi yengil borona yordamida qatorlarga ko'ndalang ravishda ishlov byeriladi. Bunda 3-BZT-10 boronadan foydalaniladi. Yerning yuza qismini yumshatish va qatqaloqni buzish MB 2,4 rotatsion motiga ham qo'llaniladi. Qator orasi yumshatish va begona o'tlarga qarshi kurash uchun universal kultivatorlardan foydalaniladi. Nihollar bo'yi 5-6 sm.ga yetgandan keyin boronalash mumkin emas. O'sish davrining keyingi paytlarida qator orasi yumshatiladi, begona o'tlar yo'qotiladi va oziqlantiriladi. Dukkaklar har xil muddatlarda yetilgani uchun uning ochilib ketishiga yo'l

qo'ymaslik asosiy ishlardan biridir. Hosilni yig'ishtirish o'simlik poyasi quriy boshlaganda va 75 % urug'lar sarg'ayganda boshlanadi. Ertalabki va kechki soatlarda yig'ishtirilganda hosil kam to'kiladi.

Ko'kno'xatni yig'ishtirib olish uchun maxsus universal kombaynlardan foydalanish mumkin. Ko'kno'xat ikki xil usul bilan yig'ishtiriladi. Markiziy Osiyo sharoitida birdaniga don kombaynlari bilan yanchib yoki XEA-3,5; XEA-3,2 jatkalar bilan o'rib yotqiziladi, keyin kombaynlar bilan yanchib tozalab olinadi. Dukkaklari endi qo'ng'ir rangga kirganda jatka yoki pichan o'rgichlar bilan o'riladi. Ana shu vaqtda don nobudgarchiligi 1,5-2 %dan oshmaydi. Olish eni katta bo'lgan jatkalardan foydalanilganda nobudgarchilik 9-12 %ga yetadi. Ko'kno'xat doni to'g'ridan-to'g'ri kombaynlar bilan yanchib olinganda nobudgarchilik ikki-uch marta oshadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Алёхина Н.Д., Болнокин Ю.В., Гавриленко В.Ф. Физиология растений М.: «Академия». 2007. 640 с.
3. Бавтуто Г.А., Еремина В.М., Жигар М.ГТ. Атлас по анатомии растений Учеб.пособие для вузов. Минск. «Ураджай», 2001. -146 с.
4. Бекназаров Б.Д., Валиханов М.Н. Особенности активации пиррофосфатазы хлопчатника ионами магния. Физиология растений. 2006. том 53. №1.54-59 с. 5. Бекназаров Б.О., Валиханов М.Н. Свойства неорганической пиррофосфатазы хлопчатника II М. Прикладная биохимия и микробиология, 2007. том 43, №2. 172-177 с.
5. S.M.Po'latov, K.M.Mo'minov, S.E.Ganiyev – Dorivor Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) ni yetishtirish agrotexnologiyasi va samaradorligi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 646-652 bet.
6. S.Po'latov - "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun". Toshkent. 2023-yil. Zuxra Baraka Biznes MChJ nashriyoti.
7. B.To'xtayev, E.Axmedov, S.Po'latov, G'.Jumabojev, R.Muudinov - Пряно ароматические и пряно-вкусовые лекарственные растения. Toshkent. 2024 yil. Zuxra Baraka Biznes MChJ nashriyoti.



**Po'latov Sarvar Mustafoyevich**, dotsent,  
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali,*  
**Nodirova Dildora Bahodir qizi**, talaba,  
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali*  
**Mustafoyeva Sevinchoy Sarvar qizi**, talaba,  
**Mustafoyeva Kibora Sarvar qizi**, talaba,  
*Toshkent pediatriya meditsinasi instituti*

## XASHAKI LYUPINNI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Lyupin eng keng tarqalgan manzarali o'simliklardan biri bo'lib, uning hosildorligi yuqoriligi nilan ajralib turadi. Ko'pchilik mamlakatlarda turli mintaqalarida yetishtiriladigan paxta bilan birga yetishtiriladi. Ko'p paxtakorlar ularni parvarish qilish, tez o'sish va gullaridagi boy ranglarini qiyinchilik bilan oladi.

Lekin ba'zi odamlar uchun, lyupinlar oddiy begona o'tdan boshqa narsa emas. Juda katta maydonlarda sug'oriladigan yerlarda gullari uchun qiyinchilik bilan o'stirishadi.

Lyupinlar dukkak oilasining taniqli vakillaridan. Avvaliga inson no'xatlarga o'xshagan yovvoyi turlar bilan tanishishgan. Ammo uni navlarini gibridlari yaratilib ular dekoratsiya uchun keng tarqalgan bo'lib, uchastkalarini loyihalashda qo'llaniladi. Bugungi kunda bu gullar ko'p mamlakatlarda o'stirilmoqda.



Turli xil lyupinlar bizning bog'bonlarimiz tobora ko'proq yetishtirish bilan shug'ullanishmoqda. Gullarga oq, pushti, libos, sariq va qizil ranglar

kirishi mumkin. Biroq, ularning trikolor yetishtirish qobiliyati ularni yanada ajoyib qiladi, ammo bu xususiyatni faqat lyupinaning ba'zi turlari mavjud. Bunday navlarni bir marta ekish kifoya va bir necha yil ichida keng gilam yaratiladi va tuproqni turli yorqin ranglarda bezatadi.

Lyupinlar nafaqat ularning jozibadorligi va ekin ekishning osonligi bilan ham ajralib turadi. Bu o'simlikning mavjudligi tuproq unumdorligini oshirishga yordam beradi. O'simlikning bu ta'siri ildizlarda azotli bakteriyalar mavjudligi bilan ta'minlanadi. Bu borada eng katta foyda ko'k lyupinni yetishtirishdir.

Lyupinning turlari mingga yaqin turni o'z ichiga oladi. Birinchi marotaba bir kishi bir yillik navlarni, miloddan Avvalgi 2000 yil oldin uchratgan.

Sayyoramizning turli qismlarida eng katta va-killik taxminan 200 ta asosiy turlari uchraydi. Mamlakatimizda eng ko'p to'rtta turi mavjud:

- sariq rangli;
- oq;
- tor-barglari;
- multisheet

O'sish davriga qarab, bu o'simliklarni uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- bir yil;
- ikki yoshli bolalar;
- ko'p yillik.

Bundan tashqari, lyupinlar o'zlarining kattaligi bo'yicha farq qilishi mumkin, ular asosan ular mitti va yirik navlarga bo'linadi. Bundan tashqari o'simlik shakliga qarab, o'tli turlar va butalar mavjud.

Ushbu turlarning har biri o'zining o'ziga xos xususiyatlariga ega, bu esa ko'proq mahsulot olish uchun foydalidir:

Bu bizning sayyoramizda joylashgan navlarning xilma-xilligining kichik bir qismidir. Yuqorida ta'riflangan turlar mamlakatimiz hududida eng ko'p miqdorda namoyon bo'ladi. Boshqa qit'alardagi lyupinning boshqa turlari ham keng tarqalgan. Misol uchun, Amyerikada mitti, gibrid, o'zgaruvchan va bezatilgan.

Mamlakatimizning og'ir sharoitlarini hisobga olib, uni yetishtirish uchun qattiq sovuqqa va qurg'oqchilikka chidamli lyupinning maxsus navlarini tanlash tavsiya etiladi.

O'sish va tuproqni tayyorlash uchun joyni qanday tanlash mumkin?

Lyupinlar har qanday tuproqda o'sishi mumkin bo'lsa-da, har qanday tuproq turi ularga mos kelmaydi. Bu kislotali tuproqlarga nisbatan qo'llaniladi. Tuproqlarda lyupinlarni gidroksidi ortiq bo'lgan eritmalarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish mumkin emas.

Vaqt o'tishi bilan unumdorligini oshiradigan ozuqaviy zaif tuproqlarda lyupinlarni yetishtirish foydali bo'ladi. Tuproq sifatini yaxshilash maqsadida lyupinlarni ekishdan oldin hijob va ohak tuproqni ekishda hissa sifatida ishlatilishi mumkin.

Engil mehrl o'simlik bo'lib, lyupinlar penumbra joyida eng qulay his qilishlari mumkin.

Odatda ekish uchun tuproqni tayyorlash uchun maxsus chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak emas. Tuproqda etarli miqdorda ozuqa mavjud bo'lsa oldingi tayyorgarliksiz, ochiq yerga bahorda urug'larni ekish mumkin.

Lyupinlarni qachon ekilishi kerak? Gullar uchun ochiq maydonda ekish va parvarish qilish o'z vaqtida bo'lishi kerak. Odatda ekish bahorda qilinadi: buning uchun havo havo etarli darajada bo'lganida tanlanadi. Odatda aprel oyi boshlarida sodir bo'ladi. Ba'zi floristlar lyupin va qish ekish bilan mashg'ul. Bu holda, urug'lar tayyorlangan quduqqa tashlanadi va tepada bir hijob qatlami bilan sepiladi.

Urug'lar va ko'chatlardan o'sadi.

Lyupinning yillik va yillik navlari o'sishi oddiy mashqdir har qanday boshlang'ich florist qila oladi. Asosiy usullar sifatida aprel oyida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan urug'lik yoki ko'chatlarni ekishdan foydalanishingiz mumkin.

Lekin saytdagi mos joy haqida qaror qabul qilishingiz kerak bo'lgan birinchi narsa. Keyin ekish uchun tayyorlangan urug'lar 2-3 sm chuqurlik-

da ko'miladi. Yerning oxirida yaxshi sug'orilgan bo'lishi kerak. Lyupin gulining birinchi yili avgust oyining boshida gullashni boshlaydi.

Lyupinlarga nisbatan, boshqa barcha o'simliklar o'simliklar bilan bo'lgani kabi, katta hodisalar ham o'tkaziladi:

- Sug'orish. Sug'orish modyeratsiyani talab qiladi. Odatda, o'simliklarning suvga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun ular haftasiga 1-2 marta sug'oriladi. Yomg'irning oz miqdori bilan chastota 3-4 marta ko'payadi;

- Har bir muntazam sug'orish yumshatishni yakunlash uchun talab qilinadi. Yana bir bor eslaylikki, bu gullar kislorodga boy bo'lgan tuproqlarda eng yaxshisini his qiladi;

- Lyupinlar o'stiriladigan saytning tozaligini doimo kuzatib borish va begona o'tlarni o'z vaqtda olib tashlash kerak. Soya hosil qiladigan boshqa o'simliklarning mavjudligi lyupinlarga foyda keltirmaydi. Bunday holda, gullar uzaytiriladi va ulardan kutilgan dekorativ xususiyatlarini namoyish qila olmaydi;

Urug'li tuproqqa ekilgan bo'lsa, boshqa o'stiriladigan o'simliklar singari, lyupinlar ham gullaydi. Kambag'al tuproqlarga gullar o'sib chiqqanda, vaziyat mineral yoki organik o'g'itlar yordamida tuzatilishi mumkin. Oziqlantirish mavsumda 2-3 marta amalga oshirilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Алёхина Н.Д., Болнокин Ю.В., Гавриленко В.Ф. Физиология растений М.: «Академия». 2007. 640 с.
3. Бавтуто Г.А., Еремина В.М., Жигар М.Г.Т. Атлас по анатомии растений Учеб.пособие для вузов. Минск. «Ураджай», 2001. -146 с.
4. Бекназаров Б.Д., Валиханов М.Н. Особенности активации пиррофосфатазы хлопчатника ионами магния. Физиология растений. 2006. том 53. №1.54-59 с. 5. Бекназаров Б.О., Валиханов М.Н. Свойства неорганической пиррофосфатазы хлопчатника II М. Прикладная биохимия и микробиология, 2007. том 43, №2. 172-177 с.
5. S.M.Po'latov, K.M.Mo'minov, S.E.Ganiyev – Dorivor Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ni yetishtirish agrotehnologiyasi va samaradorligi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 646-652 bet.
6. S.Po'latov - "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun". Toshkent. 2023-yil. Zuxra Baraka Biznes MChJ nashriyoti.
7. B.To'xtayev, E.Ahmedov, S.Po'latov, G'.Jumaboyev, R.Muudinov - Пряно ароматические и пряно-вкусовые лекарственные растения. Toshkent. 2024 yil. Zuxra Baraka Biznes MChJ nashriyoti.

## DATURA INNOXIA MILL.NING BARG VA URUG' HOSILDORLIGIGA AZOTLI O'G'ITLAR TURLARI HAMDA ME'YORLARINING TA'SIRI

Ma'lumki, ekinlarni yaxshi o'sishi, rivojlanishi, hosil elementlarining shakllanishi va hosildorligiga tashqi muhit omillari hamda ularni parvarishlashda qo'llanilayotgan har bir agrotexnik tadbirlar o'zining ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.


Tadqiqotlarimizda Meksika bangidevonasining barg va urug' hosiliga qo'llanilayotgan mineral o'g'itlar me'yorlari va shakllari ham ta'sir ko'rsatganligi aniqlandi (1,2-rasmlarga qarang).

Meksika bangidevonasining barg va urug' hosiliga mineral o'g'itlar me'yorlari va shakllarining ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlar 1, 2-jadvallarda keltirilgan.

Tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me'yori


qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan ammoniy sulfatning 60, 90, 120, 150 kg/ga me'yorlarda qo'llanilishi Meksika bangidevonasi o'simligining barg hosilini 9,41-10,83 s/ga bo'lishini ta'minlab, o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan 2,54-3,96 s/ga, P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me'yori qo'llanilgan fonga nisbatan 0,99-1,43 s/ga, karbamid [CO(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub> – 46 % N] azotli o'g'itiga nisbatan 0,30-0,38 s/ga, ammoniy nitrat (NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>) azotli o'g'itiga nisbatan 0,57-0,64 s/ga miqdorida qo'shimcha barg hosili olindi.

Fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me'yorini o'zi qo'llanilgan variantda yesa barg hosili 8,42 s/ga ni tashkil yetdi. Fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me'yori qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan ammoniy sulfatning 60,



1-rasm. Barg va urug' hosiliga qo'llanilayotgan mineral o'g'itlar me'yorlari va shakllari





2-rasm. Barg va urug' hosiliga qo'llanilayotgan mineral o'g'itlar me'yorlari va shakllari dinamikasi

1-jadval.

Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia Mill*)ning barg hosiliga azotli o'g'itlar turlari hamda me'yorlarining ta'siri, 2022-2024 yy, s/ga


№	Qo'llanilgan azotli o'g'it turlari	Mineral o'g'it me'yorlari	2022 y	2023 y	2024 y	O'rtacha	Qo'shimcha hosil			
							Nazorat dan	P <sub>90</sub> K <sub>90</sub> (fon) dan	CO(NH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> dan	NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub> dan
1	O'g'itsiz (nazorat)		6,51	7,25	6,84	6,87	-	-	-	-
2	P <sub>90</sub> K <sub>90</sub> (fon)		8,04	8,84	8,37	8,42	1,55	-	-	-
3	(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> (Аммоний сульфат)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	9,78	9,52	9,41	9,41	2,54	0,99	0,36	0,57
4		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	10,26	9,93	9,85	9,85	2,98	1,43	0,33	0,64
5		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	11,43	10,80	10,83	10,83	3,96	1,42	0,30	0,59
6		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	10,95	10,48	10,44	10,44	3,57	1,03	0,38	0,64
7	CO(NH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> (Карбамид)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	9,41	9,11	9,05	9,05	2,18	-0,36	-	-
8		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	9,88	9,56	9,52	9,52	2,65	0,11	-	-
9		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	11,16	10,34	10,53	10,53	3,66	1,12	-	-
10		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	10,62	10,04	10,06	10,06	3,19	0,65	-	-
11	NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub> (Аммоний нитрат)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	9,14	8,93	8,84	8,84	1,97	-0,57	-	-
12		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	9,66	9,25	9,21	9,21	2,34	-0,20	-	-
13		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	10,99	10,08	10,24	10,24	3,37	0,83	-	-
14		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	10,36	9,81	9,80	9,80	2,93	0,39	-	-

NSR<sub>05</sub> = 0,27 s/ga; NSR<sub>05</sub> = 2,79 %


Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ning urug' hosiliga azotli o'g'itlar turlari hamda me'yorlarining ta'siri, 2022-2023 yy, s/ga

№	Qo'llanilgan azotli o'g'it turlari	Mineral o'g'it me'yorlari	2022 y	2023 y	2024 y	O'rtacha	Qo'shimcha hosil			
							Nazorat dan	P <sub>90</sub> K <sub>90</sub> (fon) dan	CO(NH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> dan	NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub> dan
1	O'g'itsiz (nazorat)		9,1	10,1	9,8	9,7	-	-	-	-
2	P <sub>90</sub> K <sub>90</sub> (fon)		10,1	12,4	11,7	11,4	1,7	-	-	-
3	(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> (Ammoniy sulfat)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	13,0	15,1	14,3	14,1	4,4	2,7	0,8	1,2
4		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	14,7	16,8	16,0	15,8	6,1	4,4	1,1	1,6
5		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	16,3	18,4	17,5	17,4	7,7	6,0	0,9	1,4
6		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	15,8	17,5	16,7	16,7	7,0	5,3	0,7	1,3
7	CO(NH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> (Karbamid)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	12,1	14,4	13,5	13,3	3,6	1,9	-	-
8		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	13,6	15,7	14,9	14,7	5,0	3,3	-	-
9		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	15,4	17,6	16,6	16,5	6,8	5,1	-	-
10		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	15,0	16,9	16,0	16,0	6,3	4,6	-	-
11	NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub> (Ammoniy nitrat)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	11,8	13,9	13,1	12,9	3,2	1,5	-	-
12		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	13,0	15,2	14,5	14,2	4,5	2,8	-	-
13		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	14,8	17,0	16,1	16,0	6,3	4,6	-	-
14		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	14,4	16,3	15,5	15,4	5,7	4,0	-	-

NSR<sub>05</sub> = 0,27 s/ga; NSR<sub>05</sub> = 2,79 %



3-rasm. Meksika bangidevonasi o'simligini urug' hosili



4-rasm. Meksika bangidevonasi o‘simligini urug‘ hosili dinamikasi

90, 120, 150 kg/ga me‘yorlarda qo‘llanilgan variantlarda Meksika bangidevonasi o‘simligining barg hosili bo‘yicha yeng yuqori ko‘rsatkich 120 kg/ga ammoniy sulfat o‘g‘iti qo‘llanilgan variantda kuzatilib, 10,83 s/ga.ni tashkil yetdi.

Fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me‘yori qo‘llanilgan fonida azotli o‘g‘itlardan karbamid (CO(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub> – 46 % N)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga me‘yorlarda qo‘llanilishi Meksika bangidevonasi o‘simligining barg hosilini 9,05-10,53 s/ga bo‘lishini ta‘minlab, o‘g‘itsiz nazorat variantiga nisbatan 2,18-3,66 s/ga yuqori bo‘lishini ta‘minladi.

Fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me‘yori qo‘llanilgan fonida azotli o‘g‘itlardan ammoniy nitrat (NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga me‘yorlarda qo‘llanilishi Meksika bangidevonasi o‘simligining barg hosilini 8,84-10,24 s/ga bo‘lishini ta‘minlab, o‘g‘itsiz nazorat variantiga nisbatan 1,97-3,37 s/ga yuqori bo‘lishini ta‘minladi.

Meksika bangidevonasi o‘simligini urug‘ hosili bo‘yicha olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me‘yori qo‘llanil-

gan fonida azotli o‘g‘itlardan ammoniy sulfatning 60, 90, 120, 150 kg/ga me‘yorlarda qo‘llanilgan variantlarda urug‘ hosili 14,1-17,4 s/ga bo‘lishini ta‘minlab, o‘g‘itsiz nazorat variantiga nisbatan 4,4-7,7 s/ga, P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me‘yori qo‘llanilgan fonga nisbatan 2,7-6,0 s/ga, karbamid (CO(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub> – 46 % N) azotli o‘g‘itiga nisbatan 0,7-1,1 s/ga, ammoniy nitrat (NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>) azotli o‘g‘itiga nisbatan 1,2-1,6 s/ga miqdorida qo‘shimcha urug‘ hosili olindi. Fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me‘yorini o‘zi qo‘llanilgan variantda urug‘ hosili 11,4 s/ga.ni tashkil yetdi. Fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me‘yori qo‘llanilgan fonida azotli o‘g‘itlardan ammoniy sulfatning 60, 90, 120, 150 kg/ga me‘yorlarda qo‘llanilgan variantlarda Meksika bangidevonasi o‘simligining urug‘ hosili bo‘yicha yeng yuqori ko‘rsatkich 120 kg/ga ammoniy sulfat o‘g‘iti qo‘llanilgan variantda kuzatilib, 17,4 s/ga.ni tashkil yetdi.

Fosforli va kaliyli o‘g‘itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me‘yori qo‘llanilgan fonida azotli o‘g‘itlardan karbamid (CO(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub> – 46 % N)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga me‘yorlarda qo‘llanilishi Meksika bangidevonasi o‘simligining urug‘ hosilini 13,3-16,5 s/ga



bo'lishini ta'minlab, o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan 3,6-6,8 s/ga yuqori bo'lishini ta'minladi (3, 4-rasmlarga qarang).

Fosforli va kaliyli o'g'itlarning  $P_{90}K_{90}$  kg/ga me'yori qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan ammoniy nitrat ( $NH_4NO_3$ )ning 60, 90, 120, 150 kg/ga me'yorlarda qo'llanilishi Meksika bangidevonasi o'simligining urug' hosilini 12,9-16,0 s/ga bo'lishini ta'minlab, o'g'itsiz nazorat variantiga nisbatan 3,2-6,3 s/ga yuqori bo'lishini ta'minladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, Meksika bangidevonasidan yuqori barg va urug' hosili olish uchun uni parvarishida azotli o'g'itlardan ammoniy sulfatni 120 kg me'yorda qo'llanilganda bargdan 10,83 s/ga, urug'dan 17,4 s/ga hosil olishni ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Алёхина Н.Д., Болнокин Ю.В., Гавриленко В.Ф. Физиология растений М.: «Академия». 2007. 640 с.
3. Бавтуто Г.А., Еремина В.М., Жигар М.ГТ. Атлас по анатомии растений Учеб.пособие для вузов. Минск. «Ураджай», 2001. -146 с.
4. Бекназаров Б.Д., Валиханов М.Н. Особенности активации пирофосфатазы хлопчатника ионами магния. Физиология растений. 2006. том 53. №1.54-59 с. 5. Бекназаров Б.О., Валиханов М.Н. Свойства неорганической пирофосфатазы хлопчатника II М. Прикладная биохимия и микробиология, 2007. том 43, №2. 172-177 с.
5. S.M.Po'latov, K.M.Mo'minov, S.E.Ganiyev – Dorivor Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ni yetishtirish agrotexnologiyasi va samaradorligi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 646-652 bet.
6. S.Po'latov - "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun". Toshkent. 2023-yil. Zuxra Baraka Biznes MChJ nashriyoti.
7. B.To'xtayev, E.Axmedov, S.Po'latov, G'.Jumaboyev, R.Muydinov - Пряно ароматические и пряно-вкусовые лекарственные растения. Toshkent. 2024 yil. Zuxra Baraka Biznes MChJ nashriyoti.
8. S.Po'latov Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2024.

Po'latov Sarvar Mustafoyevich,

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali dotsenti, q.x.f.f.d. (PhD),*

Ergashev Bunyod Dilmurodovich,

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali tayanch doktoranti,*

Xashimova Madinabonu Raxmonberdi qizi,

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali mustaqil tadqiqotchisi*

## BANGIDEVONANING VEGETATIV VA GENERATIV ORGANLARI TARKIBIDAGI ALKOLOIDLAR MIQDORI

1. Oddiy bangidevonadagi (*Datura stramonium* Mill) alkaloidlar tarkibi. Inson hayotida dorivor o'simliklar alohida ahamiyatga yega. Dorivor o'simliklar necha asrlardan beri har xil kasalliklarini davolashda foydalanib, tabobatda muhim ahamiyatga yega bo'lib kelmoqda. Sababi, dorivor o'simliklarning ta'siri ularning tarkibidagi alohida moddalar, masalan, alkaloidlar, glikozidlar, yefir moylari va boshqalarning miqdori bilan asoslanadi. Ba'zi birlari kuchli zaharli bo'lib, ular kam miqdorda dorivorlik xususiyatiga yega bo'ladi [5; 173-174 b.].

Botanik ta'rifi. Bo'yi 150 sm.gacha boradigan bir yillik o'simon o'simlik. Ildizlari – shoxlanib boradigan o'q ildiz. Poyasi tik o'sadi, ustki yarmi ayriya o'xshab shoxlanib boraveradi. Barglari navbatma-navbat joylashgan tuxumsimon shaklda, uchki barglari o'tkirlashib kelgan, pastkilari uzun bandli, chetlari tishli. Gullari yakka-yakka bo'lib, barg qo'ltiqlari va poyasining shoxlagan joylaridan chiqadi, bandi kalta bo'ladi. Mevasi to'rt tavaqa bo'lib ochiladigan, tuxumsimon ko'sakcha, bir talay qattiq tikanlar bilan qoplangan. Urug'lari qora, xira rangda, buyraksimon, ikki yoni qisilgan, ko'p bo'ladi. May-oktabr oylarida gullaydn, iyun-noyabrda meva tugadi. Bu o'simlikning hamma qismlari zaharli.

Geografik tarqalishi. Oddiy bangidevona O'rta Osiyoning barcha respublikalari, Janubiy Qozog'iston, Kavkazda tarqalgan, turar joylar yaqinida, axlatxonalar, yo'llar chetlarida, soy va ariqlarning bo'ylarida, bog'larda begona o't tariqasida o'sadi. Krasnodar o'lkasi, Qrim va Moldaviyada yekiladi.

Ishlatiladigan organlari. Barglari va g'o'ra holdagi mevalari. Barglari o'simlikning gulga kirgan vaqtdan boshlab teriladi.

Kimyoviy tarkibi. Bu o'simlikning hamma organlarida: barglarida 0,27 % gacha, poyalarida 0,24 %, ildizlarida 0,17 %, gullarida 1,9 % va urug'larida 0,22 % alkaloidlar bor. Asosiy alkaloidlari giossiamin, atropin, skopolamin. Skonolamin alkaloidi g'o'ra holdagi mevalaridan olinadi. Barglarida 0,041 % yefir moyi, 0,1 % gacha karotin, 1,7 % oshlovchi moddalar topilgan. Urug'larida 25 %gacha qurib qolmaydigan moy bor.

Ta'siri va ishlatilishi. Xalq tabobatida bangidevona nevrozlar psixozlar va nevralsiyalarda, revmatizm kasalliklarida og'riqni qoldiradigan, uxlatadigan, tinchlantiradigan vosita tariqasida qadimdan ishlatilib kelinadi. Urug'laridan olinadigan moyini bavoil tugunlariga surtiladi, barglari yesa ko'z og'riganida ko'zga qo'yiladi. Ibn Sino bangidevona o'tining qaynatma va damlamasini ko'z kasalliklarida va yo'talga qarshi dori o'rnida ishlatgan. Zamonaviy tabobatda o'simlikning mevalarida bo'ladigan skopolamin alkaloidi kimyoviy tuzilishi jihatidan atropinga yaqin turishi aniqlangan. Skopolamin markaziy nerv sistemasiga tinchlantiruvchi ta'sir o'tkazadi. Birmuncha kattaroq dozalarda odamni uxlatib qo'yadi. Skopolaminning tortishish – talvasaga tushishga qarshi ta'sir ko'rsatishi va narkotik moddalar ta'sirini kuchaytirishi aniqlangan. Xuddi atropin singari, skopolamin me'da-ichak yo'lining motor-sekretor funksiyasini, ter, so'lak bezlari, bronxial bezlar ishini susaytiradi, yurak qisqarishlari maromini tezlashtiradi. Shuning uchun ham bu o'simlikdan me'da-ichak yo'llari, o't pufagi, siydik chiqarish yo'llarining yallig'lanish kasalliklariga davo qilish uchun foydalaniladi. Bangidevonani yeshakmiya va belladonna barglariga qo'shib, astma xurujini bartaraf yetish uchun astmaga qarshi sigaretalar ko'rinishida ishlatiladi. Bangidevona tarkibida

bo'ladigan giossiamin, atropin alkaloidlari turli bezlar faoliyatini susaytirib, nafas markazini qo'zg'atadi, sil-liq muskulli organlar tonusini pasaytiradi.

2. Meksika bangidevonasining (*Datura innoxia* Mill) vegetativ va generativ organlari tarkibidagi alkaloidlar miqdori. Meksika bangidevonasi o'simligi urug'larini maqbul muddatlarda yekish va uni par-varishlash jarayonida mineral o'g'itlarni qo'llash uning kimyoviy tarkibini o'zgarishiga ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Xususan, bargining tarkibida 0,26-0,46 %gacha alkaloidlar bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan. Asosiy alkaloidi – skopolamin. Bargida skopolaminning miqdori 0,19-0,36 %gacha bo'ladi. Skopolamin moddasini tinch-lantiruvchi xususiyati mavjudligi tufayli farmasevtikada foydalaniladi. Bu alkaloidlar tarkibidagi atropindan farqi hisoblanadi [6; 112-119 b.].

Oddiy bangidevonadagi (*Datura stramonium* Mill) va Meksika bangidevonasining (*Datura innoxia* Mill)ning tarkibidagi alkaloidlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 9-ilova keltirildi.

Tadqiqotlarda Meksika bangidevonasi (*Datura in-*

*noxia* Mill) o'simligining vegetativ va generativ organlari tarkibidagi alkaloidlar miqdorlariga P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me'yori qo'llanilgan fonlarda ammoniy nitrat (NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub> – 34,6 % N), ammoniy sulfat [(NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> – 20,5 % N] va karbamid (CO(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub> – 46 % N) kabi azotli o'g'itlarning 60, 90, 120, 150 kg/ga me'yorlarining ta'siri ham aniqlandi.

Tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yil-da fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me'yori qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan ammoniy sulfat ((NH<sub>4</sub>)<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> – 20,5 % N)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga me'yor-larda qo'llanilishi o'simlik ildizining tarkibida 0,31-0,38 %, poyasida 0,19-0,24 %, bargida 0,35-0,41 %, gulida 0,63-0,74 %, mevasida 0,82-0,94 %, urug'ida 0,85-0,97 % alkaloid mavjudligi aniqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki, Meksika bangidevonasi o'simligini parvarishlash jarayonida qo'llaniladigan mineral o'g'itlarning me'yorlari va shakllari ham uning vegetativ va generativ organlarini tarkibidagi alkaloidlar miqdoriga o'zining ta'sirini ko'rsatmasdan qolmasligi o'z tasdig'ini topdi.

Ammoniy sulfat o'g'iti qo'llanilgan variantlarda yeng yuqori ko'rsatkichlar mineral o'g'itlarning N<sub>120</sub>P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga

**1-jadval.**

**Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ning vegetativ va generativ organlari tarkibidagi alkaloidlar miqdoriga azotli o'g'itlar turlari hamda me'yorlarining ta'siri, 2022-yil, %**

No	Qo'llanilgan azotli o'g'it turlari	Mineral o'g'it me'yorlari	Ildizi	Poyasi	Bargi	Guli	mevasi	urug'i
1	O'g'itsiz (nazorat)		0,27	0,17	0,31	0,55	0,76	0,78
2	P <sub>90</sub> K <sub>90</sub> (fon)		0,29	0,19	0,33	0,60	0,78	0,81
3	(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> (Ammoniy sulfat)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,33	0,22	0,37	0,65	0,84	0,87
4		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,35	0,23	0,39	0,69	0,87	0,89
5		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,39	0,26	0,42	0,77	0,96	0,99
6		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,37	0,24	0,41	0,75	0,93	0,96
7	CO(NH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> (Karbamid)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,32	0,21	0,35	0,64	0,82	0,83
8		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,34	0,22	0,37	0,68	0,86	0,88
9		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,37	0,25	0,42	0,75	0,95	0,97
10		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,36	0,23	0,40	0,72	0,91	0,94
11	NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub> (Ammoniy nitrat)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,31	0,20	0,34	0,63	0,79	0,83
12		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,33	0,21	0,38	0,68	0,85	0,89
13		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,36	0,24	0,40	0,74	0,93	0,95
14		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,35	0,23	0,39	0,71	0,88	0,93



**Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ning vegetativ va generativ organlari tarkibidagi alkaloidlar miqdoriga azotli o'g'itlar turlari hamda me'yorlarining ta'siri, 2023-yil, %**

№	Qo'llanilgan azotli o'g'it turlari	Mineral o'g'it me'yorlari	Ildizi	Poyasi	Bargi	Guli	mevasi	urug'i
1	O'g'itsiz (nazorat)		0,23	0,15	0,29	0,52	0,73	0,76
2	P <sub>90</sub> K <sub>90</sub> (fon)		0,27	0,17	0,32	0,58	0,76	0,78
3	(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> (Ammoniy sulfat)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,31	0,19	0,35	0,63	0,82	0,85
4		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,33	0,21	0,37	0,66	0,85	0,87
5		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,38	0,24	0,41	0,74	0,94	0,97
6		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,36	0,22	0,39	0,72	0,91	0,93
7	CO(NH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> (Karbamid)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,30	0,19	0,34	0,61	0,80	0,81
8		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,32	0,20	0,36	0,65	0,84	0,86
9		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,36	0,23	0,40	0,73	0,92	0,95
10		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,35	0,22	0,39	0,70	0,89	0,91
11	NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub> (Ammoniy nitrat)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,29	0,18	0,33	0,60	0,78	0,80
12		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,32	0,19	0,36	0,64	0,83	0,86
13		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,35	0,22	0,39	0,73	0,91	0,93
14		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,34	0,21	0,38	0,69	0,87	0,90

me'yor qo'llanilgan variantda kuzatilib, o'simlik ildizining tarkibida 0,38 %, poyasida 0,24 %, bargida 0,41 %, gulida 0,74 %, mevasida 0,94 %, urug'ida 0,97 % alkaloid mavjudligi aniqlandi. Fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me'yorini o'zi qo'llanilgan variantda yesa o'simlik ildizining tarkibida 0,27 %, poyasida 0,17 %, bargida 0,32 %, gulida 0,58 %, mevasida 0,76 %, urug'ida 0,78 % alkaloid mavjudligi aniqlandi.

Fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me'yor qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan karbamid (CO(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub> – 46 % N)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga me'yorlarda qo'llanilishi o'simlik ildizining tarkibida 0,30-0,36 %, poyasida 0,19-0,23 %, bargida 0,34-0,40 %, gulida 0,61-0,73 %, mevasida 0,80-0,92 %, urug'ida 0,81-0,95 % alkaloid mavjudligi aniqlandi.

Karbamid o'g'iti qo'llanilgan variantlarda ham yeng yuqori ko'rsatkichlar mineral o'g'itlarning N<sub>120</sub>P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me'yor qo'llanilgan variantda kuzatilib, o'simlik ildizining tarkibida 0,36 %, poyasida 0,23 %, bargida 0,40 %, gulida 0,73 %, mevasida 0,92 %, urug'ida 0,95 % alkaloid mavjudligi aniqlandi. O'g'itsiz nazorat vari-

antida yesa o'simlik ildizining tarkibida 0,23 %, poyasida 0,15 %, bargida 0,29 %, gulida 0,52 %, mevasida 0,73 %, urug'ida 0,76 % alkaloid mavjudligi aniqlandi.

Fosforli va kaliyli o'g'itlarning P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me'yor qo'llanilgan fonida azotli o'g'itlardan ammoniy nitrat (NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>)ning 60, 90, 120, 150 kg/ga me'yorlarda qo'llanilishi o'simlik ildizining tarkibida 0,29-0,35 %, poyasida 0,18-0,22 %, bargida 0,33-0,39 %, gulida 0,60-0,73 %, mevasida 0,78-0,91 %, urug'ida 0,80-0,93 % alkaloid mavjudligi aniqlandi. Ammoniy nitrat o'g'iti qo'llanilgan variantlarda yeng yuqori ko'rsatkichlar mineral o'g'itlarning N<sub>120</sub>P<sub>90</sub>K<sub>90</sub> kg/ga me'yor qo'llanilgan variantda kuzatilib, o'simlik ildizining tarkibida 0,35 %, poyasida 0,22 %, bargida 0,39 %, gulida 0,73 %, mevasida 0,91 %, urug'ida 0,93 % alkaloid mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqotning 2015 va 2017-yillarida olingan ma'lumotlarda ham yuqoridagi kabi qonuniyatlar kuzatildi.

To'liq ma'lumotlar 1,2,3-jadvallarda keltirildi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan

**Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ning vegetativ va generativ organlari tarkibidagi alkaloidlar miqdoriga azotli o'g'itlar turlari hamda me'yorlarining ta'siri, 2024-yil, %**

№	Qo'llanilgan azotli o'g'it turlari	Mineral o'g'it me'yorlari	Ildizi	Poyasi	Bargi	Guli	Mevasi	Urug'i
1	O'g'itsiz (nazorat)		0,21	0,13	0,27	0,50	0,70	0,73
2	P <sub>90</sub> K <sub>90</sub> (fon)		0,26	0,16	0,31	0,57	0,74	0,76
3	(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> (Ammoniy sulfat)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,30	0,17	0,33	0,60	0,80	0,82
4		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,31	0,19	0,35	0,64	0,82	0,84
5		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,36	0,22	0,40	0,72	0,91	0,95
6		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,34	0,20	0,37	0,70	0,90	0,92
7	CO(NH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> (Karbamid)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,29	0,18	0,32	0,60	0,79	0,80
8		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,30	0,19	0,34	0,63	0,82	0,84
9		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,34	0,21	0,39	0,71	0,90	0,93
10		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,33	0,20	0,38	0,69	0,87	0,90
11	NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub> (Ammoniy nitrat)	N <sub>60</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,28	0,17	0,31	0,58	0,76	0,79
12		N <sub>90</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,30	0,18	0,34	0,62	0,81	0,84
13		N <sub>120</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,33	0,21	0,37	0,71	0,90	0,91
14		N <sub>150</sub> P <sub>90</sub> K <sub>90</sub>	0,32	0,20	0,36	0,67	0,86	0,89

holda xulosa qilish mumkinki, Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) o'simligi organlarida yuqori miqdordagi alkaloidlar bo'lishi uchun uni parvarishlashda ammoniy sulfat o'g'itini P<sub>90</sub> K<sub>90</sub> kg/ga fonida gektariga 120 kg qo'llash samarali natijani beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. О'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Алехина Н.Д., Болнокин Ю.В., Гавриленко В.Ф. Физиология растений М.: «Академия». 2007. 640 с.
3. Бавтуто Г.А., Еремина В.М., Жигар М.ГТ. Атлас по анатомии растений Учеб.пособие для вузов. Минск. «Ураджай», 2001. -146 с.
4. Бекназаров Б.Д., Валиханов М.Н. Особенности активации пиррофосфатазы хлопчатника ионами магния. Физиология растений. 2006. том 53. №1.54-59 с.
5. Бекназаров Б.О., Валиханов М.Н. Свойства

неорганической пиррофосфатазы хлопчатника II М. Прикладная биохимия и микробиология, 2007. том 43, №2. 172-177 с.

5. S.M.Po'latov, K.M.Mo'minov, S.E.Ganiyev – Dorivor Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) ni yetishtirish agrotexnologiyasi va samaradorligi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 646-652 bet.

6. S.Po'latov - "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun". Toshkent. 2023-yil. Zuxra Baraka Biznes MChJ nashriyoti.

7. B.To'xtayev, E.Axmedov, S.Po'latov, G'.Jumaboyev, R.Muydinov - Пряно ароматические и пряно-вкусовые лекарственные растения. Toshkent. 2024 yil. Zuxra Baraka Biznes MChJ nashriyoti.

8. S.Po'latov Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2024.

**Po'latov Sarvar Mustafoevich,**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali dotsenti,*

**Nodirova Dildora Bahodir qizi,**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali talabasi,*

**Mustafoeva Sevinchoy Sarvar qizi,**

*Toshkent pediatriya meditsinasi instituti talabasi,*

**Mustafoeva Kibora Sarvar qizi,**

*Toshkent pediatriya meditsinasi instituti talabasi*

## QICHITQI O'TI O'SIMLIGINING KENG MIQIYOSDA QO'LLANILISHI

**Kalit so'zlar:** *Gistamin xolin, chumoli kislata, mikro ignacha, o'g'it, souslar, pirojka, gemostatik, artirit, revmatizm, kaltsiy, fosfor, dermatologiya.*

**Annotatsiya:** *Maqolada qichitqi o'ti o'simligining foydali va zararli tomonlari, kimyoviy tarkibi va ularning bargidan tayyorlanadigan damlama, ularning doruvorlik xususiyatlar va ulardan salatlar tayyorlanishi, profilaktika maqsadida ham keng qo'llanilishi keng yoritilgan.*

Qichitqi o't – butun Sibir va uzoq Sharqda o'sadi, Yevropa, Osiyo, Xitoyda keng tarqalgan. O'simlik azotli moddalarga boy nam va unumdor tuproqlarda o'sadi. Uni nam o'rmonlarda, soyali joylarda, jarliklarda, suv havzalari bo'yida va yo'l chetlarida, o'rmon yoqalarida, uy-joy va temir yo'llar yaqinida topish mumkin.

Qichitqi o't barglari gistamin, xolin va chumoli kislota bilan to'ldirilgan nozik mikro ignachalar - tuklar bilan qoplangan. Ushbu moddalarning har biri achishish va qichishish shaklida allergik reaksiyaga sabab bo'ladi. Biror kishi yoki hayvonga tegsa, igna tarkibi teri ostiga sachraydi – shuning uchun achishish yuzaga keladi. Olimlarning fikriga ko'ra, bu xususiyat o'simlikni o'txo'r hayvonlardan himoya qiladi. O'simlikning ikki tomonlama tabiati nomda ham aks etadi: lotincha *Urtica* so'zidan olingan qichitqi o't “achishtiruvchi” degan ma'noni anglatadi va qadimgi ruscha “koprina” so'zidan “ipak” deb tarjima qilinadi.

Qadim zamonlarda qichitqi o't tolasidan kiyim-kechak, gilam, arqonlar va baliq ovlash to'rlari to'qilgan. U Yevropada ham qadrlangan - hatto Napoleon askarlari ham undan forma kiyishgan. Paxtadan farqli o'laroq, qichitqi o't ishlab chiqarishda yumshoqroq va ekologik toza – uni ifloslangan yerlarda ham, o'g'it va kimyoviy moddalarsiz xavfsiz yetishtirish mumkin. Ammo undan

barcha zamonaviy standartlarga javob beradigan matolarni tayyorlash mumkinmi yoki yo'qmi hali ma'lum emas. Rus yurtida qichitqi o't sog'lom ovqatlanishning bir qismi edi - undan salatlar, shi sho'rva, souslar tayyorlangan, pirojkalar uchun to'ldirmalar tayyorlangan va choy damlangan. Asrlar davomida qichitqi o't odamlarga gemostatik va siydik haydovchi xususiyatlari bilan tanilgan. Artrit va revmatizm ham yangi qichitqi o't bilan davolandi, u qandli diabet, nevroz, yurak kasalliklarida ishlatilgan. Yunonlar erkak kuchini oshirish uchun qichitqi o't urug'ini iste'mol qilishgan.

Zamonaviy tibbiyot qichitqi o'tning dorivor qiymatini tan oladi, bugungi kunda u turli kasalliklarda va profilaktika maqsadida ishlatiladi, dermatologiya, kosmetologiya, veterinariya va oshpazlikda keng qo'llaniladi. Umuman olganda, qichitqi o'tning 50 ga yaqin turi mavjud, ulardan 10 xilga yaqini Rossiyada keng tarqalgan. Biz sizga eng keng tarqalgan uchasi haqida gapirib beramiz.

*Ikki uyli.* Sibir va Yevropaning keng hududlarida uchraydi. Ushbu turdagi qichitqi o'tning vakillari jinsga qarab taqsimlanadi: erkaklarida faqat qoziqsimon gullar, urg'ochilarida esa faqat pistillat shaklida bo'ladi. Og'riq qoldiruvchi, antibakterial va qon to'xtatuvchi xususiyatlari bilan mashhur.



*Achishtiruvchi.* Rossiyada eng ko‘p uchraydigan o‘simlik turlaridan biri. Bu xavfli tuklar nafaqat barglari yuzasida, balki poyalarida ham joylashganligi bilan farq qiladi.

*Sibir yoki kanopli.* G‘arbiy va Sharqiy Sibirda uchraydi. U hamma joyda o‘sadi va katta panjasimon-ajralgan tishli barglari bilan ajralib turadi. Teriga tegsa, bu Sibir xonimchasi achishtiradi, lekin pufakchalar qoldirmaydi, undan tayyorlangan damlama esa qonni quyuqlashtirmaydi. **Qichitqi o‘t** – K vitamini tarkibi bo‘yicha rekordchi, bu qon ivishini yaxshilaydi (100 g qichitqi o‘tda taxminan 500 mkg, kunlik norma 120 mkg).

Qichitqi o‘t tarkibidagi C vitamini limonga qaraganda ikki baravar ko‘p. Qichitqi o‘t barglarida xlorofill mavjud bo‘lib, u moddalar almashinuvini, ichak, qon tomirlari, yurak faoliyatini yaxshilaydi va kuchli stimulyator va va tetiklantiradi. Shuningdek, tarkibida A vitamini, B vitaminlar guruhi, mineral moddalar (marganets, kaltsiy, fosfor, kaliy va magniy), oshlovchi moddalar, flavonoidlar va qimmatbaho aminokislotalarning yuqori konsentratsiyasi mavjud bo‘lib, bu qichitqi o‘tning kuchli antioksidant va antimikrob xususiyatlarini tushuntiradi. Polivitaminli tarkibi tufayli qichitqi o‘t organizmimizga foydali ta‘sir ko‘rsatadi. Mana uning shifobaxsh xususiyatlaridan bir nechta:

- immunitet tizimini mustahkamlaydi;
- moddalar almashinuvini jarayonlarini tezlashtiradi va toksinlarni chiqarib tashlaydi
- gormonal muvozanatni tartibga soladi
- lipid almashinuvini normallashtiradi
- ichak va bachadon tonusini oshiradi
- siydik haydovchi, safro haydovchi, bakteritsid va qon to‘xtatuvchi ta‘sirga ega
- qonda xolesterin darajasini pasaytiradi
- ko‘z sog‘lig‘ini saqlashga yordam beradi
- shikastlangan to‘qimalar bitishini tezlashtiradi
- yurak va nafas olish faoliyatini yaxshilaydi

Kuril choyi, pichan va beda bilan o‘simlik to‘plami organizmning yumshoq tozalanishiga yordam beradi va yengillik hissi beradi. Qichitqi o‘t barglari organizmga tetiklantiruvchi ta‘sir ko‘rsatadi va metabolizm mahsulotlari va zararli moddalarni chiqarishga yordam beradi. Sibir detoks o‘simliklaridan tayyorlangan ichimlik organizmdagi almashinuv jarayonlarini yaxshilaydi va

tana vaznini kamaytirishga intilayotganlar uchun juda mos keladi.

Gazanda, qichitqi o‘t (*Urtica L.*) gazandadoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik yoki bir yillik o‘tlar turkumi. Barglari arra tishli, bulaklarga bo‘lingan, qarama-qarshi joylashgan. Barglari va poyasi qichitqi tuklar bilan qoplangan. Gullari juda mayda, bir jinsli, barg qo‘ltig‘idagi boshqosimon to‘pgullarga yig‘ilgan. Mevasi yongoqchasimon. Shim., kamroq Jan. yarim sharda hamda tropiklarda 40—50 turi tarqalgan. O‘zbekistonda bitta turi bor. Soya, zah yerlar, dal al ar, bog‘lar va b. yerlarda usadi. Bu turdan tibbiyotda qon to‘xtatuvchi vosita sifatida foydalaniladi. Yosh novdalari iste‘mol qilinadi. Poyasidan arqon, dag‘al mato tuqishda ishlatiladigan iplar tayyorlanadi; 2) zoologiyada suvda va quruqlikda yashovchilar bilan sudralib yuruvchilarning umumiy nomi (qarang Sudralib yuruvchilar), jonli tidda, kaltakesak, ilon, hasharotlar va urgimchaksimonlar singari badburush, yirtqich, zaharli yoki badbo‘y maxluqlarga nisbatan ishlatiladigan so‘z.

Ayollar uchun qichitqi o‘ti barglarining foydalari barglari. *Urtica dioica* dan kelib chiqqan. Uning barglari hidi yashil choyga o‘xshaydi va yangi o‘t hidiga ega. U oziq moddalarga boy, asosan flavonoidlar, xlorofill, sterollar, vitaminlar, foliy kislotasi, mineral moddalar, quritilgan qichitqi barglari choyga tayyorlanadi va ko‘proq qichitqi choyi ichish sog‘liq uchun foydalidir. Ayniqsa, ayollar qichitqi choyi ichsa, kamqonlikni davolash, hayz ko‘rish qon ketishini sozlash va polen allergiyasi kabi allergik simptomlarni yo‘qotish foydali bo‘ladi.

Qichitqi o‘ti shuningdek, vitaminlar, temir, kaltsiy, magniy va inson tanasi uchun zarur bo‘lgan boshqa oziq moddalarga boy.

Qichitqi o‘ti choyi kamqonlikning oldini oladi, qonni tozalaydi va hayzdan qon ketishini nazorat qiladi. Ayollarni hayratda qoldiradigan turli muammolar uchun juda samarali.

Bundan tashqari, qichitqi choyi vitaminlarni o‘z ichiga oladi, shuning uchun u astma, polen allergiyasi va boshqa allergik alomatlardan xalos bo‘lishga yordam beradi.

Qichitqi barglarining boshqa ta‘siri. Qichitqi choyiqon oqimini rag‘batlantirish va hatto kapillyarlarda qon aylanishini rag‘batlantirishi mumkin. Shuning

uchun jarohatlardan keyin tiklanish davridagi odamlar va artrit, revmatizm, gut va boshqa kasalliklarga chalingan bemorlar uchun juda samarali.

Urtica butun o't ekstrakti allergiyaga qarshi, kuchli, diuretik va qonni tozalash uchun foydalidir.

Ichish usuli: yolg'iz yoki aralash ichish. Umumiy usuldan foydalaning.

Ehtiyot choralari: homilador ayollar va bolalar dozaga e'tibor berishlari kerak.

Qichitqi o'ti choyining samaradorligi. Ovqat pishirish uchun: qichitqi o'ti o'simliklar o'tning yumshoq va yoqimli ta'miga ega, ba'zida bodring yoki ismaloq ta'mi bilan solishtiriladi. U ko'pincha sho'rva va choy tayyorlash uchun ishlatiladi, lekin makaron, non va hatto pishloqning ta'mini oshirish uchun ham ishlatilishi mumkin.

Qichitqi o'ti choyi juda ko'p afzalliklarga ega, qichitqi o'ti choyi yuzlab yillarga borib taqaladigan dorivor tarixga ega. Bu o'simlik ayollar, ayniqsa homilador ayollar uchun ko'plab muhim sog'liq uchun foydali hisoblanadi. Turli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qichitqi o'ti choyi sut ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlaydi, hayz ko'rish va qorin bo'shlig'ini kamaytiradi va menopauza belgilarini engillashtiradi. Qichitqi o'ti choyi siydik tizimining sog'lig'ini yaxshilaydi va tananing yalilg'lanishga qarshi javobini qo'llab-quvvatlaydi.

Qichitqi o't ekstrakti kukunining farmakologik ta'siri. 1. Anti-revmatoid artrit ta'siri Urtica laevisning suv va spirtli ekstraktlarining yuqori, o'rta va past konsentratsiyali guruhlari kalamushlarning birlamchi va ikkilamchi tomonlarining shishish darajasini va artrit indeksini turli darajada kamaytirishi mumkin. Bu shuni ko'rsatdiki, qichitqi o'tining keng bargli suv ekstraktining yuqori konsentratsiyali guruhi kalamushlarda revmatoid artritga eng kuchli inhibitiv ta'sir ko'rsatdi, bu ijobiy dori (*Tripterygium wilfordii*) guruhiga qaraganda yaxshiroq edi.

2. Gipoglikemik ta'sir Qichitqi o'ti urug'idan fitohemagglutinin ekstrakte qilingan va ajratilgan va streptozototsin qo'zg'atgan diabetik kalamushlarni davolash uchun ishlatilgan. Dozaj 100 mg/kg-1 edi. ), oziq-ovqat iste'moli va tana vazni (BW) pasayish tendentsiyasiga ega. Qandli diabetga chalingan kalamushlarning gistopatologik tekshiruvi ham normal holatga qaytdi.

3. Yurak-qon tomir kasalliklariga ta'siri Qichitqi

o'ti ildizining suv ekstrakti ham yurak-qon tomir kasalliklariga, ayniqsa qon tomirlarini kengaytirishga ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Qichitqi o'tining qaynatmasi sichqonlarning koagulyatsion vaqtini va qon ketish vaqtini sezilarli darajada uzaytirishi mumkin va aniq antikoagulyant ta'sirga ega bo'lib, qichitqi o'ti qon aylanishini rag'batlantiradi, og'riq va antitrombotik ta'sirga ega.

4. Yaxshi xulqli prostata giperplaziyasiga qarshi tadqiqotlar Qichitqi o'ti ekstrakti prostata bezining benign giperplaziyasiga kuchli inhibitiv ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Xorijiy mamlakatlarda *Urtica spp.*, Yevropa qichitqi o'ti, qichitqi o'ti barglari prostata bezining yaxshi giperplaziyasi, prostatit va prostata saratoni uchun ishlatiladi. Chet elda o'tkazilgan klinik tajribalarda qichitqi o'ti ildizi ekstrakti va arra palmetto mevasi ekstraktining benign prostata giperplaziyasini davolashda kombinatsiyasi simptomlarni sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

5. Boshqa ta'sirlar Evropada qichitqi o'ti o'simlik dori sifatida siydik haydovchi, biriktiruvchi, gemostatik va boshqalar sifatida ham qo'llaniladi. Qichitqi o'ti shuningdek, oksidlanishga qarshi, qarishga qarshi, mikroblarga qarshi, yaraga qarshi va hokazo funktsiyalarga ega. go'zallik uchun foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, juda ko'p qichitqi ildizi kukunining foydalari. Ko'pincha uni dorixonalarda yoki uyda ko'rishimiz mumkin. Har bir inson uni turli kasalliklarni davolash uchun ishlatishni yaxshi ko'radi, chunki bu juda keng tarqalgan. Qichitqi o't ildizining afzalliklari, uning ta'siri va undan samarali foydalanish uchun kontrendikatsiyalar haqida bilib oling

Qichitqi o't ildizining ta'siridan biri revmatizmni olib tashlashdir, u revmatizm bilan og'rigan bemorlarga juda qulaydir. Bunga qo'shimcha ravishda, u bizning og'riqlarimizni tanqidiy daqiqalarda davolay oladi. Agar uyda qariyalar revmatizm bilan og'rigan bo'lsa, siz qichitqi ildizini sinab ko'rishingiz mumkin, ta'sir juda yaxshi. Qichitqi o't ildizi ekzemani ham davolashi mumkin. Agar sizda ekzema bo'lsa, siz qichitqi ildizidan ham foydalanishingiz mumkin. Qichitqi o't ildizi juda samarali. Yuqori qon bosimi bilan og'rigan bemorlar ham bor, qichitqi o'ti ildizini sinab ko'rishlari mumkin, bu qichitqi ildizining roli juda ko'p ekanligini ko'rsatadi.

Nihoyat, qichitqi ildizining kontrendikatsiyasi quyidagilardir: bemorlar uni qabul qilishda spirtli ichimliklarni iste'mol qilmasliklari va achchiq narsalarni iste'mol qilmasliklari kerak. Qichitqi ildizini olishda ular dozaga e'tibor berishlari va ko'p ovqatlanmasliklari kerak. Qo'shimcha ma'lumot oling, shifokor yoki tegishli xodimlarning maslahatini so'rang va qichitqi ildizidan to'g'ri foydalaning, shunda biz haddan tashqari dozadan kelib chiqadigan jismoniy noqulaylikdan qochib, kasallikdan tezda xalos bo'lamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. О'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Алёхина Н.Д., Болнокин Ю.В., Гавриленко В.Ф. Физиология растений М.: «Академия». 2007. 640 с.
3. Бавтуто Г.А., Еремина В.М., Жигар М.ГТ. Атлас по анатомии растений Учеб.пособие для вузов. Минск. «Ураджай», 2001. -146 с.

4. Бекназаров Б.Д., Валиханов М.Н. Особенности активации пиррофосфатазы хлопчатника ионами магния. Физиология растений. 2006. том 53. №1.54-59 с. 5. Бекназаров Б.О., Валиханов М.Н. Свойства неорганической пиррофосфатазы хлопчатника II М. Прикладная биохимия и микробиология, 2007. том 43, №2. 172-177 с.

5. S.M.Po'latov, K.M.Mo'minov, S.E.Ganiyev – Dorivor Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) ni yetishtirish agrotexnologiyasi va samaradorligi Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 3 ISSN 2181-1784 646-652 bet.

6. S.Po'latov - "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun". Toshkent. 2023-yil. Zuxra Baraka Biznes MChJ nashriyoti.

7. В.То'xtayev, Е.Ахмедов, S.Po'latov, G'.Jumaboyev, R.Muydinov - Пряно ароматические и пряновкусные лекарственные растения. Toshkent. 2024 yil. Zuxra Baraka Biznes MChJ nashriyoti.



## МУНДАРИЖА

<b>Ж.М. Турсагатов., Ж.Н. Баратов</b> – Основные итоги и перспективы развития научных исследований по разработке методов терапии и профилактики протозоозов животных в Узбекистане .....	6
<b>S.X.Yaxshiyeva, N.B. Dilmurodov</b> – 308- Spleen morphogenesis in postnatal ontogeny of ross cross broiler chicks.....	9
<b>Sh.Z.Doniyorov, N.E.Xudaynazarova, D.I.Abdullaeva</b> – Tovuqlar stilopodiy suyaklari tarkibidagi mikroelementlar miqdorining postnatal ontogenezda o‘zgarish xususiyatlari .....	12
<b>O‘rinov Haqberdi Sadridin o‘g‘li, Kuldashv Otamurod Urazovich</b> – Golshin zotli sigirlar reproduktiv faoliyatini rag‘batlantirishda “VILOFOSS” ozuqaviy qo‘shimcha samaradorligini o‘rganish .....	15
<b>Расулов Уткир Илашович, Суюнов Рашид Уктамович, Боймуратова Хонзода, Баратов Джахангир Нурмухаммадиевич</b> – Продукт с высокой пищевой ценностью .....	18
<b>Rasulov U.I., Baxriddinov D.I., Raxmonova Sh.M., Baratov J.N.</b> – Zaharlangan hayvonot mahsulotlarini veterinariya sanitariya jihatdan tekshirish .....	20
<b>F.B.Ibragimov, V.M.Do‘skulov, R.U.Suyunov, K.Mirkasimova</b> – Asalarilar qishlovi, kelasi yil hosil garovi .....	22
<b>U.I.Rasulov, D.A.Boybutayeva</b> – Quyonlar psoroptozini davolashda preparatlarni taqqoslab o‘rganish natijalari .....	25
<b>Qo‘ldoshev O.U., O‘rinov H S., Axmedova U.S.</b> – Chorvachilik fermer xo‘jaliklarida saqlanayotgan yuqori mahsuldor sigirlarda simptomatik va alimentar bepustliklarni oldini olish va davolash .....	27
<b>Мавланов С.И., Ж.Баратов</b> – Борьбы против эктопаразитов овец .....	30
<b>Ж.Н.Баратов, доцент Н.Ж. Турабоев, А.Ғ.Ғафуров., Қ.Х.Ғойибназаров</b> – Қорамоллар тейлериозининг эпизоотологик маълумотлари, касаллик кўзгатувчиларининг биологик, морфологик хусусиятлари ва мавсумий динамикаси.....	36
<b>Ғойипова Мутабар Эргашевна, Эранов Мухиддин Марданович, Ашуров Собир Ахмеджанович</b> – Ўзбекистон Республикасида ветеринария назорати остидаги озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва хавфсизлигини таъминлашда ҳайвонларнинг оқсил касаллигини олдини олиш ва қарши кураш тадбирларининг аҳамияти .....	38
<b>Камалова А.И., Мавланов С.И., Исмоилов А.Ш.</b> – Қорақалпоқистон республикаси айрим ҳудудларида қўйлар эктопаразитларининг тарқалиши.....	42

<b>U.M. Asomiddinov, assistent, X.B. Yunusov, U.I. Rasulov, F.B. Ibragimov, F.I.Kurbanov</b> – Sapralignioz bilan zararlangan baliq go‘shini veterinariya sanitariya jixatdan baholash.....	46
<b>H.R.Zarifov, A.A.Xoliqov, A.A.Azamatov</b> – Yaylovlar sharoitida qo‘ylarning uchma o‘tlar bilan zaharlanishlari patogenezi, zararlangan qo‘y go‘shini biologik xavfsizligini ta‘minlash va zararsizlantirish choralarini ishlab chiqish.....	49
<b>Safarov Madadjon begmurog o‘g‘li, Jalilov Fazliddin Sodiqovich, Abbosov Nurali Nosirovich, Abduraimov Abbas Abduqaim o‘g‘li, Baratov Jaxongir Nurmuxammadiyevich</b> – O‘zbekiston veterinariya farmatsevtika bozorida mavjud sipermetrin dori vositasining dori shakli bo‘yicha tahlili .....	53
<b>G‘.A.Mengliyev, O.Sh.G‘oyibov</b> – Qoramollar ozuqa mikotoksikozining diagnostikasi va oldini olish .....	55
<b>Xo‘jaxonov Shoxruzxon Idirisxo‘ja o‘g‘li, Davlatov Ravshan Berdiyevich</b> – Yosh tovuqlarda kolibakteriozini oldini olishda antibiotiklarning samaradorlik ko‘rsatkichlari .....	58
<b>Alikulov Zohid Inadulla o‘g‘li, Aminjonov Sherzod Mirabosovich</b> – “ДИРОНЕТ 1000” preparatining taenia hydatigenaga tasiri .....	61
<b>Chinmurodov Jahongir To‘lqinjon o‘g‘li, Chinmurodov Akobir To‘lqinjon o‘g‘li</b> – “Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligining global va milliy muammolari hamda dolzarb vazifalari” .....	64
<b>Расулов У.И., Баратов Ж.Н., Алибоев С.К.</b> – Инвазион касалликлар натижасида ҳосил бўлган захарларнинг ҳайвон организмига таъсири.....	66
<b>А. Саидов, З. Холиков</b> – Подбор катализаторов для производства модифицированных жиров.....	68
<b>А. Саидов., З. Холиков</b> – Получение сбалансированных купажей растительных масел на основе рапсового масла.....	70
<b>A.Saidov, Z.Xoliqov</b> – Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning ustivor yo‘nalishi .....	73
<b>A.Saidov., Z.Xoliqov</b> – Kuzgi bug‘doy navlarining qimmatli belgilari .....	75
<b>A.Саидов З.Б.Холиқов</b> – Пахта поясини қайта ишлаш технологияси.....	78
<b>Ulugmuradov A.D.</b> – Hayvonlarda brutsellyoz diagnostikasining allergik usulini qo‘llash tartiblari..	81
<b>Irnazarov Shuxrat Ismatullayevich, Jo‘rayev Ruyiddin Nurali o‘g‘li</b> – Oziq-ovqat mahsulotlarini oksidlanishini oldini olishda er noki kukunidan foydalanishning ilmiy ahamiyati .....	83
<b>H.R.Zarifov, M.A.Aslova, Komiljonov Kamol Komiljonovich, Turaboyev Nurpo‘lat Jamalovich</b> – Veterinariya farmatsevtikasi sanoatida jigar kasalliklarini davolashda qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklarning farmakologik xususiyatlari .....	85

<b>Safarov Madadjon Begmurog o'g'li, Jalilov Fazliddin Sodiqovich, Abbosov Nurali Nosirovich, Abduraimov Abbas Abduqaim o'g'li, Baratov Jaxongir Nurmuxammadiyevich</b> – O'zbekiston veterinariya farmatsevtikasida ishlatiladigan sipermetrin dori vositasining kontent tahlili .....	90
<b>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Qobulova Klara Maratovna</b> – Biologik faol moddalar yordamida non va nonvoychilik mahsulotlarini boyitish.....	92
<b>Кобилова Нилуфар Худойшукуровна</b> – Исследование влияния муки из семян тыквы на физико-химические характеристики клейковины пшеничного теста .....	94
<b>Kobilova Nilufar KXudoyshukurovna</b> – Effective use of recycling products in food production and physico-chemical properties of non-drug canopla nutrition .....	97
<b>Atakulova Dilfuza Tursunovna</b> – Tok bargi tarkibidagi organik kislotalarni zamonaviy usulda tadqiq etish .....	100
<b>Atakulova Dilfuza Tursunovna, Xujamurodov Muhriddin Davron o'g'li</b> – Paxta yog'i tarkibidagi trans yog'larni ta'siri va xavflari .....	103
<b>A'zamova Zulfiya Sultanmuradovna, Nasiba Kamalova Baxtiyorovna</b> – Oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirishning zamonaviy usullari .....	106
<b>Баратов Жахонгир, Алибоев Сарвар</b> – Озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлигини таъминлаш борасида дехқон бозорларида сўт маҳсулотларининг сифатини аниқлаш.....	109
<b>Atakulova Dilfuza Tursunova, Gulimmatova Shoira Fayzulla qizi</b> – Sariyog'li mayonezning inson organizmi uchun foydali jihatlari.....	111
<b>Utaeva Guzal Nurbaevna</b> – Tovarbop donlarni qayta ishlab un tayyorlashda zamonaviy turk tegirmonlarining ahamiyati.....	114
<b>Utaeva Guzal Nurbaevna</b> – The importance of moisture in the process of transparting winter wheat.....	116
<b>Абдурахимова Азиза Уразалиевна, Бекбаева Феруза Уразалиевна, Мухторхужаева Дурдона Муталибжон кизи</b> – Применение муки топинамбура в технологии изготовления макаронных изделий.....	119
<b>Жахангир Нурмухаммадиевич Баратов, Тухтамишов Надир Сабриддин ўғли, Комилхонов Камол, Алибоев Сарвар Камол ўғли</b> – Биологическая безопасность пищевых товаров .....	123
<b>Hamzayev Kamoljon Baxtiyor o'g'li, Asqarxo'jayev Saidmuxammadzokir Saidanvarxo'ja o'g'li</b> – Itlardagi uzun naysimon suyak sinishlarini ostiosintez usulida davolash.....	126

<b>Файзулина К.Р., Зиябек Д.Б., Маликова М.Х., Сарсен А.С.</b> – Субклинический мастит у крупно-рогатого скота.....	130
<b>Суванова Фаёза Усмановна</b> – Получение майонезов с улучшенными свойствами на основе нетрадиционного местного сырья .....	133
<b>Xolmurodova Zubayda Diyorovna</b> – Non va non mahsulotlariga amarant unini qoshish orqali boyitish va toyimlilikini oshirishga erishish.....	136
<b>Xolmurodova Zubayda Diyorovna</b> – Kungaboqar, bug’doy unlari aralashmasidan sifatli va biologik qiymati yuqori bo’lgan non tayyorlash.....	139
<b>Мухаматкулов Ж.Е., Касымбекова Ш.Н., Жаманов М.Т., Тынайкул Е.Е.</b> – Профилактика эндометрита у высокопродуктивных животных.....	142
<b>Mukhametkulov Zh.E., Kasymbekova Sh.N., Zhamanov M.T., Tynaikul E.E.</b> – Prevention of endometritis in highly productive animals.....	144
<b>Atakulova Dilfuza Tursunova, Abduqaxxarov Azizbek Anvar o’g’li</b> – Noan’anaviy moyli xom ashyolarning funksional turlari va ularning ishlatilishi .....	146
<b>Sayfullayeva Mahbuba, Rayimov Hasan</b> – Buzoqlarda bronxopnevmoniya kasalligining etiologiyasi davolash va oldini olish usullari.....	148
<b>Po’latov Sarvar Mustafoyevich, Nodirova Dildora Bahodir qizi, Mustafoyeva Sevinchoy Sarvar qizi, Mustafoyeva Kibora Sarvar qizi</b> – Xashaki ko’k no‘xat yetishtirish texnologiyasi .....	151
<b>Po’latov Sarvar Mustafoyevich, Nodirova Dildora Bahodir qizi, Mustafoyeva Sevinchoy Sarvar qizi, Mustafoyeva Kibora Sarvar qizi</b> – Xashaki lyupinni yetishtirish texnologiyasi .....	154
<b>Po’latov Sarvar Mustafoyevich</b> – Datura innoxia mill.ning barg va urug‘ hosildorligiga azotli o‘g‘itlar turlari hamda me‘yorlarining ta’siri.....	156
<b>Po’latov Sarvar Mustafoyevich, Ergashev Bunyod Dilmurodovich, Xashimova Madinabonu Raxmonberdi qizi</b> – Bangidevonaning vegetativ va generativ organlari tarkibidagi alkaloidlar miqdori.....	161
<b>Po’latov Sarvar Mustafoyevich, Nodirova Dildora Bahodir qizi, Mustafoyeva Sevinchoy Sarvar qizi, Mustafoyeva Kibora Sarvar qizi</b> – Qichitqi o‘ti o‘simligining keng miqiyosda qo‘llanilishi .....	165